

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**O.K. XOJIMATOV, X.Q. HAYDAROV, D.T. XAMRAEVA,  
D.A. IMOMOVA, A.N. XUJANOV**

**O‘ZBEKISTON DORIVOR O‘SIMLIK  
ATLASI**  
*o‘quv qo‘llanma*

**Samarqand - 2021**

**UO‘K: 85.65.10**  
**KVK 00(5O‘zb) 6**  
**M 62**

**O‘zbekiston dorivor o‘simliklar atlasi. O‘quv qo‘llanma.** –  
Samarqand: SamDU nashriyoti, 2021. – 224 bet.

Mualliflar:

**Xojimatov Olimjon Kaxxarovich**, biologiya fanlari doktori, professor  
**Haydarov Xislat Qudratovich**, biologiya fanlari doktori, professor  
**Xamrayeva Dilovar Tolibjanova**, biologiya fanlari doktori, dotsent  
**Imomova Dilfuza Anorovna**, biologiya fanlari nomzodi, dotsent  
**Xujanov Alisher Nuralievich**, biologiya fanlari falsafa doktori

*Mazkur o‘quv qo‘llanmada floramizda tarqalgan dorivor o‘simliklar tasnifi, ularni ishlatilishi, xalq tabobatida qo‘llanilishi, xom ashyoni yig‘ish bo‘yicha qoidalari haqida batafsil ma‘lumotlar berilgan.*

*Shuningdek dorivor o‘simliklarni ishlatish qoidalarini, mumkin bo‘lmagan xollar to‘g‘risida, asosiy o‘simlikning xom ashyo uchun ishlatiladigan qismlari qay xolda ishlatilishi, organizmga ta‘siri to‘g‘risida umumiy ma‘lumotlar keltirilgan.*

*Ushbu o‘quv qo‘llanma “O‘zbekiston dorivor o‘simliklar atlasini” xalqimiz turli kasalliklardan dorivor o‘simliklardan qanday foydalanishi to‘g‘risida ma‘lumotlarni olishi va shifo topishi uchun xizmat qiladi.*

**Taqrizchilar:** **SamVMI professori: I.H. Hamdamov**  
**SamDU professori: X.O. Keldiyorov**

*O‘quv qo‘llanma SamDU Kengashida muxokama qilinib nashrga tavsia qilingan (30 oktyabr 2021 yil 3-sonli bayonnomasi).*

ISBN 978-9943-7267-8-9

© Xojimatov O.K., Haydarov X.Q., 2021  
© SamDU nashriyoti, 2021.

## MUQADDIMA

So‘nggi yillarda o‘simliklardan olinadigan dorivor vositalarining ommaviylashuvi tufayli mamlakatimizning barcha hududlaridan yig‘ilgan yovvoyi dorivor, oziq-ovqat va ba‘zi sanoat o‘simliklarining xom ashyosiga talabning sezilarli darajada oshishiga olib keldi. Shu bilan birga 1997 yil 26 dekabrda qabul qilingan “O‘simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to‘g‘risida” gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014 yil 20 oktyabrdagi 290-sonli «Biologik resurslardan foydalanishni tartibga solish va tabiatdan foydalanish sohasida ruxsat berish tartib-taomillaridan o‘tish tartibi to‘g‘risida»gi qarori asosida tabiatni muhofaza qilish, xususan, yovvoyi dorivor, oziq-ovqat va sanoat o‘simliklari bo‘yicha ko‘plab tadbirlar ishlab chiqilgan.

Mahalliy farmatsevtika sanoatini yanada rivojlantirish, ishlab chiqarilayotgan dori-darmonlar turlarini kengaytirish, yovvoyi o‘simliklarni tizimli yetishtirish va yig‘ish, ularni tayyorlash va qayta ishlashni tashkil etish, shirinmiyani xom ashyo sifatida eksport qilishdan manfaatdor bo‘lgan xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar uchun qulay sharoitlar yaratish, shuningdek, tadbirkorlik sub’ektlarining faoliyatining tashqi iqtisodiy aloqalarni yanada erkinlashtirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi “O‘simlik dunyosi ob’ektlaridan foydalanishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” (2015 yil 30 sentyabrdagi 278-son) qarorini ishlab chiqildi va tasdiqlandi.

Shuningdek, dorivor o‘simliklar asosida farmatsevtika mahsulotlarini ishlab chiqarishni ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida, o‘simlik xom ashyosi asosida substansiyalar ishlab chiqarishni tashkil qilishni ko‘zda tutadigan maqsadli dasturlar ishlab chiqilgan. Ushbu dastur O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015 yil 29 maydagi 142-sonli “2015-2017 yillarda Surxondaryo viloyatining sanoat salohiyatini rivojlantirish dasturi to‘g‘risida” qarori bilan tasdiqlangan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 16 sentyabrdagi “2016-2020 yillarda respublika farmatsevtika sanoatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari dasturi to‘g‘risida” gi PQ-2595-sonli qarori bilan tashqi bozorlarda talab yuqori bo‘lgan yuqori qo‘shimcha qiymatga ega tayyor farmatsevtika mahsulotlarini mineral, kimyoviy va biologik xom ashyolarini ishlab chiqarish vazifasi qo‘yildi,

shuningdek, yuqorida ko'rsatilgan vazifalar doirasida investitsiya loyihalari ro'yxati tasdiqlandi. Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 26 dekabrda "2017-2019 yillarda tayyor mahsulot turlari, butlovchi buyumlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirishning istiqbolli loyihalarini amalga oshirish davom ettirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ-2698-sonli qarori, 2016 yil 31 oktyabrda " Aholini dori-darmon vositalari va tibbiyot buyumlari bilan ta'minlashni yanada yaxshilashga doir chora-tadbirlar to'g'risida"gi №PQ-2647-sonli qarorlari asosida ulgurji, ulgurji-chakana savdo tashkilotlari va dorixonalar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni tashkil etishni ko'zda tutgan holda dorixonalar tarmog'ini maqbullashtirish, shuningdek, ularga dorivor o'simliklarni yetishtirish uchun yer uchastkalari ajratish bo'yicha takliflar kiritilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil 10 iyundagi "O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi huzuridagi O'rmon xo'jaligi bosh boshqarmasi qoshidagi O'rmon xo'jaligini rivojlantirish jamg'armasi mablag'larini shakllantirish va ulardan foydalanish tartibi to'g'risida"gi 198-sonli qarorining Nizomiga ko'ra urug'chilik, o'rmonchilik seleksiyasini rivojlantirish, maxsus onalik plantatsiyalarini yaratish, maxsus pitomniklar, issiqxonalar, shuningdek dorivor o'simliklar plantatsiyalarini tashkil qilish uchun tajriba maydonlarida ilg'or texnologiyalarni qo'llash kabi muammolarni boshqaradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 3 maydagi "Nukus-Farm", "Zomin-Farm", "Kosonsoy-Farm", "Sirdaryo-Farm", "Boysun-Farm", "Bo'stonliq-Farm" va "Parkent-Farm" erkin iqtisodiy zonalarini tashkil etish to'g'risida"gi PF-5032-sonli farmonida respublikaning farmatsevtika sanoatini rivojlantirishga yo'naltirilgan investitsiya loyihalarini amalga oshirish uchun tashqi va ichki investitsiyalarni faol jalb qilish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish, o'ziga xos o'sish sharoitini inobatga olgan holda dorivor o'simlik xom ashyosini yetishtirish orqali ichki dori bozorini yuqori sifatli mahalliy ishlab chiqarilgan dorilar bilan to'ldirish, uni chuqur qayta ishlashni tashkil etish va yuqori qo'shimcha qiymatga ega farmatsevtika mahsulotlarini ishlab chiqarish, shuningdek, Qoraqalpog'iston Respublikasi, Jizzax, Namangan, Sirdaryo, Surxondaryo va Toshkent viloyatlarining ishlab chiqarish va resurs salohiyatidan kompleks va samarali foydalanish, shu asosda yangi ish o'rinlarini yaratish va

respublika aholisining daromadlarini oshirish bo'yicha qator chora-tadbirlar ko'zda tutilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 14 fevraldagi "Farmatsevtika tarmog'ini jadal rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3532-sonli qarori bilan respublikada farmatsevtika sanoatini davlat boshqaruvi tizimi qayta ko'rib chiqilib, O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi huzurida Farmatsevtika sanoatini rivojlantirish agentligi tashkil etildi. Bundan tashqari, farmatsevtika sohasining jadal rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlarni ta'minlash maqsadida "Yo'l xaritasi" qabul qilinib, iqlim sharoiti, yerning xususiyatlari va boshqalarni hisobga olgan holda dori vositalari uchun xom ashyoni yetishtirish uchun qulay sharoitga ega bo'lgan hududlarning hammabop xaritalarini shakllantirish, O'zbekiston Respublikasi hududlar kesimida turli tuproq-iqlim sharoitida yetishtirish tavsiya etilgan dorivor o'simliklar ro'yxatini tasdiqlash, asosiy maqsadi yangi dorivor vositalar va dori shakllarini yaratishning kompleks yondashuvini ishlab chiqish va amalga oshirish uchun farmatsevtika sanoati uchun yangi texnologiyalar va mahsulotlarni yaratish dasturini ishlab chiqish, substansiya, djenerik va tibbiyot vositalarini olish texnologiyalarini ishlab chiqish, zarur o'zgartirishlar kiritish maqsadida farmatsevtika sohasida yangi texnologiyalar va mahsulotlarni yaratish dasturi doirasida ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarishni doimiy ravishda nazorat qilish va xom ashyo eksportini ichki farmatsevtika sanoatida ishlab chiqarishga yo'naltirish orqali asta-sekin pasaytirish kabilar ko'zda tutilgan.

Bundan tashqari, ushbu sohaning dolzarbligi, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 10 apreldagi «O'zbekiston Respublikasida an'anaviy tibbiyotni rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-4668-sonli va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 10 apreldagi «Yovvoyi holda o'suvchi dorivor o'simliklarni muhofaza qilish, madaniy holda yetishtirish, qayta ishlash va mavjud resurslardan oqilona foydalanish chora-tadbirlari to'g'risida» PQ-4670-sonli qarorlari bilan ta'kidlangan.

O'zbekistonda dorivor o'simliklarni yig'ishning uzoq tarixi va mavjud adabiyotlariga qaramay, ushbu yo'nalishda oddiy xom ashyo yig'uvchi va tayyorlovchilar uchun dorivor, oziq-ovqat va texnik xom ashyolarni yig'ish va quritishning zamonaviy barqaror usullari to'g'risida ma'lumotlar nihoyatda kam. Ushbu usullar nafaqat tejamkor

yig'ish usullarini tavsiya etishi, yuqori sifatli xom ashyo olishni ta'minlashi lozim, balki dorivor o'simliklarning tabiiy zaxiralarini saqlash va qayta tiklanishini ham ta'minlashi kerak.

Mavjud ma'lumotlarni tahlil qilish ko'plab dorivor o'simliklarni quritishning optimal rejimlarini aniqlash va xom ashyo yig'imidan keyin zich o'sish maydonlarini tiklanish darajasini o'rganish bo'yicha keng qamrovli tadqiqot dasturini tashkil etish zarurligini ko'rsatdi. Ushbu yo'nalish bo'yicha kerakli tajriba ma'lumotlari yo'qligi sababli tavsiyalar faqat yaqin turlarga o'xshashligi bo'yicha berilgan. Ushbu to'planning talab qilingan ko'rsatmalariga binoan dorivor o'simlik xom ashyosini yig'ish qoidalariga amal qilish tabiatni muhofaza qilish va xom ashyo tayyorlovchi tashkilotlarining davlat inspektorlari tomonidan, davlat o'rmon fondi hududida esa O'zbekiston Respublikasi O'rmon xo'jaligi davlat qo'mitasi tomonidan nazorat qilinishi kerak.

Xom ashyoni tayyorlash ushbu to'plamda keltirilgan ko'rsatmalarga qat'iy muvofiq ravishda amalga oshirilishi va topshirilgan xom ashyo amaldagi me'yoriy-texnik hujjatlar talablariga javob berishi kerak. Ushbu atlasda O'zbekistondagi yovvoyi holda o'sadigan asosiy kvota beriladigan dorivor o'simliklar taqdim etilgan. Ma'lumotlar bazasida yovvoyi dorivor o'simliklarni yig'ish, quritish va ulardan oqilona foydalanish bo'yicha ba'zi ko'rsatmalar mavjud.

Umid qilamizki, O'zbekistonda dorivor o'simliklarning mazkur atlasini yaratish yovvoyi dorivor va texnik o'simliklari uchun xom ashyo sifatini yaxshilashga yordam beradi va shu bilan birga xom ashyo yig'uvchi va tayyorlovchilarning e'tiborini mamlakatimiz tabiiy o'simlik resurslaridan oqilona foydalanish va muhofaza qilishga qaratadi.

**Bo'ymodaron - *Achillea millefolium* L.**  
(Тысячелистник обыкновенный)



**O'simlik tasnifi:** Bo'ymodaron Asteraceae oilasiga mansub ko'p yillik o'simlik, ildizlari o'rmalovchi, simsimon shaklda. Poyasi tik turuvchi, balandligi 20-80 sm, mayin tuklar bilan qoplangan. Barg yaproqlari lansetsimon, cho'zinchoq, uzunligi 3-15 sm, eni 0,5-3 sm, pastki qismida nuqtali bezchalari bor, ikki yoki uch karra patsimon bo'lingan, asosiga biroz yetmaydi, ko'p sonli (15-30) bir-biridan

sezilarli uzoqroq joylashgan birlamchi bo'laklari bor, ular 9-15 ta tishsimon bo'lakchalarga ega. Gul savatchalari poyaning yuqori qismidagi qalqonchalarda to'planadi. Tilsimon gullari 5 ta, rangi oq, kamdan kam hollarda pushti rangda bo'ladi. Urug'lari (pistacha) yassi, cho'zinchoq kumushsimon-kulrang, uzunligi 1,5-2 mm. Iyun oyidan yozning oxirigacha gullaydi: urug'lari iyul-sentyabrda pishib yetiladi. Tibbiyotda o'simlikning yer usti qismi (o'simlik o'tlari va gullari) ishlatiladi.




**O'sish joyi va tarqalishi:** Bo'ymodaron O'zbekistonning barcha

hududlarida uchraydi. Ko'pincha tog' oldi etaklaridan to o'rta tog' mintaqasigacha tarqalgan. Dala chetlarida, yo'l bo'ylarida, o'rmonlarda o'sadi; ba'zan tashlandiq yerlarda zich o'sish maydonlarini hosil qiladi. O'simlik soyaga sezgir bo'ladi.

## Xom ashyoni yig'ish va uning sifati:

Bo'yodaron o'simligining ikki qismidan, ya'ni o'simlik o'ti va gullaridan xom ashyo yig'iladi. O'simlikni gullash davrida (iyun oyidan to avgust oyining birinchi yarmigacha) 15 sm uzunlikda poyalarining tepa qismi yig'iladi.



Gullaridan xom ashyo yig'ilganda alohida savatchalari yoki 2 sm dan katta bo'lmagan holda qalqon to'pgul bilan poyalari kesib olinadi. O'simlikni ildizi bilan butunligicha sug'urib olish mumkin emas; bu zich o'sadigan maydonlar yo'q qilinishiga olib keladi. Yig'imni to'g'ri olib borilganda bir maydondan bir necha yil xom ashyo olish mumkin, so'ngra ushbu maydonga 1-2 yil davomida «dam» beriladi. Davlat farmakopiyasi talablariga binoan «Bo'yodaron» xom ashyosi poya qoldiqlari 15 sm dan oshmagan qalqoncha to'pgullardan iborat. Xom ashyoda alohida savatchalar ham uchraydi. Hidi xushbo'y, o'ziga xos, achchiq ta'mli.

**Raqamli ko'rsatkichlari:** Namlik 13% dan, umumiy kul 15% dan, 10% xlorid kislotasida erimaydigan kul miqdori 3% dan, diametri teshiklari 1 mm bo'lgan elakdan o'tgan maydalangan qismlari 3% dan, 3 mm dan qalin poyalari 3% dan, organik aralashmalar (boshqa zaharli bo'lmagan o'simlik qoldiqlari) 0,5% dan, mineral aralashmalar (tuproq, qum, toshchalar) 1% dan oshmasligi kerak. Xom ashyo ayvonlar ostida yoki 50<sup>0</sup>S haroratda quritgichlarda quritiladi. Tayyor xom ashyo 50 kg hajmdagi qoplarga qadoqlanadi. Quruq va salqin joylarda havo yaxshi aylanadigan tokchalarda saqlanadi. Yaroqlilik muddati 2 yil. XI DF talablariga binoan «Bo'yodaron gullari» xom ashyosi: qalqoncha to'pgullarni bandi bilan uzunligi 4 sm gacha bo'lgan bo'laklari (gul savatchalarining asosidan hisoblaganda) va cho'zinchoq-tuxumsimon shakldagi uzunligi 3-5 mm, eni 1,5-3 mm bo'lgan alohida gul savatchalaridan iborat.



**Kimyoviy tarkibi:** Bo‘ymodaron barglari va gullari tarkibida azulenlar, murakkab efirlar, kamfora, tuyol, sineol, kariofillen, chumoli, sirka va izovalerian kislotalarini o‘z ichiga olgan efir moyi kiradi. O‘simlik tarkibida taninlar, qatronlar, achchiqliklar, vitaminlar, alkaloidga o‘xshash axillien va boshqa moddalari mavjud.

**Tibbiyotda qo‘llanilishi:** Bo‘ymodaron o‘ti yallig‘lanishga qarshi va bakteritsid ta‘sirga ega. Ular oshqozon-ichak traktining turli kasalliklari, oshqozon yarasi va gastrit uchun damlama va qaynatma shaklida qo‘llaniladi. Bu oshqozon va ishtaha ochuvchi choylarning tarkibiga kiradi. Bo‘ymodaronning qichitqio‘t o‘simligi bilan birga preparati ichki va tashqi qon ketishida qon to‘xtatuvchi va tinchlantiruvchi vosita sifatida buyuriladi.

**Igir- *Acorus calamus* L.**  
(Аир обыкновенный)



**O‘simlik tavsifi:** Igir – bu Acoraceae oilasiga mansub ko‘p yillik o‘t, balandligi 60-120 sm ga yetadi, gorizontaal, egri-bugri ildizpoyali, (uzunligi 1,5 m gacha va qalinligi 3 sm gacha) ko‘p sonli oq chilvirsimon qo‘shimcha ildizlarga ega. Ildizpoya barg qinining qoldiqlari bilan qoplangan, sarg‘ish-yashil, deyarli qo‘ng‘irrang, ichki qismi

pushti tusli oq rangga ega. Barglari ketma-ket joylashgan, ikki qatorli, yorqin yashil rangda, ildizpoyaning shoxlangan asosida tutam bo‘lib joylashgan. Barglar va ayniqsa ildizpoyalar kuchli yoqimli hidga ega. To‘pgul etdor, uchki, silindsimon-konusli, yon tomonga burilgan so‘tasi 4-12 sm uzunlikda. Gullari mayda, yashil-sarg‘ish, ikki jinsli. Mevasi – cho‘zinchoq, ko‘p urug‘li rezavor meva. Juda kamdan-kam gullaydi, may oyining oxiridan iyul oyigacha. Tibbiyotda ig‘irning ildizpoyalari qo‘llaniladi.

### **O'sish joyiva tarqalishi:**

O'zbekistonda igir invaziv tur bo'lib, Samarqand viloyati hududida, Zarafshon daryosining o'zanlarida uchraydi. Igir bu qirg'oq-suvli o'simlik. U turg'un va asta-sekin oqayotgan suvlardagi balchiqli va allyuvial tuproqlarda, daryolar, anhorlar, ko'llar, havzalarning qiyalama qirg'oqlarida, botqoqli joylarda




o'sadi. Daryolar va suv havzalaridagi suv sathining yoki tuproq namligining o'zgarishi ig'ir chakalaklarining tez yo'qolishiga olib keladi. Atrof muhitning gidrologik rejimining o'zgarishiga bunday ta'sirchanligi sababli ig'ir odatda suv havzalari bo'ylab 5-7 m kengligida lentaga o'xshash chakalaklarni hosil qiladi Uning sof chakalaklarining maydoni bir necha o'nlab kvadrat metrdan oshmaydi. Hozirgi vaqtda ig'ir sof chakalaklari kam uchraydi, chunki bu o'simlik

xom ashyosi yig'iladigan ob'ekt hisoblanadi.

Bunday xom ashyosining yig'ilishi oqibatida sof chakalaklar o'rniga aralash chakalaklar hosil bo'ladi, keyinchalik ig'ir qamish va boshqa o'simliklar

tomonidan siqib chiqariladi.



**Xom ashyoni yig'ish va uning sifati:** Igir ildizpoyalari yozda va kuzda (iyundan sentyabrgacha) botqoqlar qurib, suv sathi tushganda yig'ib olinadi. Shu bilan birga igir ildizpoyalari qazib olinadi, ba'zida esa plug yordamida yig'ishtiriladi; nam joylarda ularni xaskash bilan tortib olinadi. Yig'ilgan va tozalangan ildizpoyalar ochiq havoda quritiladi, keyin 20-30 sm uzunlikdagi bo'laklarga bo'linadi va 30-35°C

dan yuqori bo‘lmagan haroratda yaxshi havo aylanadigan xonalarda quritiladi. Igir ildizlarini yig‘ishda xom ashyo bazasini tiklash uchun kamida 3 yil kerakligini hisobga olish kerak. Shuning uchun ildizlarni tanlab qazib olish kerak, har bir chakalakdagi o‘simlik novdalarining 30 foizidan ko‘p bo‘lmagani yig‘ib olinadi. Hozirda mavjud talablarga muvofiq igir xom ashyosi 20-30 sm uzunlikdagi va 1-2 sm qalinlikdagi ildizpoyalarning bo‘laklaridan iborat, tashqi tomondan ular sarg‘ish-qo‘ng‘irrang, siniq joylarida sariq tusli oq va oq-pushti rangga ega. Hidi o‘ziga xos, xushbo‘y; ta‘mi xush ta‘mli-achchiqdir. Namlik 14% dan oshmasligi kerak. Tozalangan xom ashyoning tarkibida siniq joylari qo‘ng‘ir ranglisi 5% dan, ildizlar va barglarning qoldiqlari bo‘lgan ildizpoyalari 1% dan, uzunligi 2 sm dan kam bo‘lgan ildizpoyalari 2% dan, mineral aralashmalar (tuproq, qum, toshlar) 1% dan oshmasligi kerak. Tozalangan ildizpoyalarda efir moyining miqdori 1,5% dan kam bo‘lmasligi kerak. Xom ashyoning yaroqlilik muddati – 3 yil. Uni qog‘oz bilan qoplangan yog‘och qutilarda saqlanadi.

**Kimyoviy tarkibi:** Igir ildizpoyalari tarkibida pinen (1%), kamfin (7%), kalamen (10%), kamfora (8,7%), akaron, izoakaron, asaron, proazulenlardan tashkil topgan efir moylari (4,85% gacha) va boshqalar mavjud. Ildizpoyalarda achchiq glikozid akorin, taninlar, alkaloid kalamen va askorbin kislotasi mavjud. Igir o‘ti kraxmalga boy (20% gacha), tarkibida xolin, shiralar, lutsenin glikozidi mavjud.

**Tibbiyotda qo‘llanilishi:** Igir ildizpoyalardan tayyorlangan preparatlar surunkali gastrit, oshqozon va o‘n ikki barmoqli ichak yaralarini davolashda keng qo‘llaniladi, ayniqsa, oshqozon suyuqligining past kislotaliligi, axiliya, kelib chiqishi turli xil diareya va boshqa oshqozon kasalliklarida ishlatiladi. Kamroq hollarda o‘simlik preparatlari xoletsistit, kelib chiqishi turli bo‘lgan gepatit va buyraktoshi kasalliklari uchun ishlatiladi. Igir ildizpoyalarining kukuni oshqozon yarasi va o‘n ikki barmoqli ichak yaralarini davolashda ishlatiladigan «Vikalin» va «Vikair» preparatlarining tarkibiy qismlaridan biri sifatida kiritilgan.

**Ildizpoyalarning damlamasi:** 10 g (2 osh qoshiq) xom ashyo sirlangan idishga solinadi va 200 ml (1 stakan) issiq qaynatilgan suv quyiladi, qopqoq bilan yopiladi va 15 daqiqa davomida qaynab turgan suvda (suv hammomida) isitiladi, keyin 45 daqiqa sovutiladi, suzgichdan o‘tkazilib, qolgan massa siqib chiqariladi. Olingan damlama qaynatilgan suv bilan 200 ml hajmgacha suyultiriladi. Ovqatdan 30 daqiqa oldin kuniga 3-4 marta 1/3 chashka iliq holda ichiladi. Salqin

joyda 2 kungacha saqlanadi. Quyida an'anaviy tibbiyotda igir ildizpoyalarini qo'llash bo'yicha bir nechta retseptlar keltirilgan: Angina uchun chayish shaklida igir damlamasi va eritmalari buyuriladi. U balg'am ko'chiruvchi, yallig'lanishga qarshi va dezinfeksiyalash ta'siriga ega. Agar igir ildizpoyasini kuniga 5-6 marta kichik bo'lagi chaynalsa, uni 15-20 daqiqa davomida og'izga solib qo'yilsa, olti oy ichida tomoq og'rig'idan xalos bo'lish mumkin. Igir ildizpoyasi va eman po'stlog'ini qo'shib anginani davolashda turli xil aralashmalar tayyorlash mumkin. Shuningdek, anginani oldini olish uchun ildizpoyasini chaynash ham foydalidir. Igir tish og'rig'ini davolashda eng yaxshi vosita hisoblanadi. Igirning ildizpoyasidan tayyorlangan damlama ichiladi yoki u bilan og'iz chayiladi. Agar tish og'riydigan bo'lsa, milklarga ig'ir damlamasini surtish kerak va og'riq tez o'tib ketadi. Igir kasal bo'lgan tishga chuqur kiradi va ildiziga og'riq qoldiruvchi ta'sir ko'rsatadi.


**Qo'llash mumkin bo'lmagan holatlar:** Igirni har qanday qon ketishlarida ishlatmaslik kerak, gipotonik bemorlarga umuman tavsiya etilmaydi. Oshqozon suyuqligining kislotaligi oshganda u qabul qilinmaydi. Agar shunga qaramay, igirdan tayyorlangan preparatni qo'llash kerak bo'lsa, uning tarkibiga xlorid kislotasini ishlab chiqarishini kamaytiradigan o'simliklarni kiritish kerak. Oshqozon yarasining o'tkir davrida igir ichish tavsiya etilmaydi. Bundan tashqari, homilador ayollar uchun qo'llash mumkin emas. Shuni esda tutish kerakki, tabiiy dori vositalaridan me'yoriy darajada foydalanish kerak. Agar igirning dozalari ko'paytirilsa, bu qusishga olib keladi.

**Kapalak qo'nmas - *Ajuga turkestanica* (Regel) Briq.**  
(Живучка туркестанская)



**O'simlik tavsifi:**  
Lamiaceae oilasiga mansub ko'p yillik yarim buta, jingalak tuklangan, kulrang, quritilganda biroz qorayadi. Bir yillik novdalari oqish, deyarli yumaloq, bir oz shoxlangan, barglari qo'ltig'idan chiqqan

shoxlari qisqargan, zich bargli, bo'yi 10-40 sm. Barglar teskari-lansetsimon yoki teskari chiziqli-lansetsimon, kamroq teskari cho'zinchoq yoki cho'zinchoq, asosida uzun va asta-sekin torayadi, deyarli o'troq,



butun, to'mtoqlashgan yoki to'mtoq, gulyonbargi qisqaroq toraygan. Gullari barg qo'ltig'ida yakka, ko'pincha pastki qismidan, uzunligi 4-(8) mm bo'lgan gul bandchalarda joylashgan. Kosachabarglari qo'ng'iroqsimon, uzunligi 12-20 mm bo'lgan, ingichka tomirlari bo'lgan jingalak tuklangan, yaproqsimon chiziqli-lansetsimon to'mtoqli tishlari bor, kosachabargning naychasiga teng yoki 1,5 baravar kattaroq. Gultojibarglari pushti-siyohrang, tomirlari qoramtir, ba'zan naychadan kaltaroq, yon uchburchak va o'rtasida kuchli cho'zilgan, chuqur teskari yuraksimon, asosida sariq rangli bo'laklari bor. Yong'oqchalar zaytunjigarrang, to'rsimon-tomirlangan, uzunlashgan cho'zinchoq, uzunligi 7 mm. May-iyun oylarida gullaydi, may oyining oxiridan boshlab mevalaydi.

**O'sish joyi. Tarqalishi:** U O'zbekistonning Surxondaryo viloyati tog' oldi va o'rta tog' mintaqalarida ola jinsli tuproqlar, loyli va tosh qiyaliklarida o'sadi.

**Xom ashyoni yig'ish va uning sifati:** Kapalak qo'nmasning xom ashyosi odatda iyul oyining boshlarida janubiy hududlarda ommaviy gullash sodir bo'lganda yig'iladi. Bu vaqtda faqat novdalarning gullagan bargli tepa qismi kesiladi. Kechroq yig'ish muddatlarida biologik faol moddalarning tarkibi va shu tarzda xom ashyoning sifati pasayadi. Yig'ib olingan o'simlik o't xavo yaxshi aylanadigan chordoqlarda yoki ayvon ostida quritilib, qalinligi 5-7 sm bo'lgan qog'ozga yoki matoga yoyilib, vaqti-vaqti bilan aylantiriladi. Xom ashyo 35°C gacha qizdirilgan havo bilan majburiy shamollatiladigan maxsus quritgichlarda ancha tez quriydi. Butun o'simlik o'ti sof og'irligi 5-15 kg bo'lgan, maydalangani esa 10-30 kg

og'irlikdagi qoplarga solinadi. Qadoqlashdan oldin xom ashyoga qo'shimcha ravishda ishlov beriladi: maydalanadi va dag'al novdalar elaklarda olib tashlanadi. Quruq, yaxshi havo aylanadigan joylarda saqlanadi. Yaroqlilik muddati 2 yilgacha. Xom ashyo qisman ezilgan barglari va to'pgullari bo'lgan poyaning yuqori qismidan (uzunligi 20 sm gacha) iborat.

**Kimyoviy tarkibi:** Yer osti qismida fitoekdizonlar mavjud: ayugalakton, ekdisteron, siasteron, turkesteron, ayugosteron V 0,003%. Fitoekdizonlardan yer usti qismida: ekdisteron, siasteron uchraydi. Barglarida fitoekdizonlar ham mavjud: ekdisteron, ayugalakton, ayugosteron V, 22-atsetilsiaasteron va siasteron.

**Tibbiyotda qo'llanilishi:** «Jisten» – bu O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining O'simlik moddalari kimyosi institutida Kapalak qo'nmasdan ajratilgan moddalar asosida yaratilgan suvli-spirтли konsentratidir. Christian Dior bilan ishbilarmonlik aloqalarida bo'lgan Fransiyaning «Latoksan» kompaniyasi unga qiziqish bildirgan. Biroq so'nggi yillarda Kapalak qo'nmasning yovvoyi zich o'sadigan maydonlarini kuchli ekspluatatsiyasi tufayli tabiiy populyasiyalari ayanchli holatda katta zarar ko'rgan. Shularni inobatga olgan holda ushbu qimmatbaho, endemik turning xom ashyosini yig'ishni biroz vaqt ta'qiqlash va uni yetishtirish bo'yicha ishlarni olib borish tavsiya etildi.

**Etmak, bex - *Allochrusa gypsophiloides* Regel**  
(Колючелистник качимовидный)




**O'simlik tavsifi:** Etmak (bex) – *Allochrusa gypsophiloides* (Regel) Schischk. Caryophyllaceae oilasiga mansub ko'p yillik o'simlik. Poyasi kuchli shoxlangan, qisqa tuklangan yoki silliq. Poyalarining ko'p sonli shoxlanishi tufayli o'simlik sharsimon shaklga ega, balandligi va diametri deyarli bir xil 70-80 sm ga yetadi. Barglari qarama-qarshi bo'lib, uzunligi 3 sm gacha va eni 0,5 sm gacha, tekis, deyarli chiziqli yoki chiziqli-lansetsimon, uchi

oʻtkirlashgan. Gulyonbarglar qarama-qarshi, bigizsimon, silliq, kosachabarglardan 2-3 baravar kaltaroq. Gullari poyalar va novdalarning uchki qismida boʻsh, ayrisimon-shoxlangan, keng roʻvak toʻpgullarda joylashgan. Toʻpgulning har bir ayri qismidagi oʻrta gullari deyarli oʻtroq, qolgan 2 tasi uzun ipsimon gulbandli. Kosachabarglari besh bargli, silindrsimon, silliq, uzunligi 2 mm ga yaqin; 5 ta pushti gultojibarglardan iborat, tugunchasi bir uyali, changchilari 10 ta. Mevasi – yaxshi ochilmaydigan, pardasimon, 1-2 urugʻli kosachabarglari saqlangan koʻsakdan iborat. Urugʻlari och jigarrang, deyarli sharsimon, yon tomonlaridan biroz yassilangan, avgust oyining boshlarida pishadi, ammo kuzgacha toʻkilmaydi. Ildizi oʻq ildiz, baʼzan urchuqsimon, buralgan, uzunligi 2 m gacha va undan ortiq, vazni 12 kg gacha. Oʻq ildizidan bir nechta marta shoxlangan yon ildizlar tarqaladi. Etmak ildizlari qazib olingandan keyin qayta tiklanish qobiliyatiga ega emas, shuning uchun xom ashyo yigʻilgandan soʻng bu oʻsimlikning tabiiy zich oʻsish maydonlari qayta tiklanmaydi.

### Oʻsish joyi

#### va tarqalishi:

Etmak faqat Oʻrta Osiyo togʻlarida quyi togʻ mintaqasidan oʻrta togʻ mintaqasigacha uchraydi. Janubda u Hisor tizmasida tarqalgan. Sharqiy chegara Gʻarbiy Tiyon-Shon boʻylab, gʻarbiy chegara esa togʻli Turkmaniston



boʻylab oʻtadi. Etmakning zich oʻsgan maydonlari asosan efemer oʻsimliklari, vegetatsiyasi uzoq davom etuvchi chuqur ildizli koʻp yillik oʻsimliklar va yarim butalar jamoalarida, quyi togʻ va oʻrta togʻ mintaqalarida oʻtloq-dasht va daraxt-buta oʻsimliklari orasida uchraydi. Yerni haydash va bu oʻsimlikning ildizlarini ommaviy yigʻish natijasida etmakning tabiiy zich oʻsgan maydonlari qisqargan.

Oʻzbekistonda xom ashyosini sanoat miqyosida tayyorlash joylari quyidagilar: Toshkent viloyatining (Pskent, Oʻrtachirchiq,

Ohangaron, Yuqorichirchiq, Parkent va Bo'stonliq tumanlari), Farg'ona vodiysi (Kosonsoy, To'raqo'rg'on, Chust, Pop va Namangan atroflari), Samarqand, Pastdarg'om tumanlari) va Jizzax viloyatlarining tog' oldi zonasi (G'alla-Orol, Jizzax, Qoraqishloq xududlari) – Sangzor daryosi havzasida va unga qo'shni hududlar, Qashqadaryo va Surxondaryo daryolari havzalarining adir zonasi (Ko'kbuloq, Boysun, Qamashi, Dehqonobod, Yakkabog', Chiroqchi, Kitob va Miraki qishloqlari atrofida), Surxondaryo viloyatining Boysun tumanidagi tog'lari (Kuxitang tog'i) uchraydi. Saponin miqdori ildizlarni o'lchamiga deyarli bog'liq emas.

**Xom ashyoni yig'ish va uning sifati:** Ildizlarni yig'ish qisqa vaqt ichida amalga oshirilishi va aprel oyining ikkinchi yarmida boshlanishi kerak. Xom ashyoni tayyorlashning maqbul muddatlari-may oyining ikkinchi yarmi – iyun oyining boshi hisoblanadi. Qazib olingan ildizlar tuproqdan tozalanadi, poyalarning qoldiqlari kesilib, quyoshda quritiladi.

Yomg'irli ob-havo sharoitida quritish soyabon ostida amalga oshiriladi. Quritishdan oldin ildizlarni bo'laklarga ajratish shart emas. Ildizni 40-50<sup>0</sup>C haroratda qizdirish yo'li bilan sun'iy quritish mumkin. Tayyor xom ashyo GOST 3448-78 talablariga javob berishi kerak. Ular og'ir, qattiq, silindrsimon ildiz bo'laklari bo'lib, tuproqdan va ingichka yon ildizlardan tozalangan, asosan spiralsimon buralgan, yuzasi burishib bir tekis bo'lmagan, ko'p sonli mayda ko'ndalang chuqurliklar bilan qoplangan (ingichka halqasimon chiziqlar shaklida), yon ildizlari olib tashlangan joyda chuqur bo'ylama egatchalari va yumaloq chandiqli yoriqlari bo'ladi.

Ildiz singan joyi notekis, tashqi tomondan rangi och qo'ng'irrang, ichi sarg'ish, oq tomirlari bor. Hidsiz, ta'mi biroz kuydiruvchi, qo'zg'atuvchi. Etmak xom ashyosining birinchi va ikkinchi navlari



uchun raqamli ko'rsatkichlar: ildizlarning uzunligi kamida 5 sm, qalinligi kamida 2 sm bo'lishi kerak. 1-nav ildizlari uchun 5 sm dan kam bo'lmagan uzunlikdagi ildizlarning bo'laklari 2% dan, ingichka



ildizlari (qalinligi 2 sm dan kam bo‘lmagan) 3% dan, kukun qilib maydalangan ildizlari 1% dan, yumshaygan ildizlari 2% dan; boshqa o‘simliklarning ildizlari 1% dan, tuproq, qum, toshchalar 1% dan oshmasligi va chirigan, chetlari qoraygan yoki mog‘orlagan ildizlari bo‘lmasligi kerak. 2-nav ildizlari uchun 5 sm dan kam bo‘lmagan uzunlikdagi ildizlarning bo‘laklari 20% dan, ingichka ildizlari (qalinligi 2 sm dan kam bo‘lmagan) 20% dan, kukun qilib maydalangan ildizlari 3% dan, yumshaygan ildizlari 5% dan, chirigan, chetlari qoraygan yoki mog‘orlagan ildizlari 1% dan, boshqa o‘simliklarning ildizlari 2% dan, tuproq, qum, toshchalarning 1,5% dan oshmasligi kerak. Birinchi va ikkinchi nav ildizlari uchun asosiy namlik 13% ni tashkil etadi, cheklangan namlik 13% dan oshmasligi kerak. Tayyor xom ashyo 40 kg li mato va qog‘oz qoplarga joylashtiriladi.

**Kimyoviy tarkibi:** Ildizlarda 10-30% triterpen saponinlari mavjud bo‘lib, ulardan gipsogenin, akantofillazid V va akantofillazid S glikozidlari ajratib olingan. O‘simlikning yer usti qismlarida ham ko‘plab saponinlar mavjud. Mahalliy aholi ko‘pincha ildizidan «nishollo» shirinligini tayyorlashda foydalaniladi – go‘yoki qalin ko‘pikli oq suyuqlik insonga quvvat beruvchi vosita deb hisoblaniladi.

**Tibbiyotda qo‘llanilishi:** Etmak xom ashyosi (bex) oziq-ovqat, farmatsevtika, qurilish, mo‘ynachilik, to‘qimachilik, bo‘yoq va parfyumeriya sanoatida qo‘llaniladi. Xalq tabobatida ildiz damlamasi bronxit va boshqa nafas yo‘llari kasalliklarini balg‘am ko‘chiruvchi sifatida, o‘t haydovchi, siydik haydovchi, ich suruvchi vosita sifatida qo‘llaniladi (1 choy qoshiq maydalangan ildiz ustiga bir stakan sovutilgan qaynatilgan suv quyiladi, 8-10 soat damlanadi va kun davomida ichiladi).

Etmak qaynatmasi sovun kabi ko‘piklanganligi sababli o‘simlik kundalik hayotda «sovunli ildiz» deb nomlanadi. Ba’zida oshqozon-ichak, teri (piodermiya, ekzema, furunkullarda, tangasimon lishayda), siydik-tanosil va taloq, jigar, buyrak kasalliklarida va moddalar almashinuvi buzilganda ildizlari choy sifatida damlanib ichiladi. O‘simlikning yer usti qismining damlamasi ich suruvchi va balg‘am ko‘chiruvchi vosita sifatida ishlatiladi. Biroq so‘nggi yillarda etmakning zich o‘sgan maydonlari sezilarli darajada qisqarganligi bu turni O‘zbekiston Respublikasining Qizil kitobiga kiritish uchun asos bo‘lgan.

O‘zbekiston farmatsevtika va oziq-ovqat sanoatini ushbu qimmatbaho turning xom ashyosiga bo‘lgan ehtiyojini qondirish uchun

uni madaniylashtirish zarur, shu munosabat bilan ekish agrotexnikasining samarali usullarini ishlab chiqish lozim.

**Gulxayri - *Althaea armeniaca* Ten.**  
(Алтей армянский)




**O‘simlik tavsifi:** Malvaceae oilasiga mansub ko‘p yillik o‘t. Poyasi tik o‘sovchi, oddiy yoki kam shoxlangan, mayin yulduzsimon tukli, balandligi 70-150 sm. Barglari tuxumsimon, pastki qismi odatda uchburchak-yuraksimon shakliga ega, chetki qismi tartibsiz qo‘ng‘urali-tishsimon, ba’zida bir oz 3-5 bo‘lakli, zich mayin tukli, kul rang-yashil, bandli, yuqori barglari qisqa bandli. Gullar barglar qo‘ltig‘ida tutam bo‘lib joylashgan, juda qisqa gulbandli, zich mayin tukli. Ostki kosacha Gulyonbarglari (8)-9-(10) qo‘shilib o‘sgan, tuxumsimon cho‘zilgan, zich mayin tukli, uchli

bargchalardan tashkil topgan, kosachabarglarga nisbatan qisqaroq. Kosachabarglari tuxumsimon, tepaga qarab uzayib uchli, zich mayin tukli, pastki qismida qo‘shilib o‘sgan. Gultojibarglari och yoki yorqin pushti, ba’zan oq tusli, kosachaga qaraganda 1,5-2 baravar uzunroq, gultojibarglar uchburchak-teskari yuraksimon. Urug‘lari orqa tomonda silliq yoki juda oz burishgan, yulduzsimon-mayin tukli, chetki qismida to‘mtoq, soni 15-18. Iyun-avgust oylarida gullaydi, iyul-sentyabr oylarida mevalaydi.

**O‘sish joyi va tarqalishi:** Gulxayri past o‘tli yarim savannalar va butazorlar jamoalarida o‘sadi, odatda tashlandiq joylarda, begona o‘t sifatida bedazorlar, bog‘lar, daryolar va ariqlar bo‘ylab 500-900 m balandlikda uchraydi. To‘qay o‘simliklari, shuningdek, nam joylarda begona o‘t sifatida tarqalgan. Toshkent, Samarqand va Farg‘ona viloyatlarida tarqalgan.

## Xom ashyoni yig'ish va uning sifati:

Gulxayri ildizlari va ildizpoyalari bahorgi o'sishidan oldin aprel – may oyining birinchi yarmida yoki kuzda (sentyabr-oktyabrda) o'simlikning yer usti qismi noud bo'lgandan keyin yig'iladi. Gulxayri



urug'lar, kamdan-kam vegetativ va ko'chatlar bilan ko'payadi. Gulxayri urug'ini ekish erta bahorda yoki kech kuzda amalga oshiriladi. Gulxayri ildizlari va yer ustki qismi vegetatsiya davrining ikkinchi va uchinchi yillarida yig'ib olinadi. Ildizlari erta bahorda yoki kuzda yig'iladi. Yer ustki qismini vegetatsiyasining ikkinchi yilida amalga oshiriladi.

Tuproq yuzasidan 20-30 sm balandlikda o'rilgan o'tlarni uyumlarda, keyin soyabon ostida quritiladi, qalinligi 50 sm dan oshmaydigan qatlamga yoyiladi. Gulxayrining tozalangan ildizlari silindrsimon shaklga ega yoki uzunligi bo'yicha 2-4 qismga bo'linib, uchki qismi biroz toraygan. Bo'laklarning qalinligi 0,5-1,5 (2) sm, uzunligi 35 sm gacha. Kesilgan xom ashyolar 3 dan 8 mm gacha bo'lgan o'lchamdagi turli xil bo'laklardan iborat. Xom ashyoning namligi 14% dan oshmasligi kerak, umumiy kuli 7% dan, shu jumladan 10% xlorid kislotada erimaydigan kuli 0,5% dan, yog'ochlashgan ildiz qismi 3% dan, po'kak qismidan yaxshi tozalanmagan ildizlar 3% dan, organik aralashmalar (boshqa zaharli bo'lmagan o'simliklarning qismlari) 0,5% dan, mineral aralashmalar(tuproq, qum, toshlar) 0,5% gacha oshmasligi kerak. Quruq, yaxshi havo aylanadigan xonalarda xom ashyoni saqlash kerak. Ildizlari gigroskopik va oson namlanadi. Yaroqlilik muddati – 3 yil. Gullash boshida yig'ilgan madaniylashtirilgan gulxayrining quritilgan o'ti dorivor gulxayri kabi qisman to'kiladigan, to'liq yoki singan barglari va gullardan iborat.

Raqamli ko'rsatkichlar: polisaxaridlarning tarkibi kamida 5%, tiklanuvchi shakarlar kamida 2%, namlik 13% dan, umumiy kul 18% dan, poyalari 60% dan, mevalar 10% dan, organik aralashmalar (boshqa

zaharli bo‘lmagan o‘simliklarning qismlari) 1,5% dan oshmasligi kerak. Yaroqlilik muddati – 5 yil.

**Quritish:** Xom-ashyo yupqa bir qatlamda yoyilib, namlikdan himoyalaniishi kerak, aks holda u qorayadi, mog‘orlaydi. Quritish harorati 45-60<sup>0</sup>C. Quritishni tugatish ildizlarning mo‘rtligi bilan belgilanadi. Xom ashyoning quruq massasi 23-26% ni tashkil qiladi.

**Tashqi belgilari:** Davlat standarti va XI DF ga ko‘ra, ildizlar qalinligi 2 sm gacha bo‘lgan po‘kaklardan tozalangan, turli uzunlikdagi, yuzadan lub tolalari ajralib chiqqan bo‘laklardan iborat. Siniq joylarida xom ashyo changiydi (kraxmal). Rangi sarg‘ish kulrang. Hidi kuchsiz, ta‘mi shirin shilimshiqsimon. Quruq ekstrakti va siropini tayyorlash uchun tozalanmagan ildizlar uchun FS mavjud. Yog‘ochlashgan qismlarning aralashmada bo‘lishi xom ashyo sifatini pasaytiradi. Xom ashyoning haqiqiyliigi morfologik xususiyatlar, mikrokimyoviy reaksiyalar va mikroskopiya bilan tasdiqlanadi. Mikroskop ostida ildiz kukunida tolalar, kalsiy oksalat tuzlari, nay tolalari, kraxmal donalari ko‘rinadi. FS ma‘lumotlariga ko‘ra, o‘simlik yog‘ochlashmagan, yumaloqsimon, kulrang-yashil, baxmalsimon, qalinligi 8 mm dan oshmaydigan poyalarga ega. Hidi kuchsiz, ta‘mi ozgina shilimshiqsimon. Yaroqlilik muddati 1 yil.

**Kimyoviy tarkibi:** Quruq ildizlarda 35% gacha shilimshiqsimon moddalar bor, ularning asosiy tarkibini polisaxaridalar tashkil etadi – pentozanlar va geksozanlar, gidroliz qilinganda pentoza, galaktoza va dekstrozaga ajraladi. Ildiz tarkibida bundan tashqari 37% kraxmal, 2% gacha l-asparagin, 8% saxaroza, 11-16% pektin, 1,7% yog‘li moylar, betain, karotin, fitosterinlar, mineral moddalar, uron kislotasi, mineral tuzlar bo‘ladi.

**Saqlash:** Faqat quruq joyda, gigroskopiklik belgisi bo‘lgan qop yoki toylarga solingan holda saqlanadi. Yaroqlilik muddati – 3 yil.

**Tavsiya etilgan xavfsizlik choralari:** O‘simlik o‘shish maydonlari qisqarganligi uchun yig‘ish jarayonidan keyin urug‘lar kovlangan ildizlarning o‘rniga sepiladi, unib chiqqan tuplardan ba‘zilari urug‘ olish uchun qoldiriladi. Yosh o‘simlik tuplari himoya qilinadi.

**Farmakologik xususiyatlari:** Gulxayri yallig‘lanishga qarshi, o‘rab oluvchi, balg‘am ko‘chiruvchi, yo‘talga qarshi ta‘sirga ega. Gulxayrining shifobaxsh xususiyatlari polisaxaridlarning ko‘pligi bilan bog‘liq, ularni suvli damlamada shishishi kuzatiladi, hajmi oshishi va shilliq pardalar va terini ingichka qatlam bilan qoplashi mumkin. Bu qatlam shilliq pardalarni zararli omillardan (sovuq yoki quruq havo;

oziq-ovqat tarkibiy qismining bezovta qiluvchi ta'siri, qurishi) himoya qiladi.

Bundan tashqari, shilliq-polisaxarid kompleksi zararlangan epiteliy hujayralari tomonidan chiqariladigan mikroob, virusli va toksik mahsulotlarni adsorbsiya qiladi, aktivligini yo'qotadi, toksinlarning shilliq qavat bilan o'zaro bog'lanishini oldini oladi. Bunday shilliq qavat ostida yallig'lanish jarayonining faolligi pasayadi, zich hujayralar va qobiqlar yumshatiladi, eroziya va yaralar tezroq bitadi. Gulxayri preparatlari mukolitik xususiyatlarga ega.

**Dorivor mahsulotlari:** Gulxayri ildizi bu shilimshiqsimon sovuq suvda damlama shaklida, quruq ekstrakt, sirop, yo'talga qarshi to'plam sifatida ishlatiladi. Dorivor gulxayri o'simligining yer ustki qismidan ajratib olingan uglevodlar aralashmasidan «Mukaltin» nomli dorivor preparat olinadi.

**Tibbiyotda qo'llanilishi:** Arman gulxayri ildizi tashqi ko'rinishida dorivor gulxayri ildiziga o'xshaydi, ammo sinq joylarda ko'proq tolali bo'lishi bilan ajralib turadi. Ushbu turning ildizlari dorivor gulxayri ildizidan ajratilgan biologik faol moddalarni saqlaydi.

Gulayri nafas olish va ovqat hazm qilish organlarining kasalliklarida yallig'lanishga qarshi va o'rab oluvchi vosita sifatida ishlatiladi. Gulxayri suvli damlamasi ichga qabul qilinadi, nafas olish yo'llari va tomoq yallig'lanish kasalliklarida balg'amni ko'chirishda, tonzillit, traxeit, stomatit, gingivit, glossit kasalliklarida damlama bilan tomoq chayiladi.

Gulxayri preparatlari yo'talni kamaytiradi, o'tkir va surunkali bronxit, pnevmoniya, bronxoektatit, tuberkulyoz, emfizema, o'tkir respirator kasalliklarida balg'am ko'chirishini osonlashtiradi. Gulxayri ildizi ezofagit, gastrit, oshqozon yarasi va o'n ikki barmoqli ichak yarasi, enterokolit, oziq-ovqat toksikoinfeksiyalari va dizenteriya bilan birga yordamchi vosita sifatida ishlatiladi. O'tkir oshqozon-ichak kasalliklarida, ayniqsa, diareya bilan kechadigan kasalliklarda, ko'p miqdorda kraxmal saqlovchi shilimshiqli gulxayri damlamasi nafaqat davolovchi, balki oziqa vositasi sifatida ham qo'llaniladi. Rentgenologik amaliyotida oshqozon-ichak trakti shilliq qavatining relefini yaxshiroq aniqlash uchun gulxayri ildizining ekstraktiga bariy kukuniga qo'shiladi. Metabolizmni normallashtirish uchun gulxayri damlamasi ekzema, psoriaz, neyrodermatit, dermatit uchun buyuriladi. Tashqi tomondan, gulxayri ildizi damlamasi dokaga shimdirilib, yumshatuvchi sifatida ishlatiladi.

**1-sonli ko'krak qafasi kasalliklariga yig'ma:** gulxayri ildizlari va oqqaldirmoq barglari 2 qism, tog'rayxoni 1 qismdan olinadi. Damlamani 1 osh qoshiq yig'madan 200 ml suvda tayyorlanadi. Issiq holda kuniga 3-4 maxal 1/2 stakandan ichiladi.

**2-sonli ko'krak qafasi kasalliklariga yig'ma:** gulxayri ildizlari 1 qism, shirinmiya ildizlari 1 qism, andiz ildizlari 1 qismdan olinadi. 200 ml suvda yig'maning 2 choy qoshig'idan damlama tayyorlanadi. Har 3 soatda iliq holatda 1/2 stakandan ichiladi. Gul va barglarning qaynatmasini ayollar sochlari uchun ishlatadi, chunki bu qaynatma sochlarning o'sishini yaxshilaydi va mustaxkamlaydi.

## MA'LUMO

### **Bodom - *Prunus amygdalus* Batsch** (Миндаль обыкновенный)

**O'simlik tavsifi:** Bodom Rosaceae oilasiga mansub 6-10 m balandlikdagi daraxt. Novdalari silliq qizil-jigarrang po'stlog'i bilan, eski shoxlarning po'stlog'i kulrang-qo'ng'irrang, deyarli qora rangga




ega.

Yonbargchalar bigizsimon, mayda, erta to'kiladigan. Barglari ketma-ket, qisqargan shoxlarda, tutam bo'lib joylashgan, bandli, uzunligi 4-6 sm, silliq, lansetsimon yoki cho'zinchoq-ellipssimon.

Barglardan oldin gullaydigan gullari yakka bo'lib, o'tgan yilgi novdalarda rivojlanadi; tojibarglari oq yoki och pushti rangga ega.

Mevalari 3-3,5 sm uzunlikdagi, qiyshaygan yoki cho'zinchoqtuxumsimon quruq danak. Bodom fevral-aprel oylarida gullaydi, mevalari iyul-avgust oylarida yetiladi. Tibbiy amaliyotda bodom yong'oqlari ishlatiladi. Emulsiya va bodom moyi shirin bodom urug'idan olinadi, achchiq bodom urug'i esa achchiq bodom suvini tayyorlash uchun ishlatiladi.

**O'sish joyi va tarqalishi:** Respublikada yovvoyi holda o'sadigan bodomning bir necha turlari mavjud. Bir turi sanoat ahamiyatiga ega – oddiy bodom. Yovvoyi holda u G'arbiy Tiyon-Shonning katta maydonlarida o'sadi. Bodom qadimdan, asosan, O'rta Osiyo respublikalarida yetishtirilgan. Bodom issiqsevar, ammo erta gullaydigan turlari – 20°C dan past sovuqqa va qobiq bilan o'ralgan kurtaklari – 32-



35°C dan past haroratga ham chidamli. Ko'plab mevali ekinlar bilan taqqoslaganda, bodom yorug'likka talabchan, ammo tuproq tipi va uning unumdorligi nisbatan ahamiyatli emas. U shag'alli, loyli tuproqlarda, qoratuproqda, shuningdek, ma'lum darajada ohak bo'lgan tuproqlarda, lekin yer osti suvlari 2-3 m ga yaqin bo'lmagan va yaxshi drenajli joylarda yaxshi o'sadi va mevalaydi.

Bodom tuproqni aeratsiyasiga juda talabchan. U g'ovak, quruq, yengil tuproqlarni afzal ko'radi. Uni tog' qiyaliklarida ekish tavsiya qilinadi. Bodom daraxtining ikki – yeb bo'lmaydigan achchiq mevali va yeyish mumkin bo'lgan shirin mevali xillari ajratiladi. Achchiq bodom asosan unga shirin turini payvandlash va achchiq bodom yog'ini olish uchun ishlatiladi. Bodom asosan payvandlash yo'li bilan odatda kurtaklash orqali ko'paytiriladi. Buning uchun material noyabr-yanvar oylarida urug'larni stratifikatsiyasiz ekish orqali olinadi. Kuzda oktyabr oxiridan boshlab ko'chatlarni ekish tavsiya qilinadi.

**Xom ashyoni yig'ish va uning sifati:** Yig'ilgan, tozalangan va saralangan yong'oqlar 3-4 kun davomida quyoshda quritiladi. Buning uchun ular bir qatlam qilib yog'och tovoqlar ustiga yoyiladi, har kuni aralastiriladi. Quritilgan yong'oqlar havo yaxshi aylanadigan quruq xonada, omborlarda qutilarda va dorixonalarda bankalarda yoki tunika idishlarda saqlanadi. Shirin bodom urug'lari yoqimli, shirin, moyli ta'mi bo'lib, hidga ega emas. Ular butun, singan joyi oq rangda, taxir mazasiz va hidsiz bo'lishi kerak. To'yingan sulfat kislotasi bilan aralashmadagi qizil rangi va urug'larini suv bilan maydalanganda benzaldegidning o'ziga xos hidga ega achchiq bodom bo'lmasligi kerak.

**Kimyoviy tarkibi:** Bodom urug'ining asosiy tarkibiy qismlari yog'li moy (24-69%) va xom protein (14,7-35,0%) bo'lib, urug' massasining 80-90 foizini tashkil qiladi. Urug'ida yog'dan tashqari amigdalin glikozidi, gematin, B vitamini uchraydi. Bodom urug'ining oqsil tarkibi uchta tarkibdan iborat: albumin, globulinlar va glyuteolinlar. Bodom oqsillarida o'simlik oqsillarida mavjud bo'lgan barcha aminokislotalar mavjud.

**Tibbiyotda qo'llanilishi:** Shirin bodom urug'i emulsiyasi va achchiq bodom urug'idan olingan achchiq bodom suvi oshqozon va ichakdagi og'riqlarga ishlatiladi. Bodom yog'i tashqi tomondan terini yumshatish uchun, ichga ichilganda yumshoq ich suruvchi sifatida ishlatiladi. Urug'ning kunjarasi (bodom kepagi) kosmetikada yuzning terisini yumshatish va tozalash vositasi sifatida ishlatiladi. Farmatsevtika amaliyotida bodom yog'i suyuq moylar uchun asos va emulgator sifatida ishlatiladi. Shirin bodomning mevalari xalq tabobatida gastrit, oshqozon va o'n ikki barmoqli ichak yaralarini davolashda keng qo'llaniladi. Bodom yong'og'ining qobig'idan gaz yutuvchi ko'mir tayyorlanadi.

Achchiq bodom urug'lari zaharli hisoblanadi. Uning zaharli ta'siri tarkibidagi amigdalin glikozidiga bog'liq. Zaharlangan insonda ko'p so'lak oqishi, ko'ngil aynishi, qusish, bosh og'rig'i, nafas qisilishi, pulsning sekinlashishi, qorachiqning kengayishi, umumiy holsizlik, tortishish, og'ir holatlarda – o'lim bilan yakunlanadigan nafas to'xtashi kuzatiladi.



**Itsigak** – *Anabasis aphylla* L.  
(Ежовник безлистный)



O‘simlik tavsifi: *Anabasis aphylla* L. – Amaranthaceae oilasiga mansub sersuv yassilangan-sharsimon yarim buta, balandligi 25-70 sm. Ildizpoyasi qalin, qiyyashgan, yog‘ochlashgan, undan kuchli o‘q ildiz tizimi boshlanib, o‘q ildizi tuproqqa yer osti suvlari joylashgan (5-20 m) chuqurlikka kirib boradi. Poyasi ko‘p sonli, pastki qismida yog‘ochlashgan, shoxlangan. Barglari deyarli

rivojlanmagan, deyarli ko‘rinmaydigan, xlorofili yo‘q. Gullari mayda, ko‘zga ko‘rinmaydigan, ikki jinsli, yakka, gulyonbarglarga ega, zich boshhoqsimon to‘pgullarni hosil qiladi.

Gulqo‘rg‘oni oddiy, odatda kosachasimon, 5 ta erkin bargchalardan iborat. Changchilari – 5 ta. Urug‘chi yuqorigi bir chanoqli tugunchadan iborat, uchki zich boshhoqsimon to‘pgulda joylashgan. Mevalari ancha suvli, yumaloq, yon tomonlaridan yassilashgan, qanotli etli meva qobig‘i bor.

**O‘shish joyi va tarqalishi:** U Toshkent, Andijon, Farg‘ona va Samarqand tumanlarida hamda Qoraqalpog‘iston hududida yarim cho‘l va cho‘l hududlarida va quyi tog‘ etaklarida o‘sadi.

**Ishlatiladigan qismlari:** o‘simlikning yer usti qismi (o‘t).




## Xom ashyoni

### yig'ish va uning

### sifati:

Yer usti qismlari (o't) dorivor va texnik xom ashyo sifatida ishlatiladi, ular alkaloid (insektitsid) olish manbai bo'lib xizmat qiladi. Xom ashyo anabazin ko'proq to'planganda yoz va kuz oylari davomida



(iyun-sentyabr oylari) yig'ib olinadi. U yig'ish joylarida kichik g'aramlarda quritiladi, keyin maydalanadi va begona aralashmalardan tozalani. O'simlik juda zaharli, shuning uchun xom ashyoni yig'ish va boshqa ishlarda ehtiyot choralarini ko'rish kerak. Poyaning quritilgan usti qismlari zaharli o'simliklarni saqlash qoidalariga muvofiq – germetik yopilgan shisha idishlarda, qulflangan maxsus shkaflarda saqlanadi. Quruq xom ashyoning yaroqlilik muddati 2 yil. Itsigek juda qimmatli o'simlik va uni xom ashyosini yig'ish juda muhimdir. Itsigek zaxiralarining kamayib ketishining oldini olish uchun olimlar tomonidan yovvoyi zich o'sadigan maydonlarning bir qismini sanoat plantatsiyalariga madaniylashtirish taklif qilingan.

**Kimyoviy tarkibi:** O'simlikning yer usti qismida 2-4% (12% gacha) alkaloidlar mavjud: anabazin, afillin, afillidin, lupinin va boshqalar. Asosiy alkaloid – anabazin asoslarning yig'indisi 60% dan kam emas. Bargsiz anabazis tarkibida organik kislotalar ham bor (26% gacha): oksalat (17% gacha), limon (0,8% gacha), uglevodlar 25% gacha, pektin moddolari – 20% gacha. O'simlik kulga juda boy (20% gacha), tarkibida 14% kaliy, 16% natriy va ko'plab noyob metallar mavjud.

**Farmakologik xususiyatlari:** Anabazin kimyoviy jihatdan  $\alpha$ -piperidil-  $\beta$ -piperidin moddasi tashkil qiladi. Farmakologik jihatdan u nikotin, sitsin va lobelinga yaqin, ya'ni ganglionar zahar hisoblanadi. Anabazinning fizik-kimyoviy, ham farmakologik, ham toksik xususiyatlari nikotinga o'xshaydi. U asab tizimga kuchli ta'sir qiluvchi zahar bo'lib, birinchi navbatda vegetativ nerv tizimining gangliylariga (tugunlari), markaziy asab tizimiga, xususan, nafas olish

va harakatlanish markazlariga ikki fazali ta'sir ko'rsatadi: oldin, u qisqa vaqt davomida qo'zg'atadi, keyin ularga salbiy ta'sir ko'rsatadi va falaj qiladi. Toksikligi jihatidan anabazin nikotindan deyarli kam emas – bu zahardan 2-3 tomchisi (nikotin ham, anabazin ham suyuq alkaloidlar) insonni o'limga olib keladi. Dorivor vosita bo'lmasa ham ular, ayniqsa, anabazin sulfatning 40% eritmasi qishloq xo'jaligi va o'rmon xo'jaligida o'simliklarning turli zararkunandalariga qarshi kurashishda keng qo'llaniladi. Tanadagi anabazin nikotin kabi tirik to'qimalarning bir xil biokimyoviy tuzilmalari bilan aloqaga kiradi, ular faoliyatni to'xtatib, o'rnini egallaydi. Shunday xususiyatlarga nafas olishning analeptiklari – sitizin va lobelin alkaloidlarga ega. Shuning uchun terapevtik va profilaktika amaliyotida ushbu dorilar anabazin gidroxloridi singari (0,003 g tabletkalar) chekishni tashlashni yengillashtirish uchun buyuriladi. Anabazinni 1929 yilda akademik A.P.Orexov kashf etgan. Unga bog'liq bir qator boshqa alkaloidlar va uning hosilalari ham bor. A.S.Sodiqov, X.A.Aslanov va Y.K.Kushmuradov keltirishicha, *Anabasis aphylla* L. – anabazin sulfat ishlab chiqarish uchun sanoat xom ashyosi bo'lib, bu qimmatli insektitsidning tarkibi sulfatlar aralashmasi bo'lgan kamida 9 ta yangi alkaloidlardan iborat va ularning 6 tasi xinolizidin guruhiga kiradi. Anabazin bilan kamroq toksik alkaloidlar: afillin, afillidin, lupinin va boshqalar mavjud. A.S.Sodiqov tomonidan 1941 yilda olingan afillin gidroxlorid birinchi bo'lib Samarqand davlat tibbiyot institutining farmakologiya kafedrasida I.E.Akopov va V.A.Konovalova tomonidan farmakologik tekshiruvdan o'tkazildi. Ular ushbu preparatning lokal anestetik xususiyatlarini aniqlab, uning ta'sir qilish darajasi va davomiyligi novokain xloridnikidan yuqori bo'lib, klinik jihatdan tasdiqlashgan. Afsuski, preparatni sanoat ishlab chiqarishini yo'lga qo'yish va sog'liqni saqlash amaliyotiga joriy etishning iloji bo'lmagan. Itsigekning davolovchi xususiyatlaridan xalq tabobatida foydalanish o'simlikning yuqori toksikligi tufayli cheklangan. O'rta Osiyoda o'pka sili uchun itsigek ildizidan tayyorlangan damlama ishlatiladi, jarohat va yaralarga poya kukuni sepiladi. An'anaviy tabiblar yuqumli kasalliklar, qon tomirlari spazmlari, jigar kasalliklari, yaxshi bitmaydigan yaralar va jarohatlar uchun itsigekdan, shuningdek, chekishga moyillikni pasaytirish va alkogolizmni davolashda foydalanishadi. Bundan tashqari, itsigek poyasi kukuni demodekoz uchun samarali xalq davosi bo'lib, kasallik alomatlarini yumshatish va kana sonini kamaytirish uchun ishlatiladi. Demodekoz bilan ta'sirlangan teri joylari kuniga bir

necha marta itsigek aroq damlamasi bilan artiladi va damlamasi yuzga ho‘llanma sifatida ishlatiladi. 2 kundan keyin yaxshilanish alomatlari kuzatiladi va demodekozdan to‘liq davolanish 2-3 haftadan so‘ng kuzatiladi. Ko‘pincha itsigek kanalarga qarshi boshqa vositalar bilan birgalikda qo‘llaniladi. Shuni bilish kerakki, itsigekga asoslangan davolovchi vositalarni bir soat ichida yuvish kerak, aks holda terini kuydirishi mumkin. Demodekozni xalq vositalari bilan davolashda quyidagi shartlarga rioya qilish kerak: 1. Kanalarni intensiv ko‘payishini keltirib chiqargan qo‘shma kasalliklarni aniqlash uchun demodekozning laboratoriya tahlillari va organizmni umumiy tekshiruvini o‘tkazish kerak, shuningdek, davolovchi shifokorning maslahati ham zarur bo‘ladi. 2. Xalq vositalari bilan davolanish rasmiy tibbiyot dori vositalari bilan davolash kabi kompleks tarzda amalga oshirilishi kerak, ya‘ni to‘g‘ri kunlik rejimga, parhezga, yomon odatlardan voz kechishga harakat qilish kerak.

**Qariqiz - *Arctium tomentosum* Mill.**  
(Лопух войлочный)



**O‘simlik tavsifi:**

Asteraceae oilasiga mansub, balandligi 60-180 sm bo‘lgan yirik ikki yillik o‘t o‘simlik. Ildizi etli, o‘q ildiz, kam shoxlangan, uzunligi 60 sm gacha; poyasi tik turuvchi, egiluvchan, chiziq-chiziqli, mayin tukli. Barglari bandli, keng yurak-tuxumsimon, tishsimon. Pastki barglari yirik

(uzunligi 50 sm gacha, eni biroz kamroq). Gullari qalqoncha yoki qalqonsimon ro‘vak shaklida joylashgan sharsimon savatchalarga yig‘ilgan. Gullari naysimon, ikki jinsli, gultojibarglari binafsha-qizg‘ish rangli, kosachabarglari popukli. Mevasi cho‘zinchoq, silliq, qirrali, dog‘li, 5-7 mm uzunlikdagi popukli pistachalar. Iyul – avgust oylarida gullaydi, mevalari avgust – sentyabrda pishadi.

**O'sish joyi va tarqalishi:** Yovvoyi joylarda, yashash joylari atrofida o'sadi. Toshkent va Farg'ona viloyatlarida uchraydi.


**Xom ashyoni yig'ish va uning sifati:** Qariqiz ildizi, barglari va yuqori qismlari tibbiy maqsadlarda ishlatiladi. Ildizlari

birinchi yilning kuz oylarida yoki ikkinchi yilning bahorida (barglar paydo bo'lishidan oldin) yig'ib olinadi. Qariqiz o'simligining 1 yoshli ildizlari eng yaxshi ko'rsatkichlarga ega. Barglari va yer usti qismi gullash davrida yig'ib olinadi. Xom ashyo ayvonlar ostida yoki ozgina qizitilgan duxovka yoki pechda quritiladi. Yig'ilgan xom ashyoning yaroqlilik muddati 2-3 yil.

**Kimyoviy tarkibi:** Ildizida inulin polisaxaridi (45% gacha), oqsillar (12% dan yuqori), efir moyi (0,17% gacha), yog'ga o'xshash moddalar (0,82%), palmitin, stearin kislotalari va  $C_{26}H_{54}$  uglevodorodi, shuningdek, sitosterin va stigmasterin mavjud; urug'larida – gidroliz qilinganda arktigenin  $C_{21}H_{24}O_6$  va glyukozaga ajraladigan arktin glikozidi  $C_{27}H_{34}O_{11}$  mavjud; linoleik (58,5%) va olein (19,1%) kislotalarining glitseridlaridan tashkil topgan yog'li moyi bor (20% gacha). Barglarda taninlar, shilimshiq va taxminan 0,03% efir moyi mavjud.

**Farmakologik xususiyatlari va qo'llanilishi:** Turli xil mualliflarning fikriga ko'ra, qariqiz o'simligi mikroblarga qarshi faollikka ega, bezgakka qarshi (isitma tushiruvchi) ta'sirga ega va shamollashda qo'llaniladi, oshqozon yarasi, jigar kasalliklarida, bavosil, siydik tosh kasalliklarida, bod kasalligida, ko'karishlar, yaralar, bosh og'rig'ida (peshonada kompress shaklida) mahalliy vosita sifatida ishlatiladi. Qariqiz preparatlarning antitoksik ta'siriga oid ma'lumotlar mavjud (hasharotlar va ilonlarning chaqishida, simob preparatlari bilan zaharlanish va boshqalar).

**O'simlik ildizidan olinadigan preparatlar:** Ilmiy tibbiyotda o'simlik ildizlaridan olingan preparatlar siydik haydovchi vosita sifatida



ishlatiladi. Ildizlarining bodom yoki zaytun moyidagi damlamasi qariqiz moyi deb ataladi va tashqi tomondan sochni mustahkamlash uchun ishlatiladi. Xalq tabobatida qariqiz ildizi bod va podagra kasalliklarida, siydik haydovchi va terlatuvchi vosita sifatida, shuningdek, tashqi tomondan teri kasalliklari – ekzema, husnbuzar va furunkulyozni davolashda uchun tavsiya etiladi. Qaynatma tayyorlash uchun 2 osh qoshiq maydalangan ildizi olinadi, bir stakan qaynoq suv quyiladi, past haroratda 30 daqiqa qaynatib olinadi, sovitib suzgichdan o'tkaziladi va kuniga 3-4 marta bir osh qoshiqdan ichiladi.

**Qabul qilinishi:** Og'iz bo'shlig'i, tomoq, yuqori nafas yo'llari va oshqozon-ichak trakti shilliq qavatining yallig'lanishi uchun ishlatiladi. Shuningdek, qariqiz jinsiy organlar kasalliklari, jigar toshi, trofik yaralarni davolashda, tasmaimon chuvalchanglar bo'lganda ishlatiladi. Barg shirasidan teri saratonini davolashda ishlatiladi. Terining qichishi va soch to'kilishida, ildizlarining qaynatmasidan foydalaniladi. Oqqaldirmoq barglari bilan yangi qariqiz barglari birgalikda ko'krak qafasiga mastitda qo'yiladi. Sutda qaynatilgan barglari yaralar, abscess, chipqonda qo'llaniladi. Teri saratoni uchun to'pgul qaynatmasi, ildizlarining aroqdagi nastoykasi ishlatiladi. Ildizlarning damlamasi bavoil, teri sili, bo'g'im o'smalari, siydik-tanosil kasalliklari, so'gallar, bezgakda ishlatiladi. Qaynatmani tayyorlash uchun 20 g meva ustiga bir stakan qaynoq suv quyiladi, qaynatishgacha olib boriladi, soviguncha tindiriladi va kuniga 3-4 marta bir osh qoshiqdan ichiladi. Qariqiz ildizidan malham tayyorlash uchun ildiz qaynatmasining 1 qismi olinadi, yarmigacha quyuqlashtiriladi va hayvon yog'ining 1 qismi bilan aralashtiriladi. Qariqiz barglaridan malham tayyorlash uchun 20 g dan quritilgan qariqiz barglari, romashka gullari, *Asarum europaeum* ildizi, ivan-choy o'ti olinadi, 4 stakan qaynoq suv quyiladi, 15-20 daqiqa davomida qaynatib olinadi, suzgichdan o'tkaziladi va 1:1 nisbatda bir qoshiq sariyog' va glitserin qo'shiladi. Qariqiz ildizining terlatuvchi ta'siri juda kuchli va shuning uchun u isitma tushiruvchi, bezgakga karshi vosita sifatida ishlatiladi. Xitoyda qariqiz ildizi va barglari jinsiy a'zolar shilliq qavatining yallig'lanishi, zaxmni davolashda, zaharlanishda, ilon va hasharotlar chaqqanda ishlatiladi. Damlamani tayyorlash uchun bir stakan qaynoq suvga bir osh qoshiq quruq qariqiz barglarini olib, damlanadi, suzgichdan o'tkaziladi va ovqatdan bir soat o'tgach 1 qoshiqdan ichiladi. Qariqiz yangi barglari kuyish, shilinish, kesilgan yaralar va yallig'langan teri joylariga qo'llaniladi. Malhamni tayyorlash uchun 75

g yangi maydalangan ildiz va 200 g kungaboqar yog‘i olinadi. 15 daqiqa davomida past haroratda qaynatiladi. Koreyada qariqiz urug‘idan foydalaniladi. Koreyalik tadqiqotchilarning ta‘kidlashicha, urug‘larda 30% gacha yog‘li moy, B guruhining vitaminlari mavjud. Urug‘lar tomoq, tonzillit, pnevmoniya, skarlatina, qizamiq, shamollash, parotit, shish kabi kasalliklarda ishlatiladi. Kuniga 16 g ichish tavsiya etiladi. Urug‘larning qaynatmasi boshqa o‘simliklar bilan birga buyuriladi. Urug‘lardan hapdorilar tayyorlanadi – teng nisbatda qariqiz va baqato‘n urug‘lari olinadi, ular kukun shaklida maydalanadi, asal qo‘shiladi. Nefrit kasalligida kuniga uch marta 5 g dan ichiladi. Urug‘ sharbati ishtahani ochish va umumiy zaiflikda ichiladi. Belorussiyada bavosil va buyrak kasalligi uchun ildizi suvda qaynatiladi. Sutdagi ildizning damlamasi diatezda ichish uchun buyuriladi. Qariqiz ildizi qirg‘ichdan o‘tkaziladi, cho‘chqa yog‘i bilan aralashtiriladi va boshidagi toshmada va ekzemada surtiladi. Yuqori haroratda bemorni ustini yangi qariqiz barglari bilan o‘rab qo‘yiladi.

**Tayyorlash va foydalanish usullari:** 1. Bir osh qoshiq o‘simlikning ezilgan ildizlari ustiga 2 stakan qaynoq suv bilan quyiladi, 2 soat davomida damlanadi, suzgichdan o‘tkaziladi. Kuniga 3 marta yarim stakandan ichiladi.

2. Bir osh qoshiq barg ustiga bir stakan qaynoq suv quyiladi, 1-2 soatdan keyin suzgichdan o‘tkaziladi va ovqatdan keyin har yarim yoki 1 soatda 1 osh qoshiqdan ichiladi.

3. Xuddi shu damlamalar, shuningdek, barglari terining shikastlangan (kuyish, kesilgan yara, shilinish) yoki yallig‘langan joyini ustiga qo‘yiladi. Yangi barglar bo‘lmasa, quritilgan barglardan foydalaniladi, lekin ishlatishdan oldin ularni iliq suvga solish kerak.

4. Qariqizning maydalangan yangi ildizlari (75 g) iliq joyda 200 g kungaboqar yog‘ida tindiriladi, keyin sekin olovda 15 daqiqa davomida qaynatiladi va suzgichdan o‘tkaziladi. Ushbu damlama mahalliy vosita sifatida ishlatiladi.

5. Qariqiz barglari yoki ildizlarining suvli damlamalari og‘iz va tomoqni chayish uchun ham ishlatiladi.

Qariqiz ildizidan sabzi, kashnich, pasternak o‘rnini bosadigan ajoyib sabzavot sifatida foydalanish mumkin. Qariqiz ildizini xom holda, qaynatib va qovurib iste‘mol qilish mumkin, bundan tashqari non ham tayyorlanadi. Yaponiyada u uzoq vaqtdan beri «gobo» deb nomlangan sabzavot o‘simligi sifatida o‘stiriladi, u tomorqalarda va sanoat plantatsiyalarida etishtiriladi. Hozirgi vaqtda qariqiz Belgiya,

Fransiya, Xitoy va AQSH da sabzavot o‘simligi sifatida yetishtiriladi. Qariqiz ildizi kuzning oxirida, o‘shining birinchi yilida, ildizi suvli va to‘yimli bo‘lganda, katta sabzi o‘lchamiga yetganda yig‘ib olinishi kerak. Qariqizning tozalangan barg bandlaridan sho‘rvalarda ishlatiladi, ular tarkibida S vitamini juda ko‘p miqdorda bo‘ladi.

Undan tayyorlangan ovqatlar diabet, ekzema va boshqa teri kasalliklariga chalingan insonlarga foydali. Qariqiz yog‘i (zaytun yoki bodom yog‘idagi ildizning 10% li ekstrakti) soch o‘shini kuchaytirish uchun ishlatilgan. Ushbu yog‘ quruq seboreya, soch to‘kilishi, dermatit uchun yaxshi vosita hisoblanadi.

**Ermon - *Artemisia absinthium* L.**  
(Полынь горькая)



**O‘simlik tavsifi:** Ermon Asteraceae oilasiga mansub, balandligi 60-100 sm bo‘lgan ko‘p yillik o‘simlik. Ildiz tizimi o‘q ildizli bo‘lib, tuproqqa vertikal kirgan yo‘g‘onlashgan asosiy ildizdan iborat. Hayotining birinchi yilida ildiz bo‘g‘zida qo‘shimcha kurtaklari hosil bo‘ladi, ulardan ikkinchi yili yangi poyalar rivojlanib, keyingi yil gullash va mevalashga kirishadi. Barglari va poyalari kulrang-kumushrang bo‘lib, ular qisqa tuklar bilan zich qoplangan. Poyasi tik turuvchi, biroz qirrali, yuqori qismida shoxlangan, asosida ba’zida uzun

bandli uchburchak-yumaloqsimon uch karra patsimon bo‘lingan bargli mevasiz qisqargan poyalarni hosil qiladi. O‘rta barglari qisqa bandli, ikki karra patsimon bo‘lingan; yuqori barglari uchga bo‘lingan yoki butundir. Kichik gullari diametri 3,5 mm gacha bo‘lgan sharsimon osilgan savatchalarda to‘planadi, bir yonli qisqa shingilda joylashgan, ular o‘z navbatida zich bo‘lmagan ro‘vablarni hosil qiladi. Har bir savatchada 80 ga yaqin sariq gullar bor, barcha gullar naysimon, kosachabargsiz. Meva uzunligi taxminan 1 mm bo‘lgan jigarrang pistacha. Iyun-avgust oylarida gullaydi, mevalari avgust-sentyabrda



yetiladi. Tibbiyotda ermonning o‘ti (gulli yuqori qismi) va barglari ishlatiladi.


**O‘shish joyi va tarqalishi:** Ermon butun O‘zbekiston hududida keng tarqalgan. Ermon dasht va adir zonalarida o‘sadi. U o‘simlik qoplamida raqobatbardosh o‘simlik bo‘lmaganligi sababli faqat buzilgan o‘shish joylarida – yaqinda bo‘shagan yerlarda, uylar yaqinida, yo‘llar bo‘yida, tomorqalarda, dala chegaralarida va yetarlicha g‘ovak tuproqli

yaylovlarda o‘sadi. Odatda kam uchraydi, lekin ba’zida yaqinda bo‘shagan yerlarda deyarli zich o‘shish maydonlarini hosil qiladi. Asosan urug‘lari, shuningdek, ildizbo‘g‘zida hosil bo‘lgan vegetativ qo‘shimcha

kurtaklar bilan ko‘payadi. Yorug‘sevar o‘simlik, unumdor, o‘rta nam g‘ovak va kulrang qumli tuproqlarni afzal ko‘radi.

**Xom ashyolar yig‘ish va uning sifati:** O‘simlik xom ashyosini gullash boshida iyun-avgust oylarida yig‘ib olinadi, dag‘al qismlarisiz o‘simlik poyasining gullagan uchki qismi o‘roq yoki pichoq bilan kesib olinadi. Gullashdan oldin may va iyun oylarining oxirlarida barglari yig‘ib olinadi.

O‘simlik o‘ti va barglari havo yaxshi aylanadigan ayvon ostida yoki soyada ochiq havoda, qog‘ozga yoki matoga ingichka qatlam qilib yoyilib, tez-tez aralastirilib turiladi. Quruq xom ashyoning hosildorligi 24-25% ni tashkil qiladi. Ermonning xom ashyosi ikki xil bo‘lishi mumkin: butun va kesilgan. Butun o‘simlik o‘ti bu uzunligi 25 sm dan oshmaydigan (poyaning dag‘al qismlarisiz) gul poyalarning uchki qismidan iborat. Kesilgan o‘ti o‘lchami 0,5 dan 8 mm gacha bo‘lgan har xil shakldagi gul savatlari, poya va barglarning bo‘laklari bilan ifodalanadi. Kesilgan barglar o‘lchamlari 1 dan 8 mm gacha bo‘lgan har xil shakldagi barglarning bo‘laklaridan iborat.



XI DF ga ko'ra, xom ashyo sifatining asosiy ko'rsatkichlari quyidagicha: namlik 13% dan; 10% li xlorid kislotasida erimaydigan umumiy kul 3% dan oshmasligi kerak; o'simlik o'tidan 70% li etanolda ajratiladigan ekstraktiv moddalari 20% va barglaridan 25% dan kam bo'lmasligi kerak. Aralashmalarining tarkibi: organik 2% dan, mineral 1,5% dan ko'p bo'lmasligi kerak. Zaharli o'simliklarning qismlari, kemiruvchilar va qushlarning axlati bo'lmasligi lozim. Butun xom ashyo toylarga va qoplarga qadoqlanadi. Toylarning vazni 50 kg dan oshmaydi, qoplarniki 25 kg dan oshmaydi. Ermon barglarining yig'ib olingan kundan boshlab yaroqlilik muddati 2 yil.

**Kimyoviy tarkibi:** Ermonning barglari va o'tlarida efir moyi mavjud (0,12 dan 2% gacha). Moyi tarkibiga quyidagilar kiradi: tuyil spirti, uglevodorodlar (tuyon, pinen, kadenin, fellandren, bizabolen, g-kariofillen, *u*-sepinen), monotsiklik katolaktonlar (ketopelanolid A, ketopelanolid V, oksipelanolid). Bundan tashqari, shuvoq tarkibida flavonoidlar, taninlar, lignanlar, organik kislotalar, karotin, askorbin kislotasi mavjud. Ermonning absintin va anabsintin achchiq laktonlari yallig'lanishga qarshi va mikroblarga qarshi xususiyatlarini belgilaydi.

**Tibbiyotda qo'llanilishi:** Ermondan tayyorlangan preparatlarning tahir mazasi ishtahani ochish va ovqat hazm qilish tizimining faoliyatini yaxshilashda qo'llaniladi. Oshqozon osti bezi va o't yo'llarining surunkali kasalliklariga chalingan bemorlar o't haydovchi choydan ichganda og'riq, dispeptik alomatlar kamayadi yoki butunlay yo'qoladi, ishtaha yaxshilanadi va najas normallasadi. Oshqozon ichak trakti kasalliklarida o't haydovchi vosita sifatida achchiq ermon va dorivor o'simliklarni birgalikda qo'llash ularning davolash samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Ermonni uzoq vaqt davomida qabul qilish yengil zaharlanishni keltirib chiqarishi mumkin, og'ir holatlarda zaharlanish umumiy toksik holatlar, ya'ni gallyusinatsiyalar va tirishishlar bilan birga kechishi mumkin.

**Ermon o'tining damlamasi:** 10 g (2 osh qoshiq) o'ti sirli idishga solinib, 200 ml (1 stakan) issiq suv quyiladi, qopqog'i yopiladi va qaynatilgan suvda (suv hammomida) 15 daqiqa qizdiriladi. Keyin u 45 daqiqa davomida sovutiladi, suzgichdan o'tkaziladi va qolgan massa siqib olinadi. Tayyorlangan damlamaga qaynatilgan suv solinib, dastlabki hajmi 200 ml ga yetkaziladi. Damlama salqin joyda 2 kungacha saqlanadi. Achchiq ermon o't pufagi tomchilari, oshqozon tabletkalari, ishtaha ochuvchi va o't haydovchi yig'malar tarkibiga kiradi.


## Qora zirk - *Berberis integerrima* Bunge (Барбарис цельнокрайний)



**O‘simlik tavsifi:** Qora zirk – buta, balandligi 4 m gacha, Berberidaceae oilasiga kiradi. Kuchli shoxlangan; shoxlari burchakli, qo‘ng‘irrang yoki to‘q qizil rangga ega. Pastki mevasiz novdalardagi tikanlar uch bo‘lakli, o‘rta va yuqori novdalarida oddiy. Barglari terisimon, teskari tuxumsimon yoki cho‘zinchoq, uzunligi 4-5 sm, eni 13-18 mm, qisqa bandli, chetlari butun yoki deyarli butun; pastki novdalarda, ko‘pincha katta, o‘tkir chandiqli. Gullari odatda 12-20 tagacha uzun, pishib yetilish vaqtida osilib turuvchi shingilda joylashadi. Kosachabarglar va gultojibarglar deyarli bir xil, teskari tuxumsimon. Ustuncha juda qisqa; urug‘chi nisbatan katta bo‘lib meva ustida qoladi, urug‘kurtaklar 3-4. Rezavor meva teskari tuxumsimon yoki cho‘zinchoq, to‘q-qizil, ko‘kimsir qoplamli, uzunligi 7-8 mm. May oyida gullaydi, iyun-iyul oylarida mevalaydi.

**O‘shish joyi va tarqalishi:** O‘zbekistonda qora zirk Farg‘ona, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlaridagi o‘rta tog‘ mintaqasida toshloq va mayinshag‘alli tog‘ yonbag‘irlarida o‘sadi.

**Areali:** O‘rta Osiyo (Tiyon-Shon, Pomir-Oloy), Eron, Afg‘oniston, Kuldja.



**Xom ashyoni yig'ish va uning sifati:** Yig'imdan keyin qora zirk yer osti qismi asta-sekin o'sishini hisobga olib, uning chakalaklarini ekspluatatsiya qilish ketma-ketligini qat'iy nazorat qilish kerak va 5-10 yildan kam bo'lmagan vaqtda takroriy hosil yig'ish mumkin. Bunday holda, har ikkinchi butaning ildizlarini qazish tavsiya etiladi. So'nggi yillarda berberindan qo'shimcha o'simlik moddalari olish maqsadida tadqiqotlar olib borildi, ular qora zirk novdalarini xom ashyo sifatida ishlatish imkoniyatini ko'rsatdi. Bu 3-4 yil ichida qora zirk chakalaklarini tiklanishini ta'minlaydi. Qora zirkning barglari mayning o'rtasidan iyun oyining o'rtalariga qadar yig'ib olinadi.

Kurtaklar chiqarishdan oldin erta bahorda yoki kuzda (meva pishganidan keyin) yig'ilgan ildizlar tozalanadi va quritiladi, bo'laklarning uzunligi 2 dan 20 sm gacha, qalinligi 6 sm gacha, butun, deyarli silindrsimon, tekis yoki qayrilgan, ko'pincha shoxlangan, bo'yamasiga bujmaygan; ildiz bo'laklari orasida bo'yiga parchalangan, siniq joylarida dag'al tolalisi ham uchraydi. Ildizlarning rangi kulrang-qo'ng'ir, siniq joylarida limonsimon-sariq. Hidi kuchsiz, o'ziga xos, ta'mi achchiq. G'unchalash va gullash fazasida to'plangan barglar quriganidan so'ng ellipssimon shaklga ega, uzunligi 2-7 sm va eni 1-4 sm, ingichka, ikki tomoni mum bilan qoplangan. Barglarning rangi yuqori tomonda quyuq yashil rangda, pastki qismida ancha ochroq rangda. Hidi o'ziga xosdir. Ta'mi nordon. Xom ashyo tarkibida namlik 14% dan oshmasligi kerak; umumiy kuli 5% dan, teshigining diametri 3 mm bo'lgan elakdan o'tgan maydalangan qismlar 5% dan; normal rangini yo'qotgan qismlar (sarg'ish, qoraygan, jigarrang) 4% dan; qora zirkning boshqa qismlari (mevalar, gullar, poyalari) 1% dan; organik aralashmalar (boshqa zaharli bo'lmagan o'simliklarning qismlari) 2% dan va mineral aralashmalar (tuproq, qum, toshbo'ron) 1% dan oshmasligi kerak. Xom ashyo 10-20 kg gacha bo'lgan mato qoplariga yoki 50 kg og'irlikdagi toylarga qadoqlanadi. Xom ashyoning yaroqlilik muddati – 3 yil.

**Kimyoviy tarkibi:** Qora zirk ildizlari tarkibida alkaloidlar: berberin (0,3-2%), palmatin (0,05%), yatorritsin (0,25%), oksiakantin (0,7%), kolumbamin, magnoflorin va boshqalar mavjud. Asosiy modda – berberin. Barglari tarkibida berberin, glautsin, izokoridin, S vitamini, karotin, bo'yoqlar: binafsharang pigment va boshqalar mavjud.

**Tibbiyotda qo'llanilishi:** Qora zirk qirralarning ildizlaridan ajratilgan alkaloidlar gipotenziv va o't haydovchi xususiyatlarga ega, ichakning silliq mushaklariga tinchlantiruvchi ta'sir ko'rsatadi.

Xoletsistit, o't tosh kasalligi, surunkali gepatit va gepatoxoletsistit kasalliklarida ishlatiladi. Bachadon qon ketishida 20% barg damlamasi, 5% damlamasidan esa jigar kasalliklarida ishlatiladi. Tuxumdon disfunksiyasi bilan bog'liq qon ketish vaziyatlarida damlamadan foydalanish tavsiya etilmaydi.

### **Oq qayin - *Betula pendula* Roth**

(Берёза повислая)




**O'simlik tavsifi:** Oq qayin – daraxt o'simligi, balandligi 20 m gacha, Betulaceae oilasiga kiradi. Ildiz tizimi odatda tuproq yuzasiga yaqin joylashgan, ammo o'sish sharoitiga qarab, u qiyalama holda chuqurlikka kirib boradi. Poyaning

diametri 0,6-0,8 m ga yetadi. Shox-shabbalari zich bo'lmagan, tarvaqaylab ketgan. Po'stlog'i silliq, oq, poyaning pastki qismida yoriqli, qora-kulrang (yetuk yoshli daraxtlarda). Boshida yosh daraxtlarda po'stloq sarg'ish-oq, keyin esa oq rangga aylanadi. Yosh novdalar egilgan, tuksiz, egiluvchan, smola saqlovchi bezchalar bilan qoplangan. Kurtaklari silliq. Barglari ketma-ket, uzunligi taxminan 2,5 sm uzun bandlarda, uchburchak yoki rombimon-tuxumsimon, asosi keng ponasimon shaklida, qirrasi bo'ylab ikki tishli, tepada ko'proq yoki kamroq cho'zilgan va uchqirlashgan. Gullari to'g'ri, shoxlarning uchida bir jinsli osilgan kuchalalarda joylashgan. Changchi gullari qisqa gulbandli, uzunligi 5-6 sm, osilgan, 2-4 ta bo'lib o'tgan yilgi novdalar uchida joylashadi. Urug'chi gullari yakka, qisqa yashil g'uddasimon tirlarga to'plangan, qisqargan yon novdalarda joylashgan. Mevasi qanotli kichik yong'oqchadan iborat. Aprel oyining oxirida – may oyining boshlarida gullaydi. Oktyabr oyida mevalar pishib etiladi.

**O'sish joyi va tarqalishi:** Oq qayin G'arbiy Tiyon-Shonning (Toshkent viloyati) tog' vodiylari va yon bag'irlarida o'sadi.

## Xom ashyoni yig'ish va uning sifati:

Dorivor maqsadlarda qayin barglari, yosh barglari, shira (ba'zan po'stlog'i) olinadi. Shira erta bahorda shira harakati boshlaganida yig'iladi (bahorgi «shira



harakatlanishi»). Kurtaklari shishgan vaqtda, barglari hali yopishqoq bo'lganda yig'iladi (aprel – may oyining boshi). Kurtaklari va barglari ochiq havoda soyada quritiladi, qog'ozga yoki matoga yupqa qatlam qilib yoyiladi. Vaqti-vaqti bilan ularni aralashtirish kerak. Agar ob-havo sharoiti qulay bo'lmasa, normal havo aylanadigan xonada quritish kerak. Quritgichlarda ular 25-30<sup>0</sup>C haroratda quritilishi mumkin. Quritilgan xom ashyo quruq xonada saqlanadi. Yaroqlilik muddati – 2 yil. Qayin kurtaklari dorixonalarda sotiladi. Qayin shirasini shahardan



chetki va avtomobil yo'llaridan uzoqda bo'lgan joylardan yig'ib olinadi. Diametri kamida 20 sm bo'lgan daraxtlardan shira olinadi. Yerdan 40-50 sm balandlikda poyada 6-8 sm diametrli va 2,5-3 sm chuqurlikda teshik ochiladi (janub tomondan bo'lishi ma'qulroq). Teshikni yerga biroz burchak ostida ochish kerak, shunda shira osonroq oqib chiqadi. Teshikka plastik naycha kiritiladi. Shisha banka poyaga mahkam bog'lab qo'yilib, bankaning bo'yni naycha ostida 5-7 sm masofada joylashtiriladi. Sutka davomida

bitta daraxtdan 2 litrgacha shira to‘plash mumkin. Bitta daraxtdan bir kundan ortiq shira yig‘ish mumkin emas, chunki bu daraxtga zarar yetkazishi mumkin. Shirani yig‘andan so‘ng, naycha poyadan chiqariladi, teshik bog‘ yelimi yoki plastilin bilan mahkam yopiladi. Yangi qayin shirasi muzlatgichda 3 kundan ortiq bo‘lmagan muddatda saqlanishi mumkin. Uzoqroq saqlash uchun shirani muzlatib, konservatsiya qilish mumkin. Buning uchun shisha bankalar va metall qopqoqlar sterilizatsiya qilinadi, shira 80<sup>0</sup>C ga qadar isitiladi (pasterizatsiya). Keyin shira bankalarga quyiladi va qopqoq bilan bekitiladi. Qayin po‘stlog‘idan quruq haydash orqali qayin qatroni olinadi va u ham dorivor maqsadlarda ham qo‘llaniladi.

**Kimyoviy tarkibi:** Qayin kurtaklari, barglari, po‘stlog‘i tarkibida efir moyi, taninlar, qatronlar, saponinlar, nikotin kislotasi, S vitamini bor. Kurtaklari va barglarida, bundan tashqari, karotin, giperozid va flavonoidlar mavjud. Efir moyi tarkibida betulen, betulol, naftalin, betulen kislotasi, bo‘yoqlar mavjud. Qayin shirasini tarkibida shakar, olmalı kislota, kalsiy, magniy, temir, tanin va aromatik moddalar mavjud.

**Tibbiyotda qo‘llanilishi:** Qayin preparatlari siydik haydovchi, o‘t haydovchi, yallig‘lanishga qarshi, spazmolitik, antivirusli, balg‘am ko‘chiruvchi, yaralarni bitkazuvchi, antiparazitik xususiyatlarga ega. Shuningdek, ular metabolizmni, ayol jinsiy a‘zolarini va ovqat hazm qilish tizimini tartibga soladi. Kurtak yoki qayin barglaridan o‘simlik preparatlari shishishlar (ayniqsa yurak kasalliklari oqibatida), oshqozon va o‘n ikki barmoqli ichak yaralari, ateroskleroz, qovuqning yallig‘lanishi, buyrakning surunkali kasalligi, buyrak tosh kasalligi, gipo va avitaminoz uchun beriladi. Og‘riq qoldiruvchi vosita sifatida dorilar ichak va boshqa silliq mushaklarning spazmlari uchun ishlatiladi, o‘t haydovchi vosita sifatida – jigar kasalliklarida; balg‘am ko‘chiruvchi sifatida – bronxit, laringit, traxeitda qo‘llaniladi. Barglarning damlamasi albuminuriya (siydikda oqsil ajralishi), urat diatezi, xoletsistitning yengil formalarida ishlatiladi. Qayin preparatlari akusherlik va ginekologik amaliyotda: barg damlamasi nefropatiya, homilador ayollarning shishishi, gipomenstrual klimakterik sindromlarda ishlatiladi; barglarning damlamasi – tug‘ruqdan keyingi davrdagi anemiyada, klimakterik nevrozlarda, shuningdek, umumiy tiklovchi vosita sifatida ishlatiladi; kurtaklar qaynatmasi – nefropatiyada samarali hisoblanadi.

Xalq tabobatida qayin barglari va kurtaklaridan tayyorlangan preparatlar oshqozon va oʻn ikki barmoqli ichak yaralarini, bronxit, oʻt toshi va buyrak toshi kasalliklarida, podagra va shishlarni davolashda ishlatiladi. Qayin kurtaklarining qaynatma va damlamasi surunkali ich ketishda va gelmentlarni davolashda (askarida, ostritsa) samarali hisoblanadi. Qayin kurtaklari damlamasi revmatizm, artrit, miozit, chaqalar, yaxshi bitmaydigan yaralar, yotoq yaralari, yiringli yaralar, absesslarni kesgandan keyin surtma va kompresslar shaklida qoʻllaniladi. Husnbuzar toshmasida yuzni qayin shirasi surtish kerak, shuningdek, dogʻlarni ketkazishda qoʻllaniladi, ekzemada kompresslar shaklida ishlatiladi. Qayin shirasi umumiy mustahkamlovchi vosita sifatida ichiladi, buyrak toshi, qon ketishi, metabolizmni buzilishida kompleks terapiyada ishlatiladi, qonni tozalovchi vositasi sifatida yuqori harorat bilan birga kechadigan teri, nafas olish yoʻllari kasalliklarida (balgʻam koʻchiruvchi taʼsirga ega), yurak kasalliklaridan kelib chiqqan shishishlarda diuretik vosita sifatida buyuriladi. Xalq tabobatida qayin preparatlari turli xil lokalizatsiyaga ega saraton kasalliklarida qoʻllaniladi. Bu kasalliklarda qayin kurtaklari damlamasidan foydalanish afzalroq. Qayin supurgi hammomda podagra, radikulit, ogʻriyotgan boʻgʻimlar, terini va shamollash kasalliklarini davolashda foydali boʻladi.

**Retseptlar:** *Qayin barglarining damlamasi.* 2 choy qoshiq quruq ezilgan barglarni ustiga bir stakan qaynoq suv quyib, 30 daqiqa davomida damlanadi, keyin suzgichdan oʻtkaziladi. Sovutgandan soʻng, pichoq uchida isteʼmol sodasi qoʻshiladi, aralashtiriladi. Bir stakaning chorak qismi kuniga ovqatdan 20-30 daqiqa oldin 3-4 mahal ichiladi. Qayin barglari damlamasi qoʻllaniladigan holatlar: Albuminuriya, Uraturiya, Xoletsistit va xoletsistoangioxolitning yengil shakli, Gipomenstrual sindromi, Klimakterik nevrozi. Shuningdek, u yurak kasalliklaridan kelib chiqqan shishishlar, oshqozon va oʻn ikki barmoqli ichak yaralari, gastrit, kolit, ichak spazmlari, buyrak spazmlari, ateroskleroz, surunkali buyrak kasalliklari, siydik pufagi yalligʻlanishi, buyrak tosh kasalligi, bosh ogʻrigʻi va migren, gipo- va avitaminozlar, gripp, oʻtkir va surunkali bronxit, pnevmoniya, sil kasalliklarida umumiy mustahkamlovchi vosita sifatida ishlatiladi.

*Qayin kurtaklarini qaynatmasi.* Bir osh qoshiq (teyasi toʻldirilmaydi) kurtaklarga bir stakan suvga solib, past olovda qaynatishga olib boriladi, qaynatgandan keyin 5 daqiqa qaynatilib, olovdan olinadi va sovutgandan keyin suzgichdan oʻtkaziladi. 1 osh qoshiqdan bir kunda 3-



4 mahal ichiladi. Qayin kurtaklari tayyorlashdan surunkali ich ketish va dizenteriya kasalliklarida ancha foyda beradi. Qolgan hollarda barglarning damlamasi bilan bir xil ko'rsatmalar bo'yicha qo'llaniladi. *Qayin kurtaklari damlamasi.* Bir osh qoshiq (tepasi to'ldirilmaydi) kurtaklarni ustiga bir stakan qaynoq suv quyiladi, 20 daqiqa davomida bekitilgan idishda damlanadi va keyin suzgichdan o'tkaziladi. Iliq holda yarim stakaning uchdan birida ovqatdan 15 daqiqa oldin kuniga 2-3 marta ichiladi. Bu damlama o't haydovchi va siydik haydovchi vosita tarzida mikozlarda, shuningdek, barglarning damlamasidagi ko'rsatmalarda qabul qilinadi. *Qayin kurtaklari nastoykasi.* 90% yoki 70% spirtda 1:5 nisbatda tayyorlanadi. Ikki osh qoshiq (20 g) ezilgan qayin kurtaklari kichik shisha idishga solinadi, 200 ml spirt quyiladi va qopqoq bilan yopiladi. Qorong'i joyda 1 oy turish kerak, vaqti-vaqti bilan chayqatib turish kerak. Bir oydan keyin suzgichdan o'tkaziladi. Kuniga bir choy-osh qoshiqdan 3 mahal ovqatdan 20 daqiqa oldin ichiladi, (50 ml) xona haroratida qaynatilgan suvda suyultiriladi va o't haydovchi (jigar, o't pufagi va uning yo'llari kasalliklari uchun), siydik haydovchi (yurak kasalliklaridan kelib chiqqan) sifatida ishlatiladi. Boshqa ko'rsatmalar uchun – barglarning damlamasi kabi, 20-30 tomchi 1 osh qoshiq suvga ovqatdan 15-20 daqiqa oldin kuniga 3 mahal ichiladi. Tashqi tomondan qayin kurtaklari damlamasi revmatizm, artrit, miozit, chaqalar, yaxshi bitmaydigan yaralar, yotoq yaralar, yiringli yaralar, absesslarni kesgandan keyin surtma va kompresslar shaklida qo'llaniladi.

**Yangi yosh qayin barglarining damlamasi:** 2 osh qoshiq mayda to'g'ralgan yangi yosh barglar ustiga 200 ml 70% spirt quyiladi, 1 hafta davomida damlanadi va suzgichdan o'tkaziladi. Kuniga 30 tomchidan 2 mahal ichiladi. Anemiya uchun tug'ruqdan keyingi davrda, klimakterik nevrozlarda va abortdan keyingi rehabilitatsiya davrida yangi qayin barglarining damlamasi yaxshi foyda beradi. Tashqi tomondan bu damlamani bo'g'imlarga kompress sifatida ishlatiladi.

*Yangi yosh barglarning sovuq damlamasi.* 100 gramm barglar maydalanadi va ustiga sovutilgan qaynatilgan suv quyiladi (0,5 litr), 2 soat damlanadi, suzgichdan o'tkaziladi. Tuz va limon kislotasi ta'bg'a qarab qo'shiladi. Vitaminli ichimlik sifatida ichiladi. 0,5 l kattalar uchun maksimal sutkalik doza hisoblanadi. Qayin shirasi kuniga 2-3 marta 1 stakan ichiladi. Qayin qatroni malham tayyorlashda ishlatiladi (tashqi foydalanish uchun). Qatron vazelin bilan 2:8 nisbatda aralashtiriladi. Bunday malham tashqi tomondan qo'ziqorin va parazitlar

zararlanishlarni davolashda, shuningdek, ekzema, lishay kasalliklarni davolashda ishlatiladi. Qayin qatroni Vishnevskiy va Vilkinson malhamlarining tarkibiga kiradi. Vishnevskiyning malhami jarrohlik amaliyotida, shuningdek, furunkul, karbunkul, ekzema, kuyish yarasi, sovuq urganda, yotoq yaralari, varikoz va trofik yaralar, psoriaz, tromboflebit, emiriluvchi endarteriit, limfangit, limfadenitni davolashda qoʻllaniladi. Vilkinsonning malhami qoʻtir, ekzema, yotoq yaralari, trixofit, trofik yaralar uchun ishlatiladi.

**Qoʻllash mumkin boʻlmagan holatlar:** Homiladorlik paytida va buyrak funksional yetishmovchiligi boʻlgan holatlarda qayin kurtaklar preparatlarini ichish tavsiya etilmaydi.

### **Ittikanak - *Bidens tripartita* L.**

(Черёда трехраздельная)



#### **Oʻsimlikni tavsifi:**


Ittikanak bu Asteraceae oilasiga kiruvchi bir yillik oʻsimlik, balandligi 15-60 (100) sm gacha, uncha katta boʻlmagan, kuchli rivojlangan oʻq ildizli oʻsimlik. Poyasi tik turuvchi, silliq yoki kam tukli, baʼzan asosidan novdalari qarama qarshi joylashgan. Barglari qarama-qarshi, toʻq yashil rangda, barg bandi qanotsimon shaklda, asoslari bilan birlashgan. Barg plastinkasi uzunligi 3-7 mm,

eni 1-4 mm, cheti tishchasimon boʻlakli. Novdalar uchida joylashgan savatchalar tik turuvchi, ularning enini oʻlchami uzunligiga (6-15mm) teng yoki deyarli teng. Oʻrama bargi ikki qatorli, tashqi barglari yashil, choʻzinchoq; ichki barglari qoʻngʻir-sariq, ovalsimon, gullaridan kichikroq. Gullari naychasimon, ikki jinsli, xira sariq. Urugʻlari ponasimon. Iyun-sentyabr oylari gullaydi. Mevasi (urugʻlari) avgust-sentyabr oylarida bir vaqtda pishmaydi. Tibbiyotda oʻsimlikning barglari va yosh novdalari ishlatiladi.

## O'sish

### joyiva tarqalishi:

Ittiganak Toshkent viloyatida uchraydi. U asosan daryolar, irmoqlar, ko'llar, boshqa suv havzalarining qirg'oq bo'ylarida, nam o'tloqlarda, ariqlar va tomorqa hamda sug'oriladigan yerlarda begona o't sifatida uchraydi.



**Xom ashyoni yig'ish va uning sifati:** Ittikanak gullashdan oldin va qisman gullash davrida bargli yuqori qismini kesib olib va katta barglarni yulib olib xom ashyosi yig'iladi. Kech hosil yig'ilganda faqat yon novdalar kesiladi, bunda qoraygan savatchalar olinmaydi. Xom ashyolar chordoqlarda yoki ayvonlar ostida quritilib, ularni mato yoki qog'ozga qalinligi 5-7 sm dan oshmaydigan qatlamda yoyiladi. Quritilgan xom ashyoda novdalar qayrilmasligi, balki sinishi kerak. Ittikanak issiqlik va namlikni yaxshi ko'radigan o'simlik. Sovuq yomg'irli bahorda u sekin o'sadi va yomon rivojlanadi. Ekin ekish uchun nam bo'lgan pastlik joylar ajratiladi. Eng yaxshi tuproqlar bu o'tloqli, lekin boshqa unumdor nam va muntazam sug'oriladigan tuproqlar ham yaraydi. Ittikanak xom ashyosini ommaviy g'unchalash bosqichida yig'ish boshlanib, ommaviy gullash davrida tugaydi. Ittikanakni o'roq-maydalagichlari yordamida o'riladi va maydalangan massa quritish joyida yetkazilib, 45-50<sup>0</sup>C haroratda bug' yoki olov yordamida quritish moslamalarida quritiladi. Quritilgandan so'ng foydalanish uchun yaroqsiz katta poyalari barglaridan ajratib olinadi. Ittikanakni tomorqada ham muvaffaqiyatli o'stirish mumkin. 1,5-2 kg o'simlik o'tini olish uchun sovuq to'shishidan 1-1,5 oy oldin quruq urug'lar 1,5-2 m<sup>2</sup> maydonga ekiladi. Urug'lar 3-4 sm chuqurlikda jo'yaklarga ekiladi va 1-1,5 sm tuproq qoplanadi. Jo'yaklarning masofa oralig'i 30-45 sm bo'ladi. 1 m<sup>2</sup> ga 1,5-2 gr urug' sepiladi. Bahorda maysalar unib chiqqach, tuproqlar yumshatilib, begona o'tlardan tozalanib sug'oriladi. O'simlikning uchki qismi gullash davrida kesib olinadi. Urug' olish uchun 2-3 dona o'simlik qoldiriladi. Maysalar



chordoqlarda yoki ayvonlarga quritiladi. Quruq, qorong'i joyda qog'oz yoki plastik qoplarda saqlanadi. Ittikanakni quritilgan xom-ashyosi uchki barglar va uzunligi 15 sm gacha bo'lgan (poyalar) va alohida barglardan iborat aralashmadir. Barglari yashil yoki qo'ng'ir yashil rangda, poyalariniki yashil yoki yashil binafsha rangda. Hidi o'ziga xos, ta'mi achchiq, ozgina og'izni bog'lovchi. Xom ashyoning namlik darajasi 13% dan oshmasligi;

umumiy kul 11% dan, qo'ng'irlashgan qoraygan poya va barglari 3% dan, uzunligi bilan 15 sm dan uzunroq uchki bargli qismi 3% dan, organik birikmalar 2% dan, mineral (tuproq, qum, tosh) 1% dan oshmasligi kerak. Tayyor xom-ashyo og'irligi 50 kg oshmaydigan toylar yoki o'ramlarga joylashtiriladi. Quruq va havo yaxshi aylanadigan joylarda saqlanadi. Xom ashyoning yaroqlilik muddati 2 yil.

**Kimyoviy tarkibi:** Ittikanak o'simligi tarkibida kamida 10 ta flavonoidlar, kumarinlar (umbelliferon i skopoletin), askorbin kislatasi (60-70 mg% ), karotin (50 mg% dan yuqori), kondensatsiyalangan taninlar (4,46% gacha), achchiqlik, shilimshiq, laktonlar, aminlar, katta miqdordagi marganets hamda efir moylarining izlari mavjud.

**Tibbiyotda qo'llanilishi:** Ittikanak siydik haydovchi va terlatuvchi xususiyatlariga ega bo'lib, ovqat hazm qilishini yaxshilaydi, buzilgan metabolizmni normallashtiradi. Ittikanak preparatini urtikar toshmalar bilan kechadigan turli diatezlarda, skrofulezda, neyrodermit va bosh terisini seboreya kasalliklarida tavsiya etiladi. Tashqi tomondan qo'llanilganda yara yuzasini quritadi va terining shikastlangan joylarini tezroq tiklanishiga yordam beradi. O'simlik o'tini shamollaganda terlatuvchi vosita sifatida, shuningdek, siydik haydovchi, yallig'lanishga qarshi, vitaminli va allergiyaga qarshi davolanish vosita tarzida ham qo'llaniladi. Ittikanakni qo'llash mumkin bo'lmagan holatlar aniqlanmagan. Ushbu o'simlik 10 ta bo'lakli 100 gr li paketlarda va 75 gr briketlarda sotiladi. Bir bo'lagi bir stakan qaynagan

suv bilan aralashtirib, 10 daqiqa tindiriladi va suzgichdan o'tkaziladi. Ertalab va kechqurun ovqatdan keyin 1/3 stakandan ichiladi.

**O'simlik damlamasi:** 10 gr (3 osh qoshiq) o'simlik o'ti sirli idishga solinadi, 200 ml (1 stakan) issiq qaynatilgan suv solinadi va 15 daqiqa qaynab turgan suv xammomiga isitiladi, so'ngra 45 daqiqa sovutiladi,

suzgichdan o'tkaziladi va qolgan massasi ajratib olinadi. Suzilgan suyuqlikka suv qo'shib, 200 ml gacha yetkaziladi. Damlama ovqattan keyin kuniga 2-3 marta 1/2 - 1/3 stakandan ichiladi. Vanna qilish uchun har 10 litr suv uchun 1 stakan damlama solinadi. 2 kundan ortiq bo'lmagan muddatda salqin joyda saqlanadi.

**Kovul - *Capparis spinosa* L.**  
(Каперсы колючие)



**O'simlik tavsifi:** Kovul – Capparaceae oilasiga mansub yoyilib o'sadigan ko'p yillik o'simlik, uzunligi 1,5 m gacha, biroz tuklangan va yoyilib o'sadigan novdalarga ega va kuchli ildiz tizimi 70 sm chuqurlikkacha kiradi. Barglari oval-tuxumsimon, uchlari tikanli, mayda, sarg'ish yonbargchalar

joylashgan. Gullari yakka, yirik, dastlab oq rangli, gullash paytida pushti, barglari qo'ltig'ida 4 ta kosachabarglar, 4 ta gultojibarglar va ko'p sonli changchilari bor. Mevasi rezavorsimon, ovalsimon, etli, yashil rangda, ko'plab buyrak shaklidagi jigarrang urug'larni ichida saqlaydi. May-iyul oylarida gullaydi va mevalaydi.



**O'sish joyi va tarqalishi:** Bu tur

O‘zbekiston va O‘rta Osiyo bo‘ylab tarqalgan, u asosan cho‘l va yarim cho‘l zonasi­da, tog‘ oldi va quyi tog‘ mintaqalarida uchraydi, ba‘zan tog‘larning o‘rta mintaqasigacha kirib boradi.

### Xom

**ashyoni yig‘ish va**


**uning sifati:** Ildizlarning po‘stlog‘i, gullari, kurtaklari va kovul mevalari dorivor maqsadda ishlatiladi. Ildizlari kech kuzda, kurtaklari va gullari may-iyun oylarida, mevalari iyul-avgust oylarida yig‘iladi.

**Kimyoviy tarkibi:** Kovul mevalarida tioglikozidlar, steroid saponinlar, rutin, askorbin kislotasi (23-57 mg%), shakar (12% gacha), mirozin fermenti, qizil pigment, efir va yog‘li moylar, yod topilgan; gullar va kurtaklarda saponinlar, rutin (0,32% gacha), kversetin, askorbin kislotasi (150 mg% gacha), rang beruvchi moddalar, ildizlarda – glikozid kapparidin, po‘stlog‘ida va barglarida – staxidrin mavjud.

**Tibbiyotda qo‘llanilishi:** Kovuldan olingan ekstrakt Hindistonda ishlab chiqarilgan va tibbiy amaliyotda tasdiqlangan LIV-52 kompleks preparatining bir qismidir. U tabletka shaklida chiqariladi



va jigar kasalligi uchun buyuriladi. O‘simlikning yangi qismlari biriktiruvchi, siydik haydovchi, antiseptik va og‘riq qoldiruvchi xususiyatlarga ega. Kovul gullarining sharbati yaralarga surtish va shirincha kasalligida ichish uchun ishlatiladi. Kovul ildizlarining yangi, tozalangan po‘stlog‘i tish og‘rig‘i uchun chaynaladi va yiringlayotgan yaralar ustiga qo‘yiladi. Kovulning mevalari xalq tabobatida tish



ogʻrigʻi, tish milki, qalqonsimon bezi, bavirus kasalliklarida qoʻllaniladi. Ezilgan kovul ildizlarining poʻstlogʻi bod kasalligida va brutsellyoz uchun ishlatiladi. Ildiz poʻstlogʻining damlamasi stenokardiya, asabiy tutqanoqlarda, falajda, shamollashli revmatik ogʻriqlarda, taloq kasalliklarida, jigar kasalliklarida, shu jumladan, sariq kasalligida ishlatiladi. Xuddi shu damlama bilan qichima kasallikda teriga surtish uchun ishlatiladi. Qandli diabetda novdalar va barglarning damlamasi, bosh ogʻrigʻida urugʻlardan foydalaniladi. Kovul oziq-ovqat uchun ishlatiladi: mevalar va gʻunchalari yaxna ovqatlar uchun ziravor sifatida ishlatiladi, marinadlangan novdalar va kovulning gul kurtaklari goʻsht va baliq ovqatlariga, shoʻrvalar va sharbatlarga yoqimli nordon taʼm beradi. Kovulning ildizi matolarga jigarrang-yashil boʻyoq ishlab chiqarish uchun xom ashyo hisoblanadi.

**Qandli diabet kasalligida kovul ildizlaridan foydalanish.** 2 choy qoshiq quruq ildiz poʻstlogʻi sekin olovda 10-15 daqiqa davomida bir stakan suvda qaynatiladi, 1-2 soatga qoldiriladi, toʻkib tashlanadi. Qandli diabetda kuniga 3 marta 1 osh qoshiqdan ichiladi.

**Jagʻ-jagʻ** - *Capsella bursa-pastoris* (L.) Medik.  
(Пастушья сумка обыкновенная)



**Oʻsimlik tavsifi:** Jagʻ-jagʻ Brassicaceae oilasiga mansub bir yillik oʻt oʻsimlik, balandligi 20-30 sm, ingichka urchuqsimon ildizga ega. Poyasi yakka, tik turuvchi, oddiy yoki shoxlangan, ostki qismida oddiy yoki shoxlangan tuklar bilan qoplangan. Ildizboʻgʻzi barglari 5-10 sm, bandli, patsimon boʻlingan, oʻtkir, uchburchakli, butun qirrali yoki tishchali boʻlaklardan iborat. Poya

barglari ketma-ket, oʻtroq, choʻzinchoq-lansetsimon, butun yoki oʻyikli tishsimon, quloqsimon oʻsimalarga ega, yuqori barglari deyarli chiziqli, asosi oʻq shaklida. Gullari mayda, oq rangda, shingil toʻpgullarda toʻplangan, ular gullashning boshida soyabon shaklida

bo'lib ko'rinadi. Meva uzunligi 5-8 mm uzunlikdagi qo'zoq, ikkita ochiladigan pallalarga ega. Mart-apreldan kuzgacha gullaydi. Mevalari may oyidan boshlab butun vegetatsiya davrida pishadi. Tibbiyotda o'simlikning yer usti qismi (o'ti) ishlatiladi.

### O'sish joyi

#### va tarqalishi:

Jag'-jag' o'simligi O'zbekistonda

faqat cho'l mintaqasidan

boshqa joylarda keng tarqalgan.


Jag'-jag' dalalar, tomorqa, bog'larda begona o't sifatida,

axlat to'planadigan yerlar, tepaliklar, yo'llar va ariqlar bo'ylab o'sadi. Ko'pincha tashlandiq joylar va qumlarda uchraydi. Ba'zan bir necha gektar maydonda uzluksiz zich o'sadigan maydonlarda hosil qiladi; ayniqsa, ekilmaydigan yerlarda, yosh bog'larda va o'rmon parklarida juda ko'p o'sadi. Yiliga bir nechta avlod beradi: u qishlovchi, bahorgi va efemer shakllarga ega. Jag'-jag'ning qishlovchi shakli ko'pincha kuzgi javdar, beda, beda va ajriq bilan birga o'sadi.

yo'llar va ariqlar bo'ylab o'sadi. Ko'pincha tashlandiq joylar va qumlarda uchraydi. Ba'zan bir necha gektar maydonda uzluksiz zich o'sadigan maydonlarda hosil qiladi; ayniqsa, ekilmaydigan yerlarda, yosh bog'larda va o'rmon parklarida juda ko'p o'sadi. Yiliga bir nechta avlod beradi: u qishlovchi, bahorgi va efemer shakllarga ega. Jag'-jag'ning qishlovchi shakli ko'pincha kuzgi javdar, beda, beda va ajriq bilan birga o'sadi.

**Xom ashyoni yig'ish va uning sifati:** Jag'-jag' o'ti gullash davrida quruq ob-havo sharoitida shudring quriganidan keyin pichoq yoki o'roq bilan kesib olinadi. Ko'pincha butun o'simlik ildizi bilan tuproqdan sug'irib olinadi va keyin yer usti qismi kesiladi. Mevalar pishgan o'simliklardan xom ashyo yig'ilmaydi. Zich o'sgan maydonlardan o'simlik o'roq bilan kesiladi yoki belo'roq bilan o'riladi. Yig'ilgan xom ashyo zich qilmasdan idishlarga solinadi va imkon qadar tez quritishga yuboriladi. Jag'-jag' havo yaxshi aylanadigan ayvon ostida yoki quritgichlarda quritiladi. Yaxshi ob-havo sharoitida u ochiq havoda soyada va shamolda quritilishi mumkin. Yaxshi ob-havo sharoitida xom ashyo 5-7 kun ichida quriydi. Quruq xom ashyoning chiqim massasi 26-28% ni tashkil qiladi. Xom ashyoning namligi 13% dan oshmasligi kerak.

**Kimyoviy tarkibi:** Jag'-jag' o'ti tarkibida gissopin ramnoglyukozidi, burs kislotasi, taninlar, fumad, olma va vino kislotalari,





xolin va atsetilxolin, tiramin, inozit, askorbin kislotasi va saponinlar mavjud. Urug'larida yog'li moylar (28% gacha) va oz miqdordagi allilxantal yog'i mavjud.

**Tibbiyotda qo'llanilishi:** Jag'-jag' o'simligi qaynatmasi ginekologik amaliyotda damlama va ekstrakt shaklida tug'ruqdan keyingi qon to'xtatuvchi vosita sifatida, shuningdek, tug'ruq paytida bachadon mushaklarining qisqarishini kuchaytirish uchun ishlatiladi. Tez-tez qon tupirish va qon ketishi bilan kechgan o'pka silini davolashda jag'-jag' o'simligi qaynatmasining samarali foydasi aniqlangan.

**Bo'tako'z - *Centaurea cyanus* L.**  
(Василёк синий)




**O'simlik tavsifi:**

Bo'tako'z – bu Asteraceae oilasiga mansub bir yoki ikki yillik o't o'simlik, yupqa o'q ildizi bilan. Poyasi 100 sm balandligida, tik turuvchi, shoxlangan, tutamli-to'rsimon. Pastki barglar erta quriydi, patsimon-bo'lakli, bandlarda, o'rta va yuqori barglari –

chiziqli, butun qirrali, o'troq. Gul savatchalar yirik, yakka, poyasi va novdalarining uchida joylashadi.

Savatchaning chetki gullari yorqin ko'k (kamdan-kam oq yoki pushti), qiyavoronkasimon, urug'siz, o'rtadagi – naychasimon, ko'k-binafsha, ikki jinsli. Mevasi kulrang yoki sarg'ish-kulrang, pistachasi biroz



tukli, ko'p qatorli popukka ega. Har bir o'simlik 2500 tagacha urug' beradi. Iyun – sentyabr oylarida gullaydi, mevalar avgust – oktyabr oylarida pishadi. Faqat urug'lari bilan ko'payadi.

**O'sish joyi va tarqalishi:** U asosan MDHning Yevropa hududidagi o'rta va shimoliy qismida va G'arbiy Sibirda o'sadi. U ko'pincha qishloq xo'jalik ekinlarida, ayniqsa, kuzgi javdarda, o'rmonlarda, tashlandiq yerlarda va yaxshi ishlov berilmagan yerlarda begona o't sifatida o'sadi. Bo'tako'z gullari qumli va qumoqli tuproqlarni afzal ko'radi, ammo og'ir gilli tuproqlarda ham o'sadi. O'zbekistonda u gulzorlarda manzarali o'simlik sifatida o'stiriladi.

**Xom ashyoni yig'ish va uning sifati:** Bo'tako'z gulining chetki ko'k gullari dorivor xom ashyo hisoblanadi. To'liq ochilgan gullar xom ashyo uchun yig'iladi. Buning uchun gul savatchalari kesiladi yoki uziladi, keyin chetki voronkasimon ko'k gullari uzib olinadi, bunda ichki naychasimon gullarni ham uzmaslikka harakat qilish kerak. Ular qanchalik kam bo'lsa, xom ashyoning sifati shunchalik yaxshi bo'ladi. Yig'ilgan xom ashyo ajratiladi, gulo'rni, ichki naychasimon va xiralashgan chetki gullari, shuningdek, boshqa aralashmalar olib tashlanadi va zudlik bilan issiq, qorong'i xonada quritiladi (nurda, gullar rangi tez o'chadi va xom ashyo sifatsiz bo'lib qoladi). Usti yopiq ayvonlar ostida uni toza qog'ozga yupqa qatlamga yoyib yoki quritgichlarda 40-50<sup>0</sup>C haroratda quritish tavsiya etiladi. Xom ashyo sifatiga qo'yiladigan talablar XI DF da belgilangan va quyida keltirilgan.

**Tashqi belgilar:** Chetki va o'rtadagi gullarining aralashmasi. Chetki gullari jinssiz, voronkasimon, uzunligi 2 sm gacha, gultojsimon, shakli qiyshiq, bo'kilgan joyining bo'laklari 5-8 ta gacha chuqur kesilgan lansetsimon va naychali asosining uzunligi 6 mm gacha bo'ladi. O'rtadagi gullari – ikki jinsli, naychasimon, uzunligi taxminan 1 sm, 5 ta tekis tish bilan tugaydi, o'rtasidan asosiga tomon torayib boradi. Changchilari 5 ta, erkin dag'al iplari va qo'shilib o'sgan changdonlarga ega. Urug'chisi pastki tugunchali. Chetki gullarning rangi ko'k, asosida rangsiz, o'rtadagi – ko'k-binafsha rangga ega. Hidi kuchsiz. Ta'mi biroz xushbo'y.

**Mikroskopiya:** Chetki gullarining epiderma hujayralari ikki tomonga cho'zilgan, uchlari o'tkir va devorlari egri-bugri. Gulning naychasimon qismida hujayra devorlari to'g'ri yoki biroz to'lqinsimon. Naychanning to'qimalarida ko'plab kalsiy oksalatning prizmatik kristallari mavjud. Naychasimon gullarning epidermasining tuzilishi

o'xshash, ammo hujayralari kichikroq o'lchamli. Oval shaklidagi chang donalari uchraydi.

**Raqamli ko'rsatkichlar:** Antotsianlar miqdorini sianidiga o'tkazganda 3,5-diglikozid 0,6% dan kam bo'lmasligi kerak, namlik 14% dan, umumiy kuli 8% dan, xlorid kislotasining 10% eritmasida erimaydigan kuli 1% dan, gul savatchalari 1% dan, tabiiy rangini yo'qotgan gullar 10% dan, organik aralashma 0,5% dan, mineral aralashma 0,5% dan oshmasligi kerak.

**Miqdorini aniqlash:** Xom ashyoning analitik namunasi diametri 1 mm bo'lgan teshiklari bo'lgan elakdan o'tadigan qismlarga maydalanadi. Maydalangan xom ashyoning taxminan 0,3 g (aniq tortiladi) hajmi 250 ml hajmdagi kolbalarga joylashtiriladi, 1% li xlorid kislotasining 100 ml eritmasi qo'shiladi, kolba suv hammomida 15 daqiqa davomida 40-45<sup>0</sup>C haroratda ushlanadi. Ekstrakt paxta yordamida 250 ml hajmli kolbaga suzgichdan o'tkaziladi. Paxta xom ashyosi bilan yana kolbaga solinadi, 1% li xlorid kislotasining 100 ml eritmasi qo'shiladi, oldindan xom ashyo qismlarini voronkadan kolbaga yuvib solinadi va ekstraksiya yuqorida aytilganidek takrorlanadi. Keyin kolbadagi eritma paxta yordamida o'sha hajmli kolbaga suzgichdan o'tkaziladi. Suzg'ichdagi xom ashyo 1% xlorid kislotasining 40 ml eritmasi bilan yuviladi. Filtrat sovutilgandan so'ng, olib tashlangan xom ashyo hajmining o'rnini 1% xlorid kislotasi eritmasi bilan belgiga keltiriladi. Dastlabki 10 ml eritma to'kib tashlanib, olingan ekstrakt qog'oz suzg'ichdan sig'imi 250 ml bo'lgan kolbaga o'tkaziladi va filtratning optik zichligini qavatining qalinli 10 mm bo'lgan kyuvetada 510 nm to'lqin uzunligida spektrofotometrda o'lchanadi. Taqqoslash eritmasi sifatida 1% xlorid kislota eritmasi ishlatiladi.

**Qadoqlash:** Mato qoplarida yoki zig'ir-jut-kenaf qoplarida vazni 20 kg dan oshmasligi kerak. Bo'tako'z gullari 50 g dan II tipdagi qog'oz paketlariga qadoqlanib, ularni karton qutilarga joylashtiriladi. Yaroqlilik muddati 2 yil. Siydik haydovchi vosita hisoblanadi.

**Kimyoviy tarkibi:** Bo'tako'z gullari tarkibida sikoriin, sitaurin glikozidlari, gullarni ko'k rangga bo'yaydigan bo'yoqli moddalar (sianin), pelargonin xlorid, shilimshiq, taninlar va boshqa birikmalar mavjud. O'simlik o'ti tarkibida poliatsetilen aralashmalari (poliinlar), polienlar, va mevalarda alkaloidlar hamda 28% gacha yarim quritilgan yog'li moy mavjud.

**Tibbiyotda qo'llanilishi:** Bo'tako'z gullarining tarkibidagi anitsianlar tufayli ularning galenik preparatlari diuretik xususiyatlarga

ega. Bundan tashqari, bo'tako'z gullari yallig'lanishga qarshi, antimikrob va biroz o't haydovchi xususiyatlarga ega. O'simlik tarkibidagi achchiqlik ovqat hazm qilish funksiyasini yaxshilaydi. Shuningdek, bo'tako'z gullari antispazmolik, ter chiqaruvchi, tonik va biriktiruvchi xususiyatlarga ega.

Gullarning damlamalari va qaynatmalari – buyrak va siydik yo'llarining surunkali yallig'lanish kasalliklari, buyraklar va yurak-qon tomir tizimi kasalliklari bilan bog'liq bo'lgan kompleks davolashda qo'llaniladi. Siydik haydovchi yig'malar sifatida – buyrak toshi, pielit, sistit, uretrit, nefroz kasalliklarda tavsiya etiladi. Bundan tashqari, bo'tako'z gullari kon'yunktivit, blefarit uchun, ko'rish apparati charchog'i kuchayganda, shuningdek, yallig'lanishga qarshi va dezinfeksiyalash vositasi sifatida ishlatiladi. Shuningdek, ularni jigar va o't yo'llari, o't sekretsiyasi buzilganda qo'llash mumkin. Oshqozon-ichak trakti kasalliklarida ishlatiladigan turli xil yig'malar tarkibiga kiradi. Xalq tabobatida damlamasi – yo'tal, ko'klyush, nefrit, bachadondan qon ketishi, oshqozon-ichak trakti kasalliklari, asab tizimi, tungi ko'rlik uchun ishlatiladi.

**Sachratqi - *Cichorium intybus* L.**  
(Цикорий обыкновенный)



**O'simlik tavsifi.**  
Sachratqi – Asteraceae oilasiga kiruvchi urchuqsimon va yo'g'on ildizli ko'p yillik o'simlik. Poyasi tik turuvchi va uzun tuklar bilan qoplangan, barglar qarama qarshi joylashgan. Gullari ko'k, pushti va oq rangda, to'pgullari ichida yoki


kalta savatchalarda joylashgan. Sachratqi mevalari – pardasimon popukli prizmasimon pistacha. Bitta sachratqi to'pidan 3-25 ming dona urug' olish mumkin. O'simlikning barcha organlarida sutlama naylari joylashgan. Sachratqi yozda gullab, yozning oxiridan kuzning o'rtalariga qadar mevalaydi. Hozirgi vaqtda sachratki dunyoning

ko‘plab mamlakatlarida mazali ziravor va parxez taom mahsuloti sifatida ommabop hisoblanadi. Maydalanib qovurilgan sachratqi ildizi uzoq vaqtlardan beri Yevropaliklarning qahvaga (kofe) qo‘shiladigan sevimli ichimliklaridan biridir. Sachratqi ildizidan sut va qaymoq qo‘shib tayyorlangan sharbat qahvaning o‘rnini bosuvchi ichimlik sifatida asosan bolalar va sog‘ligi tufayli qaxva ichish mumkin bo‘lmagan odamlarning ratsioniga kiritilgan. Belgiyaliklar sachratqini pishloq va olma bilan dimlaydilar, latviyaliklar asal, limon va olma sharbati qo‘shilgan holda sachratqi ildizidan salqin ichimlik tayyorlashadi. Maxsus salat sachratqisining barglari va novdalari turli-tuman salatlarning tarkibiy qismi sifatida ishlatiladi, o‘simlikning yosh novdalari qaynatiladi yoki xamirga qo‘shib pishiriladi.

### O‘shish joyi.

#### Tarqalishi:

Toshkent, Jizzax, Samarqand, Qashqadaryo va Surxandaryo viloyatlarida keng tarqalgan, quyi va o‘rta tog‘ mintaqasining toshli va shag‘alli qiyaliklarida o‘sadi.



**Xom ashyoni yig‘ish va uning sifati:** Sachratqining ildizi kuzda sentyabr-oktyabr oylarida yig‘ib olinadi. Buning uchun ular birinchi navbatda belkurak yordamida kovlanadi, ba’zida plug yordamida haydab olinadi. Shundan so‘ng ildizlar qo‘l yordamida ajratiladi, yuviladi hamda quritiladi. Ildizni quritishdan oldin poyaning keraksiz qismidan tozalanadi. Ildizlar yo‘g‘on va uzun bo‘lsa, ular bo‘ylamasiga va ko‘ndalangiga bir necha bo‘laklarga bo‘linib, quritgichda 50-60<sup>0</sup>C haroratda quritiladi. Quritilgan xom ashyo burishgan ko‘rinishiga ega bo‘ladi. Tashqi tomondan ozgina jigarrang, ichi oq yoki sarg‘ish bo‘ladi. U o‘ziga xos hidga ega emas, faqat achchiq ta‘mga ega. Yer usti qismi har qanday dorivor o‘t kabi tayyorlanadi: sachratqi novdasining yuqorigi qismi gullash davrida yig‘iladi, alohida bo‘laklarga bo‘linib, havo yaxshi aylanadigan soya joylarda quritiladi.

**Kimyoviy tarkibi:** Sachratqi ildizida 60% gacha inulin, 10-20% fruktoza, intibin glikozidi (farmatsevtika sanoatida qo'llaniladi), shuningdek, karotin, B (B<sub>1</sub>, B<sub>2</sub>, B<sub>3</sub>) vitaminlar guruhlari, C vitamini, makro va mikroelementlar (Na, K, Ca, Mg, P, Fe va boshqalar), organik kislatalar, taninlar, pektin, oqsil moddalari, smolalar mavjud. Sachratqi ildizi tarkibida qimmatli modda inulin mavjud bo'lib, metabolizmni yaxshilaydi va ovqat hazm qilish tizimining faoliyatini normallashtiradi.

**Turli xil kasalliklarni davolashda sachratqidan foydalanish:** Sachratqi o'simligi uzoq vaqtdan buyon xalq tabobatida mashhur bo'lgan qimmatbaho dorivor o'simlik. Sachratqi ildizi qadimgi Rimda ovqatni hazm qilishni yaxshilash uchun ishlatilgan, Misrda undan ilon va o'rgimchak chaqqanida zaharga qarshi zardob tayyorlashgan. Mashhur Abu ali ibn Sino oshqozon-ichak trakti va ko'z kasalliklari, ko'z yallig'lanishi hamda podagra kasalliklarini davolashda sachratqi qo'llanilgan. Zamonaviy tibbiyotda sachratqi o'zining foydali dorivor xususiyatlari (tinchlantiruvchi, shakar miqdorini pasaytiruvchi, bog'lovchi, o't haydovchi, siydik haydovchi, yallig'lanishga qarshi, isitma tushiruvchi, gijja haydovchi xususiyatlar) tufayli juda xilma-xil qo'llanishlarni topgan.

**O'simlikni ovqat xazm qilish tizimi uchun foydasi:** Ildiz qaynatmasi ishtahani yaxshilash, oshqozon osti bezi faoliyatini normallashtirish uchun eng yaxshi vositalardan biri bo'lib kelgan. Bundan tashqari, o't qopi toshlarini eritishga yordam beradi, o't haydovchi ta'sirga ega, jigarda qon oqimi va uning metabolitik jarayonlarini yaxshilaydi. O'simlikdan olingan inulin bifidostimulyator bo'lib, foydali ichak mikroflorasini rivojlanishiga yordam berib, organizmning umumiy immunitetini mustahkamlaydi. Sachratqi tarkibidagi moddalar oshqozon va ichak shilliq qavatining yallig'lanish jarayonini susaytirishga yordam beradi. Yuqoridagi xususiyatlar tufayli sachratqi oshqozon va o'n ikki barmoqli ichak yaralari, gastrit, disbakterioz, dispepsiya, ich qotishi, jigar va o't pufagi kasalliklari (sirroz, gepatit va boshqalar) profilaktikasi va davolashda keng qo'llaniladi. Sachratqi asab va yurak-qon tomir tizimi uchun juda foydali. Ildizidan tayyorlangan sharbati kofeinni o'zida saqlamaydigan kofe o'rnini bosuvchi ichimlik sifatida qo'llanilishi mumkin bo'lmagan holatlar aniqlanmaganligi uchun gipertoniya, nevrasteniya, depressiya, uyqusizlik va migren kasalligi bor insonlar uchun foydali hisoblanadi. Sharbat B vitaminiga boy bo'lganligi tufayli inson asab tizimiga tinchlantiruvchi ta'sir ko'rsatadi (bu vitaminlar yaxshi kayfiyat, sog'lom

uyqu, energiya va quvvat uchun javobgar). Shu bilan birga kaliyga boy bo'lgan sachratqi (yurakning normal ishlashi uchun zarur) qondan ortiqcha xolesterindan foriq bo'lishda, tomirlarning kengayishiga, yurak qisqarishining amplituda va ritmini normallashtirishda yordam beradi. Aynan shu sababli ateroskleroz, taxikardiya, yurak-qon tomirlar tizimi kasalliklari va boshqa kasalliklarga chalingan insonlar uchun ratsionda sachratqi ichimligi istemol qilish foydali hisoblanadi. Sachratqi tarkibida yuqori miqdorda temir moddasi kamqonlikning (anemiya) oldini olish va kompleks davolashda ishlatiladi.

**Qandli diabet va semizlikka qarshi:** Tibbiyotda sachratqi ildizi tarkibida yuqori molekulyar polisaxarid inulinning yuqori miqdorini saqlagani uchun qimmatli hisoblaniladi. Aynan inulin qondagi qand miqdorini kamaytirishda, metabolizm va ovqat hazm qilishni yaxshilashda yordam beradi, bu barcha xususiyatlari kompleks ravishda diabetning oldini olish va davolashda ijobiy rol o'ynab, ortiqcha vaznga qarshi kurashda samarali hisoblanadi. Sachratqi teri kasalliklarini kompleks davolashda ham qo'llaniladi. Sachratqi bakteritsid va yallig'lanishga qarshi ta'sirga ega bo'lganligi uchun yarani davolovchi vosita sifatida ishlatilishi mumkin (o'simlikning damalama, qaynatma va spirtli nastoykasi seboreya, allergik dermatit, neyrodermatit, diatez, ekzema, suvchechak, psoriaz, pes, husnbuzar, furunkul va boshqalar). Kundalik hayotda sachratqidan foydalanish taloq kasalliklari, buyrak yallig'lanish kasalliklari va buyrak toshlarini davolashda sezilarli ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bundan tashqari, sachratqi tarkibini muntazam iste'mol qilish insonlarni toksinlar, radiaktiv moddalar va og'ir metallardan tozalashda yordam beradi.

**Qo'llash usuli. Sachratqi ildizidan qaynatma tayyorlash:** 1 qoshiq maydalangan sachratqi ildizi ustiga 200 ml qaynoq suv qo'shib, 10 daqiqa davomida past olovda qaynagandan so'ng qizdiriladi, so'ng tindirib suzgichdan o'tkaziladi. Qandli diabete uchun kuniga 3 mahal 50 ml dan ichiladi. Sachratqi ildizi qaynatmasi oshqozonosti bezi, o't pufagi, jigar (o't tosh kasalligida ham) kasalliklarida o't haydovchi vosita sifatida qo'llaniladi, siydik haydovchi vosita sifatida buyrak kasalliklarida, ovqat hazm qilishni yaxshilash va metabolitik kasalliklarni davolashda ishlatiladi. Tashqi tomondan teri kasalliklari va podagra kasalligi uchun vanna, ho'llanma va kompresslar sifatida qo'llaniladi.

**Sachratqi ildizini damlamasi:** 2 choy qoshiq maydalangan ildiz ustiga 200 ml qaynoq suv quyib, 1-2 soat damlanadi, sovutilib

suzgichdan o'tkaziladi. Damlama kun davomida 3-4 martada iste'mol qilinadi. Qandli diabetni davolashda ishlatiladi.

**Sachratqi o'ti va ildizining damlamasi:** 1 osh qoshiq sachratqi guli va 1 osh qoshiq sachratqi ildizi olinadi.

**Qo'llash mumkin bo'lmagan holatlar:** Qon tomir kasalliklari, shuningdek, vena qon tomirlari varikozi yoki gemoroy kasalliklari bilan og'rigan bemorlar kundalik ratsionida sachratqi mahsulotlarini iste'mol qilishdan oldin shifokor bilan maslahatlashishi kerak.

### **Iloncho'p - *Cistanche salsa* (C.A.Mey) Beck**

Ци́станхе солонча́ковая



<b>O'simlik</b>	<b>tavsifi:</b>
<i>Cistanche salsa</i>	(C.A.Mey)
Beck.	– Iloncho'p.
Orobanchaceae	–
Shung'iyadoshlar	oilasiga
mansub ko'p yillik o'simlik.	
Poya uzunligi 15-30-(40) sm, eni 10-12 mm, asosida ancha yo'g'onlashgan,	ustma-ust ko'psonli qoplangan,
tuxumsimon yoki cho'zinchoq-tuxumsimon, to'mtoq, silliq yoki orqa tomoni dag'al oq tuk bilan qoplangan,	chetalari esa pardasimon bo'lgan qipiq'larga ega.
To'pguli silindrsimon yoki oval-silindrsimon, bo'yi 8-20-(25) sm, guli zich o'troq yoki deyarli o'troq.	

oval-silindrsimon, bo'yi 8-20-(25) sm, guli zich o'troq yoki deyarli o'troq. Qoplaydigan qipiq'lar cho'zinchoq lansetsimon, to'mtoq, orqa tomoni kam yoki ko'p darajada dag'al tukchalar bilan qoplangan, chetalari pardali, bilinmaydigan tishchali, kipriksimon. Gulyonbarglari chiziq'likdan ellipssimongacha, to'mtoq, orqa tomoni kam yoki ko'p tukli, chetalari ingichka pardasimon, kosachabarg uzunligiga teng yoki undan biroz qisqa. Kosachabarglari naysimon qo'ng'iroqcha, uzunligi 10-14 mm, silliq yoki ko'p yoki kam dag'al tuklangan, 1/3 qismigacha yarim aylana shaklda, o'zaro teng, to'mtoq, chetalari pardasimon, dag'al kipriksimon tuklangan bo'lak'larga bo'lingan. Tojibarglari uzunligi 25-35 mm, tashqi tomonga kamroq yoki ko'proq egilgan, ba'zan deyarli




to'g'ri, pastki qismi naysimon, oqish, ichki qismida changchilari birikkan joyda odatda tukli, o'rtasidan tepaga qarab sekin-asta binafsha rangli egilgan joyi kengayadi, yarim aylana shaklida, deyarli bir biriga teng, qayrilgan yoki egilgan, chetlari kam yoki ko'proq kipriksimon qirqilgan bo'laklardan iborat.

Changchilari naysimon tojibargning quyi chorak qismiga birikkan, yupqa yassilashgan asoslari tukli iplari bilan, changdonlari sariq, zich tuklangan, uyalari qisqa o'tkirlashgan. Tuguncha cho'zinchoq tuxumsimon, gultojibarg naychasiga teng, silliq, ingichka ustunchaga o'tuvchi, yuqorida egilgan deyarli sharsimon, biroz 2 bo'lakli tumshuqchasi bor.

Ko'sagi tuxumsimon yoki oval tuxumsimon, kosachabarglari uzunligiga teng yoki qisman uzunroq, silliq, tuksiz, terisimon, ikki bo'lakli ko'p sonli ovalsimon yoki oval-noksimon juda mayda urug'lar hosil qiladi. Aprel oyi gullab, may-iyul oylari mevalaydi. O'zbekiston florasida 9 ta turi bo'lib, barchasi parazit o'simlik, xo'jayin o'simlik ildizida rivojlanadi va barglar o'rniga qipiqalar bo'ladi.

**O'sish joyi va tarqalishi:** Qumli-gilli va gilli sho'r tuproqlar hamda sho'rtob cho'llarda uchraydi.



Anabasis, Calligonum, Haloxylon va Salsola turkumlarining ko'p yillik o'simlik turlarida parazitlik qiladi. O'zbekistonda Buxoro, Navoiy viloyatlari va Qoraqalpog'istonda o'sadi.

**Xom ashyoni yig'ish va uning sifati:** O'simlikning xom ashyosi yer osti qismi, ya'ni – ildizi hisoblanib, urug'lagandan so'ng, tinim davridan oldin, biologik faol moddalari yuqori bo'lganda yig'iladi. Bu vaqtda o'simlikni yer usti qismidan osongina ajratish mumkin, chorva mollarini boqilishi va kuchli shamoldan keyin o'simlikni umuman topib bo'lmaydi. Yig'ilgan stolonlar (poyalar) tuproq va boshqa mineral moddalardan tozalanadi. Yo'g'on stolonlar 1-2 sm qalinlikda

maydalanadi. Zararkunandalar bilan zararlangan poya qismlari tashlab yuboriladi. Xom ashyo 2-3 kun davomida ochiq havoda, nam ob-havoda ayvon ostida quritiladi. Keyin havo yaxshi aylanadigan xona tokchalarida yoki 40<sup>0</sup>C haroratdan yuqori bo'lmagan quritgichlarda (5 sm qalinlikda) yoyib qo'yiladi. Ob-havo yaxshi bo'lganida quyoshda ham yupqa qilib brezent ustiga yoyib quritish mumkin va kechki vaqtda usti yopib qo'yiladi. Stolonlar quriganligini sinuvchanligi orqali tekshiriladi. Qurigan xom ashyodan qoraygan va turli xil aralashmalardan tozalanadi. Xom ashyo 15-20 kg qoplarda yoki 30 kg li toylarda qadoqlaniladi, hasharotlarda tozalangan quruq stellajlarda saqlanadi.

**Kimyoviy tarkibi:** Uglevod va unga tegishli birikmalar: D-manit. Organik kislotalar: qahrabo kislotasi. Iridoidlar: sistanin, sistaxlorin. Steroidlar:  $\beta$ -sitosterin,  $\beta$ -D-glyukozit  $\beta$ -sitosterin. Fenollar va birikmalari (v%): sistanozid A 0,085, sistanozid V 0,002, akteozid 0,072, exinakozid 0,106, sistanozidlar S va D, 2-atsetilakteozid, osmantuzid V, sistanozidlar E va F, sistanozid G, salidrozd, sizdanozidlar H va J, dikofeilakteozid. Lignanlar: liriiodendrin, O- $\beta$ -D-glyukopiranozid (+) – gorezinol sirini, siringin, (+) – pinorezinol. Flavonoidlar 0,55%.



### **Tibbiyotda**

**qo'llanilishi:** Markaziy Osiyoda damlamasi sifilis (zaxm) kasalligida ishlatiladi, suv ekstraktlari bakteritsid ta'sir ko'rsatadi. *Herba cistanche* yoki iloncho'p o'ti (noilmiy adabiyotlarda o'simliklarning stolonlar shunday deb ataladi) deyarli 2000 yil davomida Xitoyning an'anaviy tibbiyotida qo'llaniladi.

Sharq aholisi bu o'simlikni Jou-Sun-Jun (Roucongrong) deb atashadi. Yozma manbalarda u birinchi marta miloddan avvalgi 100 yilga mansub Muqaddas dehqonning (Shennong Bencao Jing) O'simlikshunoslik qonunida tilga olingan. Unda uni erkaklar va ayollarning jinsiy organlarining buzilishlarida, tayanch-harakatlanish

apparati, siydik ajratish tizimi va qon aylanishining buzilishini kasalliklarida qo'llash taklif etilgan. Iloncho'p o't bilan shifobaxsh yig'malardan foydalanish Min sulolasi davrida keng ommalashgan. Masalan, bu o'simlik Fu Renyuyaning 1644 yilda chop etilgan «Oftalmologiyaning bebaho kitobi»da (Shenshi Yaohan) yoshlikni qaytaruvchi (HuanShaoDan) va buyraklarni oziqlantiruvchi magnetit (Bushen Cishi Wan) dori vositalarini tarkibiga kirgan.

Hozir ham Xitoy tabobatida, shuningdek, Yaponiya va Tayvanda quvvatni oshiruvchi sharbatlar tayyorlashda qo'llanilib kelinmoqda hamda siydik ajratish yo'llarini davolashda, surunkali buyrak yetishmovchiligida foydalaniladi. Iloncho'p o'simligi asosan bepustlik va quvvatni oshirishda ishlatiladi. Ammo, asosan, iloncho'p o'tlari iktidarsizlik va bepustlikni davolash vositasi sifatida joylashtirilgan. Iloncho'pdan foydalanishning uzoq yillik tajribalari asosida uning ajoyib xususiyatlari tasdiqlangan. Bu chindan ham «cho'l jensheni». U afrodisiak xususiyatlariga ega, erektil disfunktsiya uchun samarali va bepustlikka yordam beradi.

Shuningdek, iloncho'p buyrakning yallig'lanishli kasalliklarini, nefrogen arterial gipertenziyani davolashda juda samarali, kognitiv funksiyalarni yaxshilaydi (konsentratsiya va aqliy faoliyat) va umumiy quvvatni oshiruvchi ta'sirga ega. Shu bilan birga iloncho'p juda yumshoq ta'sir ko'rsatadi, nojo'ya ta'sirlarga ega emas va uzoq muddatli foydalanishga yaroqlidir. Darhaqiqat, Xitoy va Yaponiyada o'tkazilgan ko'plab klinik oldi tadqiqotlar iloncho'p ekstraktining antioksidant, yallig'lanishga qarshi, neyroprotektor va immunostimullovchi xususiyatlarini tasdiqladi.

Iloncho'p o'simlik-xo'jayinda parazitlik qiladi, ya'ni mazkur holatda, oq saksovulda (*Haloxylon persicum* L.), katta maydonlarda tarqalgan hududlarda juda ko'p miqdorda uchraydi, ba'zan esa sezilarli populyasiyalarni hosil qiladi. Bunday populyasiyalarning 1 ga tijorat uchun maqsadli maydonlarida o'rtacha 30 dan 42 ta gacha o'simlik namunalarning borligi aniqlandi.

Nazorat joyidan yangi qazilgan o'simlikning og'irligi o'rtacha 320 dan 550 grammgacha (ho'l massa), uning qurish koeffitsienti 88% ni tashkil etdi, bunda nisbiy quruq massasi 38,4 dan 66 grammgacha bo'ldi, shunga asosan iloncho'p stolonlari xom ashyosining (nisbiy quruq massa hisobida) o'rtacha hosildorligi 1,88 kg/ga tashkil etadi.

**Dugʻbuy - *Codonopsis clematidea* (Schrenk) C.B. Clarke**

Кодонопсис ломоносовидный



**Oʻsimlik tavsifi:** Dugʻbuy – Campanulaceae oilasiga mansub ogʻir, yoqimsiz hidga ega boʻlgan koʻp yillik oʻsimlik. Ildizi kuchli, urchuqsimon. Poyasi tik turuvchi yoki egilgan, odatda koʻtarilib turgan, asosidan zich shoxlangan, tuklangan yoki silliq, balandligi 3 metrgacha. Barglari eng yuqoridagi qarama-qarshilardan tashqari, bandli, tuxumsimon, choʻzinchoq-tuxumsimon yoki kamdan-kam hollarda lansetsimon, oʻtkir, butun qirrali, toʻq yashil, kalta tuklangan. Gulbandlari uchki, bitta gulli, mayda oq dagʻal tuklar bilan qoplangan. Kosachabarglari koʻkintir, keng

choʻzinchoq, silliq yoki kiprikli, gullashdan keyin, odatda, kuchli oʻsgan boʻlaklarga ega. Gultojibarglari keng qoʻngʻiroqsimon, kulrang-moviy, tomirlari koʻk rangda, uzunligi 2-3 sm. Changchi iplari faqat asosida kengaygan. Koʻsagi siqilgan, teskari konus shaklida yoki tuxumsimon, oʻtkir. Urugʻlar tor ellipsimon, xira, qanotsiz. Iyun-avgust oylarida gullaydi va mevalaydi. Gullash paytida yigʻilgan oʻsimliklarning yer usti qismi dorivor xom ashyo boʻlib xizmat qiladi.



**Oʻsish joyi va tarqalishi:**

U nam yerlarda, oʻrta togʻ mintaqalarining daralar tubi boʻylab, toza togʻ soylari va irmoqlari boʻylab oʻsadi. U Oʻzbekistonning Toshkent, Samarqand, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida oʻsadi.


Respublikadan tashqarida u Tiyon-Shon, Pomir-Oloy, Jungar Olatogʻi, Shinjyan, Qashqar, Afgʻoniston, Kashmirda uchraydi.

**Xom ashyoni yigʻish va uning sifati:** Dugʻbuy oʻtlari ommaviy gullash va meva berish davrida yigʻib olinishi kerak,

shuningdek, FS 42 Uz-0164-2017 da belgilangan talablarga javob berishi kerak. Dugʻbuy oʻtini avgust oyida oʻsimlikning gullash davrida yigʻiladi. Yashil novdalar qisqartirilgan oʻroqlar yoki bogʻ qaychisi yordamida kesiladi. Oʻsimlik oʻti ochiq havoda, quyosh ostida yoki soyada quritilib, 10-20 sm qatlam qilib yoyiladi. Shu tarzda quritilgan maysa kombayn yordamida bargni poya, gulbandlari va aralashmalardan ajratish uchun maydalanadi va xom ashyoni yakuniy qayta ishlash saralash moslamalarida amalga oshiriladi. Farmakopeya maqolasi FS 42 Uz-0164-2017 talablariga koʻra, tayyor xom ashyo hajmi 0,3 dan 8 mm gacha boʻlgan turli xil shakldagi poyalar, barglar, gullar, koʻsaklar va urugʻlar boʻlaklaridan iborat. Hidi oʻziga xosdir. Taʼmi biroz xushboʻy. Namlik miqdori 12,0% dan, umumiy kuli 13,1% dan oshmasligi kerak. Mutlaqo quruq xom ashyoda efir moyining tarkibi kamida 0,2% boʻlishi, organik aralashmalar (boshqa oʻsimliklarning qismlari) 1% dan, mineral (qum, tuproq, tosh) 1% dan oshmasligi kerak. Butun oʻtni sof ogʻirligi 5-15 kg, maydalangani – 10-30 kg boʻlgan qoplarga joylashtiriladi. Xom ashyo quruq joyda 2 yilgacha saqlanadi. Boshqa dorivor xom ashyodan alohida, quruq, havo yaxshi aylanadigan joyda saqlanadi.

**Kimyoviy tarkibi:** Dugʻbuy yer usti qismida 0,04-0,08% kodonopsin va kodonopsinin alkaloidlari, veratrik va sirka kislotalari, koʻp miqdorda flavonoidlar, D, C vitaminlari, A provitami, 0,02-0,05% uchuvchan efir moyi, mineral tuzlar mavjud.

**Tibbiyotda qoʻllanilishi:** Oʻsimlikning yer usti qismidan tayyorlangan damlama xalq tabobatida gepatitda oʻt haydovchi va siydik haydovchi vosita sifatida ishlatiladi. Soʻnggi yillarda Oʻzbekiston



Respublikasi tibbiyot amaliyotida dug‘buy o‘tlaridan foydalanish uchun rasmiy ruxsat olingan.

**Qizil do‘lana – *Crataegus turkestanica* Rojark.**  
(Боярышник туркестанский)




**O‘simlik tavsifi:** Qizil do‘lana – bu Rosaceae oilasiga mansub tikansiz yoki yupqa, qo‘ltig‘idan chiqqan 12-15 mm uzunlikdagi tikanli daraxt. Barglari uzunligi 10-30 mm va eni 7-30 mm, to‘q-yashil, asosan, asosida keng ponasimon shaklida, pastki barglari qisqa novdalarda 3 bo‘lakli, yuqori qismi asosan 5 bo‘lakli, steril novdalar ustida 5-7 bo‘lakli. To‘pgul 12-15 guldan iborat. Kosachabarglari tor-lansetsimon. Gultojibarglari diametri 16-18 mm. Changchisi 18-20 ta. Mevalari keng ellipsimon, uzunligi 9-11 mm, 1 ta danakdan iborat. Iyun oyida gullaydi,

sentyabrda mevalaydi.

**O‘shish**

**joyi va tarqalishi:** U toshli va mayin tuproqli qiyaliklarda, toshli to‘kilmalarda, tog‘ qoyalar oralarida, gipsli gilli chiqish joylari, daryolar va daryolar qirg‘oqlari bo‘yida,



chakanda-jiydali va boshqa chakalakzorlarda, olcha-olmali, yongʻoq va zarangli oʻrmonlarda, kamroq archa oʻrmonlarida, butuzorlar orasida oʻsadi (ayniqsa togʻ tizmasining pastki qismida), karkaslarda, baʼzida yakka daraxtlar boʻlib oʻtsimon oʻsimliklar jamoalari orasida, qoldiq togʻchalar va togʻ oldi hududidan oʻrta togʻ mintaqasigacha qadar uchraydi. Qizilqum (Janubiy, qoldiq togʻlar), Tiyon-Shon (Gʻarbiy), Pomir-Oloy (tizmalari, Turkiston, Nurota, Zarafshon, Samarqand togʻlari, Hisorning janubi-gʻarbiy tizmalari, Karategin, Vaxsh, Petr Birinchi, Darvazda tarqalgan, Gʻarbiy Pomir: Vanch daryosi; Janubiy Tojikistonning past togʻlari: Sarsaryak, Surx, Rengentau Babatag, Kugitang tizmalari), Kopet-Dogʻ.

**Tarkibi, foydali xususiyatlari va qoʻllanilishi:** Qimmatbaho birikmalarning tarkibi qizil doʻlana tarkibiga oʻxshash boʻlib, xuddi uning davo xususiyatlari va retseptlari kabi Turkiston doʻlanasidan foydalanish mumkin.

**Oqquray** – *Cullen drupaceum* (Bunge) C.H.Stirt.  
(Псоралея костянковая)




**Oʻsimlik tavsifi:** Oqquray Fabaceae oilasiga mansub koʻp yillik oʻsimlik. Ildizi tuproqqa 2-4 m chuqurlikka boradi, yogʻochlashgan, kuchli, baʼzida koʻp boshli, och jigarrang, sinish joylarida sariq rangda. Poyasi tik turuvchi, koʻp sonli, balandligi 40 dan 130 sm gacha, oddiy va bezli tukchalar bilan zich qoplangan. Barglari murakkab uch boʻlakli, baʼzan oddiy va ikki bargchali, uchki va bitta yon barglardan iborat. Bargning plastinkasi yumaloq, zich tuklangan, ikkala tomondan yirik bezchalar bilan qoplangan, chetlari boʻylab yirik

oʻyikli, asosida butun. Gullari yakka qoʻltiqdan chiquvchi, koʻp gulli, boshhoqsimon shingilda joylashgan, ularning uzunligi gullash boshida 3-8 sm, gullash oxirida 10-17 sm. Meva zich mayin tukli, buyrak shaklida, chatnamaydigan bitta urugʻli dukkak, uzunligi 4-9 mm,

kengligi 2,5-3,5 mm, juda qisqa bandda. Maydan iyulgacha gullaydi; mevalari iyundan sentyabrgacha yetiladi. Tibbiyotda o'simlikni mevasi (dukkagi) ishlatiladi.

**O'sish joyiva tarqalishi:** Oqquray O'rta Osiyoda keng tarqalgan. U turli xil



sharoitlarda o'sadi, asosan tekisliklar va tog' etaklarining lyoss tuproqlarida o'sadi, bu yerda ba'zan deyarli zich o'sish maydonlarini hosil qiladi. Dengiz sathidan 200 dan 1500 m gacha balandlikda tarqalgan. U tashlandiq yerlarda va lalmi ekin maydonlarida begona o't sifatida, sug'oriladigan yerlarda, shuningdek, unumdorligi past qumlarda, past bo'lyi butalar orasida, quduqlar yaqinida, yengil qumli unumdorligi pasaygan yaylovlarda va boshqalarda uchraydi.

**Xom ashyoni yig'ish va uning sifati:** Oqquray mevalarini yig'ish iyun oyining ikkinchi yarmida yoki iyul oyining boshlarida boshlanishi va avgust oyining o'rtalarida tugashi kerak. Talablarga ko'ra, tayyor xom ashyo teskari tuxumsimon oq-kulrangli zich mayin tuklangan bitta urug'li mevedan (dukkak) iborat. Uzoq vaqt saqlanganda mevaning tuklari to'kilib, ular qora-qo'ng'ir rangga kiradi. Ta'mi hushta'm, biroz achchiq, hidi xushbo'y, o'ziga xosdir. Raqamli ko'rsatkichlar: psoralen va izopsoralen yig'indisi (mutlaqo quruq hom ashyoga nisbati bo'yicha) 0,9% dan; mutlaqo quruq va aralashmalardan xoli bo'lgan xom ashyo tarkibidagi furokumarinlarning tarkibi 1% dan; tijorat namunalarida 0,9% kam bo'lmasligi; namlik 10% dan; umumiy kul miqdori 7% dan; organik aralashmalar 4% dan ko'p bo'lmasligi kerak. Oqquray xom ashyosi og'irligi 40 kg gacha bo'lgan qoplarda qadoqlandi. Javonlarda quruq, yaxshi havo aylanadigan joyda saqlanadi. Xom ashyoning yaroqlilik muddati 3 yil.

**Kimyoviy tarkibi:** Oqqurayning dukkagi va ildizidan Psoralen preparati (psoralen va izopsoralen furokumarinlari aralashmasi) olingan. Voyaga yetgan mevalarda kumarinlarning eng katta miqdori (0,92%) o'simlikning yoppasiga mevalash davrida qayd etilgan. Ildizlarda



psoralen miqdori 0,18 dan 0,58% gacha; uning maksimal to'planishi o'simlikning yer usti qismini qurish davrida kuzatiladi. Bundan tashqari, oqquray ildizlari tarkibida 12,34% gacha tanin bor, yer usti qismida 0,03-0,4% yarim qattiq efir moyi, dukkagida 15,25% gacha yog'li moylar topilgan.

**Tibbiyotda qo'llanilishi:** Oqquray o'simlikning dukkagidan olingan psoralen preparati pes va uyali yumaloq kallikni davolashda ishlatiladi.

**Solab** - *Dactylorhiza incarnata* subsp. *Cilicica* (Klinge) H.Sund.  
(Ятрышник теневой)

**O‘simlik tavsifi:** Solab Orchidaceae oilasiga mansub ko‘p yillik o‘simlik hisoblanadi. Tugunaklari 1-6 ta barmoqsimon bo‘lingan uzun o‘simtalarga ega, yon tomondan kuchli siqilgan. Poyaning bo‘yi 30-40(45) sm, tik turuvchi, ancha yo‘g‘on, ichi g‘ovak bo‘ladi. Barglar soni odatda 6-7 ta lansetsimon yoki chiziqli-lansetsimon, o‘tkirlashgan yoki to‘mtoq, tik-egilgan yoki egilgan, pastki barglari uzunligi 10-20 sm, eni 2-2,5 sm, o‘rta yoki pastki qismi ko‘proq kengaygan, barcha barglar qisman oralari ochiq joylashgan, odatda uzunasiga bukilgan, yuqorigilari ingichkaroq, odatda to‘pgulning asosiga yetib bormaydi. To‘pgullarining uzunligi 5-15 sm, cho‘zilgan-silindirsimon yoki cho‘zinchoq-tuxumsimon, qalin yoki siyrak qoplangan. Gulyonbarglari



chiziqli-lansetsimon, o‘tkirlashgan, to‘g‘ri yoki qisman egilgan, pastkilari gullardan ikki barovar uzun. Gullari binafsha-siyohrang. Gulqo‘rg‘onning tashqi barglari tuxumsimon-lanset, to‘mtoq, uzunligi 7-9 sm, eni 2-3 mm, yonlari teng bo‘lmagan, ichkilarining uzunligi 5,5-6 mm, asosida eni 2 mm, deyarli tik turuvchi, tashqi o‘rtadagilar bilan deyarli bir xil uzunlikda. Gul lablari eni 9-10 mm, uzunligi 7-8 mm, romsimon-yumaloq yoki yumaloq-teskari yuraksimon yoki ovalsimon, odatda ingichka ponasimon, asta-sekin kengaygan, odatda bo‘yidan eni kengroq, kamroq hollarda cho‘zilgan, deyarli butun yoki noaniq bo‘lakli, asosida ulardan tashqariga qarab uzun chiziqli qora dog‘li siyoh


rangdagi naqshi bor; yon bo'laklari yumaloq, butun, kamroq tishsimon, o'rta bo'lakchasi qisqa tumtoq-yumaloqlashgan yoki cho'zilgan. Pixi silindrsimon, ozgina egilgan, to'mtoq, uzunligi 10-11 mm, labchasidan uzunroq, odatda tugunchaga teng. May oyidan iyul oyining oxirigacha gullaydi.

### O'sish

#### joyi.

#### Tarqalishi:

O'simlik nam botqoqli yerlarda, o'tloqlarda, daryo irmoqlari, daryo qirg'oqlari, daryo boshlari va vodiylarda, to'qayzorlarda, namlik yuqori



bo'lgan qiyaliklar va jarliklarda, ariq bo'ylaridagi butazorlarda, tolzorlarda dengiz sathidan 700-2800 m balandlikda uchraydi. Toshkent, Qashqadaryo va Samarqand viloyatlarida tarqalgan. Areali. O'rta Osiyo (Jungar Oloyi, Tiyon-Shon, Pomir Oloy).

**Xom ashyoni yig'ish va uning sifati:** Dorivor xom ashyo sifatida qurigan holatida solab deb nomlanuvchi tugunaklari hisoblanadi. O'simlik tunganagini gullash vaqtining oxirida yoki gul pixi to'kilib ketmasdan gullash jarayoni tugagandan keyin yig'ib olinadi. Qazib olingan tunganaklar tuproqdan tozalanadi, tezda yaxshilab sovuq suvda yuviladi va 1-2 daqiqa davomida qaynoq suvda botiriladi, bu quritish vaqtida tugunaklarni o'sib ketishini oldini oladi. Xom ashyolar soyada yoki quritgichda 50°C haroratda quritiladi. Tayyor xom ashyo – yaxshi quritilgan tugunaklar, zich, og'ir, biroz shaffof; ta'msiz va hidsiz, sarg'ish-oq yoki oq-kulrang ko'rinishida bo'ladi.

**Kimyoviy tarkibi:** Tugunaklarda taxminan 50% shilimshiq moddalar, 27% kraxmal, 5% oqsil moddalar tarkibida, shakar, shovul nordon kalsiysi va mineral tuzlar mavjud.

**Tibbiyotda qo'llanilishi:** Zamonaviy tibbiyotda yosh tugunaklari oshqozon ichak kasalliklari, nafas yo'llarining o'tkir va

surunkali kasalliklari, surunkali va oʻtkir bronxit, gastroenterit, enterit, diareya, ayniqsa bolalarda dizenteriya, siydik pufagi yalligʻlanishi, aryim zaharlar bilan zaharlanish holatlarida qoʻllaniladi. Yosh ildiz tugunaklari ogʻir kasalliklardan keyin, kuchli tashvishlanish, qarilik holsizligi, sil kasalligi bilan ogʻrigan bemorlarga va kuchli qon ketishda tiklovchi vosita sifatida ham qoʻllaniladi. Solab ayniqsa, ichak faoliyati buzilgan bolalarga oʻsimligi juda foydalidir. Solabning suvli emulsiyasini diareya, shu jumladan, dizenteriyada klizmalarda keng qoʻllaniladi. Emulsiya tarkibiga zigʻir urugʻidan tayyorlangan qaynatma qoʻshiladi (1 choy qoshiq zigʻir urugʻi 1 stakan qaynoq suvga). Sharq mamlakatlarida solab oʻsimligining tugunaklari sogʻliqni tiklash uchun kuchli zaiflik, erkaklar bepushtligida ishlatiladi. Xalq tabobatida tugunaklaridan olingan kukun jinsiy zaiflik, sil kasalligi, qarilikda quvvatni saqlash va kuchli qon ketish, ruhiy shikastlanishda, oshqozon kasalliklari, diareya, dizenteriya, oshqozon va oʻn ikki barmoqli ichak yaralari, yarali kolitlar, distrofiya, yuqori nafas yoʻllari katari, ogʻiz boʻshligʻi va tomoq yalligʻlanishi kasalliklari, oshqozon-ichak trakti toʻqimalarini ovqat va boshqa zaharlanishlar natijasida yalligʻlanganda shilimshiq bilan davolashda qoʻllaniladi. Diareyada yaxshi natija olish uchun solab eritmasiga zigʻir urugʻining 1/10 qismi qoʻshib, klizma qilinadi.

**Xalq tabobatida qoʻllaniladigan retseptlar:** Solab kukunini sifatini tekshirish uchun 1 qismi 100 qism suvga solib qaynatiladi, quyuq va deyarli rangsiz shilimshiq olinadi, suyuqlik sovutilgach unga bir necha tomchi yod tomizilsa, shilimshiq koʻk rangga kiradi. Qoʻllashdan oldin tugunak kukun holatigacha maydalanadi, oldin 10 qism sovutib qaynatilgan suvda eritiladi, soʻngra 90 qism qaynatilgan suv (yoki issiq sut) qoʻshiladi, aralashma suyuq qaymoq holatiga kelguncha aralashtiriladi. Quvvatsiz insonlarga suvda yoki asal bilan sutga qoʻshib, sutkalik dozasi 40 g dan ichiladi. Solab oʻsimligi bundan tashqari shilimshiq holatida ham qoʻllaniladi, u quyidagicha tayyorlanadi: tugunaklari maydalanib, ustiga bir stakan issiq suvga 2 g quritilgan tugunak qoʻshiladi (harorati 50-60°C), damlama 10-15 minut aralashtiriladi. Damlama salqin joyda 2-3 kungacha saqlanadi, ammo uni tayyorlagandan soʻng darrov ichish uchun oshqozon va ichak kasalliklarida och qoringa 1 osh qoshiqdan kuniga 4-5 marta ichiladi. Bronxit kasalligida ovqatdan oldin va keyin 1 choy qoshiqda ichiladi. Tayyor boʻlgan jelatinsimon moddani butqa, shoʻrva, sut va boshqa mahsulotlar bilan barcha kasalliklarda isteʼmol qilish foydalidir. Massa

taʼmsiz va hidsiz boʻladi. Bolalar uchun dozani ularning yoshiga qarab kamaytirish zarur. Damlamasi: 1 choy qoshiq maydalangan tugunakka bir stakan qaynoq suv qoʻshib, 15 daqiqaga qoldiriladi, issiq joyda vaqti-vaqti bilan aralashtiriladi, damlamani issiq holatda ichiladi. Bolalarga ich ketishda sovutilgan holatda isteʼmol qilinadi. Qaynatma: 200 ml suvga 3-10 g tugunak kukuni, 1-2 osh qoshiqdan kuniga 3-4 marta ichiladi.

Klizma: 2 stakan qaynoq suvga 2 choy qoshiq solab solib (oldin kukun sovuq suvga buktiriladi), choy qoshiqning 1/4 qismiga teng miqdorda ezilgan zigʻir urugʻi qoʻshiladi.

**Bangidevona - *Datura stramonium* L.**

(Дурман обыкновенный)



**Oʻsimlik tavsifi:** Solanaceae oilasiga mansub bir yillik 100-120 sm balandlikda yoqimsiz hidli oʻsimlik. Ildizi shoxlangan, urchuqsimon. Poyalari silliq, tik turuvchi, ayrisimon shoxlangan. Novdalari, barg bandlari va oʻtkazuvchi bogʻlamlari yumshoq tuklangan. Barglari ketma-ket, bandli, tuxumsimon, oʻtkirlashgan, asosida ponasimon toraygan. Yuqorigi yosh barglari kuchli tuklangan. Barg yaprogʻi uzunligi 25 sm gacha, eni 20 sm

gacha, ustki tomoni yashil, ostki qismi och-yashil boʻlib, bogʻlamlari juda sezilarli chiqib turadi. Gullari yirik (uzunligi 8-10 sm), yakka. Kosachabarglari gultojibargdan 2 baravar qisqaroq, besh tishli. Gultojibargi oq rangli, uzunligi 12 sm gacha, naychali-voronkasimon, egilgan joyi burushgan, keng, besh boʻlakli.



Mevasi – tuxumsimon ko‘sak, ko‘p sonli qattiq va qalin tikanlar bilan qoplangan, chatnaydigan to‘rt bo‘laklari. Urug‘lari uzunligi 3-3,5 mm, qora, mayda, yumaloq-buyraksimon, yon tomonlaridan siqilgan. Iyundan to kuzgacha uzoq vaqt gullaydi. Iyul oyida mevalaydi.


O‘sish joyi. Tarqalishi: Ruderal o‘simlik bo‘lib, uylarning yaqinida, uyumlarda,

tashlandiq joylarda o‘sadi. U Toshkent, Samarqand, Andijon va Surxondaryo viloyatlarida, shuningdek, Qoraqalpog‘istonda uchraydi.

Kimyoviy tarkibi: Barcha organlar tarkibida alkaloidlar, asosan, giossiamin, atropin, skopolamin mavjud: barglarda – 0,23-0,37%, poyalarda – 0,06-0,24%, ildizlarda – 0,12-0,27%, gullarda – 0,13-1,9%, urug‘larda – 0,08-0,22%. Bundan tashqari, bangidevona barglarida 0,04% gacha efir moyi, 0,1% gacha karotin va 1,7% taninlar bor. Bangidevona urug‘lari tarkibida 17-25% yog‘li moy mavjud bo‘lib, ular tarkibiga linolein – 45%, olein – 40%, palmitin – 12%, stearin – 2% va lignotserin kislotalari kiradi.

**Xom ashyoni yig‘ish va uning sifati:** Asosan bangidevonaning barglari gullash bosqichi boshlanishidan to meva hosil bo‘lgan vaqtgacha, ya’ni kech kuzgacha, o‘simlikning vegetatsiya davrida 3-4 marta yig‘ib olinadi. Bu o‘simlikning xom ashyosini yig‘ishda muayyan ehtiyot choralari talab qilinadi. Masalan, bu o‘simlikni qo‘llar bilan ushlab mumkin emas va xom ashyoni yig‘ishda qo‘lqoplardan foydalanish zarur. Yig‘ilgan xom ashyoni uyda va ayniqsa pechlarda quritish mumkin emas.

**Farmakologik xususiyatlari va tibbiyotda qo‘llanilishi:** Bangidevona davolovchi ta’siri giossiamin va boshqa alkaloidlarning xolinolitik, og‘riq qoldiruvchi faoliyatiga bog‘liq. Bangidevona barglariga asoslangan preparatlar tutqanoqli yo‘talda va bronxlar mushaklarining spazmlarini yumshatish uchun samarali ta’sirga ega.



**An'anaviy tibbiyotda qo'llanilishi:** Bangidevona azaldan zaharli va dorivor o'simlik sifatida tanilgan. O'rta asrlarda Yevropada bangidevona barglari og'riq qoldiruvchi vosita sifatida ishlatilgan. Dunyoning ko'plab mamlakatlarida xalq tabobatida u ruhiy va asab kasalliklari, surunkali va o'tkir bod, nevrалgiya, shuningdek, nafas qisilishi uchun ishlatilgan.

**Ogohlantirish!** Bangidevona zaharli o'simlik bo'lib, undan foydalanish alohida e'tibor talab qiladi.

**Isfarak - *Delphinium semibarbatum* Bien. ex Boiss.**

Живокость полубородатая

**O'simlik tavsifi:** Ranunculaceae oilasiga mansub ko'p yillik ildizpoyali



o'simlik, poyasining asosida zich joylashgan zangsimon-qo'ng'irrang barg qinlariga ega. Poyasi bargsiz, kuchli, balandligi 40-100 sm va qalinligi 8-20 mm, deyarli zichroq mayda so'galli tukchalar bilan qoplangan, ba'zan deyarli silliq, pastki qismida yalpoqlashgan, qizg'ish, yuqori yarmida, to'pgul qismida, ko'p shoxlangan, katta piramidasimon to'pgulni hosil qilgan novdalari 45° burchak ostida chiqadi. Barcha barglar ildizbo'g'zidan chiqqan, yirik, kalta yalpoqlashgan, odatda so'galli bandchalarida, 2-3 baravar barg

yaprog'idan kalta, yaproqning uzunligi 18-50 sm va eni 20-60 sm, dumaloq-buyraksimon, chetlari bo'ylab biroz to'lqinsimon, buyraksimon asosi bilan, ostki qismida uchta asosiy ajralib turuvchi tomirlari bor, ikki tomoni yoki faqat chekkasi va ostki qismida tomirlar bo'ylab juda zich mayda sugallar bilan qoplangan.



Gullari tutam bo‘lib uzun gulbandlarda joylashgan, pastki uchdan bir qismida yoki o‘rtasida birikadi. Gulqo‘rg‘on barglari deyarli bir xil, uzunligi 3 mm va eni 1 mm, yashil rangga ega. Mevalar yirik, keng ovalsimon, uzunligi 15-20 mm va eni 10-15 mm, tuxumsimon burushgan, binafsha-jigarrang yong‘oqchaga ega; qanotlarini kengligi yong‘oqchaga teng yoki biroz toraygan, binafsha-qizil, asosida va yuqorida yuraksimon, uyilgan, o‘tkazuvchi bog‘lami chetidan 0,5-1 mm masofada o‘tadi. May-iyul oylarida gullaydi va mevalaydi.

### O‘shish joyi.

**Tarqalishi:** Tog‘larning o‘rta mintaqalarida o‘tli yoki shag‘alli qiyaliklarda uchraydi. U Toshkent, Samarqand, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida uchraydi.


### Xom ashyoni yig‘ish va uning sifati:

Isfarak ildizsiz yer usti

qismi sanoat qayta ishlovi uchun dorivor xom ashyo sifatida ishlatiladi. Gullash davrida bargli yuqori qismlari, gullari yoki barcha yer usti qismi, shuningdek, to‘liq pishib yetilish davrida mevalari xom ashyo sifatida yig‘iladi. Yig‘ilgan xom ashyo aralashmalardan tozalanishi va yaxshilab quritilishi kerak.

**Kimyoviy tarkibi:** Isfarakning asosiy tarkibiy qismi alkaloidlar hisoblanadi: delsemin, elatin, kondelfin va meliktin bo‘lib, ularning farmakologik xususiyatlari tegishli preparatlarni tavsiflashda quyida keltiriladi.

**Tibbiyotda qo‘llanilishi:** Delsimin va boshqa isfarak alkaloidlari analogik ta’sirga ega, bu uning bir vaqtning o‘zida mionevral sinapslarga (asab hujayrasi o‘simtasi shoxlarining tegib turish sohasi – aksonning boshqa hujayralar bilan) va markaziy asab tizimiga ta’siriga asoslangan. Uning faoliyati individual mushaklarning falaji bilan ifodalanadi – quyidagi tartibda yuzaga keladigan guruhlar: yuz, oyoqlar, qo‘llar, qorin mushaklari va oxirgi navbatda – diafragma. Xalq tabobatida isfarak barglari – astma va tutqanoqli yo‘tal, shuningdek, qo‘zg‘atuvchi, birikturuvchi vosita sifatida; gullari choy





shaklida hayz ko'rish kechikkanda va yangi o'tining sharbati yaralarni davolash uchun ishlatiladi.

**Ogohlantirish:** O'simlik zaharli hisoblanadi va ishlatilganda alohida e'tibor talab etiladi.

**Xo'jalik axamiyati.** O'simlik gullaridan paxta, jun va ipak matolarni bo'yash uchun turg'un bo'yoq olinadi. O'tgan vaqtda yorug'lik filtrlarini ishlab chiqarish uchun ham ishlatilgan.

### **Jiyda - *Elaeagnus angustifolia* L.**

Лох узколистный

**O'simlik tavsifi:** Jiyda bu Elaeagnaceae oilasiga mansub daraxtsimon buta, qizil-jigarrang po'stlog'i, yirik poyali tikanlari, lansetsimon tor barglari mavjud. Gullari kalta gulbandlarda joylashgan, mayda, 1 sm



dan oshmaydi. Ular barglarning qo'ltiqlarida 1-3 donadan joylashgan. Har bir gulda oddiy to'rt a'zoli qo'ng'iroqsimon gulqo'rg'oni, 4 ta changchi va ipsimon ustunchali urug'chi mavjud. Hasharotlar yordamida o'zaro changlanadi. Gullash paytida gullarning


xushbo'y shirin hidi uzoqdan seziladi. Mevalari ovalsimon, unsimon, sarg'ish-qo'ng'irrang, danak meva, shakli zaytungaga o'xshaydi. Mevasi shirin, unsimon, ozgina biriktiruvchi ta'mga ega. O'simlikning bo'yi 10 metr balandlikka yetadi.

**O'sish joyi va tarqalishi:** O'zbekiston hududida u Toshkent, Samarqand, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlari va Qoraqalpog'istonda uchraydi. Dekorativ va mevali o'simlik sifatida u parklarda, bog'larda va ixota o'simligi sifatida dala chetlarida ekiladi, shuningdek, daryo bo'ylarida, o'rmon chetlarida o'sadi. Jiyda juda qadimgi madaniy o'simlik bo'lib, uning madaniylashtirilgan shakllarida tikanlar bo'lmaydi. Ushbu o'simlikning ko'plab yirik mevali navlari

mavjud. Ushbu navlar ko'p asrlar davomida o'tkazilgan tanlov natijasidir.

**Xom ashyoni yig'ish va uning sifati:**

Barglari, mevalari, gullari dorivor maqsadlarda ishlatiladi. Xom ashyoni yig'ishda barglar yozning birinchi yarmida, gullari – may va iyun



oyining boshlarida yig'iladi. Hosilni yig'ish qiyin tuyulmasa ham iloji boricha kamroq tikanli daraxtlarni tanlash lozim. Jiyda gullari barglar bilan birga yig'iladi. Xom ashyo havo aylanadigan soyabon ostida yoki maxsus moslashtirilgan quritgichlarda 40-50°C dan yuqori bo'lmagan haroratda quritiladi. Tayyor xom ashyoni ikki yildan ortiq bo'lmagan vaqt davomida saqlash mumkin, gullari – faqat bir yil, keyin ular foydali sifatini yo'qotadi.

**Kimyoviy tarkibi:** Mevalar tarkibida 40% dan ortiq shakar, shu jumladan, glyukoza (taxminan 20%) va fruktoza (10% dan ortiq), oqsil, fosfor va kaliy tuzlari, 40% gacha bog'langan va erkin taninlar, bo'yoqlar, organik kislotalar mavjud. Po'stlog'i tarkibida taninlar, bo'yoqlar va alkaloidlar; barglarda askorbin kislotasi (0,1-0,3%) mavjud. jiyda daraxtining novdalari va tanasida ma'lum darajada kamed mavjud bo'lib, o'simlik 5-12 yoshida kuchli ajralib chiqadi. Gulo'ni tarkibida ko'plab mikroelementlar – mis, rux, xrom, alyuminiy, nikel; novdalarida – efir moyi (0,3%) mavjud.

**Farmakologik xususiyatlari:** Jiyda preparatlari kam toksik hisoblanadi, xolinolitik ta'sirga ega, shuningdek, nafas olish tizimiga va yurak faoliyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi va qon bosimini pasaytiradi. Ichaklarni, oshqozon, oshqozon osti bezi, buyrak va yurak kasalliklarini davolashda ishlatiladi. Jiyda mevalari tinchlantiruvchi ta'sirga ega, uxlatuvchi vositalarining ta'sirini kuchaytiradi, mo'ljal olish reaksiyalarini bostiradi, g'azablanish va tajovuzkorlikni rivojlanishiga yo'l qo'ymaydi. Mevadan kolloid va taninlarning konsentratlari – pshatin olingan. Pshatin enterokolit va boshqa ovqat hazm qilish kasalliklari

uchun biriktiruvchi vosita sifatida ishlatiladi. Bemorlar preparatni ichga qabul qilganda ovqat hazm qilish tizimining funksiyalari va umumiy holati yaxshilanadi; og‘iz bo‘shlig‘ining yallig‘lanish kasalliklarida og‘iz chayiladi. Xuddi shu maqsadda xalq tabobatida meva damlamasidan foydalaniladi.

**Ishlatilishi:** O‘simlikning yangi barglari bod kasalligi, podagra, radikulit uchun ishlatiladi, yallig‘lanishni yaxshilash va tezda bitishi uchun yiringli va bitmaydigan yaralarga surtiladi, bog‘lam har kuni yangilanadi. Mayda ezilgan jiyda mevalari va zupturum barglari bavo sil uchun yaxshi vosita hisoblanadi. Po‘stlog‘ining damlamasi qon ketishini to‘xtatish uchun foydali. Yangi sharbati bezgak va gipertenziya uchun samarali hisoblanadi. Jiyda mevalarining kaynatmasi: 1 stakan qaynoq suv 30 g mevalarga quyiladi, suv hammomida yopiq sirlangan idishda 30 daqiqa davomida qaynatiladi. Keyin qaynatma bir necha doka orqali issig‘ida suziladi, siqib olinadi va birlamchi hajmiga keltiriladi. 2 osh qoshiqdan ovqatdan oldin kuniga 3-4 marta iliq holda iste‘mol qilinadi. Qaynatma muzlatgichda 2 kungacha saqlanadi. Qaynatma nafas olish yo‘llari kasalliklari, shamollash va kuchli isitma, yo‘g‘on ichak va oshqozonning yallig‘lanish kasalliklari, enterokolit, diareya, ichak katari, oshqozon kasalliklarida samarali hisoblanadi, og‘izdagi yallig‘lanish jarayonlarida qaynatma bilan og‘izni chayish foydalidir. Gullarning damlamasi. 1 stakan qaynoq suv 6 gramm gullar va barglar ustiga solinadi, suv hammomida 15 daqiqa damlanadi, suzgichdan o‘tkaziladi, siqib olinadi, so‘ng birlamchi hajmiga keltiriladi. Ovqatdan oldin kuniga 3 marta stakaning uchdan bir qismi ichiladi. Jiyda damlamasi gipertoniya, yuqori nafas yo‘llari kasalliklari, isitma tushiruvchi vosita va yurak mushaklari faoliyatini kuchaytirishda, shishishlar, singa, kolit kasalliklarida, antigelmint vosita sifatida ishlatiladi. Ozuqa sifatida iste‘mol qilinishi. Mevalari yangi uzilgan holatda ham, maydalangan holatda ham sho‘rvalar, non, pryaniklar va boshqa taomlarga qo‘shib ishlatiladi. Turli xil mevalar bilan birgalikda ular kompotlar tayyorlash uchun ishlatiladi. O‘ziga xos o‘tkir xushbo‘y hidli vino tayyorlanadi. Dekorativ va boshqa maqsadlarda foydalanish. Jiyda butalash, ko‘chirib o‘tkazish, havoning ifloslanishiga oson moslashadi, kumushrang barglari, xushbo‘y gullari, yorqin po‘stlog‘i parklar va bog‘lar uchun juda qimmatli va o‘ziga xos o‘simlik sifatida xizmat qiladi. To‘q yashil fonda juda dekorativ ko‘rinishga ega. Jonli devorlar tarzida ham foydalansa bo‘ladi, lekin muntazam ravishda

butalanishi kerak, aks holda u tez daraxtga aylanadi, kesish ishlari yozning boshida va oxirida amalga oshiriladi. U to'g'onlar, daryolar va kanallar qirg'oqlarini mustahkamlaydigan, dala himoya ixotalari uchun ekin sifatida ishlatiladi. Jiyda erta asal-shirali o'simlik, asosan nektar ishlab chiqaradi. Asal unumdorligi 200 kg/ga gacha. Asali sariq-jigar rangda, o'ziga xos ta'mi va hidiga ega. Qobiq va barglari terini bo'yash va oshlashda ishlatiladi. Yog'ochi yuqori yopishqoqligi, zichligi, suvga yaxshi chidamliligi bilan ajralib turadi, undan musiqa asboblari va mebel ishlab chiqarish uchun foydaniladi. Kamedi bo'yoq, yelim va laklar tayyorlash uchun ishlatiladi. Undan tabletkalar ishlab chiqarishda emulgator va bog'lovchi modda sifatida foydaniladi.

**Zira - *Elwendia persica* (Boiss.) Pimenov & Kljuykov**  
(Элвендия персидская)

**O'simlikni tavsifi:** Zira – Apiaceae oilasiga kiruvchi ko'p yillik o'simlik, balandigi 70 sm. Poyasi chiziq-chiziqli, to'g'ri, poyaning o'rtasidan qalqonsimon shoxlangan, novdalari egilgan. Ildizbo'g'zi



barglari uzun bandli, barglari uch bo'lakli, tarvaqaylagan, ikki karra patsimon bo'lingan; poya barglari o'troq, barg bandi qisqa, ikki karra patsimon bo'lingan. Soyabonlari 15-20 nurli, eni 15 sm, o'rama barglari mavjud emas. Soyabonchalari 20-30 gulli. Soyabondagi gullari meva

beruvchi. Mevalari chiziqsimon, uzunligi 5 mm gacha, eni 1,5 mm, yupqa meva bandlaridan qisqaroq, yarim mevachalar pishish davrida bir biridan ajraladi, ko'ndalang kesimida besh qirrali, qirralari ipsimon. Ajratma kanallari o'rtacha,




qirralar orasida bittadan joylashgan. Urugʻlari ichkariga biroz botiqsimon. May-iyun oylarida gullab, iyul-avgust oylarida mevalaydi.

**Oʻsish joyi. Tarqalishi:** Respublika hududida zira dengiz sathidan 700-2000 m balandlikda, Gʻarbiy Tiyonshon va Pomir-Oloy togʻ tizmalari adir va togʻ mintaqalarining lyoss tuproqlarida uchraydi.

**Xoʻjalik ahamiyati:** Ziraning mevalari 250 dan ortiq taomlarda

ishlatiladi. Bundan tashqari, kolbasa, qazi, goʻsht tayyorlashda va baliqlarni konservalashda, sabzavotlarni tuzlashda va goʻshtni buzilishdan saqlash uchun qoʻllaniladi. Mahalliy aholi maydalangan mevalaridan



quritilgan meva qoqlarini ichiga solib, hashoratlar lichinkalarini yeyishdan saqlash uchun foydalanadi. Xalq tabobatida zira mevalari siydik haydovchi sifatida qoʻllaniladi. Abu Ali Ibn Sino zira mevalaridan taloqdagi oʻsimtalarini davolashda va urugʻlarining damlamasidan qonni toʻxtatishda foydalangan. Soʻnggi paytlarda zira oziq-ovqat sanoatida va pazandachilikda keng qoʻllanilmoqda, unga boʻlgan talab yildan yilga ortib bormoqda. Shu sababli, mavjud boʻlgan tabiiy zira maydonlaridan foydalanish, oʻsimliklarning biologik xususiyatlarini hisobga olgan holda ularni himoya qilish choralari ishlab chiqish kerak.

**Xom ashyoni yigʻish va uning sifati:** Zira oʻsimlik jamoalarida birlamchi ahamiyatga ega emas, oʻsimlik kichik guruhlar tashkil qilib yoppasiga oʻsish maydonlarini hosil qilaydi. Uning asosiy chakalaklari Turkistonning gʻarbiy qismida, Hisor va Zarafshon togʻ tizmalarining janubiy-gʻarbiy qismida uchrashi qayd etilgan. Urugʻ mahsuldorligi ziraning oʻsish joyi, tarqalishi va dengiz sathidan balandligiga bogʻliq. Zira oʻsimligi urugʻining maksimal miqdori dengiz sathidan 1400 m, minimal miqdori 700 m balandlikka toʻgʻri keladi, bu joylardan 1 gektardan 3-8 kg hosil olish mumkin. Oʻzbekistonda ziraning yoppasiga

o'sish maydonlari 8,2 ming gektarga tashkil etadi. Zira urug'larini yig'ish uchun eng qulay joylar Turkiston tog' tizmasi (Usmonli, Uval, Ingichkasoy, Orqamozor jarligi, Dug'ob qishlog'i atrofi, Toldi va b.); Hisor tizmasining janubiy-g'arbiy qismi (Tamshush, Qizilemchak, Chilon, Oqmachit qishlog'i yaqini, Miraki, Toshqo'rg'on, Hisorak, Zagxana); Zarafshon tizmasi (Chorchinor, Qo'zicha, Qoratepa qishlog'i va Omanqo'ton qishlog'i tog'lari atrofida) hisoblanadi. Ziraning mevalari bir vaqtda pishmaydi. Pishgan mevalar, ayniqsa, issiq va shamolli ob-havo sharoitida osongina to'kiladi, yig'ish ertalab yoki kechki paytda amalga oshiriladi (o'simliklarda mavalar 25-30% pishganda). Bu vaqtda markaziy soyabonlardagi mevalar rangi och qo'ng'ir, qolgan tarbidagi soyabonlarda esa yashil tusli och jigarrang bo'ladi. Zira mevalarini yig'ish bir necha marta amalga oshiriladi. Adir mintaqasida zira hosilini yig'ish uchun eng qulay vaqt (dengiz sathidan 800-1000 m balandlikda) iyul oyini birinchi yarmi, quyi tog' mintaqasida (dengiz sathidan 1100-1400 m balandlikda) – iyul oyining ikkinchi yarmidan avgustning o'rtasiga to'g'ri keladi. O'simlikni yer usti qismini qo'l bilan yig'ish eng samarali usul hisoblanadi (tuproq yuzasidan 5 sm balandlikda). Yig'ilgan o'simliklar pishishi va qurishi uchun bog'lanib, 5-8 kun havo aylanadigan soya joylarda quritiladi. Quritilgan zira maydalanadi, qo'shimcha narsalardan tozalanadi, yupqa qatlam qilib yoyilib, kuniga 2-3 marta aralastirilib, soyada quritiladi. Ziraning urug'lari o'zidan o'zi qizib ketishiga yo'l qo'ymaslik kerak, chunki bunda ular qorayib, yoqimsiz hidlanadi va o'z ta'mini yo'qotadi. Yig'im-terim vaqtida o'simlikning biologik xususiyatlarini inobatga olgan holda terimchilar barcha urug'larni yig'ib olmasdan va yig'ib olish maydonlarini yiliga almashtirishi kerak, aks holda o'simlikda urug'idan tiklanishi ro'y bermayligi natijasida tabiiy o'sish maydonlarini yo'qolishiga olib keladi. Tayyor xom ashyo yoqimli hidli, ozgina kuydiruvchi va shirin-nordon ta'mli yaxshi quritilgan pishgan mevalardan (urug'lardan) iborat bo'lishi kerak. Organik aralashmalar (poya, barglar, soyabon nurlari, meva bandchalari va boshqa xush-aromatik o'simliklar urug'lari) qoldiqlari 2% dan oshmasligi kerak, achchiq aromatik aralashmalar (maydalangan, shikastlangan, hasharotlar yegan, puch, pishmagan urug'lar) esa 4,5-5 % dan ko'p bo'lmasligi kerak, namlik – 10-13%, kul – 8%, efir moylari – 1,5-3% dan oshmasligi kerak. Ziraning tayyor mevalari (urug'lari) 25 yoki 50 kg gacha bo'lgan qoplarga solinadi. Zira boshqa o'simliklardan alohida quruq joylarda, toza va havo aylanadigan joyda saqlanishi kerak. Agar

barcha qoidalarga rioya etilsa, zira mevalari o‘z yaroqliligini 2 yilgacha saqlaydi.

**Zog‘oza** - *Ephedra equisetina* Bunge  
(Эфедра хвощевая)

**O‘simlik tavsifi:** Zog‘oza Ephedraceae oilasiga mansub buta, balandligi 1,5 m ga yetadi. Katta yoshli o‘simlik turli yoshdagi novdalar tizimidan iborat, birinchi tartibli novdalar asosiy tanada deyarli vertikal joylashgan. Novdalar 1-



1,5 yoshgacha yashil rangda bo‘lib, keyinchalik ular yog‘ochlashadi va kulrang po‘stloq bilan qoplanadi, ular eski shoxlarda bir tekis ajralmaydi va tolali ko‘rinishga keladi. Zog‘oza novdalari bo‘g‘imli, uzunligi 1,5-

3 sm bargsiz to‘g‘ri uzun bo‘g‘im oraliqlariga ega, ular asosi qo‘shilib o‘sgan, halqada to‘plangan reduksiyalashgan pardasimon barglar bilan bo‘g‘imlarda gallashib joylashadi. Ikki yillik va undan ortiq novdalarda keyingi tartibli novdalar hosil bo‘ladi. Yashil novdalarning bo‘g‘im oralig‘i mayda chiziqli, yog‘ochlashgan tuplarda silliq. Barglari qisqargan va xlorofill donachalari bo‘lmaydi. Xloroplastlar o‘simliklarning havo orqali oziqlanish funksiyasini bajaradigan yosh va yog‘ochlanmagan poyalarida joylashgan. Zog‘oza ikki uyli o‘simlik. Gullari mayda, bir jinsli, kichik boshqochalarda yig‘ilgan. Mevalari sharsimon, urug‘ning yarmidan ko‘pini qoplaydi



79


(qubbasimon rezavor meva). Pishib yetilgan qubbalari uzunligi 6-7 mm, qizil yoki to‘q sariq, etli, bitta urug‘li. May oyida gullaydi. Zog‘oza o‘tining xom ashyosi «zog‘oza o‘ti» deb tovar nomiga ega yashil (yog‘ochlashmagan) novdalari hisoblanadi.

**O‘shish joyiva tarqalishi:** Zog‘oza O‘zbekiston tog‘larining o‘rta mintaqasi bo‘ylab toshli qiyaliklarda o‘sadi. Zog‘ozaning ildiz sistemasi yaxshi rivojlangan, kam tuproqli, toshli va shag‘alli joylarda, qoyalar orasida va boshqa o‘simliklar o‘smaydigan joylarda o‘sadi. Uning ildiz sistemasi bir necha katta ildizlarga ega bo‘lib, ular tayanch vazifasini bajaradi,

mayda ildizlar suv va mineral ozuqa moddalar bilan ta‘minlaydi.

Zog‘ozaning o‘ziga xos xususiyati ko‘p yillik novdalarining to‘kilishi va kelgusi yil ularning o‘rniga yosh novdalarning chiqishidir. Kam sonli novdalari yog‘ochlashib,

vegetatsiyasini davom ettiradi. Novdalarning qayta o‘shishi amaliy ahamiyatga ega: ularni kerakli o‘lchamda kesish, o‘simlikka zarar yetkazmaydi. Zog‘oza chakalakzorlari deyarli ochiq quyoshli joylarda, tog‘ tizmasining janubiy, g‘arbiy va sharqiy yon bag‘rida joylashadi. Chakalakzorlarni quyi chegarasida asosan shimoliy yoyon bag‘irda va jarliklarning tubida o‘sadi. Ularning yuqori chegarasida tizmaning cho‘qqisida, ya‘ni quyoshli joylarda o‘sadi. Uning chakalakzorlari tog‘, dasht, o‘rmon va subalp mintaqalarida joylashadi. Zog‘oza ba‘zi joylarda zich chakalakzorlarni hosil qiladi. Uning butalari orasida ko‘plab boshqa butalar va o‘t o‘simliklar uchrab, zog‘oza chakalakzorlari uchun xos biror tur aniqlanmagan. Zog‘oza chakalakzorlaridan oqilona foydalanish tizimi ulardan almashlab amalga oshirilishi kerak. Zog‘oza chakalakzorlaridan to‘g‘ri foydalanilganda ularning yashil novdalari kesilgandan so‘ng 3-5 yil o‘tgach o‘zini to‘liq tiklab olish imkoniga ega.





**Xom ashyoni yig'ish va uning sifati:** Zog'ozaxom ashyosi erta bahorda aprel oyida yig'ib olinadi. Yashil novdalari o'roqlar yoki bog' qaychilari bilan kesib olinadi. Yig'ib olingan novdalar quruq shag'al ustiga 80-100 sm kenglik va 1-1,5 m balandlikgacha (ixtiyoriy uzunlikda) g'aram qilib joylashtiriladi. Bunday g'aramlarda qattiqligi va zichlanmaganligi uchun ho'l novdalar tez quriydi. May oyining o'rtalarida zog'ozaxom yangi novdalari jadal o'sishi boshlanganda, hosil yig'ish to'xtatiladi. Quritilgan xom ashyo qoplarga solinib, qayta ishlash zavodlariga yuboriladi. Iyul oyi boshlarida yosh novdalar o'sishdan to'xtab, egiluvchan bo'lganda, qayta xom ashyo yig'ish boshlanadi va kech kuzgacha davom etadi (sentyabr oxiri oktyabr boshigacha). Yig'im paytida butaning barcha yashil novdalari kesilmasligi, ma'lum bir qismini assimilyasiya qilishi uchun qoldirish zarur. Mavjud talablarga ko'ra, zog'ozaxom tayyor xom ashyosi uzunligi 25 sm gacha, yo'g'onligi 3 mm gacha bo'lgan, butun yoki qisman maydalangan yog'ochlanmagan novdaning yuqori qismini tashkil etadi yoki bo'g'im oraliqlari 2 sm, diametri 1,2-2 mm bo'lgan o'tsimon bo'g'imli shoxlardan iborat. Hidsiz, ta'mi aniqlanmagan, chunki xom ashyo zaharli hisoblanadi. Raqamli ko'rsatkichlar: quruq xom ashyo miqdorida nisbatan alkaloidlar 1,6% dan kam bo'lmasligi; namlik miqdori 12% dan; umumiy kul miqdori 7% dan; yog'ochlashgan qismi 10% dan; organik birikmalar (boshqa o'simliklar qismlari) 1% dan; mineral birikmalar (qum, tuproq, toshchalar) – 0,5% dan ko'p bo'lmasligi kerak. Xom ashyo sof og'irligi 30 kg gacha bo'lgan qoplarga yoki 50 kg gacha bo'lgan toylarga joylanadi. Boshqa dorivor xom ashyolardan alohida quruq, havo yaxshi aylanadigan joylarda saqlanadi. Zog'ozaxom qadoqlash va yuklash jarayonida shilliq pardalarni zaharlanishi va qichimasligi uchun dokadan bog'ich va himoya ko'zoynaklardan foydalanish zarur, ishdan so'ng qo'lni sovun bilan yuvish kerak. Zog'ozaxom ashyosidan farmakologik xususiyatlari bo'yicha adrenalning yaqin bo'lgan efedrin olinadi.

**Kimyoviy tarkibi:** O'simlik tarkibida efedrin va uning izomerlari uchrab, ularning yarmini ba'zan psevdofedrin tashkil qiladi. Uning farmakologik xususiyatlari efedringa o'xshash bo'lib, ammo faolligi ancha past. Zog'ozaxom tarkibidagi alkaloidlar yig'indisida efedrin ustunlik qilib, boshqa turlarda psevdofedrin ko'pincha asosiy alkaloid hisoblanadi.

**Tibbiyotda qo'llanilishi:** Zog'ozaxom tomirlar torayishi, qon bosimini ko'tarilishi, bronxlarning va ko'z qorachig'ining kengayishi,

ichak faoliyatini tormozlashi va qonda shakar miqdorining oshib ketishini keltirib chiqaradi. Adrenalninga qaraganda u kuchli ta'sir etmaydi, ammo uzoq vaqt davomida ta'siri saqlanadi. Bundan tashqari zog'ozda markaziy asab tizimini yaxshilaydi va nafas olish markazining qo'zg'aluvchanligini oshiradi. Zog'ozda bronxial astma, ko'k yo'tal, rinit, past qon bosimi, titroqli isitmalash, dengiz kasalligi, zaharlanishda qarshi vosita sifatida, shuningdek, ko'z amaliyotida qo'llaniladi. Bronxial astmada qo'llaniladigan teofedrin preparatining tarkibiga kiradi. Shuningdek, ushbu preparat zog'ozdan efedrin olishda chiqqan chiqindilardan ham olinadi.

**Qirqbo'g'im - *Equisetum arvense* L.**  
(Хвощ полевой)

**O'simlik tavsifi:** Qirqbo'g'im – Equisetaceae oilasiga kiruvchi o'rmonlovchi, qo'ng'ir-qora, chuqur joylashgan ildizpoyali ko'p yillik



o'simlik. Poyasi ikki xil: spora hosil qiluvchi, bahorda paydo bo'lib, sporalari pishganda quruvchi va yozgi, ya'ni kuzgacha saqlanuvchi poyalari bo'ladi. Yozgi poyalari tik turuvchi yoki biroz ko'tarilgan, uzunligi 10-15 sm, yashil, shoxlangan, ichi bo'sh. Sporali bahorgi


poyalari shoxlanmagan, balandligi 7-25 sm, och qo'ng'ir. Sporabarglari qalqonsimon, ichki tomonida sporangiylari mavjud. Sporalari sharsimon, yashil rangda va to'rta buralgan o'simtasi bor.

Sporalari aprel-may oylarida yetiladi. Tibbiyotda o'simlikning yer usti qismi ishlatiladi.

**O'sish joyiva tarqalishi:** Qirqbo'g'im o'simligi kosmopolit tarqalish tipiga ega. Bu o'simlik tog'oldi va o'rta tog' mintaqasida eng ko'p tarqalgan qirqbo'g'im turi hisoblanadi. Namlik yuqori joylarda, irmoq va buloqlar bo'ylarida o'sadi.

**Xom  
ashyoni  
tayyorlash va  
uning sifati:**

Qirqbo'g'im o'simligi yozda yig'ib olinadi, o'simlikni yer usti qismi o'roq yoki pichoq yordamida, zich o'sgan maydonlarda belo'roq bilan o'rib olinadi.



Poyani dag'al pastki qismlari yig'ib olinmaydi. Quritishdan oldin boshqa o'simliklarning qoldiqlari va begona o'tlar hamda boshqa qirqbo'g'im turlaridan tozalanadi. Xom ashyo xavo yaxshi aylanadigan chordoqlarda yoki ayvonlarda uni 5-7 sm qalinlikda qog'ozga yoki matoga yoyib quritiladi. Quruq xom-ashyoning massasi 20-25% ni tashkil etadi. XI DF talablariga ko'ra, qirqbo'g'im o'ti kulrang-yashil rangga ega, kuchsiz, o'ziga xos hidli, ozgina nordon mazasi bor. Namlik miqdori 13% dan; umumiy kul miqdori 24% dan; 1 sm dan kichik o'lchamli maydalangan zarralari 10% dan; o'tning boshqa qismlari 1% dan; organik birikmalar 1% dan; mineral 0,5% dan; qirqbo'g'imning boshqa turlari 4% dan oshmasligi kerak.

**Kimyoviy tarkibi:** Qirqbo'g'im o'ti tarkibida olma, akonit, oksalat va kremniy kislotalari (2,5% gacha), taninlar, achchiqliklar, smolalar, 1-5% ekvizetrin saponini, flavonoidlar (ekvizetrin, lyuteolin-7-glyukozid, lyuteolin-5-glyukozid, izokversitrin, lyu-teolin, kempferol-3, 7-diglyukozid, kempferol-7-glyukozid), 4,7 mg karotin, 30-190 mg askorbin kislotasi, sitosterin, dimetilsulfon, alkaloidlar izlari – palyustrin, 3- metokspiridin va niktin mavjud.

**Tibbiyotda qo'llanilishi:** Qirqbo'g'im preparatlari yurak kasalliklari (yurak porogi, yurak yetishmovchiligi) bilan bog'liq qon harakati susayganda, shuningdek, o'pka va yurak kasalligi bilan bog'liq bo'lgan shishlar uchun siydik haydovchi sifatida tavsiya etiladi. Siydik yo'llarining kasalliklari (pielit, sistit, uretrit) uchun ko'pincha siydik haydovchi va yallig'lanishga qarshi xususiyatlarga ega bo'lgan boshqa o'simliklar bilan birgalikda buyuriladi. Bundan tashqari o'simlik


qaynatma va damlamasi siydik tosh kasalligi, bavoildan (gemorroy) va bachadondan qon ketishida, qo'rg'oshindan o'tkir va surunkali zaharlanishda ishlatiladi. O'simlik qaynatmasi dezinfeksiyalash xususiyatiga ega bo'lib, u tashqi tomondan surunkali bitmaydigan yaralar yoki yiringli yaralar uchun ishlatiladi. Odatda o'simlik o'tining kompleks dorivor yig'malarning bir qismi sifatida qo'llaniladi. Qirqbo'g'im o'ti nefrit va nefroz kasalliklarida qo'llanilmaydi, chunki buyraklarning yallig'lanishiga olib keladi.

**Qirqbo'g'im qaynatmasini tayyorlash:** 10g (2 osh qoshiq) xom ashyosi sirlangan idishda solinadi, 200 ml (1 stakan) issiq qaynatilgan suv solinib, usti yopilib 30 daqiqa suv hammomida isitiladi, so'ngra 10 daqiqa sovutilib, suzgichdan o'tkaziladi. Tayyor bo'lgan qaynatmani 200 ml hajmga yetkazish uchun qaynagan suv solinadi. Salqin joyda 2 kungacha saqlanadi, ovqatdan 1 soat keyin kuniga 2-3 marta 1/2-1/3 stakandan ichiladi.

**Sassiq kovrak - *Ferula foetida* (Bunge) Regel.**  
(Ферула вониючая)

### O'simlik tavsifi:

Sassiq kovrak – Apiaceae oilasiga kiruvchi ko'p yillik monokarpik o'simlik. Ildizi qalin. Poyasining balandligi 2 m, 6-10-yillarda paydo bo'ladi. U yuqori qismida zich sharsimon to'pgul – soxta halqani hosil qiladi. Barglari



yumshoq, ostki qismi tukli, uch bo'lakli-kesilgan, yirik segmentlardan iborat ikki karra patsimon bo'lingan. Ildizbo'g'zi barglari yirik, poya barglari ancha kichik, yuqori qismidagi barglari qingacha qisqargan. Soyabonlari ko'p sonli, yirik, diametri 20 sm gacha, o'ramabargsiz. Tojibarglari och sariq rangda. Mevalari yassi, ellipssimon yoki yumaloq-ovalsimon shaklida, uzunligi 20 mm va eni 15 mm. Kovrakni boshqa turlaridan (*Ferula moschata* (H. Reinsch) Koso-Pol.) xushbo'y modda sifatida ishlatish uchun sumbul ildizidan 1,4% efir moyi olinadi. Dastlab bu o'simlikda yirik barg bandli to'pbargi paydo bo'ladi, 6-10 yilga kelib o'rtasidan balandligi 3m gacha va yo'g'onligi 10 sm gacha yetgan, bo'lingan barglari va murakkab soyabonli poyasi o'sib chiqadi.

**Tarqalishi:** Sassiq kovrak Jizzax, Navoiy, Qashqadaryo, Buxoro viloyatlari va Qoraqalpog'iston Respublikasida keng tarqalgan.

**Ko‘paytirish va agrotexnikasi.** *Ferula foetida* – yerga urug‘larni ekish yoki issiqxonalarda yetishtirilgan ko‘chatlari bilan ko‘paytiriladi. Ko‘p yillik o‘simlik sifatida paykali ponalarga joylashtiriladi. Ekishdan oldin tuproq begona o‘tlardan tozalanadi (agrotexnik tadbirlar yoki gerbitsidlar orqali), organik va mineral o‘g‘itlar bilan boyitiladi. Asosiy shudgorlash 25-30 sm chuqurlikda amalga oshirilib, bahorda dalaga agrotexnik ishlov beriladi. Keng qatorli usulda ekiladi. Qatorlarning oralig‘i 70 sm, 1 gektarga 6-8 kg/ga urug‘, ekish chuqurligi 2-3 sm. Maysalar unib chiqqandan so‘ng, o‘simliklar orasi 40 sm dan yaganalanadi. O‘simliklarni parvarish qilishda tuproqni yumshatish va begona o‘tlardan tozalash lozim. O‘sish mavsumida qator oraliqlarini 3-4 kultivatsiya qilish, 2-3 marta begona o‘tlardan tozalash, mineral o‘g‘itlar bilan oziqlantirish tadbirlari amalga oshiriladi.

**Hosil yig‘imi:** Urug‘lar to‘liq yetilish davrida yig‘ib olinadi. Xushbo‘y ziravor sifatida bahorda ildizlardan olingan sutli sharbati ishlatiladi.

**Dorivorlik xususiyatlari:** Kovrak shirasi (sutli sharbat) asosan jazavada (vasvasa), shuningdek, ichakdan havo haydovchi va balg‘am ko‘chiruvchi vosita sifatida ishlatiladi. Og‘riq qoldiruvchi, tinchlantiruvchi, ich suruvchi xususiyatlarga ega. Sassiqli kovrak shirasi tarkibida boshlang‘ich ta‘sir etuvchi modda – efir moylari bor. Uning davolovchi xususiyatlari ko‘p, ba‘zi insonlar uning katta dozasini ham zararsiz hisoblashsa, ayrimlar zaharli sanashadi. Farmakopiyada assafetida jazavaga qarshi faol vosita sanaladi. Veterinariya tibbiyotida u ichak va teri parazitlariga qarshi ishlatiladi.

**Qo‘llanma:** Galen preparatlari ilgari ichaklarda havo yig‘ilganda va ichak bo‘shashganda qo‘llanilgan (shuningdek gomeopatiyada). Sassiqli kovrak o‘tkir, juda kuchli va sarimsoq hidiga ega. Tayyor mahsulot qiyshiq oq «bodomcha» shakli va har xil o‘lchamda bo‘lib, ziravor sifatida ishlatiladi. Eron, Afg‘onistonda qo‘y go‘shidan tayyorlanadigan qovurilgan va dimlangan taomlarga ham qo‘shishadi. Hindiston va



Indoneziyada sabzavot va guruchli ovqatlarga birga qo‘shiladi. Shu

bilan birga guruchli ovqatlar uning o'tkir hidi va ta'mini biroz yumshatadi. Kovrak xushbo'y aralashmalar «karri» tarkibiga kiradi.

**Faol tarkibiy qismlar:** tarkibida 60% ferula kislotasi, azaresitannol, kumarinlar, efir moyi, vanilin va boshqa bir qator moddalar mavjud.

### **Chair - *Ferula tadshikorum* Pimenov**

Ферула таджиков



**Botanik tavsifi:** Ko'p yillik monokarp o'simlik bo'lib, bo'yi 1,5-1,8 m, kuchli sarimsoq hidga ega. Ildizi yo'g'on, vertikal ildizpoyali. Oddiy kaudeksli. Poyasi yakka, asosida diametri 5-9 sm, siyohrang, silliq, to'liq. Barglari yumshoq, erta quruvchan, ustki qismi deyarli taksiz, ostki tomondan kulrang tukli, ildizbo'g'zi va pastki poya barglari bandli, bandlari silliq yoki qisqa tukli, to'liq, ko'p sonli o'tkazuvchi bog'lamli, barg yaprog'i yirik, uzunligi 40 sm gacha, eni 30 sm, ellipssimon shaklda, uch karra bo'lingan, birinchi tartibli


segmentlari ikki-uch marta patsimon bo'lingan, yuqori poya barglari bandsiz, pastki barglar ildizbo'g'zi barglariga o'xshash, lekin kichikroq o'lchamli, oxirgi bo'laklari yirik, uzunligi 20 sm gacha, eni 7-9 sm, lansetsimon yoki tuxumsimon lanset shaklda, o'tkirlashgan, chetki qismi kungurali, ustki qismi silliq, ostki qismi esa qisman tuklangan. To'pguli – keng ro'vak. Soyabonlari ko'p sonli, barchasi meva hosil qiluvchi, markaziy soyabonlari yo'g'on bandli, aksariyat holda yolg'on halqa hosil qiladi, 20-30 nurli, nurlari 3-6 sm



uzunlikda, siyohrang, deyarli teng. Soyabonchalari 10-15 gulli, o‘rama bargchasiz. Gulbandlari qisqa, uzunligi 0,5-0,8 sm. Kosachabarglarning tishchalari mayda, uchburchak shaklida. Gultojibarglari sariq, 2-2,5 sm uzunlikda, cho‘zinchoq-ellipssimon, to‘mtoq, uchki qismi ichkariga qayrilgan. Stilopodiy kosasimon. Mevasi 1,5-2 sm uzunlikda, eni esa 0,8-1 sm, ellipssimon, orqa tomondan siqilgan, yassi, tuksiz. Orqa qirralari ipsimon, chetki qirralari keng qanotsimon. Ajratma kanallari lojbinkada yakka joylashgan, jami 4 ta, yirik, komissura tomonida 5-6 ta, qirrali ajratma kanallari orqa qirralarda 1 tadan va chetkilarida 3-4 taga.  $2n=22$  (Xojimatov, Xamraeva, 2018). Aprel-may oylarida gullab, iyun-iyul oylarida mevalaydi. YArimsavanna va butazor mintaqalarda o‘sadi: qo‘ng‘irboshlar, arpazor, pistazor, bodomzorlar, arvug‘onzorlar jamoasida (*Cercis griffithii*), zarangzorlar atrofida (*Aser regelii*, *A. ovchinnikovii*), tuyaqorin, tog‘jumrut va olcha, sajeretsiya guruhleri tarkibida edifikator yoki subedifikator sifatida o‘rmonning mayda zarrali shag‘alli qiyaliklarida, ohaktosh, olajinsli tuproqlarda vodiylarning quruq soylari va terrassalarida dengiz sathidan 400-1800 m balandlikda uchraydi.

**O‘shish joyi va tarqalishi:** «O‘zbekiston florasi» ning 6 tomlik monografiyasida mazkur tur keltirilmagan, lekin o‘simlik O‘zbekistonning

Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlari hududlarida uchraydi. Mazkur tur 2017 yil dala tadqiqotlari davomida yig‘ilgan gerbariy materiallari mualliflar tomonidan aniqlanib, keyinchalik M. Pimenov tomonidan tasdiqlangan.



**Umumiy tarqalishi:** O‘rta Osiyo (janubiy-g‘arbiy Pomir-Oloy), Janubiy Tojikiston va janubiy O‘zbekistonning endemi.

**Xo‘jalikdagi ahamiyati:** Yem-xashak va oziq-ovqat o‘simligi. Yoqimsiz hidga ega qatron saqlaydi. Barglari quritilgan holda chorva mollari uchun yem-xashak sifatida foydalaniladi. Vegetatsiya davrida barglarida (xom ashyoning quruq vazniga nisbatan % hisobida): protein



22,75, oqsil 18,25, eruvchan shakarlar 1,1, gemitsellyuloza 3,15, kletchatka 12,81, yog'lar 3,3, barg bandlarida – gemitsellyuloza 5,99, selluloza 21,7, protein 7,02, oqsil 5,31, yog'lar 1,88, kul 10,41 mavjud. Mevasidan terpenoid kumarinlaridan tajikorin va tajiferin ajratib olinadi, ularda yoqimsiz hidga ega 0,6% efir moyi mavjud. Bahorda aholi tomonidan yosh poyalari istemol qilinadi. Qatron asosan ildizidan tibbiy maqsadda yig'ib olinadi. Hozirgi vaqtda qatronni yig'ish bo'yicha texnologik ko'rsatmalar ishlab chiqilmoqda. Agar texnologik ko'rsatmalarga rioya etilsa, o'simlik xom ashyosining yig'imidan keyingi ikkinchi yilda qayta o'sib, tabiiy populyasiyalariga hech qanday zarar yetkazilmaydi. *Ferula tadshikorum* va *Ferula kuhistanica* populyasiyalari Bobotog' o'rmon xo'jalik hududida Quruqsoyda qayd etganmiz. Tashqi tomondan biroz farqidan tashqari, tojik kovragi o'tkir sarimsoq hidi bilan ajralib turadi. Ferula turkumi turlari o'zida shira, efir moyi, ildizlarida esa ko'p miqdorda uglevod va oqsil moddalari saqlaydi. Turkumning alohida turlari qadimdan dorivor o'simlik sifatida ma'lum bo'lib, o'rta asrlardan buyon tabiblar tomonidan ahamiyatli hisoblanadi. Zamonaviy farmakognostikada Ferula turkumi turlarining shirasi gummishiralar ichida efir moyi aralashmasi tufayli «dorixona shirasi» nomli guruhga kiradi. Ular Fetida, sagapen, galbana, sumbul va ammoniakum nomlari bilan yuritiladi. Mazkur shiralarning kelib chiqishi bo'yicha ma'lumotlar xilma-xil.

Ayrim tadqiqotchilar fikriga ko'ra, fetida atamasining kelib chiqishi *F. Foetida* nomi bilan bog'liq. Mazkur mahsulot yoqimsiz sarimsoq hidga ega shira aralashmasi (31,35%) va efir moyi (6-9%) saqlaydi. Mahsulotning tarkibi quyidagicha: efir moyida erigan shira – 61,4%, erimagan shira – 0,60%, gummilar – 25,10%, vanilin – 0,0696%, erkin ferula kislotasi – 1,2896%. Ferula kislotasidan  $H_2SO_4$  bilan gidrolizlash orqali umbelliforon hosil bo'lib, buning natijasida gvayakol ajralib chiqadi. Shiraning spirtli eritmasini nitrifikatsiyalash orqali pikrin kislotasi hosil bo'ladi. Efir moyining yoqimsiz hidi sulfidlar tufayli bo'ladi. Moy quyidagi moddalarni saqlaydi: pinen  $S_{10}N_{15}$  6-8%, disulfid  $C_7H_{14}S_3$  4,5%, disulfid  $C_{11}H_{20}S_2$  20%, keyinchalik  $(C_{10}H_{15}O)_n$ ,  $C_8H_{10}S_2$  va  $C_{10}H_{18}S_2$  [7;8;9;10;11;12]. Farmatsevtikada qon to'xtatuvchi boylam sifatida foydalaniladi. Qadimgi tabobatchilikda bu shira amenoreya kasalligini davolashda kataralga qarshi vosita sifatida tavsiya etilgan. Bundan tashqari, o'simlik kuchli antigelmint hususiyatiga ega.

**Mikroskopiya:** *Ferula tadshikorum* Pimenov meva perikarpiysining tuzilishi diagnostik belgilarni aniqlash maqsadida oʻrganilgan. Tadqiqot natijasida oʻrganilgan tur tashqi tuzilishi boʻyicha unga yaqin *Ferula kuhistanica* Korovin turiga oʻxshash belgilarga ega boʻlishdan tashqari meva perikarpiysining tuzilishi boʻyicha aniq belgilar bilan ajralib turishi aniqlangan. *Ferula tadshikorum* mevasining farq qiluvchi belgilariga quyidagilar kiradi, yaʼni mevaning eni, oʻtkazuvchi nay-tolali boylamga ega orqa qovurgʻalari, merikarpiyning koʻndalang kesimdagi shakli, komissural va chetki qovurgʻa ajratma kanallarining soni, urugʻ yoʻlining shakli.

**Introduksiya:** Toshkent botanika bogʻida introduksiya qilingan *Ferula tadshikorum* Pimenov dorivor oʻsimlikning oʻsishi va rivojlanishini kuzatish boʻyicha tadqiqot ishlari olib borildi. Ekilgan maydondagi asosiy oʻsimliklar pregenerativ davrning oʻsimta va yuvenil bosqichini oʻtashdi, lekin baʼzi oʻsimliklar esa dastlabki immatur bosqichida oʻtganligi hamda iyun oyining oxirida ontogenezning birinchi yili tugashi kuzatildi.

## **Shashir** - *Ferula tenuisecta* Korovin

Ферула тонкорассеченная



**O‘simlik tavsifi:** Balandligi 1 m gacha bo‘lgan ko‘p yillik polikarpik o‘simlik. Kaudeksi shoxlangan. Poyasi ingichka, pastki qismida diametri 2 sm gacha, o‘rtasidan shoxlangan; novdalari ketma-ket yoki bir-biriga yaqinlashib halqada joylashgan. Barglari uzoq vaqt qurimaydigan, qisqa va qattiq tuklar borligi uchun dag‘alsimon; ildizbo‘g‘zi barglari uzun bandlarda joylashgan, plastinkasi keng uchburchak shaklida, uch bo‘lakka bo‘linib, ikkita qo‘shimcha segmentga ega,


segmentlar uzunligi va eni 3-4 sm, dumaloq ellipssimon, asosida cho‘zilgan, ikki-uch karra bo‘lingan, oxirgi bo‘laklari uzunligi 1-5 mm, chiziqsimon, o‘tkirlashgan, bir-birining ustiga chiqqan; poyadagi barglar plastinkasi qisqargan, uzunroq va siyrak bo‘lakli, ularning qini shishgan, terisimon, tuxumsimon-lansetsimon, o‘tkirlashgan, poyani o‘rab olgan. Markaziy soyabonlari o‘troq, diametri 12 sm gacha, 8-12 nurli, yon soyabonlari 6-10 nurli, har biri 1-3 ta, uzun bandchalarda joylashgan. Soyabonchalari 5-14 gulli, juda qisqa pardasimon o‘rama barglarga ega. Kosachabarglar tishlari juda qisqa. Tojibarglari sariq, tuxumsimon, uzunligi 1,5 mm gacha, uchi qisqa toraygan va ichiga qayrilgan. Stilopodiy kosasimon, chetlari bo‘lakli. Ustuncha uzunligi 1,5-2 mm gacha. Mevalar uzunligi 12-18 mm, eni 5,5-8 mm, cho‘zinchoq tuxumsimon, orqa tomondan biroz bo‘rtgan. Orqa qirralari biroz chiqib turgan, chetdagilari tor qanotsimon. Ekzokarp qirralarida deyarli izodiametrik hujayralar va lojbinkalarda prozenxima hujayralardan iborat, tashqi devorlari sezilarli darajada yo‘g‘onlashgan. Mezokarpning subepidermal qatlami hujayralarini devorlari kollenximal qalinlashga ega. Gipendokarp 2-3 qatorli prozenximal, kam lignifikatsiyalashgan hujayralardan iborat. Chetdagi qirralarda sklerenximaning mexanik massivlari va 3 ta o‘tkazuvchi bog‘lam mavjud. Lojbinkasimon ajratma kanallari yakka,

orqa tomonni to‘liq egallaydi; ba‘zan kichik qo‘shimcha ajratma kanallar uchraydi; kattaligi jihatidan teng bo‘lmagan 6-8 ta komissural ajratma kanallar mavjud; ajratma kanallar septalarga bo‘lingan; chetdagi qirralarda 3-5, orqa tomonda 1-2 ta qirrasimon ajratma kanallarga ega. May-iyun oylarida gullaydi, iyun-iyul oylarida mevalaydi.

**O‘shish joyi va tarqalishi:** U yumshoq tog‘ qiyaliklarida butazorlarda, mayda shag‘alli, toshli va loyli qiyaliklarda, to‘kilmalarda, tog‘ tarmoqlarining cho‘qqilarida, daryo vodiylari terrasalarida o‘sadi. U Toshkent viloyatining tog‘li qismida uchraydi.

**Kimyoviy tarkibi:** Adabiyotlarda ildizlarning kimyoviy tarkibi va ulardan ajratilgan efirlarning xususiyatlarini o‘rganish bo‘yicha etarli darajada ma‘lumotlar mavjud. *F. Tenuisecta* dan  $C_{23}H_{32}O_5$  efiri

ildizlaridan ajratib olingan,  $78-80^{\circ}C$  e.t.,  $[\alpha]^{20/D} + 86,5$  (xloroform), u teferin deb nomlangan. 4 soat davomida kaliy ishqorining 5% li eritmasi bilan teferinning gidroliz qilinganda, gidrolizatga olingan, uning



neytral qismidan spirt – ferutanol,  $90-91^{\circ}C$  e.t., va kislota fraksiyasidan 4-gidroksi-3-metoksibenzoy kislota e.t.  $205-206^{\circ}C$  ajratilgan. *F.tenuisecta* ildizlaridan uchta yangi modda – tenuferin, tenuferinin va tenuferidin ajratilgan. Ularning hali ta‘riflanmagan seskviterpen spirtining – 8,10-digidroksi-3,4-epoksiguain – va izovanilik, vanil va p-gidroksibenzoy kislotalarining efirlari ekanligi ko‘rsatilgan. *F.tenuisecta* ildizlaridan  $C_{22}H_{30}O_5$ , mp  $209-211^{\circ}C$ ,  $[\alpha]^{22D} + 125^{\circ}C$  (c 0,8; etanol) yangi efir ajratilgan, uni esa fertenin deb nomlangan. Yangi murakkab efir fertenin *F. Tenuisecta* ning fenolik fraksiyasidan kimyoviy transformatsiyalar va spektral xususiyatlar asosida ajratilgan. *F. tenuisecta* ildizlaridagi murakkab efirlar yig‘indisini sifat jihatidan aniqlash va ferulen moddasi tarkibidagi efirlar yig‘indisini miqdoriy aniqlash uslubi ishlab chiqilgan *F.tenuisecta* ildizlaridan murakkab

efirlar yig'indisini ajratib olish parametrlari o'rganilib, bu jarayon uchun xom ashyoning zarralari kattaligi 2-6 mm, spirt konsentratsiyasi esa 95% bo'lishi kerakligi aniqlangan. Seskviterpen spirtlari efirlari asosida yangi «Ferulen» preparati yaratilgan. Tajribalar natijasida ushbu preparatni olish texnologiyasi ishlab chiqilgan. *F. tenuisecta* o'simligidan ajratilgan terpenoid ferutinin sun'iy va hujayra membranalarining  $Ca^{2+}$  ionlariga o'tkazuvchanligini sezilarli darajada oshiradi va mitoxondriyaga bog'liq holda turli hujayra liniyalarida apoptotik hujayra o'limiga sabab bo'ladi. *F.tenuisecta* ning yer usti qismidan seskviterpen spirtlarining murakkab efirlari yig'indisini ajratib olish va olingan ekstrakti tozalab, keyinchalik yashil rangsiz oxirgi moddani olish bosqichlari o'rganildi. Olingan natijalar asosida *F. tenuisecta* ning yer usti qismidan seskviterpen spirtlarining murakkab efirlari asosida estrogen ta'sirli tenestrol deb nomlangan substansiyani olish texnologiyasi ishlab chiqilgan.

**Xom ashyoni yig'ish va uning sifati:** G'unchalash davrida ildizlari yig'iladi va bo'laklarga bo'lib quritiladi.

**Standartlash:** Xom ashyo sifati VFS42-2001-90 talablariga mos kelishi lozim.

**Tashqi belgilari:** Maydalangan shoxlangan kaudekslari va ildizlarining bo'laklaridan iborat. Morfologik belgilari yuqorida keltirilgan. Ildizi va kaudeksining rangi kulrang-jigar, singan joyida sarg'ish yoki kulrang-oq rangda, singan joyi kuchli tolali. Hidi kuchli, o'ziga xos, sarimsoq hidini eslatadi. Ta'mi achchiq.

**Sifatli reaksiyasi:** 1 ml spirtli ekstrakti probirkaga solinadi, 0,1 ml sulfat kislota qo'shilgan vanilin quyiladi, ko'k-yashil rang hosil bo'ladi (seskviterpenlar).

**Mikroskopiya:** Ildizning ko'ndalang kesimida qalin qatlamli po'kak ko'rinib, unda deyarli rangsiz va to'q bo'yalgan qismlari navbatlashib joylashadi. Ildizning periferik qismida floema va ksilema elpig'ichsimon qismlarni hosil qiladi va markazda qiyshaygan anastomozlar orqali bog'lanadi. Floema va ildiz parenximasida diametri 50 dan 70 mkm (floema ichida) 90-200 mkm gacha (po'stloqda) ko'psonli ajratma kanallari mavjud. O'zak nurlari va ildiz parenximasida ko'plab teshiksimon yoriqlar mavjud va yemirilgan to'qimalarning guruhlari zich oqish yoki kulrang-sarg'ish tuzilmalar shaklida joylashgan. Ajratma kanallar atrofidagi parenxima hujayralarida moysimon kiritmalar va kraxmal, o'zak nurlarida – moysimon kiritmalar, ular atrofidagi parenxima hujayralarida kraxmal uchraydi.

Kraxmal donalari odatda oddiy, diametri 3-5 dan 12-16 mkm gacha, yumaloq, ovalsimon yoki cho'ziqsimon-ellipssimon shaklida bo'ladi. Kaudeks qiyshaygan (yulduzsimon) halqa hosil qiluvchi o'tkazuvchi to'qimalarining joylashishi va diametri 150-300 mkm bo'lgan ko'plab ajratma kanallari joylashgan o'zak qismini borligi bilan ildizdan farqlanadi.

**Raqamli ko'rsatkichlar:** Tarkibida tefostrol miqdori kamida 4% bo'lishi kerak; namlik 12% dan; umumiy kul miqdori 18% dan, o'simlikning boshqa qismlari (barglar, barg bandlari, poya, shu jumladan, tahlil paytida ajratilgan) 5% dan; organik moddalar 2% dan, mineral aralashmalar 2% dan oshmasligi kerak.

**Saqlash:** Quruq va salqin joyda saqlanadi, yaroqlilik muddati 2 yil.

**Foydalanish:** O'simlik ildizidan seskviterpen spirtlarining murakkab efirlarini tabiiy aralashmasi bo'lgan tefestrol preparati olinadi. Bu estrogen xususiyatga ega va ginekologiyada tuxumdonlarning gipofunksiyasi, amenoreya, bepushtlik kasalliklari hamda klimaksda qo'llaniladi. Terpenoidlar estrogen ta'sirga ega. Ularning asosida estrogen ta'sirga ega «penaferol» preparati yaratilgan. Mevasining ekstrakti saratonga qarshi in vitro ta'sirga ega.

### **Anjir - *Ficus carica* L.**

(Смоковница обыкновенная (инжир))


**O'simlik tavsifi:** Anjir daraxti – Moraceae oilasiga kiruvchi buta yoki



katta bo'lmagan daraxt, balandligi 15 m, yo'g'on, novdalari kam shoxlangan. Barglari yumaloq, yirik, 3-7 bo'lakli, kamroq hollarda butun, uzunligi 15 sm gacha va eni 12 sm, ustki qismi to'q yashil, qattiq dag'al, ostki qismi kulrang yashil, yumshoq tukli, uzun qalin bandlari bor. Gullari noksimon shakldagi etli shishgan ichi bo'sh to'pgulning ichki qismida joylashgan, ularning yuqori qismida teshiklari bor. Changchi gulli to'pgullarda asosan changchi gullari rivojlanadi, uch a'zoli gulqo'rg'on va uchta changchidan

iborat, bu to'pgullarda urug'chi gullari bo'lsa ham rivojlanmagan holatda mavjud. Urug'chi gulli to'pgullarda, buning aksicha, changchi gullari qipiqgacha qisqargan, faqat urug'chi gullari rivojlangan, besh a'zoli gulqo'rg'on va urug'chidan iborat. Mevasi yong'oqcha, to'pmevaning to'qimasiga qo'shilib o'sgan, sariq yoki binafsha-qora rangda, pishib yetilganda bo'yi 8 sm va diametri 5 sm bo'ladi. Tibbiyotda anjir barglaridan sanoatda psoboran preparatini ishlab chiqarishda ishlatiladi.

**O'sish joyi. Tarqalishi:** Anjir – qadimiy o'simliklardan biri hisoblanadi. O'rta Osiyo davlatlari ichida Turkmaniston anjir yetishtirishning qadimgi geografik joylari deb hisoblanadi. O'zbekiston va Tojikistonda XV-XVI asrlarda anjirni madaniylashtirilgan. Hozirgi vaqtda MDH mamlakatlarida madaniy holda ushbu o'simlik Ozarbayjon, Gruziya, Armaniston, Dog'iston, Krasnodar o'lkasi, Qrim, Turkmaniston, O'zbekiston va Tojikistonda keng tarqalgan. Sanoatbop madaniy anjirning istiqbolli o'sish joylari Ozarbayjon, Gruziya va Turkmanistonning subtropik zonasi, shuningdek, Qrimning janubiy qirg'oqlari hisoblanadi. Anjir qalamchalar yordamida ko'paytiriladi.



Qalamchalar mevali daraxtni bir yillik novdalaridan olinadi. Eng yaxshi vaqt kuz oyi hisoblanadi. Anjir daraxti sovuqqa chidamsiz, bu uni ko'plab yangi hududlarda ekishga to'siqlik qiladi. Bu o'simlikni qishgi harorat qisqa muddatga ham – 15°C ga tushmagan hududlarda sovuq urmaydi (alohida navlari qisqa muddatli sovuqlarga – 20°C ga chidamli, ammo ularning yer usti qismini sovuq uradi). O'zbekiston hududida anjir Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlarining ayrim hududlarida yovvoyi holda uchraydi. Tog'li hududlarda dengiz sathidan 600 m dan 1900 m gacha bo'lgan balandlikda o'sadi, ko'pincha janubiy yonbag'irlarda, daryolarning yuqori qismida chakalaklar hosil qiladi.

Odatda, totum, unabi, pista, bodom, do‘lana va o‘simliklar bilan birgalikda uchraydi. Bir tup anjirning o‘rtacha barg hosildorligi 12,8 kg, bu 2,45 kg quruq xom ashyoni beradi.

**Xom ashyoni yig‘ish va uning sifati:** Anjir barglari iyun oyidan sentyabr va oktyabr oylarigacha yig‘iladi. Ayni vaqtda undagi furokumarin miqdori 0,4-0,9 gacha bo‘ladi. Anjir barglarini yig‘ishda teri kuyishni oldini olish uchun (qo‘l, yuz) qo‘lqop va ko‘zoynaklardan foydalaniladi. Barglarni o‘roq yoki pichoq yordamida kesib olish kerak, qo‘l bilan uzish mumkin emas. Terilgan barglar katta uyumlarda to‘plash kerak emas, chunki barglar qorayib qoladi, shilimshiqlanadi va yumaloqlashib bir-biriga yopishadi. Yangi barglar tozalangan, quritish uchun tayyorlangan ochiq joyda brezent ustiga yupqa qilib yoyiladi. Sifatli yuqori kumarinni saqlab qolish va tezroq qurishi uchun kuniga 3-4 marta xaskash yoki panshaxa yordamida ag‘darish kerak. Barglarni yig‘ish va quritish vaqtida namlanib qolmasligi kerak. Yomg‘ir yog‘ishidan oldin terilgan anjir barglari brezent bilan o‘raladi yoki ayvon ostiga yohud havo aylanib turadigan joyga qo‘yish kerak. Odatda barglar ochiq havoda 4-6 kun quritish kerak, uzoq quritish davomida barglar qo‘ng‘ir rangga kiradi, o‘z sifatini yo‘qotadi. Xom ashyoni ixchamlashtirish uchun uni bir joyga uyumlanadi va ustidan avtomashina bilan 10-15 marta o‘tiladi. Bunda psoberanning miqdori butun bargda ham, maydalanganida ham bir xil bo‘ladi. Xom ashyo dastlab 15-18 kg gacha bo‘lgan qog‘oz qoplarga solinadi, keyin mato qoplarga qadoqlanadi, chunki xom ashyo mato qoplarga qadoqlanganda havoning namligini tortib oladi. Farmakopeya maqolasining talablariga muvofiq quritilgan anjir barglarida namlik 10% dan, umumiy kul miqdori 17% dan, qoraygan barglar 2% dan, hashoratlar tomonidan zararlangan barglar 7% dan, anjirning boshqa qismlari (poya) 5% dan, organik moddalar (boshqa zaharli bo‘lmagan o‘simliklarning qismlari) 2% dan, mineral moddalar (tuproq, qum, toshchalar) 2% dan ko‘p bo‘lmasligi kerak. Xom ashyoning yaroqlilik muddati 2 yil. Xom ashyo quruq, havo yaxshi aylanadigan joylarda javonlarda saqlanadi.

**Kimyoviy tarkibi:** Bargda faol moddalar – furokumarinlar (psoberan, psoralen, bergapten) mavjud. Mevasida 71% gacha shakar (shu jumladan 60% monosaxaridlar), pektin 5%, 1% gacha kislotalar (limon, olma, uksus, borat kislotalari), C, B<sub>1</sub>, B<sub>2</sub>, A vitaminlar va mikroelementlar uchraydi.

**Tibbiyotda qo‘llanilishi:** Yovvoyi yoki madaniy anjir barglaridan olingan psoberan (furokumarinlar aralashmasi – psoralen va



bergapten) pes kasalligida ultrabinafsha nurlari bilan birgalikda nurlantirishda teri pigmentlarini tiklovchi vosita sifatida qoʻllaniladi. Bundan tashqari, psoberan uyali (yumaloq) kallikda tavsiya etiladi. Toʻq sariq shisha idishlarda 0,01 mg li 50 donadan tabletkalari va 50 ml dan 0,1% li eritmasi ishlab chiqariladi. Anjir mevalari, sano oʻtining barglari va olxoʻri mevalaridan tayyorlangan kofiol briketlari ich suruvchi vosita sifatida ishlatiladi. Mevalari, shuningdek, dorivor, yaʼni ich suruvchi, siydik haydovchi va balgʻam koʻchiruvchi taʼsirga ega. Anjir kaliyga boy va shuning uchun undan yurak qon tizimi kasalliklarida foydalaniladi. Uning yangi pishgan mevalari anemiya uchun ishlatiladi. Anjir kletchatka va shakarga boy, shuning uchun oshqozon-ichak oʻtkir yalligʻlanish va qandli diabet kasalliklarida qoʻllanilmaydi. Podagra kasalligida shovul kislotasi (0,48-0,82%), taninlar (0,43-0,62%), vitaminlar (B, B<sub>6</sub>, E, R, K), glikozidlar, mikro va makroelementlar miqdori koʻpligi uchun qoʻllanib boʻlmaydi. Bargida 134-387 mg askorbin kislotasi, efir moyi, PP vitamini va fitonsidlar uchraydi.

**Isiriq - *Peganum harmala* L.**  
(Гармала обыкновенная)




**Oʻsimlik tavsifi:** Isiriq – bu Nitrariaceae oilasining koʻp yillik oʻti hisoblanadi, kuchli oʻziga xos hidga ega, balandligi 40-70 sm. Ildizi koʻp boshli, yogʻochlangan, qalin (diametri 3-5 sm), tuproqqa 5 m gacha chuqurlikka kirib boradi. Poyalar shoxlangan, egri-bugri, silliq, zich bargli.

Barglar oʻtroq, ketma-ket, uzunligi 4-5 sm, eni 5-6 sm, asosigacha uchga boʻlingan, boʻlaklari ham chiziqli boʻlaklarga boʻlinadi. Yonbarglari bargsimon, lansetsimon-bigizsimon. Gullari koʻp sonli, oq, poyalar va novdalarning yuqori qismida joylashgan. Mevasi uch hujayrali yassilangan koʻsak, diametri 0,6-1 sm, koʻp sonli urugʻlardan iborat. May-iyul oylarida gullaydi, mevalari iyun oxiridan avgustgacha pishadi.

**O'sish joyi. Tarqalishi:** O'zbekiston hududida keng tarqalgan isiriq hamma joyda o'sadi, ko'pincha zich o'sish maydonlarini tashkil qiladi. Ba'zi bir yirik o'simliklarning poyalar 150 tani tashkil etadi, ularning diametri 100-150 sm gacha bo'ladi. Yer usti qismlari mart oxirida va aprelda intensiv o'sadi. Gullash aprel-may oylarida boshlanadi. O'sish mavsumi avgust oyida tugaydi, ba'zida u kuzgi sovuqqa qadar davom etadi. Bu ruderal o'simlik adir, cho'l va past tog' mintaqalarida chorva mollari boqilishi natijasida o'tloq va yaylovlarni qattiq zararlaydi. Tekisli tog' etaklaridagi cho'llarda tog'oldi qiyaliklarida, qumli, qumloqli, gilli, sho'rtobli va sho'rlangan mayda shag'alli tuproqlarda o'sadi. Mayda zarrali qiyaliklar va cho'l daryo vodiylari bo'ylab u tog'larga ko'tariladi. Begona o't sifatida isiriq cho'lda aholi yashash

joylari va quduqlar yaqinida keng tarqalgan. U ko'pincha eski ekin maydonlaridagi vohalarda, lalmi yerlarda, kamroq donli ekinlarning sug'oriladigan ekinlarida, shuningdek, poliz, uzumzor va beda



ekinlarida uchraydi. O'zbekistonning yarimcho'l va cho'l zonalarida isiriq keng tarqalishi tabiiy ekologik omillar – tuproq sharoitlari va hosil bo'lgan o'simlik jamoalarining tuzilishiga emas, balki tabiiy landshaftni antropogen transformatsiyasiga bog'liq. Shu munosabat bilan bu yerlarda turdan birinchi navbatda, hududda ortiqcha mollarni boqilishi natijasida tabiiy jamoalarga haddan tashqari antropogen bosim ta'sirini ko'rsatuvchi indikator sifatida foydalanish mumkin.

**Xom ashyoni yig'ish va uning sifati:** O'simliklar (poyalari, barglari, gullari) o'ti, urug'lari va ildizlari dorivor xom ashyo sifatida ishlatiladi. Gullash boshlaganda (aprel va may oyining boshlarida) dag'al qismlaridan ajratilib o'simlik o'ti yig'ib olinadi. Chordoqlarda temir tomning ostida yoki yaxshi havo aylanadigan ayvonlarda quritiladi. 2 yil saqlaniladi. Ildizlari may – iyul oylarida yig'ib olinadi. Ko'saklari ochila boshlaganda urug'lari yig'ib olinadi. Matoga yoyilib

yaxshi havo aylanadigan ayvon ostida yoki quyoshda quritiladi, so'ng o'tlarni maydalab, urug'lari ajratiladi. O'simliklarning normal o'sishi va tiklanishi uchun bitta joydagi tabiiy maydonlardan xom ashyoni 1-2 yil oraliqda yig'ib olish kerak. Vaqtinchalik farmakopeya maqolasiga VFS 42-879-79 binoan, isiriq xom ashyosi bu g'unchalash davrida yig'ilgan yirik kesilgan va quritilgan o'simlikning o'tidir. Alkaloidlar yig'indisining miqdoriy tarkibi o'simlikning geografik o'sish joyiga bog'liq. Shuningdek, yosh ildizlarda alkaloidlardan garmin yetuk tuplarga qaraganda ikki baravar ko'pligi aniqlangan. Yer usti qismida o'simlik o'sishi bilan alkaloidlar miqdori va peganinning foizi kamayadi, ammo garmin miqdori ortadi. Xom ashyo tarkibida kamida 1,5% alkaloid miqdori bo'lishi kerak, quritish paytida massani 12% gacha nobud bo'lishiga yo'l qo'yiladi, umumiy kuli 18% dan oshmasligi kerak; uzunligi 80 mm poyalari 10% dan, o'tgan yilga kulrangli poyalarining bo'laklari 5% dan, teshiklar diametri 0,155 mm bo'lgan elakdan o'tadigan zarralari 5% dan, organik aralashmalar (boshqa zaharli bo'lmagan o'simliklarning qismlari) 4% dan, mineral aralashmalar (tuproq, qum, toshlar) 2% dan oshmasligi kerak. Xom ashyo sof og'irligi 20 kg dan oshmaydigan qoplarga solinadi. Xom ashyoning yaroqlilik muddati – 2 yil.



**Kimyoviy tarkibi:** Isiriqning urug'larida alkaloidlar 3,5-6% ni miqdorini tashkil qiladi, ularning 60% – garmalin, 30% ga yaqin garmin va oz miqdordagi garmalol, peganin va deoksivazitsinon. O'simlik o'tining tarkibida 1,5-3% alkaloid mavjud bo'lib, ulardan 60% peganin (vazitsin) va vazitsinon mavjud. O'simlikda oz miqdorda boshqa alkaloidlar ham uchraydi: peganidin, pegamin, dezoksipeganin, dezoksipeganidin, peganol. Ildizlarida 2,15-2,70% alkaloid mavjud. Ildizning asosiy alkaloidi – bu garmin; shuningdek, vazitsin va vazitsinonni saqlaydi. Urug'larida, shuningdek, bo'yoqlar va 14,25% yog'li moy mavjud.

**Farmakologik xususiyatlari:** Isiriq alkaloidlari silliq va koʻndalang-targʻil (shu jumladan yurak) mushaklariga tinchlantiruvchi taʼsir etadi. Garmin psixosomatik taʼsirga ega, eyforiya, vizual gallyusinatsiyalar, autometamorfopsiya va optik-vestibulyar hodisalarni (tanani boʻshashi va tebranish hissi; atrofdagi narsalarning chayqalishi) keltirib chiqaradi. Oʻsimlik tarkibidagi garmin bosh miya poʻstlogʻining harakatlanish markazlarini (kamfara kabi) va markaziy asab tizimini qoʻzgʻatadi, qon bosimini pasaytiradi, nafas olishni tezlashtiradi, ichak, bachadon, yurak mushaklarini boʻshashtiradi va periferik tomirlarni kengaytiradi. Ammo katta dozalarda bu tutqanoqni keltirib chiqarishi mumkin. Alkaloid peganin (peganin gidroxloridi) antixolinesteraza vositasi sifatida taʼsirga ega, yaʼni bachadon va ichaklarning silliq mushaklarini stimullashtiradi, oʻt ajralib chiqishini koʻpaytiradi, bronxospastik taʼsir koʻrsatadi, yurakka salbiy inotrop taʼsir koʻrsatadi va yurak tomirlarida qon miqdorini kamaytiradi, shuningdek, ich qotishi va ichak atoniyasini davolashda ich haydovchi vosita sifatida ishlatiladi.

**Tibbiyotda qoʻllanilishi:** Tibbiy maqsadlar uchun kamroq isiriq urugʻlari, koʻpincha oʻsimlik oʻti ishlatiladi. Isiriqdan kelib chiqqan holda, deoksipeganin gidroxloridi antixolinesteraza xususiyatlariga ega va miopatiya va miasteniyani turli shakllarini davolashda, shuningdek, surunkali ich qotishi va kelib chiqishi turlicha boʻlgan ichak atoniyalarida davolovchi vosita sifatida ishlatiladi. Isiriq urugʻlari tarkibidagi garmindan epidemik ensefalit, titrovchi falaj va Parkinson kasalliklarining asoratlarini davolashda foydalaniladi.

**Xalq tabobatida:** Isiriq oʻsimligining damlama va qaynatmalari markaziy asab tizimini qoʻzgʻatuvchi, tinchlantiruvchi, ogʻriq qoldiruvchi, yalligʻlanishga qarshi, stimullovchi, antigelmintik, antiseptik, terlatuvchi va siydik haydovchi sifatida ishlatiladi.

**Kosmetologiyada qoʻllanilishi:** Sochlarning oqarishini oldini olish uchun ularni maydalangan va ivitilgan oʻsimlik urugʻlari bilan yuviladi. Urugʻlar yaxshi koʻpiklanadi va koʻpincha sovun oʻrniga ishlatiladi. Husnbuzar va toshmalardan xalos boʻlish uchun konsentrlangan damlamadan foydalaniladi.

**Umumiy qarshi koʻrsatmalar:** Zaharli oʻsimlik. Barglar va urugʻlari eng zaharli hisoblanadi. Isiriq preparatlarini qoʻllash ehtiyotkorlik talab qiladi. Katta dozalarda narkotik modda kabi taʼsir qiladi: u tutqanoq va gallyusinatsiyalarni keltirib chiqaradi, shuningdek, tana haroratini pasaytiradi va qon bosimi koʻtarilishi, koʻp miqdorda tupuk ajralishi va nafas olish buzilishi bilan (toʻliq toʻxtashgacha)

bog'liq mushaklarning tirishishi va beixtiyor qisqarib bo'shishini keltirib chiqaradi. Bunday holda, oshqozonni faollashtirilgan uglerodning suvli suspenziya yoki 0,1% kaliy permanganat eritmasi bilan bilan yuvish kerak, sho'rli eritmasi ich suruvchi sifatida ko'rsatiladi, kerak bo'lgan hollarda sun'iy nafas beriladi. Psixotik holatni to'xtatish uchun aminazin (tana vazniga 0,5–3 mg/kg) ishlatiladi. Keyingi davolanish simptomatik hisoblanadi.

**Xo'jalikda isiriqdan foydalanish:** Garmolol alkaloidi tufayli o'simlikdan yorqin qizil bo'yoq olinadi. Turkiyada feska – milliy bosh kiyimni bo'yash uchun ishlatilgan, shuning uchun isiriq «turk bo'yog'i» deb nomlangan. Xalq veterinariya tibbiyotida o'simlik o'tlarning damlamasi uy hayvonlarida qichimalarni muvaffaqiyatli davolaydi. Isiriq insektitsid ta'sirga ega, qishloq xo'jaligi o'simliklarining zararkunandalariga qarshi kurashda ijobiy natijalari ko'rsatgan. Tutatish shaklida isiriq xushbo'y smola – ladan yoki archa kabi, havoni tozalash va xonalarda mikroblarni o'ldirish uchun ishlatiladi. Buning uchun o'simlikning quritilgan urug'lik ko'saklari shakllanib bo'lgan yuqori qismi ishlatiladi. Ba'zida maydalangan quruq barglar va urug'lar ishlatiladi, ular ko'mir ustiga tashlanadi. Isiriq o'tining damlamasi: 1 stakan qaynoq suvda 1 choy qoshiq quruq maydalangan o'ti damlanadi, dam oldiriladi, 2 soat o'rab qo'yiladi, suzgichdan o'tkaziladi. Shamollash va malyariyada 1 osh qoshiqdan kuniga 3-4 marta ovqatdan 20 daqiqa oldin ichiladi. Isiriq o'tining 1% va 10% damlamasi farmakologik tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, ushbu dorilar stafilokokka qarshi faollikka ega. Isiriq o'tining qaynatmasi: 1 stakan qaynoq suvga 1 choy qoshiq quruq maydalangan o'ti solinadi, yopiq idishda 30 daqiqa davomida qaynoq suv hammomida damlanadi, xona haroratida 10 daqiqa sovutiladi, suzgichdan o'tkaziladi. Chayish uchun ishlatiladi. 1% li qaynatmasi va 0,25% li peganin eritmasi mikroblarga qarshi juda kuchli ta'sirga ega. Isiriq urug'i va zig'ir urug'ini damlamasi: 1 qism isiriq urug'i va 3 qism zig'ir urug'i aralashtiriladi, 1 stakan qaynoq suv bilan 1 osh qoshiq aralashma damlanadi, yopiq idishda 30 daqiqa davomida qaynoq suv hammomida damlab, xona haroratida 10 daqiqa sovutiladi, suzgichdan o'tkaziladi. 1 osh qoshiqdan kuniga 3-4 marta bronxial astma, nafas qisishi, revmatizmda tinchlantiruvchi, o't haydovchi, siydik haydovchi va terlatuvchi sifatida ovqatdan 30 daqiqa oldin ochiladi. Isiriq o'ti ekstrakti: quruq o'tiga 96% spirtidan 1:1 nisbatda quyiladi, 21 kunga qoldiriladi, suzgichdan o'tkaziladi. Ensefalitli Parkinsonda, falaj, ensefalomastit, miasteniya, burish

spazmlari, katatonik shizofreniya va katatonik stuporning oqibatlarini davolash uchun kuniga 3 marta 6-12 tomchidan ichiladi. Isiriq choyi: nevrasteniya, tutqanoq, falaj, qizamiq, sifiliz, buyrak kasalliklarida ichiladi, milklar kasalliklarida chayiladi. Isiriqning urugʻlari: kuniga 10 tagacha oshqozon-ichak kasalliklarida va oʻt haydovchi vosita sifatida isteʼmol qilinadi. Isiriq solingan vanna: 10 l qaynab turgan suvda 100 g isiriq oʻti damlanadi, 15-20 daqiqa davomida yopiq idishda qaynatib olinadi, 2 soat turadi, suzgichdan oʻtkaziladi va vannaga qoʻshiladi (+30-40°C). Vannalar har 2 kunda 1 marta 10-15 daqiqa davomida qabul qilinadi (davolash kursi – 10 ta vanna). Revmatizm va modda almashinuvi kasalliklari bilan bogʻliq teri kasalliklarida qoʻllaniladi. Isiriq oʻtini tutatish: falaj, qizamiq, malyariya, isitmali qaltiroq, asabiy taranglik kasalliklarida, tuqqan xotinlarga yordam berish (shu jumladan hayvonlarga) vositasi sifatida ishlatiladi, u uxlatuvchi va antiparazitik vosita sifatida samarali hisoblanadi.

**Gʻazakoʻt** – *Gentiana olivieri* Griseb.  
(Горечавка Оливье)

**Oʻsimlik tavsifi:** Koʻp yillik oʻsimlik. Poyalari balandligi 30 sm gacha, tik turuvchi yoki koʻtarilgan, silliq, och yashil rang.



ildizpoyasi ingichka, simsimon ildizlarga ega. Poyalari asosida 5 sm gacha oʻtgan yilgi barglarning tolasimon qinlarini qoldigʻi bilan zich qoplangan. Ildizboʻgʻzi barglari uzunligi 2-10 sm, eni 4-8 (10) mm, choʻzinchoq-lansetsimon yoki choʻzinchoq, toʻmtoq, asosida toraygan, cheti tekis, poya barglarini soni 2 (3) juft, tor lansetsimon, uzunligi 1-

2 sm. Gullarini soni (1) 3-6, koʻk yoki koʻk-binafsha rangli, bogʻlam boʻlib joylashgan, poyaning yuqori qismida, voronkasimon, ogʻiz ostida eni 9-13 mm, egilgan boʻlakning uzunligi 5-6 mm, naychadan 5 baravar qisqa, choʻzinchoq-chiziqli yoki ellipssimon, toʻmtoqlashgan yoki oʻtkir, burmalari boʻlaklardan 2 baravar qisqa, ikki boʻlakli. Urugʻchi bandda joylashgan. Koʻsak uzunligi taxminan 2 sm, choʻzinchoq. Urugʻlarning uzunligi taxminan 2 mm, ellipssimon, och qoʻngʻirrang,

qanotsiz, ingichka toʻrsimon. U aprel-iyul oylarida gullaydi va mevalaydi.


**Oʻsish joyi va tarqalishi:** Quruq togʻ qiyaliklarida oʻsadi. Togʻ etaklaridan yuqori togʻlarga qadar keng tarqalgan, ochiq joylarda, oʻtli va daraxt-butali oʻsimlik qoplamida, 300-3700 m balandlikda oʻsadi. Oʻrta Osiyo, Kavkazning janubida tarqalgan.

**Xom ashyoni yigʻish va uning sifati:** Dorivor xom

ashyo oʻsimlikni hamma qismidan olinadi. Yer usti qismi (oʻt) gullash davrida yigʻib olinadi, doimiy ravishda aralashtirilib, soyada quritiladi. Yigʻilgan ildizlar yaxshilab yuviladi, yoyiladi va quritiladi.

**Kimyoviy tarkibi:** Gʻazakoʻt yer usti qismlarida (gullash bosqichida) 0,67% alkaloidlar mavjud. Ushbu turdan 9 ta alkaloidlar ajratilgan va aniqlangan: gensianin, gensiananin, gensianain, gensianadin, gensioflavin, gensiotibetin, oliverin, oliveramin, oliveradin, shuningdek, glikozidlar, taninlar va smolalar.

**Tibbiyotda qoʻllanilishi:** Ilmiy tibbiyot amaliyotida gʻazakoʻt damlamasi ishtaha ochuvchi sanaladi va ovqat hazm qilishida yordam berganligi tufayli oʻt haydovchi vosita sifatida tavsiya etiladi. Bu achchiq damlamalar va achchiq ishtaha ochuvchi yigʻmalarning bir qismidir. Oʻrta Osiyo xalq tabobatida ildizlarning qaynatmasi yoʻtal, radikulit, tana ogʻrigʻi va gonoreya, ishtaha yoʻqligida, ich qotishi va ichak boʻshashganligida qoʻllaniladi. Bolalarning teri kasalliklarida oʻtining qaynatmasida choʻmiltiriladi. Yer usti qismi choy shaklida terlatuvchi, oʻt haydovchi va ovqat hazm qilishini stimullovchi vosita sifatida ishlatiladi. Yer usti qismlaridan olingan kukuni yaralarni tuzatish uchun ishlatiladi.



**Shirinmiya - *Glycyrrhiza glabra* L.**  
(Солодка голая (лакричный корень))

**O'simlik tavsifi:** Shirinmiya Fabaceae oilasiga mansub ko'p yillik o'simlik. Balandligi 50-150 sm. O'simlikning yer osti qismi asosiy xom ashyo hisoblanib, ular asosiy ildiz, ko'p yarusli vertikal va



gorizontal ildizpoyalardan va ularni tuproqda ushlab turuvchi qo'shimcha ildizlardan iborat. Shirinmiya ildizi 8 m chuqurlikka kirib borib, odatda yer osti suv sathigacha yetib boradi. Yer usti poyalari asosiy ildizdan, shuningdek, vertikal va gorizontal ildizpoyalardan o'sib chiqib, har bir tuplar vegetativ ko'payib bir necha 10 m<sup>2</sup> maydonni egallaydi. Ildizpoyalarini bo'laklari yaxshi ildiz otadi, shu sababli vegetativ ko'payish orqali shirinmiyaning o'sish maydonlarini tiklash va kengaytirishni asosiy usuli hisoblanadi. Poyasi silliq yoki

siyrak kalta tukli, odatda nuqtali bezli tuklar yoki bezli tikanlar bilan qoplangan. Barglari murakkab toq patsimon, uzunligi 5-20 sm gacha,

3-10 juft, bezchalar hisobiga yopishqoq, yaltiroq, zich, cho'zinchoq tuxumsimon yoki lansetsimon bo'laklardan iborat. To'pgullari uzunligi 5-12 sm, qo'ltiqdan chiqqan deyarli siyrak shingil, gulbandining uzunligi 3-7 sm. Guli uzunligi 8-12




mm oq-binafsha rangli gultojibarglar va o'tkir tishli kosachabarglardan tuzilgan. Mevasi cho'zinchoq, uzunligi 3,5 sm, to'g'ri yoki biroz qayrilgan, 1-8 urug'li, silliq yoki bezli tikanli. May-



iyun oylarida gullaydi, mevasi avgust-sentyabrda etiladi. Tibbiyotda shirinmiya ildizi glitsiram, glitsirama, likviriton va flakarbin preparati olishda ishlatiladi.

**O'sish joyi. Tarqalishi:** Shirinmiya asosan O'rta Osiyoning adir va yarim cho'l mintaqalarining suv bosgan va daryo bo'ylarida tarqalgan. O'sish joyining o'ziga xos xususiyati bu yer osti suvlarining nisbatan yaqinligi va bahor-yoz davrida suv bilan vaqtincha qoplanishi hisoblanadi. Shuningdek, u qirg'oqlarda va



qurigan daryolar, eski o'zanlar, suvi oz irmoqlar, ariqlar va zovurlar bo'yida o'sadi. Shirinmiya daryo oraliqlarining tekisliklarida, tog' yon bag'irlarida ham o'sadi, odatda, kichik chuqurliklar va pastliklarni egallaydi. Begona o't sifatida u ko'pincha ekinlar ekilgan va haydalmagan yerlarda o'sadi. Tog'larda u dengiz sathidan 2000 m balandlikacha uchrab, ildizlari yer osti suvlariga yetib borishi mumkin.

**Xom ashyo yig'ish va uning sifati:** Shirinmiya ildizi va ildizpoyalari yig'ish ob-havo sharoitiga qarab mart oyidan noyabr oyigacha davom etadi. Shirinmiya ildizini sanoat usulida yig'ish mexanizatsiyalashgan holda traktorlar orqali yerni shudgor qilib amalga oshiriladi. B'azi hollarda belkuraklar yordamida ildizlari kovlab olinadi. Zaxiradagi xom ashyoning 50-75% ildiz va ildizpoyalari yig'ib olinishi kerak. Chakalakzorlarni tiklanishi uchun o'simlik vegetativ yo'l orqali ko'payganligi sababli 25-50% ildizpoyalar qoldirilishi kerak. Xuddu shu hududdan shirinmiya o'simligini qayta yig'ish ishlari 6-8 yildan so'ng amalga oshirilishi lozim, bu davr ichida o'simlikning zich o'sish maydonlari qayta tiklanadi. Xom ashyo texnika orqali yig'ib olingandan so'ng, yig'ilgan yer maydonlariga qo'shimcha agrotexnik ishlov berish kerak. Shirinmiya o'simligini xom ashyo bazasini yaratish 2 usulda amalga oshiriladi:

1) shirinmiya tabiiy chakalakzorlarini madaniylashtirish (daraxt va butalar, yirik poyali boshqoqli o'simliklarni olib tashlash va o'rniga shirinmiyani ekish) va shu bilan ularning mahsuldorligini oshirish;

2) sanoat plantatsiyalarini kengaytirish. Yig'ilgan shirinmiya ildizi va ildizpoyalari quritish uchun bog'lamlar qilib bog'lanadi va ochiq havoga yoyib qo'yiladi. Noqulay ob-havo va quyoshda quritish imkoni bo'lmagan hududlarda ayvonlar ostida havo yaxshi aylanadigan yoki issiqliq quritgichlarda 60<sup>0</sup>C dan yuqori bo'lmagan haroratda quritiladi. Ildizni bukkanda (qayirganda) sinso, u qurigan hisoblanadi. Quritilgan ildizlar qo'shimcha ishlov berish uchun zavodlarga yuboriladi. Ko'rinishi va kimyoviy xossalari bo'yicha shirinmiya ildizi davlat standarti talablariga javob berishi kerak, unga ko'ra ildizlar va ildizpoyalar sigmentlarining qalinligi 5-50 mm gacha, uzunligi har xil; ildizi singan joyida och sariq rangda va chirimagan bo'lishi kerak. Kimyoviy xususiyatlariga quyidagi ko'rsatkichlar kiradi: namlik 14% dan, kul 85% dan ko'p bo'lmasligi, ekstrakt moddalar 25% dan, glitsirrizin kislotasi 6% dan kam bo'lmasligi kerak.

**Kimyoviy tarkibi:** Shirinmiya ildiz va ildizpoyalaridan 23% gacha shirin ta'm beruvchi saponin-glitsirrizini (glitsirrizin kislotasining kalsiyli va kaliyli tuzlari) va 4% gacha flavonoidlar (likviritin, likviritozid, izolikiviritin va boshqalar), glabrid, glitsirret kislotasi, steroidlar, efir moyi, aspargin, askorbin kislotasi, achchiqlik, pigmentlar, kamed va boshqalar mavjud. Shirinmiya o'simligi yer usti qismida saponinlar, oshlovchi moddalar, flavonoidlar, efir moylari, shakar, pigmentlar va boshqa moddalarni saqlaydi. Bu shirinmiyaning yer usti qismidan xom ashyo sifatida tibbiyotda yallig'lanishga qarshi, tasmaimon gijjalarga qarshi, og'riq qoldiruvchi va virusga qarshi preparatlar ishlab chiqarishda foydalanish istiqbolini ko'rsatadi.

**Tibbiyotda qo'llanilishi:** Shirinmiya o'simligi ildizining qaynatma va damlamasi yo'tal bilan kechadigan o'pka kasalliklarida balg'am ko'chiruvchi, yuqori kislotali gastrit, oshqozon va o'n ikki barmoqli ichak yarasida yallig'lanishga qarshi va og'riq qoldiruvchi, dorivor yig'malar tarkibida siydik haydovchi va ich suruvchi vosita sifatida buyuriladi. Undan tashqari shirinmiya ildizining galen shakllari adisson kasalligi, buyrak usti bezlarining gipofunksiyasida ishlatiladi. Buyrak usti bezlari funksiyasini stimullash uchun tizimli teri silida, allergik dermatitlarda, oddiy pemfigusda ishlatiladi. Ildiz kukuni farmatsevtikada tabletkalar va boshqa vositalar asosi sifatida, ya'ni dorilarni ta'mi va hidini yaxshilash uchun keng qo'llaniladi. Shirinmiya ildizidan quyidagi maqsadli dorivor preparatlar olinadi: glitsirrizin kislotasi asosida glitsiram (bronxial astma, allergik dermatit, ekzema va boshqa kasalliklarni davolash uchun), flavonoidlar asosida likviriton va

flakarbin (oshqozon va oʻn ikki barmoqli ichak yarasini davolash uchun) preparatlari olinadi.

**Shirinmiya ildiz damlamasi:** 10 g (1 osh qoshiq) maydalangan shirinmiya ildizi sirli idishga solinadi, unga 200 ml (1 stakan) issiq suv qoʻshib, qopqogʻi yopiladi, suv hammomiga 15-20 daqiqa qizdiriladi. Keyin uni xona haroratida 45 daqiqa sovutiladi, suzgichdan oʻtkaziladi. Olingan damlama qaynatilgan suv bilan dastlabki 200 ml hajmgacha keltiriladi. Balgʻam koʻchiruvchi vosita sifatida kuniga 3 marta 1 osh qoshiqdan ichiladi. Damlama salqin joyda 2 kungacha saqlanadi.

**Oʻlmasoʻt** – *Helichrysum maracandicum* Popov ex Kirp.  
Бессмертник самаркандский




**Oʻsimlik tavsifi:** Samarqand oʻlmasoʻti – bu Asteraceae oilasiga mansub koʻp yillik oʻt, koʻp poyali, balandligi 35-70 sm. Barglari butun, poyalari bilan birga koʻpincha oqmayin tukli, pastki barglar choʻzinchoq teskari tuxumsimon, choʻzinchoq lansetsimon, bandga tomon torayib boradi, poyadagi barglar oʻtroq, lansetsimon chizikli yoki chizikli, yuqorilari chiqib turgan, biroz uchli. Savatcha yarim sharsimon yoki gullar ochilganda sharsimon, diametri 8-10 mm. Oʻramabarglar limon-sariq rangli, koʻp qatorli, yirik, zich ustama-ust joylashgan, tashqilari tuxumsimon, ichkilari kuraksimon, toʻmtoq, yuqori qismida qattiq pardali, silliq, yaltiroq, tuksi, deyarli botiq, asosida dagʻal tukli. Gultojibarglari toʻq sariq, popugi unga deyarli teng, sargʻish rangli. Iyun-iyul oylarida gullaydi, iyul-avgust oylarida mevalaydi.

**Oʻsish joyi va tarqalishi:** U Toshkent, Samarqand, Fargʻona, Andijon, Surxondaryo viloyatlaridagi togʻlarning pastki va oʻrta mintaqalarida asosan tosh-shagʻal, shuningdek, yumshoq, mayin tuproqli qiyaliklarda oʻsadi.

**Areali:** Oʻrta Osiyo (Tiyon-Shon, Pomir-Oloy).

**Xom ashyoni yig'ish va uning sifati:** Dorivor xom ashyo hisoblanadi. O'lmaso't to'pgullari (savatchalar) gullashning boshlanishida yig'ib olinadi, hali to'liq gullamagan qalqonlarni 1-2 sm poyasi bilan kesib olinadi. Ochilmagan mayda va gullab bo'lgan gullarni yig'ish mumkin emas. To'plangan to'pgullar konteynerga joylashtiriladi va



darhol quritish joyiga yetkaziladi. Rangsizlanmasligi uchun soyada quritish tavsiya etiladi. O'lmaso't to'pgullari quruq, pardasimon, limon-sariq rangli, gullashdan keyin kesilganda o'z rangini saqlab turadi. Ushbu xususiyat tufayli u so'limaydigan qish guldastalarning bir komponenti hisoblanadi.

**Kimyoviy tarkibi:** Gullardan ajratilib flavonoidlar – izogelixrizin, naringenin, epigenin, kempferol, kversetin, kumarinlar, sterinlar, efir moyining izlari, vitaminlar, shiralar, taninlar va bo'yoqlar aniqlandi. O'lmaso'tining to'pgullar qaynatmasi yoki damlamasi o't haydovchi, siydik haydovchi va yengil ich suradigan vosita sifatida ishlatiladi. Kamroq hollarda o'lmaso'ti preparatlari istisqo va ba'zi teri kasalliklarida qo'llaniladi.

**Tibbiyotda qo'llanilishi:** Tibbiy amaliyotda o'lmaso'tining gullarini (qaynatma, suyuq ekstrakti va quruq konsentratlar) preparatlari surunkali xoletsistit va gepatitda o't haydovchi vosita sifatida ishlatiladi. O't haydovchi yig'ma va choylar tarkibiga kiradi.

Flamin preparati – quruq Qumli o'lmaso'tining quruq ekstrakti tarkibida flavonlar saqlab, tabletkalar shaklida (0,05 g) ishlab chiqariladi va surunkali xoletsistit, gepatoxoletsistit kasalliklarida ishlatiladi.

Xalq tabobatida o'lmaso'tining gullarini damlamasi jigar va o't pufagi kasalliklarida, shuningdek, oshqozon-ichak trakti kasalliklarida – oshqozon og'rig'ida va ishtahani ochishda ishlatiladi. Ma'lumki, Samarqand o'lmaso'ti eng istiqbolli va qimmatli dorivor o'simliklardan

biri bo‘lib, uning xom ashyosiga talab doimiy ravishda o‘sib bormoqda. Ammo mavjud tabiiy resurslar bu ehtiyojni qondira olmaydi. Shu sababli, hozirgi vaqtda Samarqand o‘lmaso‘tini madaniylashtirish borasida jiddiy muammo paydo bo‘ldi.

Bu o‘simlikni yetishtirish katta va chuqur ilmiy-amaliy ishlanmalarni talab qiladi. Hozirda yillik yig‘ish mumkin bo‘lgan xom ashyosi 1 tonnadan oshmaydi.



**Mikroskopiya:** *Helichrysum maracandicum* ning bargi, poyasi va gullarini morfologik va anatomik tadqiq qilish asosida diagnostik belgilar aniqlandi. Unga ko‘ra, asosan, savatchadagi chetki va o‘rta gullarining o‘rama bargini yuzasida (o‘rta qismida), tojburg naychasining yuqorigi qayrilgan qismida, qisman uning yuzasi va naychasida bezli tukchalarning joylashganligi bu tur uchun xos bo‘lgan belgi hisoblanadi.

Bundan tashqari, efir moyli kiritmalar barg mezofillida donchalar shaklida uchrashi qo‘shimcha diagnostik belgi bo‘lib, turdan xom ashyo sifatida to‘pgulidan tashqari bargidan ham foydalanish mumkinligini ko‘rsatadi.

### **Chakanda - *Hippophae rhamnoides* L.**


Облепиха крушиновидная



**O‘simlik tavsifi:** Elaeagnaceae oilasiga mansub kulrang po‘stloqli shoxlangan tikanli buta. Balandligi 2-5 m bo‘lgan kichkina daraxt yoki buta, juda ko‘p sonda qisqargan tikanli shoxlarga ega. Barglari kalta bandli, chiziqli-lansetsimon, uchki qismi kalta o‘tkirlashgan, pastki qismda ponasimon toraygan, uzunligi 2-9 sm va eni 3-15 mm, ustki tomoni kulrang-yashil, ostkisi tukchalar bilan qoplaganligi uchun

kumush-oq rangda. Gullari mayda, sariq, xushbo‘y. Mevasi dumaloq, oltin-sariq mayda danak meva, uzunligi va eni 8-10 mm, shoxlarga zich yopishgan. Mevalari ozgina achchiq bilan nordon ta‘mga ega. May oyida gullaydi, mevalari avgust-sentyabrda pishadi. Tarqalishi. Rossiyaning Yevropa qismining janubiy-g‘arbiy mintaqalarida, Kavkaz, Sibir va O‘rta Osiyoda uchraydi.

**O‘shish joyiva tarqalishi:** Vodiy va daryolarning qayir joylarida, qoya va jarliklarda, bog‘larda o‘sadi. U Toshkent, Samarqand, Farg‘ona, Buxoro, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida uchraydi. Umumiy tarqalishi. O‘rta Osiyo, MDHning Evropa qismi, Kavkaz, Sibir, G‘arbiy Yevropa, Mo‘g‘uliston, Tibet, Himoloy, Eron, Afg‘oniston.



**Xom ashyoni yig‘ish va uning sifati:** Mevasi, yog‘i (mevalari va urug‘lardan olingan) va barglari xom ashyo hisoblanadi. Mevasi sentyabr-oktyabr oylarida, barglari may oyida yig‘iladi.

**Kimyoviy tarkibi:** Meva tarkibida karotinoidlar mavjud: karotin (60 mg gacha), kriptoksantin, zeaksantin, fizalen, organik kislotalar (2,64% gacha) – olma va tabiiy vino kislotasi, shakar (3,56% gacha), taninlar, izoramnetin, S (450 mg gacha), B<sub>1</sub> (0,035 mg gacha), B<sub>2</sub> (0,056 mg gacha), E vitaminlari (145 mg gacha), foliy kislotasi (0,79 mg gacha) va yog‘li moy (8% gacha), tarkibida olein, stearin, linolin va palmitin kislotalarning glitseridlari mavjud. Meva tarkibida turli xil vitaminlar mavjud va u eng yaxshi tabiiy vitamin saqlovchi hisoblanadi.

**Tibbiyotda qo‘llanilishi:** Chakanda mevalari va uning moyi og‘riqni va yallig‘lanishni kamaytiradi va to‘xtatadi, to‘qimalarning granulyosiyasi va epitelizatsiyasini tezlashtiradi, yaralarni tezroq davolashga yordam beradi va polivitaminli ta‘sirga ega. Sharbat, suv damlama, spirtli nastoyka, sirop va moyi shaklidagi chakanda mevalari turli xil avitaminozlar (xususan, singa, tunda ko‘rlik) hamda qizilo‘ngach va oshqozon yarasi uchun ichga qabul qilinadi. Tashqi tomondan mevalarining suvli damlamasi va ayniqsa moyi turli xil teri kasalliklari (toshmalar, ekzema), uzoq vaqt davolanmaydigan yaralar,

ginekologik amaliyotda ayollar kasalliklari, teri va shilliq pardalarining nurlanishida ishlatiladi. Oʻrta Osiyoda bod kasallik uchun barglarini issiq suvda hoʻllab ishlatiladi. Mevalari ham xom, ham murabbo, shinni shaklida isteʼmol qilinadi.

**Dalachoy – *Hypericum perforatum* L.**  
Зверобой пронзённый




**Oʻsimlik tavsifi:** Hypericaceae oilasiga mansub tik turuvchi, ikki qirrali, shoxlangan poyasi boʻlgan koʻp yillik ildizpoyali oʻsimlik. Barglari qarama-qarshi, hidli, choʻzinchoq-ovalsimon, tiniq nuqtali bezli tukchalari bor. Gullari sariq rangda, uchta toʻplamda birlashgan koʻp sonli changchilarga ega. Urugʻchisi uchta ustunchali va uch uyali ustki tugunchadan iborat. Mevasi uch uyali koʻp urugʻli koʻsak. Balandligi 30-100 sm. Gullash vaqti: iyun – iyul.

**Oʻsish joyi. Tarqalishi:** Fargʻona, Toshkent, Samarqand va Surxondaryo viloyatlaridagi togʻ oldi mintaqasidan oʻrta togʻ hududigacha tarqalgan.

**Xom ashyoni yigʻish va uning sifati:** Dalachoy oʻtlarini odatda iyun oxiridan iyul boshlarida ommaviy gullash paytida yigʻiladi. Yigʻilgan oʻtlar yaxshi havo aylanadigan chordoqlarda yoki ayvonlar ostida quritilib, qogʻozga yoki matoga 5-10 sm qalinlikda yoyilib, vaqti-vaqti bilan aylantiriladi. Butun oʻsimlik oʻti 15 kg dan oshmaydigan

matodan qilingan qoplarga, maydalangani – 25 kg ogʻirlikdagi qoplarga qadoqlanadi. Undan oldin xom ashyo qoʻshimcha ravishda ishlov beriladi: maydalanadi va dagʻal poyalari elaklarda olib tashlanadi. Quruq, havo yaxshi aylanadigan



joylarda saqlanadi. Xom ashyoning yaroqlilik muddati 3 yil. XI DF ga muvofiq, ishlov berilmagan xom ashyoning namligi 13% dan oshmasligi kerak, rutin bo'yicha flavonoidlar yig'indisi 1,5% dan kam bo'lmasligi kerak. Maydalangan xom ashyoning raqamli ko'rsatkichlari: rutin bo'yicha flavonoidlar yig'indisi 1,5% dan kam emas, namlik 13% dan, umumiy kul miqdori 8% dan, 10%li xlorid kislota eritmasida erimaydigan kul 1% dan oshmasligi kerak: o'simlikning ildiz qismlari (asosiy poyasi va yon shoxlari) 50% dan, teshiklari diametri 7 mm bo'lgan elakdan o'tuvchi maydalangan zarralar 10% dan, organik aralashmalar (boshqa zaharli bo'lmagan o'simliklarning qismlari) 1% dan, mineral aralashmasi (tuproq, qum, toshchalar) 1% dan oshmasligi kerak. Mog'orlagan va chiriyotgan, zaharli o'simliklar va ularning qismlari, shuningdek, ortiqcha barqaror hidni bo'lishiga yo'l qo'yilmaydi.

**Kimyoviy tarkibi:** O'simlik tarkibida giperitsin, giperozid, rutin, kversitrin va kversetin flavonoidlari, nikotin kislotasi, seril spirti, taninlar, ozroq miqdordagi xolin, karotin (55 mg% gacha), C va PP vitaminlari, alkaloidlar va fitonsidlarning izlari bor. Dalachoyni ishqalanganda o'ziga xos yoqimli hid va ozgina biriktiruvchi achchiq-qatronli ta'mga ega. O'simlik zaharli hisoblanadi.

**Tibbiyotda qo'llanilishi:** Dalachoyning dorivor o'simlik sifatida qadimgi Yunonistonda tanilgan. Rossiya xalq tabobatida dalachoy o'simligini «to'qson to'qqiz kasallikka qarshi o't» deb hisoblanadi va ko'plab kasalliklarni davolash uchun, ayniqsa, dorivor o'tlar aralashmasida keng qo'llaniladi. O'simlik ko'plab mamlakatlarda xalq tabobatida qo'llaniladi. Dalachoyning o'ti biriktiruvchi, qon to'xtatuvchi, yallig'lanishga qarshi, og'riq qoldiruvchi, antiseptik, yarani davolash, siydik haydovchi va o't haydovchi ta'sirga ega. O'simlik ishtahani qo'zg'atadi, turli bezlarning ajralish funksiyasini faolligini stimullovchi, to'qimalarning tiklanishiga yordam beradi va asab tizimiga tinchlantiruvchi ta'sir ko'rsatadi. O'simlik o'tining damlamasi ayollar kasalliklari, oshqozon-ichak trakti kasalliklari (ayniqsa, kolit va turli xil diareyada), oshqozon va ichaklardagi og'riq, jigar, yurak va siydik pufagi kasalliklarida, xususan, buyrak toshlarida, sistitda va tunda bolalarda ehtiyorsiz siydik chiqishida ishlatiladi. Shuningdek, undan tinchlantiruvchi, bosh og'rig'i va boshqa asabiy kasalliklarda og'riq qoldiruvchi vosita sifatida ishlatiladi. O'simlik damlamasi qon to'xtatuvchi, yallig'lanishga qarshi, yallig'lanishga qarshi va antigelmint vosita sifatida ham qo'llaniladi. Nemis xalq



tabobatida o'simlik damlamasi turli xil oshqozon-ichak kasalliklari, istisqo, jigar va buyrak kasalliklari, revmatizm, bavirusil uchun qabul qilinadi va bosh og'rig'i, asabiylashish, bezovta uyqu va asabiy talvasa uchun tinchlantiruvchi vosita sifatida ishlatiladi. Tomchi shaklida o'simlikning spirtli nastoykasi revmatik kasalliklar uchun ichga ichish uchun ishlatiladi. Yaralarga surtilgan maydalangan yangi barglar ularning tezda davolanishiga yordam beradi. Maydalangan o'ti o'simlik moyida damlanadi, ustiga skipidar quyiladi, boddan ta'sirlangan bo'g'imlarga surtiladi. Suv bilan suyultirilgan spirtli damlamasi yomon hidni yo'qotish uchun og'izni chayish kerak, ularni mustahkamlash uchun milklarni toza damlamasi bilan surtish kerak. O'simlik turli xil dorivor preparatlarning bir qismidir (siydik haydovchi, biriktiruvchi va bodga qarshi). Ilmiy tibbiyotda dalachoy o'ti sanchiqlar va buyrak toshi kasalligida ishlatiladi. Klinik tadqiqotlar o'tkir va surunkali kolitda o'simlikning efir-spirtli damlamasining yaxshi ta'sirini ko'rsatdi. Dalachoydan tayyorlangan yangi – imanin preparati, tashqi foydalanish uchun kuyishlarda (ko'rinadigan chandiqlar qolmaydi), teri kasalliklarida, yangi va yuqtirilgan yaralarda, furunkullarda, terining yiringli yallig'lanish jarayonlarida va o'tkir tumov paytida ishlatiladi. O'tkir tumovda imaninni qo'llaganidan keyin bir necha soat ichida yo'qoladi. Dalachoy zaharli o'simlik sifatida ichga ishlatilganda ehtiyotkorlikni talab qiladi: o'simlikning katta dozalarini ichish mumkin emas. Dalachoyning gullaridan matolarni bo'yash uchun foydalanish mumkin: suv damlamasi sariq rang beradi, qaynog'i esa konsentratsiyasiga qarab pushti va qizil rangni beradi.

**Qo'llash mumkin bo'lmagan holatlar:** Dalachoy jigarda bezovtalik va og'izda achchiq maza, ich qotishini keltirib chiqaradi, ishtahani pasayishiga olib keladi. Dalachoy o'ti qon bosimini biroz ko'taradi, shuning uchun gipertoniya kasalligiga chalingan bemorlarga faqat yig'malarning bir qismi sifatida buyurish maqsadga muvofiqdir.

**Qo'llash usullari:** 1) 10 g quruq dalachoy o'ti 1 stakan qaynoq suv solinadi, damlanadi. Ovqatdan so'ng kuniga 2-4 marta 1 osh qoshiqdan ichiladi. 2) 15-20 g quruq o't 1/2 litr spirt yoki aroq solib nastoyka qilinadi. Ovqatdan so'ng kuniga 3 marta 30 tomchisi suv bilan ichiladi. 3) Dalachoyning yangi barglarini va yovvoyi mavrakni (teng darajada olish kerak) yangi hayvon yog'i bilan eziladi, doka orqali siqib olinadi. Yopiq idishda saqlanadi. Yaralarni va shilingan joylarni davolash uchun malham sifatida foydalaniladi. 4) 1/2 stakan suvga 20-30 tomchi spirtli o't nastoykasidan qo'shish kerak. Og'izdagi yomon

hidni yo‘qotish uchun chayish tavsiya etiladi. Tashqi foydalanish uchun damlama ko‘proq konsentrlangan shaklda tayyorlanadi (2 stakan qaynoq suv uchun 2-3 osh qoshiq o‘ti). Dalachoy damlamasi 70% spirtida 1:10 nisbatida tayyorlanadi. 1/3 chashka suv bilan ichga 30-50 tomchidan ichiladi yoki og‘iz-halqumni chayishda ishlatiladi. Yog‘i (*Oleum Hyperici*) quyidagicha tayyorlanadi: 2-3 osh qoshiq yangi gullarga 200 g zig‘ir yoki kungaboqar yog‘i quyiladi. Ora-orada silkitib, xona haroratida qorong‘i joyda 2 hafta davomida turishi kerak. Suzgichdan o‘tkaziladi, tashqi vosita sifatida ishlatiladi. Nevralgik xarakterdagi tortuvchi og‘riqlar, asab tolalarini shikastlanishida buyuriladi. Tromboflebit va oyoqning trofik yaralarini davolashda malham sifatida qo‘llaniladi.

## Qizilpoycha – *Hypericum scabrum* L.


Зверобой шероховатый



**O‘simlik tavsifi:** Hypericaceae oilasiga mansub oilasiga mansub tik turuvchi, ikki qirrali, shoxlangan poyasi bo‘lgan ko‘p yillik ildizpoyali o‘simlik. Ko‘p yillik, butun o‘simlik ozroq yoki kamroq tukli bo‘rtmalar hisobiga g‘adir-budur. Ildizlari yog‘ochlashgan, eni 4-10 mm, poyalari ko‘p sonli, qizg‘ish-binafsha rangga bo‘yalgan, to‘pgul qismida oddiy yoki kamroq shoxlangan, balandligi 20-50 sm gacha. Poyadagi barglari uzunligi 10-15 mm, chiziqli-cho‘zinchoq yoki lansetsimon, odatda chetlari ichkariga o‘ralgan, bezli tukchalar bilan qoplangan, bargning

ostki qismida keskin ajralib turadigan markaziy tomirga ega, barglar qo‘ltig‘ida qisqargan, 1-4 sm uzunlikda novdalari bo‘lib, ular ingichka, eni 0,5-1,5 mm, chetlari ichkariga o‘ralgan chiziqli bargchalarga ega. To‘pgul qalqonchasimon ro‘vak, eni 3-5 sm, to‘pgulning novdalari dag‘al. Gulyonbarglari uzunligi 1-3 mm, chiziqli-lansetsimon yoki lansetsimon pardasimon bo‘lmagan, silliq yoki kipriksimon. Gulbandlar silliq, uzunligi 1-3 mm. Kosachabarglari uzunligi 2-4 mm, silliq, tekis, ko‘kimtir, tomirlari keskin chiqib turgan, 1/2-3/4 gacha ovalsimon-tuxumsimon, yuqorida qisqa uchli bargchalarga bo‘lingan, odatda chetlari bir nechta qora-jigarrang bezli tuklar bilan qoplangan. Gultojibarglari to‘kilmaydigan, cho‘zinchoq teskari tuxumsimon yoki oval-tuxumsimon, yuqorida yumaloqlashgan va bu yerda biroz bezli kiprikchalar bor, uzunligi 4-10 mm va eni 2-4 mm, asosida asta-sekin toraygan. Changchilari gultojibarglaridan uzunroq. Ko‘saklar tuxumsimon, 5-7 mm uzunlikda, tomirlari keskin chiqib turgan, yuqorida tez torayib, qisqa tumshuqchani hosil qiladi. Urug‘lar silindrsimon, biroz egilgan, uzunligi 2 mm ga yaqin, zich qoplangan tukli bo‘rtiklar hisobiga oqish rangda. May-iyul oylarida gullar, iyun-avgust oylarida mevalaydi.

**O'sish joyi.**  
**Tarqalishi:** Toshkent, Farg'ona, Jizzax, Samarqand, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarining tog' oldi mintaqasidan o'rta tog' mintaqalarigacha toshli va shag'alli qiyaliklarda uchraydi.



**Xom ashyoni yig'ish va uning sifati:** Qizilpoycha o'tini yig'ish va sifatiga qo'yiladigan talablar dalachoyini yig'ish qoidalariga o'xshaydi.

**Kimyoviy tarkibi:** O'simlik tarkibida efir moyi, alkaloidlar, C vitamini, karotin, rutin, kversetin, giperin, kversitrin, miritsetin, 3-rutinozid miritsetin, 7-arabinozid kversetin, avikulyarin, antotsianlar, kumarinlar, floroglyusinlar, taninlar, giperitsin, katexinlar mavjud. Ildizlarida alkaloidlar, to'pgullarida PP vitamini topilgan.

**Qo'llash usuli:** O'simlik turli xil kasalliklarda (jigar, yurak, oshqozon, ichak, siydik pufagi) ishlatiladi. Qizilpoycha yuqori antibakterial, fenol birikmalar yig'indisi esa virusga qarshi faollikni ko'rsatadi.

Tajribada o'rtacha diuretik ta'siri aniqlangan. Gullarning 10% li nastoykasi oltin tusli stafilokokk, streptokokk, ichak tayoqchasiga bakteriostatik va bakteritsid ta'sir ko'rsatadi.

**Retseptlar:** 1) yo'tal, bronxit, sistit, gepatit, gastrit, enterit, kolit: 1 osh qoshiq quruq maydalangan o'tiga 1 stakan suv quyiladi, 3-4 daqiqa davomida qaynatiladi, 2 soat turib, suzgichdan o'tkaziladi. 1/4-1/3 stakandan ichiladi. Kuniga 3 marta ovqatdan 30 daqiqa oldin. 2) yuqumli gepatit: 2 osh qoshiq gullriga 1 litr qaynoq suv quyiladi, 1 soatga qoldiriladi, suzgichan o'tkaziladi. Sekin-asta iliq holda choy shaklida kuniga 2-3 marta 1 stakandan ichiladi. Shunga qaramay, qizilpoychadan foydalanishdan oldin avval mutaxassis yoki shifokor bilan maslahatlashish kerak.

## Andiz – *Inula helenium* L.

(Девясил высокий)



**O‘simlik tavsifi:** Andiz – bu Asteraceae oilasiga mansub ko‘p yillik o‘simlik, balandligi 160-150 sm, qalin, kalta, etdor, ko‘p boshli ildizpoyaga ega, ulardan bir nechta ko‘shimcha ildizlar tarqaladi. Poyasi tik turuvchi, chiziq-chizikli, kalta, zich, oq tuklar bilan tuklangan, yuqori qismida qisqa shoxlangan. Barglari ketma-ket, yirik, notekis tishsimon, tashqi tomoni biroz burushgan, ostida kulrang yumshoq tuklangan. Gullar diametri 8 sm bo‘lgan to‘pgul (savatchalar) ichida to‘plangan, asosiy poya va novdalarning yuqori qismida savatchalari zich bo‘lmagan ro‘vak


yoki qalqonchani hosil qiladi. Gullari oltinsimon sariq, xira oq rangli tukli popugi bor. Mevasi 4-5 mm uzunlikdagi to‘rt qirrali qo‘ng‘irrang pistachalardan iborat bo‘lib, uning popugi pistachaga nisbatan ikki baravar uzundur. Iyul-sentyabr oylarida gullaydi, mevalari avgust-oktyabr oylarida pishadi. Tibbiyotda ildizlari va ildizpoyalari qo‘llaniladi.

**O‘shish joyi va tarqalishi:** Dasht zonasida, quyi va o‘rta tog‘ mintaqalarida tarqalgan. Butazorlarda va baland bo‘yli o‘tloqlarda o‘sadi. U



ko‘pincha nam joylarda – daryolar, ko‘llar, tog‘ irmoqlari bo‘ylarida, yer osti suvlari oqib chiqadigan joylarda uchraydi.

**Xom ashyoni yig'ish va uning sifati:** Avgust oyining oxirida yoki sentyabrning boshida andizning ildizlari va ildizpoyalari ikkinchi vegetatsiya yili yig'iladi. Xom ashyosi XI DF da ko'rsatilgan talablarga javob berishi kerak.



Andizning tayyor xom ashyosi to'liq yoki bo'lingan uzunligi 2-20 sm, qalinligi 0,5-3 smli ildizpoyalardan va ildizlardan iborat bo'lishi kerak. Xom ashyo o'ziga xos hidga ega, xushbo'y, achchiq ta'mli. Xom ashyo tarkibida quyidagilarga ruxsat beriladi: namlik 13% dan, umumiy kul miqdori 10% dan, yumshoq ildizlar va ildizpoyalar, poyalar asoslari va o'simlikning boshqa qismlari, singan joyda qoraygan, shuningdek, uzunligi 2 sm gacha bo'lgan ildiz bo'laklari 5% dan; organik aralashmalar (boshqa zaharli bo'lmagan o'simliklarning qismlari) 0,5% dan, mineral aralashmalar (tuproq, qum, toshchalar) 1% dan oshmasligi kerak. Xom ashyolarni 25-30 kg gacha bo'lgan qoplarga yoki 50 kg gacha toylarga qadoqlab, zararkunanda hasharotlardan saqlanadigan quruq, yaxshi xavo aylanadigan xonalarda stellajlarda saqlanadi.

**Kimyoviy tarkibi:** Andizning ildizpoyalarida va ildizlarida efir moyi (1-3%), saponinlar, smola, shilimshiq va achchiq moddalar (oxirgisi barglarda ham uchraydi) mavjud. Efir moyining asosiy komponenti izoalantolakton aralashmasi bo'lgan alantolaktondir. Ularning aralashmasi ilgari gelenin deb nomlangan. Bundan tashqari, o'simlik ildizlaridan digidroadantolakton, fridelin, dammaradienilatsetat, dammaradienol, fitomelan, tez tarqaladigan polienlar va boshqa atsetilen birikmalar, shuningdek, stigiasterin, ko'p miqdorda inulin va psevdoinulin ajratilgan.

**Tibbiyotda qo'llanilishi:** Andizning preparatlari balg'am ko'chiruvchi va yallig'lanishga qarshi xususiyatlarga ega, shuningdek, ichakning kuchaygan harakatchanligini va sekretiya faoliyatini pasaytirishi mumkin. Andiz ildizlari va ildizpoyalarda saqlanadigan efir moyi antiseptik va gijja tushiruvchi ta'sirlarga ega. Andiz preparatlari nafas yo'llarining surunkali kasalliklari – shilimshiqning katta

sekretsiyasi bilan birga kechadigan traxeit va bronxit kasalliklarida uchun balg'am ko'chiruvchi sifatida qo'llaniladi. Ular gastroenterit va yuqumsiz diareya kasalliklarida yaxshi davolovchi vosita hisoblanadi.

**Andizning ildizpoyalari va ildizlaridan qaynatma:** 10 g (1 osh qoshiq) andizning ezilgan ildizlari va ildizpoyalariga 1 stakan suv bilan quyiladi, qaynatiladi, qaynab chiqqach, 10-15 daqiqa davomida qaynatiladi, sovutiladi va yo'talda balg'am chiqaruvchi vosita sifatida har 2 soatda bir osh qoshiqdan iliq holda ichiladi. Asal (1:1) bilan aralashtirilgan andizning ildizpoyalar va ildizlaridan olingan sharbat yo'tal va bronxial astmada qo'llaniladi.

**Qora andiz – *Inula grandis* Schrenk**  
(Девясил крупнолистный)

**O'simlik tavsifi:** Qora andiz – bu Asteraceae oilasiga mansub ko'p yillik o'simlik. O'simlikning bo'yi 50-120 sm. Barglari qattiq,




terisimon, nuqtali bezli tukchalar bilan qoplangan, ba'zida kuchli tuklangan, hidli, chetlari noaniq o'yilgan, tishsimon, tomirlari o'tkir to'rsimon, ildizbo'g'zi barglari uzunligi 70 sm gacha, eni 20-30 sm, keng ellipssimon, o'tkir, bandga cho'zilgan, o'rta poya barglari o'troq, yuraksimon asosi poyani o'rab turuvchi, to'pguli kichiklashgan. Savatchalar zich keng qalqonchada, diametri 2-3 sm, uzun bandli. O'ramabarglar lansetsimon, kipriksimon, zich bezli tukchalar bilan qoplangan, tashqi tomondagilari o'tkirlashib cho'zilgan, ichkilari esa asta-sekin o'tkirlashgan. Tilsimon gullari to'q sariq-sariq rangli, egilgan joyi uzunligi 2 sm gacha va tor chiziqli. Pistachalar faqat popuk ostida biroz tukli, silindrsimon,

biroz yalpoqlashgan, ko'p sonli uzunasiga qirralari bor, jigarrang, uzunligi 3-5 mm, eni 1-1,5 mm. Popugi asosida qo'shib o'sgan 3 ta to'plamdan iborat, pistachadan 2-3 baravar kattaroq, qisqa patsimon, xira sarg'ish tuklar bilan qoplangan. May-iyul oylarida gullaydi, iyul-

avgust oylarida mevalaydi. Tibbiyotda ildizi bilan ildizpoyalari ishlatiladi.

**O'sish joyi va tarqalishi:** U tog'larning quyi va o'rta mintaqalarida mayda zarrali yumshoq qiyaliklarda o'sadi. U Toshkent, Samarqand, Andijon, Farg'ona va Surxondaryo viloyatlari hududida uchraydi. Pskem daryosi havzasida (Toshkent viloyati) qora andiz keng tarqalib, ba'zan juda zich o'sish maydonlarini tashkil etadi. Dengiz



sathidan 800-2000 m balandlikdagi hududlarda keng tarqalgan. Fitotsenotik optimumi dengiz sathidan 1200-1800 m balandlikda joylashgan, o'sish guruhlari turon quruq dasht jamoalari, keng bargli o'rmonlar, archa o'rmonlari va baland tog' yirik o'tli o'simliklar qoplamida keng tarqalgan. Xom ashyoni yig'ishni Pskem daryosining o'ng qirg'og'ida Taqayong'oq va Jourjurek, shuningdek, Kumushkonsoy, Zarkentsoy qishloqlari orasida o'tkazish mumkin. Qora andizning mumkin bo'lgan yillik xom ashyosini hosildorligi 99,00 tonna hisoblanadi.

**Xom ashyoni yig'ish va uning sifati:** Xom ashyo yig'ishda ildiz tizimidan 20 sm radiusda 30 sm chuqurlikda qaziladi va poyani ushlab ildizpoyalari bilan birga ildizlari tortib olinadi, bunda qalin ildizlarni sinib ketmasligiga harakat qilinadi. Zich o'sgan maydonlarni tiklash uchun 10 m<sup>2</sup> uchun kamida bitta mevali o'simlik qoldiriladi. Qazib olingan xom ashyo tuproqdan tozalanadi, tezda suvda yuviladi, asosidan poya qoldiqlarini kesib tashlab, yupqa ildizlar ham olib tashlanadi. Ildizpoyalar va qalin ildizlar uzunligi bo'ylab 10-15 sm va 1-2 sm qalinlikdagi bo'laklarga kesiladi. Zararkunanda va zararlangan ildizlar hamda ildizpoyalarning qoraygan qismlari olib tashlanadi. Qora andiz ildizlar va ildizpoyalari ochiq havoda 2-3 kun soyada va nam havoda – ayvon ostida quritiladi. Keyin ular ingichka qatlamda yoyilib (5 sm dan qalinlikda) iliq, yaxshi havo aylanadigan xonalarda tokchalarda yoki 40°C dan yuqori bo'lmagan haroratda quritgichlarda quritiladi. Agar



termal quritgichga qo'yilishidan oldin xom ashyo ochiq havoda quritilmagan bo'lsa, dastlabki quritish harorati 30-35<sup>0</sup>C dan oshmasligi kerak (kuchli ventilyasiyasi bilan). Butun ildizlarni va ildizpoyalarni quritmaslik kerak, shuningdek, haroratni 50<sup>0</sup>C dan oshmasligi kerak, chunki bu sharoitda xom ashyo bug'lanadi va qorayadi. Yaxshi ob-havo sharoitida uni brezentga yupqa qatlam qilib yoyib quyoshda quritish mumkin, quyosh botgandan usti keyin yopiladi. Quritish tugaganini ildizlarning sinuvchanligi bilan belgilanadi. Quritilgan xom ashyo qayta tekshiriladi, sinish joylari qoraygan qismlar va turli xil aralashmalar olib tashlanadi.

**Kimyoviy tarkibi:** Qora andizdan, igalan, igalin va seskviterpenovin diollari – igalol va grandol ajratilgan. Bundan tashqari, ildizlarda flavonoidlar, taninlar, alkaloidlar, triterpen saponinlar va organik kislotalar mavjud.

**Tibbiyotda qo'llanilishi:** Ilmiy tibbiyotda oshqozon va o'n ikki barmoqli ichak yaralari va oshqozon katari uchun qora andiz ildizidan preparatlar tavsiya etiladi. An'anaviy tibbiyot amaliyotida ildizlardan olingan damlama sil, oshqozon-ichak kasalliklarida va gijja haydovchi vosita sifatida ishlatiladi va tashqi tomondan qichima uchun ishlatiladi. Qora andiz dorivor xususiyatlari o'simlikning barcha a'zolarida seskviterpen laktonlari mavjudligiga bog'liq.

**Yong'oq – *Juglans regia* L.**  
Орех грецкий

**O'simlik tavsifi:** Yong'oq Juglandaceae oilasiga mansub balandligi 25




m gacha bo'lgan daraxt, tana diametri 3 m gacha boradi. Shox-shabbasi kuchli, tarvaqaylab o'sgan. Barglari juda yirik, ketma-ket, bandli, toq patsimon, 5-11 bargchalardan iborat. Bargchalari ellipsimon yoki cho'zinchoq, ustki qismida to'q yashil, ostkida esa ochroq rangda. Yong'oq gullari mayda, ko'rimsiz, bir jinsli bo'lib, bitta tupda rivojlanadi, ya'ni bir uyli o'simlikdir. Changchi gullari ko'p gulli to'pgullarda – kuchalada to'plangan. Har bir changchi guli 6 ta bo'lakli gulqo'rg'on va o'rovchi barg bilan qo'shilib o'sgan va 12-18 dona

changdondan iborat. Urug'chi gullari o'troq, yakka yoki 2-3 tadan to'plangan. Har bir urug'chi gul ikkita gulyonbarg, 1 uyli ostki tuguncha va ikkita tumshuqchadan iborat. Yong'oq mevalari – har xil shakldagi va o'lchamdagi yirik sharsimon va ellipsimon danak, tashqi tomoni qalin meva qobig'iga ega, u har xil shakldagi va o'lchamdagi yog'ochlashgan danak – yong'oqni o'rab turadi. Danakda och jigarrang qobiq bilan qoplangan urug' (yong'oq mag'zi) mavjud. Pishmagan mevalarda meva qobig'i etli bo'ladi. Meva pishganda yong'oq quriydi va yoriladi, undan urug'li danak ajraladi. Yong'oq barglari ochilishi bilan bir vaqtda aprel-may oylarida gullaydi. Yong'oq shamol yordamida changlanadi. Mevalari sentyabr-oktyabr oylarida pishadi. Yong'oq tez o'sadi, madaniylashtirilganda 5-10 yoshida meva berishni boshlaydi, 50-60 yoshda to'liq hosilga yetadi va 300 yilgacha yashaydi.

**O'sish joyi va tarqalishi:** U G'arbiy Tiyan-Shon qiyaliklarida kichik o'rmonlar hosil qiladi (Toshkent viloyati), hamma joyda keng yetishtiriladi.

**Xom ashyoni yig'ish va uning sifati:** Barglar, gullar, meva qobig'i, yashil



va pishgan yong'oqlar, yong'oq urug'lari, urug'ining moyi, qattiq urug' po'sti va ular orasidagi yupqa pardalari shifobaxsh xom ashyo bo'lib xizmat qiladi. Barglari katta bo'lib ketmasdan may-iyun oylarida yig'iladi, qorayib ketmasligi doimiy kuzatilib ayvon ostida va temir tomli chordoqlarda tezda quritiladi. Meva po'sti mevalarni terganda yig'iladi (avgust-sentyabr oylarida), quritgichlarda yoki pechlarda 30-40°C haroratda quritiladi. Yong'oq mevalari pishmagan va pishgan holda yig'ib olinadi. Pishmagan yong'oqlar iyun oyida yig'iladi (ular pishgan mevalar kattaligiga yetganda, lekin ularning pallalari hali yog'ochlashmagan va yong'oqni igna bilan teshish mumkin bo'lganda). Yong'oq xom ashyosining asosiy yig'imi to'liq yetilganda, ya'ni yashil meva qobig'i yorilib, yong'oq ajralib tushganda amalga oshiriladi.

**Kimyoviy tarkibi:** O'simlikning barcha qismlarida biologik faol moddalar mavjud: koratriterpenoidlar, steroidlar, alkaloidlar, C

vitamini, taninlar, xinonlar. Barglarda aldegidlar, efir moyi, alkaloidlar, C vitaminlari (1300 mg), PP, ko'p miqdorda karotin (33 mg%), fenol karbon kislotalar, taninlar, kumarinlar, flavonoidlar, antotsianinlar, xinonlar va yuqori aromatik uglevododlar; meva qobig'ida – organik moddalar kislotalar, taninlar, kumarinlar va xinonlar. Yashil yong'oqlar C, B<sub>1</sub> vitaminlariga (B<sub>3</sub>, PP, karotin va xinonlar, etilgan yong'oqlar – sitosterinlar, C, B<sub>1</sub>, B<sub>2</sub>, PP vitaminlari, karotin, taninlar, xinonlar va efir moylariga, shuningdek, kletchatka, temir va kobalt tuzlariga boy. Urug' po'sti fenol karbon kislotalar, taninlar va kumarinlar, pelikulasi (mevani qoplagan ingichka jigarrang po'sti) – steroidlar, fenol karbon kislotalar, taninlar va kumarinlarga boy.

**Yong'oqning shifobaxsh xususiyatlari:** Yong'oq preparatlari bakteritsid, yallig'lanishga qarshi, sklerozga qarshi, antigelmintik, mustahkamlovchi, biriktiruvchi, ichni to'xtatadigan, ich suruvchi (ildiz po'stlog'i), o'rta darajada qand miqdorini pasaytiruvchi, qon to'xtatuvchi, yarani davolovchi va bitiruvchi xususiyatlarga ega. Barglar yaralarni davolash, mikroblarga va yallig'lanishga qarshi xususiyatlarga ega. Yong'oq mag'zida magniy juda ko'p, bu tomirlar kengaytiruvchi va siydik haydovchi ta'sirga ega, shuningdek, kaliy ko'p bo'lib, u organizmdan natriyni chiqarib tashlashi va siydik haydalisini ko'paytirishi mumkin. Bularning barchasi qon bosimini pasaytirishni ta'minlaydi. Yong'oq mevalari (mag'zi) asli hoida, tug'ralgan va qovurilgan shaklida ishlatiladi. Ulardan murabbo tayyorlanadi yoki asal bilan aralastiriladi. Asal bilan ezilgan mag'izlar sil kasalligi, saraton kasalligi va umuman zaiflashgan odamlar uchun juda foydali. Yong'oqlar giperatsidli gastrit yoki oshqozon yarasi uchun ajoyib vosita hisoblanadi va me'da shirasining sekreitsiyasini ko'payishiga olib keladi. Yong'oq mevalari kichik gijjalar uchun antigelmintik vosita sifatida ishlatiladi. Maydalangan yong'oqlar ko'karishlar va zarblarning dog'larini davolash uchun ishlatiladi, oshqozon yarasini davolash uchun esa ichga iste'mol qilinadi. Bolalardagi miya va yurak tomirlarining sklerozi, sil kasalligi, raxit uchun barglarning damlamasi ichiladi, metabolizmni yaxshilaydi va qondagi qand miqdorini pasaytiradi; tashqi tomondan – ho'llanma, vanna, yiringli toshmalar, lishay, ekzemada yuvinib yaralarni davolovchi vosita sifatida, shuningdek, turli xil yallig'lanish kasalliklari va tish milki qon ketishida og'iz va tomoqni chayish vosita sifatida ishlatiladi. Yong'oq po'stlog'idan (qobiqdan) murabbo buyraklardagi yallig'lanish jarayonlarida yoki surunkali nefrit yoki pielonefritda ishlatiladi. Yong'oq va yong'oq moyi aterosklerozda

parhez mahsulot hisoblanadi, jigar kasalliklari, ich qotishi bilan kechadigan surunkali kolit uchun foydalidir. Xalq tabobatida yong‘oq moyi ko‘z atrofidagi gangrena, saramas va teshik yara kasalliklarida eng yaxshi vosita hisoblanadi. Moyidan siydik tosh kasalligi, hayz ko‘rishi buzilishlarida ishlatilgan, lishay bilan ta’sirlangan terini moylash uchun ishlatishgan, shuningdek, kuyish va ko‘krak yoriqlarida surtma sifatida foydalanilgan.

**An’anaviy tibbiyot retseptlari:** Yong‘oq barglarining damlamasi: 2 stakan qaynoq suvga 1 osh qoshiq quruq ezilgan barg qo‘shiladi va 1 soat damlab qo‘yiladi, 2 soat sovutishga qo‘yiladi, qandli diabetda, miya va yurak tomirlari sklerozi, metabolizmni yaxshilash, o‘pka silida qon tupurishi kamaytirish uchun ovqatdan 20 daqiqa oldin kuniga 2-3 marta ichiladi. Xuddi shu damlama yordamida og‘iz va tomoqni turli xil yallig‘lanish kasalliklari va tish milki qon ketishida og‘izni chayish mumkin. Yong‘oq barglarini damlamasi: 1 litr qaynoq suvni 50 g yong‘oq barglari damlanadi, 2 soat tindiriladi – enterokolit, dumaloq chuvalchaglarda shu damlama kun davomida ichiladi. Yong‘oq barglaridan damlama: 1 osh qoshiq barglar yoki yashil meva po‘sti ustiga 1 stakan qaynoq suv quyiladi, 1 soatga qoldiriladi, to‘kib tashlanadi. Vitamin yetishmovchiligida mustahkamlovchi sifatida ovqatdan oldin kuniga 3 marta 1-3 stakandan ichiladi. Barglarning o‘rniga ich yumshatuvchi ta’sirga ega bo‘lgan ildizlar va novdalarning po‘stlog‘idan foydalanish mumkin. Tashqi foydalanish uchun yong‘oq barglaridan damlama: 0,5 kg maydalangan quritilgan yoki 2 kg yangi yig‘ilgan yong‘oq barglariga (gullari yoki pishmagan mevalari bilan aralashmasi) 1 chelak qaynoq suv (8-10 l) quyiladi, sekin olovda 30 daqiqa davomida qaynatib olinadi, 37-40<sup>0</sup>C haroratli suv bilan 1:1 nisbatda suyultiriladi va teri kasalliklari, bolalar diatezi, shuningdek, limfa bezlarini yallig‘lanishida vanna qabul qilinadi. Vannani 10-15 martagacha qabul qilinadi. Yetilgan yong‘oq urug‘ining pardalaridan qaynatma tayyorlash: 0,5 litr qaynoq suvga 40 g xom ashyo solinadi, sekin olovda 1 soat qizdiriladi, qand diabetda ovqatdan oldin kuniga 3 marta 15 ml dan ichiladi. Yong‘oqning damlamasi: maydalangan va yetilmagan 15 ta mevasi 0,5 litrli idishga solinadi, 70% spirt quyiladi va 14 kun davomida quyoshda turadi. Gastrit, enterokolit, diareya, qand diabeti, yangi o‘smalar, shuningdek, vitaminli vosita va umumiy mustahkamlovchi sifatida ovqatdan so‘ng 20-30 ml dan ichiladi. Yong‘oq urug‘ining pardalaridan nastoyka: ichki pardalar 20-25 yong‘oqdan ajratiladi, ularga 100 ml 70% spirt quyiladi,

7-10 kunga qoldiriladi va mastopatiya va bachadon miomasida kuniga 3 mahal 15-20 tomchidan 30-50 ml qaynatilgan suvga tomizib ichiladi. Davolash kursi – 2 oy. 7-10 kunlik tanaffusdan keyin uni takrorlash mumkin. Yong‘oq urug‘ining pardalaridan nastoyka: 200 ml 70% spirt yoki kuchli aroqqa 1 osh qoshiq quruq pardalar solinadi, qorong‘i joyda 14 kun saqlanadi, vaqti-vaqti bilan silkitiladi, suzgichdan o‘tkaziladi, siqib olinadi. Titrash, asab kasalliklari, diareya, surunkali kolit, diabet, gipertoniya kuniga 3 marta 1 choy qoshiqdan ichiladi, davolanish kursi 15-30 kun hisoblanadi. Yong‘oqning yosh va yangi barglaridan siqilgan sharbati tashqi tomondan terining zamburug‘ kasalliklari, o‘rta quloqning yiringli yallig‘lanishida ishlatiladi. Yong‘oqning meva po‘stidan olingan sharbat bilan tomoq og‘rig‘ini davolashda chayiladi. Yong‘oq kamedi yaralarni davolash uchun kukun sifatida ishlatiladi. Yangi yong‘oq barglarini yaralar va chipqonlarga qo‘yiladi. Bavosil uchun qaynatilgan barglar issiq suvda ho‘llab qo‘yiladi. Xuddi shu maqsadda quyidagi malhamni tayyorlash mumkin: 15 g quruq maydalangan yong‘oq barglariga 100 ml o‘simlik moyi quyiladi, 7-8 kundan keyin 1 soat suv hammomida qaynatiladi, doka orqali ikki marta suzgichdan o‘tkaziladi va yana 30 daqiqa qaynatiladi, keyin 15 g mum qo‘shiladi va soviguncha aralashtiriladi.

### **Qizilarcha** – *Juniperus seravschanica* Kom.

(Можжевельник зеравшанский)


**O‘simlik tavsifi:** Cupressaceae oilasiga mansub balandligi 20 m gacha bo‘lgan ikki uyli daraxt yoki juda kam hollarda zich ovalsimon yoki konussimon shox-shabbali past bo‘yli buta. Po‘stlog‘i qizg‘ish,



plastinkasimon; novdalari yo‘g‘on; uchki novdalari biroz tasbehsimon yoki bir tekis, qalinligi 1-1,5 mm, och yashil yoki kulrang. Barglari tuxumsimon cho‘zinchoq, o‘tkir, orqa tomonida cho‘zinchoq bezchalari bor. Quddasimon rezavor mevalari 9-12 mm uzunlikda, kalta bandchalarda, sharsimon yoki deyarli sharsimon, yosh mevalari yashil, yetuklari to‘q jigarrang, ko‘kimtir rang bilan qalin qoplangan, qattiq, tashqi qavatini

ostida yog'ochlashgan qatlamli, 2-3 kamdan-kam 4 urug'li. Urug'larning uzunligi 5-7,5 mm, odatda noaniq uch qirrali-tuxumsimon, yondagilari yirikroq, orqa tomoni bo'rtib chiqqan va ikkita burushiqqa ega, o'rtagi urug'lar kichikroq (ba'zan bo'lmaydi), yonidan bo'ylama burushiqqlari bor, yosh urug'lari ochiq rangli, yetuklari jigarrang.

**O'sish joyi va tarqalishi:** Dengiz sathidan 1000 dan 2500 m gacha bo'lgan toshli, shag'alli va mayda zarrali tog' qiyaliklarida uchraydi. Ba'zan toza chakalakzorlar yoki *Juniperus semiglobosa* Regel va ba'zi keng bargli turlar bilan aralash chakalakzorlarni hosil qiladi (Boysun tizmasidagi Xo'ja-Gurgur-Ota va Turkiston tizmasidagi Guralash-Soy tog'lari). Toshkent, Farg'ona, Samarqand viloyatlarida uchraydi. Umumiy tarqalishi. Pomir-Oloy, Tiyon-Shondan Qoratog'gacha, Shimoliy Afg'onistonning Hinduqush tizmalari bo'ylab tarqalgan.



**Xom ashyoni yig'ish va uning sifati:** Qizilarcha quddasimon rezavor mevalarni yig'ish kuzda (avgust oyining oxiridan noyabr oyining oxirigacha), ular to'liq pishib, to'q jigarrangga kirganda amalga oshiriladi. Yig'ish uchun qanor matosi va brezent qo'lqoplari kerak. Quddasining ignasi qo'lga sanchilgani uchun xom ashyo teruvchilar mato ustiga quddasimon rezavor mevani silkitib yig'ib olishadi. Bunda yetuk mevalar to'kilib, shoxlarda yashillari qoladi. To'kilgan mevalar ignalar, shoxlar, po'stloq bo'laklari va pishmagan mevalardan tozalanadi. Quddasimon rezavor mevalarni tayoq bilan qoqish tavsiya etilmaydi, bu yashil mevalar, ignalar, hasharotlarni to'kilishiga olib keladi va xom ashyoni ifloslantiradi, o'simlikka zarar yetkazib, kelgusi yilda hosilni pasaytiradi. O'simliklarni chopish yoki novdalarini kesmaslik kerak. Xom ashyoni asta-sekin quritish tavsiya etiladi. Quddasimon rezavor mevalar soyada har kuni aralashtirilib, ayvon ostida, havo yaxshi aylanadigan omborxonalarda, isitiladigan xonalarda quritiladi; pechlarda xom ashyoni quritish tavsiya etilmaydi, bu mevalarni sifatini yomonlashtiradi. Quritishdan oldin tozalangan xom

ashyo uchun qayta ishlov berish talab etilmaydi. Talablarga ko'ra, qizilarcha mevalari sharsimon quddasimon rezavor mevalar, diametri 5-7,5 mm, silliq, yaltiroq, kamroq xira, to'q jigarrang yoki deyarli qora, ba'zan ko'kimtir rangli mumsimon qatlam bilan qoplangan, yuqorida uch nurli choki bor. Eti g'ovak, yashil-qo'ng'irrang, 2-3 urug'dan iborat. Hidi o'ziga xos, hushbo'y. Ta'mi o'tkir hushbo'y, shirin. Xom ashyo tarkibida kamida 0,5% efir moyi bo'lishi kerak. Umumiy kul miqdori 5% dan; 10% xlorid kislotada erimaydigan kuli 0,5% dan, pishmagan yoki qo'ng'irrang mevalari 9,5% dan; shu jumladan, yashil mevalari 0,5% dan, organik va mineral aralashmalarning har biri 0,5% dan; boshqa zaharli bo'lmagan rezavor mevalar 0,5% dan ko'p bo'lmasligi kerak. Boshqa turdagi qizilarcha aralashmalari, ayniqsa, zaharli qozoq qizilarcha aralashmasi bo'lmasligi zarur. Quritish paytida vazn yo'qotish 20% dan oshmasligi kerak. Quritilgan xom ashyo 40-50 kg gacha bo'lgan qoplarga solinadi. Havo yaxshi aylanadigan quruq joyda saqlanadi. Qizilarcha mevalarini saqlash paytida efir moylarini tez yo'qotilishi kuzatiladi. Xom ashyoning yaroqlilik muddati 2 yilgacha.

**Xo'jalik ahamiyati:** Qizilarcha – o'rmon meliorativ ishlarida nihoyatda qimmatli o'simlik, chunki u tog' qiyaliklarining eroziyasi va ko'chishini oldini oladi. Yog'ochining o'zagi qizil va o'ziga xos kuchli «sarv» hidiga ega bo'lganligi uchun qurilish (ayniqsa, tog' qishloqlarida) va buyumlar yasash materiali sifatida ishlatiladi, shu jumladan qalamlar uchun yog'ochlik olinadi.

**Kimyoviy tarkibi:** Yangi novdalarida 0,45 dan 0,75% gacha efir moyi mavjud, ular tarkibiga d- $\alpha$ -pinen (taxminan 79%), kadinen, terpen, terpinolen, mirsen (taxminan 6%) va sedrol (taxminan 6%) kiradi. Novdalarda moy miqdori bahordan kuzgacha juda ko'payadi. Shuningdek, rezavorlar tarkibida 10-30% shakar, yuniperin glikozidi, sariq rangli bo'yoq, 9% smola, pentozanlar, organik kislotalar, po'stlog'i va novdalarida 8,3% gacha tanin, igna barglarida 120-140 mg C vitaminlari mavjud.

**Tibbiyotda qo'llanilishi:** Quddasimon rezavor mevalarning damlamalari siydik haydovchi, yallig'lanishga qarshi va o't haydovchi xususiyatlarga ega.

**Bozulbang – *Lagochilus inebrians* Bunge**  
(Зайцегуб опьяняющий)


**O‘simlik tavsifi:** Lamiaceae oilasiga mansub yarim buta, balandligi 24-60 sm, o‘q ildizli, sharsimon shakl beruvchi ko‘p sonli tik turuvchi, oddiy yoki shoxlangan tikanli poyalardan iborat. Barglari qarama-qarshi, keng tuxumsimon, uchga,



beshga bo‘lingan, ko‘p sonli tukchalari va bezli tukchalari bor. Gullari 4-6 ta dan qo‘ltig‘dan chiqqan yarim xalqada, uzun boshhoqsimon to‘pgulda to‘plangan. Kosachabarglari qo‘ng‘iroqsimon, voronkosimon kengaygan, 5 ta egilgan tikanli tishlarga ega, gultojibarglari pushti, ikki labli, yuqori labda uzun tik turuvchi tukchalari bor. Mevasi senobiy (bo‘linadigan meva), uzunligi 3-4 mm bo‘lgan, silliq sarg‘ish-kulrang 4 ta yong‘oqchadan iborat. May-iyulda gullaydi, urug‘lar avgust-sentyabrda pishadi.

**O‘shish joyi va tarqalishi:** Bozulbang O‘zbekistonning Jizzax, Samarqand va Navoiy viloyatlarining tog‘ oldi adirlarining shag‘alli qiyaliklarida o‘sadi. Uning maydoni juda cheklangan. XX asrning 80-yillarida uning haddan tashqari xom ashyosi yig‘ilganligi tufayli tabiiy senopopulyasiyalari deyarli yo‘q qilingan. Tur O‘zbekiston Respublikasining Qizil kitobiga kiritilgan (2019). Gullash davrida o‘rilgan o‘t xom ashyo bo‘lib hisoblanadi.

Quritish. Soyada siyrakroq qatlam qilib yoyib, 5-6 kun davomida har kuni aylantirib quritiladi. Keyin ular maydalanadi, poyalardan va aralashmalardan tozalanadi. Tashqi belgilar. Tibbiyotda o‘simlikning barglari va gullaridan





foydalaniladi. Xom ashyoning asosiy qismi kosachabarglardan iborat. Barglari maydalangan, kulrang-yashil rangga ega, ikkala tomoni ham tuklangan, hidi kuchsiz, xom ashyoni ishqalashda kuchayadi, ta'mi achchiq. Namlik miqdori 13% dan, umumiy kul miqdori 11% dan, o'simlikning boshqa organlari 3% dan, teshiklari diometri 1 mm bo'lgan elakdan o'tgan ezilgan qismlar 2% dan, organik aralashmalar 1% dan, mineral aralashmalar 1% dan oshmasligi kerak. Xom ashyo tarkibida lagoxilin miqdori kamida 0,5% bo'lishi kerak.

**Kimyoviy tarkibi:** O'simlikning gullari va barglarida to'rt atomli spirt bo'lgan lagoxilin mavjud. Barglarda, shuningdek, efir moyi (0,03%), taninlar (11-14%), shakar, organik kislotalar, askorbin kislotasi, karotin, K vitamini, mikroelementlari, kalsiy tuzlari, ildizlarda – taninlar va shakar mavjud.

**Saqlash:** Quruq xonada tokchalarda saqlanadi.

**Farmakologik xususiyatlari:** Bozulbang preparatlari har xil farmakologik faollikka ega. Bozulbangni farmakologik o'rganish dastlab Samarqand tibbiyot institutining farmakologiya kafedrasida olib borilgan. Bozulbangning gullari va barglaridan qaynatma, damlamasi va nastoykasi qon ivishini tezlashtiradi. Bozulbangning suv ekstraktlari gipotenziv va tinchlantiruvchi faollikka, strixnin, kofein, korazol, kamfora, arekolin va nikotin ta'sirida yuzaga keladigan eksperimental tortishishlarda tortishishga qarshi xususiyatlariga ega, teri retseptorlari qo'zg'aluvchanligini pasaytiradi va dengiz cho'chqalarida og'riq sezgiriligini kamaytiradi. Bozulbang preparatlari hissiyotni pasaytiruvchi adaptogen xususiyatga ega. Ular ko'z ichi bosimini pasaytiradi, ko'rish keskinligini va rang idrokini oshiradi. Bozulbang preparatlari me'da shirasining ovqat hazm qilish qobiliyatini, umumiy va erkin kislotaliligini oshiradi. Karbaxolin sabab ro'y bergan spazmda bozulbang damlamasining og'riq qoldiruvchi ta'siri qayd etilgan. Bozulbangning terapevtik dozalarda damlamasi va nastoykasi toksik ta'sirga ega emas, kumulyativ xususiyati ham yo'q; nastoykasini ta'siri og'iz orqali qabul qilinganda 20-30 daqiqadan so'ng, damlamasini esa bir necha soatdan keyin paydo bo'ladi. Dorivor vositalar. Bozulbang qaynatma, damlama, nastoykasi va ekstraktining tabletkalari. Ishlatilishi. Bozulbang kelib chiqishi turli xil (klimaks oldi, yuvenil, bachadon fibromatozi, jarohat, bavosil, o'pka, burun va boshqalar sababli) qon ketishida, shuningdek, operatsiyadan oldidan qon ketishining oldini olish, tish oldirish, ko'p miqdorda og'ir hayz ko'rishdan oldin, gemofiliya, Vergolf kasalligi, Shenleyn-Genox

kasalliklari va boshqa gemorragik diatezida yordamchi vosita sifatida ishlatiladi. Gemofiliya bilan ogʻrigan bemorlarda bozulbang preparatlari taʼsirida qon ketishi kamayishi, boʻgʻimlarda va teri osti toʻqimalarida gematomalar tezroq soʻrilishi, qonda antigemofil gamma globulinlari miqdori oshishi kuzatilgan. Gemofiliyada bozulbang preparatlari ichga qabul qilinadi va tashqariga ham qoʻllaniladi. Bozulbang damlamasi bilan doka namlanadi va ular qon ketadigan toʻqimalarga qoʻyiladi. Glaukomada bozulbang damlamasi ichish uchun buyuriladi. Shuningdek, u revmatizm bilan ogʻrigan bemorlarni kapillyar oʻtkazuvchanligini kamaytirish va salitsilatlarining gipokoagulyasion taʼsirini kamaytirish uchun hamda hssiyotni pasaytiruvchi vosita sifatida kompleks davolashda ishlatiladi. Bozulbang preparatlari yuqori harorat va kuchli quyosh nurlanishi sharoitlarida insonning ish qobiliyatini va chidamliligini oshiradi. Markaziy asab tizimining funksional kasalliklari boʻlgan bemorlarda bozulbang preparatlarini qoʻllashda ijobiy natijalarga erishilgan. Klinik sogʻayishning asosi preparatning tinchlantiruvchi taʼsiri hisoblanadi, natijada uyqu yaxshilanadi, taʼsirchan qoʻzgʻaluvchanlik, yigʻloqilik va boshqa alomatlar yoʻqoladi. Bolalardagi ekssudativ diatezda bozulbang damlamasi ichga qabul qilinadi, shuningdek, 0,1-0,5% damlamali vannalar boshqa dorivor preparatlar bilan birgalikda ishlatiladi. Ekzema va qizil yassi lishay bilan ogʻrigan bemorlarda bozulbang bilan davolashning ijobiy natijalari ham qayd etilgan. Damlama (1:20) 1 osh qoshiqdan kuniga 3 marta buyuriladi. Davolash kursining davomiyligi 1,5-2 oyni tashkil qiladi. Bozulbang damlamasi oʻsimlik barglaridan 1:10 yoki 1:20 nisbatda tayyorlanadi. Barglar 5 mm dan koʻp boʻlmagan zarracha kattaligida eziladi, ustiga xona haroratidagi suv quyiladi, qaynayotgan suv hammomiga qoʻyiladi, 15 daqiqa davomida tez-tez aralashtirib isitiladi, xona haroratida 45 minut sovutiladi. Tinchlantiruvchi vosita sifatida damlama kattalarga kuniga 3-6 marta 1 osh qoshiqdan buyuriladi. Damlama dozasi kasallikka qarab oʻzgaradi. Surunkali qon ketish va ginekologik operatsiyalardan soʻng qon yoʻqotilishining oldini olish uchun kuniga 3-5 marta 2 osh qoshiq damlamadan ichiladi. Gemorragik diatez uchun damlamadan kuniga 3-5 marta 1/2 stakandan ichish tavsiya etiladi. Mahalliy foydalanish uchun aseptika qoidalariga rioya qilgan holda 1:10 nisbatda damlama tayyorlanadi. Bozulbang nastoykasi – oʻtkir taʼmga ega tiniq aromatik suyuqlik. Bozulbang barglaridan 70% li spirtida tayyorlanadi. 1 choy qoshiqdan kuniga 3 marta 1/4 stakan suv bilan qoʻshib ichiladi. Xavfli

qon ketishni to‘xtatish uchun – har 2 soatda 1/4 stakan suvga 1-2 choy qoshiq nastoyka solib ichiladi. Qon ketishining kamayganda nastoykaning kunlik dozasi kamaytiriladi. Gemorragik diatezda kuniga 5 marta 3 choy qoshiqdan qabul qilish uchun buyuriladi. 50 ml shisha flakon idishlarda chiqariladi.

**Arslonquloq** – *Leonurus turkestanicus* V. I.Krecz. & Kuprian.  
(Пустьрыник туркестанский)

**O‘simlik tavsifi:** Arslonquloq Lamiaceae oilasiga mansub ko‘p yillik o‘simlik. Poyasi bir nechta yoki ko‘p sonli, tik turuvchi, oddiy yoki yuqori qismi tarvaqaylab shoxlangan, mayda tukli yoki silliq, balandligi 10-150 sm. Barglari keng tuxumsimon-yumaloq, kaftsimon bo‘lingan, rombsimon teskari cho‘zinchoq, o‘tkir yoki o‘tkirlashgan, chuqur patsimon-bo‘lakli yoki patsimon bo‘lingan, odatda bo‘laklari cho‘zilgan, o‘tkir yoki o‘tkirlashgan, deyarli silliq yoki birmuncha zich



yopishgan kalta tuklar bilan qoplangan, uzun bandli; gulyonbarglari kichraygan, yuqoriga qarab tez kichrayib boradi, murakkab bo‘linmagan. Gullari o‘troq, kam gulli, pastki qismida oralari juda kengaygan, yuqorida esa birmuncha yaqinlashgan halqalarda, gulyonbarglar qo‘ltig‘ida joylashgan. Gulyonbarglari bigizsimon, egilgan, yuqoriga yo‘nalgan, mayin tukli, kosachabargdan ancha kaltaroq. Kosachabarglari uzunligi 8-9 mm, kalta tukli, keng uchburchakli, darrov tikanga toraygan, mevalarida

to‘rsimon tomirlangan, egilgan tishchali, naychanning uzunligiga taxminan teng. Gultojibarglari pushti-binafsha rang, tashqi tomondan tukli, uzunligi 12-13 mm. Yong‘oqchalari och jigarrang, o‘tkir uch qirrali, yuqori qismi qiyshiq kesilgan va tuklangan, uzunligi taxminan 3 mm. Iyun-iyul oylarida gullaydi; iyul-avgust oylarida mevalaydi.

**O‘shish joyi va tarqalishi:** U Toshkent, Samarqand va Surxondaryo viloyatlarining o‘rta tog‘ mintaqalarida toshli va mayin

zarrali qiyaliklarda o'sadi. Umumiy tarqalishi. Markaziy Osiyo (Tiyon-Shon, Pomir-Oloy).

**Xom ashyoni yig'ish va uning sifati:** Arslonquloqning yer usti qismi gullash davrining boshida, odatda, iyul oyining boshlarida qo'lda yoki mexanizatsiyalashgan usulda yig'ib olinadi. Yig'im paytida o'simlikning zich o'sish maydonlarini normal hayotchanligini ta'minlash uchun mavjud generativ poyalarning 2/3 qismidan ko'pini kesib tashlamaslik kerak va shu o'sish maydonidan xom ashyo 3 yillik «dam olish»dan keyin yig'ilishi mumkin. Yig'ilgan o'simlik o'tlari havo yaxshi aylanadigan chordoqlarda yoki ayvon ostida quritilib, qog'oz yoki matoga qalinligi 5-7 sm qatlam qilib yoyilib, vaqti-vaqti bilan aralastiriladi. Butun o'tlar sof og'irligi 15 kg dan oshmaydigan, maydalanganlari esa – 50 kg dan oshmaydigan qoplar ichiga solinadi. Qadoqlashdan oldin xom ashyoga qo'shimcha ishlov beriladi: maydalanadi va qo'pol poyalari elaklarda olib tashlanadi. Quruq, havo yaxshi aylanadigan joylarda saqlanadi. Yaroqlilik muddati 3 yil. Xom ashyo qisman ezilgan, poyaning bargli va to'pgulli yuqori qismlaridan iborat. Raqamli ko'rsatkichlar: namlik 13% dan; umumiy kul miqdori 12% dan; o'simlikning poya qismlari (asosiy poyasi va yon novdalari) 2% dan; organik aralashmalar (boshqa zaharli bo'lmagan o'simliklarning qismlari) 3% dan; mineral aralashmalar (tuproq, qum, toshchalar) 1% dan ko'p bo'lmasligi kerak. Mog'orlagan va chirigan, zaharli o'simliklar va ularning qismlari, shuningdek, begona o'tirib qolgan hid bo'lmasligi lozim.

**Kimyoviy tarkibi:** O'simlik o'tida ursulin kislotasi, staxidrin, flavonoidlar, shu jumladan, rutin, giperozid, fenolkarboksil kislotalar, alkaloidlar, taninlar, organik kislotalar, saponin mavjud.

**Tibbiyotda qo'llanilishi:** Xalq tabobatida suv-spirтли ekstrakti va damlamasi ham yurak kasalliklarini davolashda tinchlantiruvchi vosita sifatida ishlatiladi.

**Alqoro‘ti** – *Mediasia macrophylla* (Regel et Schmalh.) Pimenov  
(Медиазия крупнолистная)

**O‘simlik tavsifi:** Alqoro‘ti Apiaceae oilasiga mansub ko‘p yillik




o‘simlik. Poyalarining yuqori qismlari 50-80 sm gacha uzunlikda, barglar va to‘pgullarga ega. Poyalari yumaloq, keskin burishgan, kam tuklangan, o‘rta qismida keng ro‘vakga shoxlangan. Barglari qalin, ikkala tomonidan tomirlar bo‘ylab kalta, mayin tuklar bilan qoplangan, ildizbo‘g‘zi

barglari kalta bandlarda. Barg bandlari yumaloq, kulrang mayin tukli, plastinka cho‘zinchoq uchburchak shaklida, ikki karra uch bo‘lakka bo‘lingan. Birinchi tartibdagi bo‘limlar kalta bandlarda joylashgan, uchkisi o‘troq, tuxumsimon, yon tomonlari teng emas, asosida yuraksimon, yoki yumaloqlangan, o‘tkir tishsimon; poya barglari bir nechta yumaloq bo‘laklardan iborat bo‘lib, ulardan yuqori qismidagilari kalta va tor qinlargacha qisqargan. Soyabonlari uchki, uzun oyoqchalarda, nurlari ingichka, o‘rama barglari tuklangan, erkin chiziqli bigizsimon, o‘tkirlashgan, egilgan kulrang barglardan iborat. Gullari teng bo‘lmagan gulbandlarda, gullashdan keyin tarvaqaylagan, kulrang tuklangan.

Barglari tashqaridan zich tuklangan, tuxumsimon, uchki qismi qayrilgan.

**O‘shish joyi va tarqalishi:** Toshli qiyaliklarda, tog‘larning o‘rta mintaqa to‘kilmalarida o‘sadi. U Toshkent, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida uchraydi.

**Xom ashyoni yig‘ish va uning sifati:** Alqoro‘ti o‘simligining xom ashyosini



yoppasiga gullash va mevalashning boshlanish davrida yig'ish kerak. Yig'imni o'roq yoki pichoq bilan amalga oshirish kerak. Shu tarzda yig'ilgan xom ashyo havo yaxshi aylanadigan chordoqlarda, ayvon ostida yoki soyada havoda quritiladi, qog'ozga yoki matoga ingichka qatlamga yoyilib, tez-tez aylantirib turiladi. TU 88.-13-7: 2007 ga ko'ra, namlik miqdori 13 % dan, umumiy kul miqdori, 12,8% dan oshmasligi kerak, mutlaqo quruq xom ashyo tarkibidagi efir moyi 0,3 % dan kam bo'lmasligi kerak. 1 mm diametrli teshiklari bo'lgan elakdan o'tgan qismlari 63,8% dan kam bo'lmasligi kerak. Boshqa aralashmalarning miqdori: organik (zaharli bo'lmagan o'simliklarning qismlari) 1,0%; mineral (tuproq, qum, tosh) 1,0 %; ushbu o'simlikning efir moyi aralashmasining tarkibi (poyalarning yog'ochlashgan qismlari, sarg'aygan barglar), 2% dan oshmasligi kerak; boshqa o'simliklarning efir moyi aralashmalariga (poyalar, barglar, gullar, mevalar) kasalliklar bilan zararlangan, zaharli o'simliklar va ularning qismlari, doimiy yo'qolmaydigan begona hidni bo'lishi mumkin emas. Xom ashyoni qadoqlash, joylash va belgi qo'yish GOST 60-7780 bo'yicha quyidagi qo'shimchalar bilan: butun o'tlar sof og'irligi 5-15 kg bo'lgan qoplarga qadoqlanadi, maydalangan – sof og'irligi 10-30 kg. GOST 14192-96 bo'yicha transport konteynerlarini belgilanadi. GOST 6077-80 bo'yicha alqoro'ti o'simlikni tashiladi va saqlanadi. Alqoro'ti o'tining saqlash muddati 2 yil. Alqoro'ti o'simligiga farmakopeya maqolasi FS 42 Uz-0166-2017 mavjud.

**Kimyoviy tarkibi:** Barglar, gullar va urug'larda A, C, E, B<sub>1</sub>, B<sub>2</sub>, B<sub>6</sub>, PP vitaminlari, shuningdek, foliy kislotasi, xolin mavjud.

**Tibbiyotda qo'llanilishi:** Xalq tabobatidagi damlama shaklidagi alqoro'ti yer ustki qismi jigar kasalliklarini davolashda o't haydovchi va tetiklantiruvchi vosita sifatida ishlatiladi, shuningdek, ziravorlar va lazzat qo'shimchalari sifatida iste'mol qilinadi. Mahalliy aholi alqordan tabiiy konservator sifatida ham foydalanadi, chunki alqoro'ti yer usti qismi qo'shilgan go'sht va sut mahsulotlari uzoq vaqt saqlanadi.

## Yalpiz – *Mentha longifolia* (L.) L.

Мята длиннолистная



**O‘simlik tavsifi:** Yalpiz Lamiaceae oilasiga mansub ko‘p yillik o‘t o‘simlik, gorizontal ildizpoyalari yaxshi rivojlangan. Poyasi tik turuvchi, to‘rt qirrali, shoxlangan, zich bargli, balandligi 1 m gacha. Barglari o‘tkirlashgan, uzunlashgan-

tuxumsimon, chetlari o‘tkir arrasimon, uzunligi 8 sm gacha va eni taxminan 2 sm, kalta bandli. Gullari pushti yoki xira binafsha rangda, mayda, soxta halqada to‘planib, uchki boshuqsimon to‘pgullarni hosil qiladi. Mevasi to‘rtta yong‘oqchadan iborat, kamdan-kam hollarda hosil bo‘ladi. O‘simlik juda xushbo‘y. Iyun-oktyabr oylarida gullaydi, iyul-sentyabr oylarida mevalaydi.


**O‘shish joyi va tarqalishi:** U tog‘larning o‘rta mintaqasigacha bo‘lgan nam joylarda, ariqlarda, daryo va irmoqlarning qirg‘oqlarida o‘sadi. U Toshkent, Andijon, Farg‘ona, Namangan, Jizzax, Samarqand, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida uchraydi.

### Kimyoviy

**tarkibi:** O‘simlikning yer usti qismida yoqimli yalpiz hidi va ozgina achchiq ta‘mi bo‘lgan 0,3-0,6% efir moyi mavjud. Bundan tashqari, C vitamini va organik kislotalarning (qaxrabo, limon, olma) mavjudligi aniqlangan.

**Xom ashyoni yig‘ish va uning sifati:**

Yalpizni o‘simlikda g‘unchalar paydo bo‘lishidan oldin yig‘ish maqbul



hisoblanadi. Ayni paytda u yanada xushbo‘y va barglarida ko‘proq efir moylari mavjud. Yalpiz yengil, nozik hidga ega, faqatgina yalpiz ifori keladi. Ushbu yalpiz turida efir moyining to‘planishi barglarda, ayniqsa, mayda barglarda ko‘proq jadal kechishi aniqlangan.

**Ishlatilishi:** Xalq tabobatida yalpiz oshqozon ichak traktidagi yallig‘lanish bilan bog‘liq bo‘lgan ko‘ngil aynishi, qusish va ich ketishda, ayniqsa, og‘riqli sanchiq va ko‘p miqdorda ichak gazi hosil bo‘lganda ishlatiladi. Surunkali oshqozon kasalliklarida ertalab yalpiz damlamasi ichish tavsiya etiladi. Oshqozon shirasining kislotaliligi oshganda yalpizdan foydalanish ayniqsa samaralidir. Yalpiz, shuningdek, jigar va o‘t pufagi kasalliklarida (og‘riq qoldiruvchi va o‘t haydovchi vosita sifatida) hamda turli xil asab kasalliklarida tinchlantiruvchi vosita sifatida buyuriladi.

**Tog‘rayhon** – *Origanum vulgare* subsp. *Gracile* (K.Koch) Ietsw.

Душица мелкоцветная



**O‘simlik tavsifi:** Tog‘rayhon – yoqimli hidga ega bo‘lgan Lamiaceae oilasining ko‘p yillik o‘t o‘simlik. Poyalari bir nechta, tik turuvchi, yuqorida shoxlangan, jingalak tuklangan, uzunligi 30-60 sm. Barglari tuxumsimon yoki cho‘zinchoq, to‘mtloqlashgan yoki o‘tkirlashgan, asosiga keng ponasimon yoki deyarli yumaloq, butun, yuqorida deyarli silliq, o‘tkazuvchi bog‘lamlar bo‘ylab cheti va ostida jingalak tuklangan, bandli, asta-sekin yuqoriga kichrayib boradi. Gullari deyarli o‘troq, boshoqsimon yarim soyabonda, novdalarning yuqori qismida qalqonsimon kallakcha to‘pgullarda to‘plangan. Gulyonbarglari deyarli yupqa pardasimon, cho‘zinchoqlansetsimon, kosachabargdan biroz uzunroq, kalta kipriksimon. Kosachabarglari dumaloq, uzunligi 3 mm, kalta tuklangan, uchburchaksimon o‘tkir tishchali, naychadan 3 baravar qisqa. Tojibarglari 5 mm uzunlikda, xira binafsharang. Yong‘oqchalar to‘q jigarrang, uzunligi taxminan 0,75 mm. Iyul-avgust oylarida gullaydi,



iyul-sentyabr oylarida mevalaydi. Tibbiyotda tog'rayhonning gullagan yer usti qismlari (o't) ishlatiladi.

**O'sish joyi va tarqalishi:** Tog'rayhon toshli qiyaliklarda, butun O'zbekiston bo'ylab tog'larning quyi va o'rta mintaqalaridagi toshloqlarda o'sadi.

**Xom ashyoni yig'ish va uning sifati:** Tog'rayhon odatda ommaviy gullash boshida, janubiy hududlarda iyul oyining boshlarida yig'iladi. Bunda faqat novdalarning gullaydigan bargli yuqori qismi kesiladi. Kechroq muddatlarda efir moyining tarkibi, shunga bog'liq holda xom ashyoning sifati ham pasayadi. Xom ashyo yig'ish vaqtida tog'rayxon zich o'sgan maydonlarning normal hayotiyligini ta'minlash uchun mavjud generativ novdalarini 2/3 qismigacha kesish mumkin va xom ashyo yig'ishni zich o'sgan maydonlardan har 2 yilda bir marta amalga oshirilishi mumkin. Yig'ib olingan o'simlik o'tini havo yaxshi aylanadigan chordoqlarda yoki ayvon ostida quritilib, qog'ozga yoki matoga qalinligi 5-7 sm qatlam qilib yoyilib, vaqti-vaqti bilan aylantiriladi. Xom ashyo 35<sup>0</sup>C gacha qizdirilgan majburiy havo bilan shamollatiladigan maxsus quritgichlarda ancha tez quriydi. Yaxlit o'tni sof og'irligi 5-15 kg li qoplarga, maydalangani esa 10-30 kg og'irlikdagi qoplarga solinadi. Qadoqlashdan oldin xom ashyoga qo'shimcha ishlov beriladi: maydalanib, g'alvir orqali dag'al novdalari olib tashlanadi. Quruq, yaxshi havo aylanadigan joylarda saqlanadi. Yaroqlilik muddati 2 yilgacha. FS 42 Uz-0024-2007 ga binoan, xom ashyoning namligi 13% dan oshmasligi kerak va undagi efir moyi absolyut quruq holati bo'yicha 0,2% dan kam bo'lmasligi kerak. Xom ashyoni qisman ezilgan, barg va to'pgulli poyaning yuqori qismlari (uzunligi 20 sm gacha) tashkil etadi. Raqamli ko'rsatkichlar: namlik 13% dan; umumiy kul miqdori 8% dan, qoraygan va qo'ng'irlashgan qismlari 7% dan, o'simlikning poya qismlari (asosiy poyasi va yon novdalari) 2% dan, teshiklarining diametri 1 mm li elakdan o'tgan maydalangan qismi 63,8% dan, organik aralashmalar (zaharli bo'lmagan boshqa o'simliklarning qismlari) 1% dan, mineral aralashmalar (tuproq, qum, toshchalar) 1% dan oshmasligi kerak. Mog'orlagan va chiriyotgan, zaharli o'simliklar va ularning qismlari, shuningdek, o'tirib qolgan boshqa hidni bo'lmasligi kerak.

**Kimyoviy tarkibi:** Tog'rayhon o'ti tarkibida taninlar, askorbin kislotasi, flavonoidlar va aromatik fenollar (timol, karvakrol), seskviterpenlar, erkin spirtlar va geranilatsetat bo'lgan efir moyi mavjud.

**Tibbiyotda qo'llanilishi:** Tog'rayhon o'ti markaziy asab tizimiga tinchlantiruvchi ta'sir ko'rsatadi, oshqozon va bronxial limfatik bezlarning sekretsiyasini kuchaytiradi va ichak harakatini oshiradi. Tog'rayhon o'ti qaynatmasi siydik chiqishiga ham kuchli ta'sir qiladi. Tog'rayhon ichak atoniyasi, ishtaha ochuvchi va shamollashda balg'am chiqaruvchi davo vositasi sifatida ishlatiladi. U ko'krak qafasi, terlatuvchi va ichakdan havo haydovchi preparatlarining bir qismidir, shuningdek, tomoq og'riganda chayish va terining yiringli kasalliklarida vanna sifatida ishlatiladi. Efir moyi tishlarni davolashda og'riq qoldiruvchi vosita sifatida ishlatiladi.

**Suv qalampir** – *Persicaria hydropiper* (L.) Delarbre  
(Горец перечный)

**O'simlik tavsifi:** Polygonaceae oilasiga mansub bir yillik o't o'simlik, tik turuvchi, odatda poyasi qizg'ish, shoxlangan, bo'yi 30-60 sm. Barglari ketma-ket joylashgan, lansetsimon, uchli, asosi tor ponasimon, pastki qismida qisqa bandli, yuqori qismi deyarli o'troq, chetlari qattiq kipriksimon va biroz to'liqinli. Gullari 1-3 ta, novdalar uchida yonbarg qo'ltig'ida (rastrubda) joylashgan, siyrak uzun ingichka boshqochalarni hosil qiladi. Gulqo'rg'oni yashilroq yoki pushti rangga ega, tashqi tomondan zich oltin-sariq nuqtali bezlar bilan qoplangan. Mevalari tuxumsimon yong'oqcha, gulqo'rg'ondan biroz qisqa. Iyuldan oktyabrgacha gullab, meva beradi.




**O'sish joyi va tarqalishi:**

Suv qalampir faqat tog'li hududlarda o'sadi. U daryolarning o'tloq yerlarida, botqoq yerlarda, nam o'tloqlarda, daryo botqoq qirg'oqlari, ko'llar, hovuzlar va nam bosgan yo'llar va ariqlarda o'sadi. Ko'pincha begona o't o'simlik sifatida uchraydi. Suv qalampirning o'ti «Anestezol» va «Anusol» gemorroyga qarshi shamchalar tarkibiga kiritilgan. Ushbu o'simlikdan ajratib olingan flavon glikozidlarining yig'indisi bo'lgan gidropiperin preparati foydalanish uchun tasdiqlangan. Bundan tashqari, suyuq suv qalampirining ekstrakti va damlamasi ishlatiladi.

## Xom ashyoni yig'ish va uning sifati:

Suv qalampir yer usti qismini gullash davrida tayyorlanadi, pichoq yoki o'roq bilan tuproq yuzasidan 10-20 sm balandlikda kesiladi. Katta hajmdagi zich o'sgan maydonlarda o'simlikning oldin begona o'tlardan




tozalanib, keyin o'rib olinadi. Yig'im davrida suv qalampirini saqlab qolish uchun har 10 m<sup>2</sup> maydonchada bu o'simlikning bir nechta tupini urug'idan ko'payishi uchun qoldirish kerak. Yig'ilgan xom ashyo ochiq havoda, ayvon ostida quritiladi, yupqa qatlam qilib yoyiladi va tez-tez aralastirib turiladi. Sekin quriganda, o'simlik qorayadi. Quritgichda 40-50<sup>0</sup>C haroratda quritish yaxshiroq. Quruq xom ashyoning chiqishi 20-22% ni tashkil qiladi. Quruq o'tlarni presslab, qoplar yoki toylarga solinadi. Tokcha va stellajlarda quruq, yaxshi havo aylanadigan xonalarda saqlanadi. Davlat farmakopeyasi talablariga ko'ra, suv qalampir xom ashyosi turli xil rivojlanish darajasidagi mevalari bilan uzunligi 30-45 sm bargli gul poyalardan iborat. Hidi yo'q. Ta'm biroz achchiq. Yangi xom ashyo quritish paytida yo'qoladigan o'tkir (qalampir) ta'mga ega. Namlik 14% dan oshmaydi. Xom ashyo tarkibida jigarrang, qoraygan qismlari 2% dan, maydalangan qismlar, shu jumladan, to'kilgan barglar, gullar, mevalar 10% dan, organik aralashmalar, shu jumladan, suv qalampirining yaqin turlari 3% dan, mineral aralashma 0,5% dan oshmasligi kerak. Kulning umumiy miqdori 8% dan oshmasligi kerak. Xom ashyoning yaroqlilik muddati 2 yil.

**Kimyoviy tarkibi:** Suv qalampirining tarkibida 2,5% flavonoidlar (rutin, kversitrin, giperozid, qversitin, ramnazin, kempferol, miritsetin, izoramnetin, lyuteolin), taninlar (3,8%), organik kislotalar (chumoli, sirka, valerian), K, A, D, E, C vitaminlari, efir moylari mavjud. Polisaxaridlarning yuqori miqdori 10% ni tashkil qiladi, asosiy tarkibiy qismini galakturon kislotasi va ramnoza, shuningdek, galaktoza, glyukoza, mannoza, arabinoza, ksiloza kabi

monosaxaridlar tashkil etadi. Polisaxaridlar pektin moddolari sinfiga kiradi.

**Tibbiyotda qoʻllanilishi:** Suv qalampirning preparatlari bachadondan qon ketishda, juda koʻp va ogʻriqli hayz paytida qoʻllaniladi. Uning ekstraktlari qon bilan yoʻtalgan, siydik pufagidan qon ketgan, oshqozon va gemoroidal qon ketishi roʻy bergan bemorlarda ishlatilishi mumkin. U *Claviceps purpurea* (Fr)



Tul. (Oqsuxta oʻroqkuyasi) zamburugʻi kabi taʼsirga ega, lekin sal kuchsizroq, bu zamburugʻdan farqli oʻlaroq ayni paytda oriq qoldiruvchi taʼsirga ham ega. Suv qalampirning oʻtidan baʼzida turli xil dorivor oʻsimliklar bilan birgalikda diareya va enterokolit kasalliklarida ishlatiladi. Murakkab yigʻmalar tarkibiga kiruvchi suv qalampirining oʻti surunkali kolit bilan ogʻriqan bemorlarga, shilliq qavatning eroziv-yaralar bilan qoplanishida, shuningdek, gemorroyni davolashda buyiriladi. Dorivor oʻsimliklarning yigʻmasida suv qalampiridan vanna sifatida gemorroyni tashqi davolash uchun ishlatiladi.

**Suv qalampir oʻsimligining damlamasi.** 10 g (1-2 osh qoshiq) xom ashyo sirlangan idishga solinadi, 200 ml (1 stakan) issiq qaynatilgan suv quyiladi va qaynab turgan suvda (suv hammomida) 15 daqiqa davomida isitiladi, soʻngra xona haroratida 45 daqiqa sovutiladi, suzgidan oʻtkaziladi, qolgan xom ashyodan tozalanadi. Olingan damlama qaynatilgan suv bilan 200 ml hajmgacha suyultiriladi. Damlama salqin joyda 2 kundan ortiq boʻlmagan joyda saqlanadi. Ovqatlanishdan oldin kuniga 3-4 marta 1/3 stakan qon toʻxtatuvchi vosita sifatida ichiladi.

**Pista - *Pistacia vera* L.**  
(Фисташка настоящая)



**O‘simlik tavsifi:** Pista – Anacardiaceae oilasiga kiruvchi barglari to‘kiluvchi, kulrang po‘stloqli daraxt. Asosiy tanasi qayrilgan va qirrasimon. Shox-shabballari past bo‘yli, zich, kulrang-qo‘ng‘ir po‘stloqli, yoriqlari chuqur. Ildizlari 10-12 m chuqurlikka kirgan, kengligi 20-25 m gacha cho‘zilgan.

Barglari ketma ket joylashgan, murakkab toq patsimon, oddiy uch bo‘lakli, uchta, kamroq bitta, besh yoki yetti bargchadan iborat. Barglari deyarli o‘troq, terisimon, zich, silliq, och yashil rangda, yaltiroq, ostki qismi xiraroq mayin tuklangan yoki deyarli tuksiz, keng ellipssimon yoki yumaloq tuxumsimon, ba‘zan keng lansetsimon, uzunligi 5-11 (20 sm) sm, eni 5-6 (12 sm gacha) sm. Barg bandlari mayin tuklangan yoki deyarli tuksiz, qanotsiz. O‘simlik ikki uyli.


Erkak gullari murakkab keng ro‘vak, uzunligi 6 sm, urug‘chi gullari esa siyrakroq ro‘vak va uzunroq to‘pgulda yig‘ilgan. Bir jinsli sariq gullari qo‘ltiqdan chiqqan ro‘vaklarga yig‘ilgan. Changchi gullari zich, murakkab, keng ro‘vakli, uzunligi 4-6 sm, gulqo‘rg‘oni uchtdan beshtagacha cho‘zilgan, pardasimon, teng bo‘lmagan gulqo‘rg‘on barglaridan iborat, uzunligi 2-2,5 mm, changchisi 5-6 ta, chang ipi kaltalashgan, changdonlari uzunligi 2-3 mm.

Urug‘chi gullari siyrakroq va toraygan ro‘vakda, uzunligi changchi gullari kabi o‘lchamda; gulqo‘rg‘oni 3-5 (9 tacha) cho‘zinchoq, teng bo‘lmagan, changchili gullarga qaraganda biroz kengroq, gulqo‘rg‘on barglari uzunligi 2-4 mm. Mevasi yirik danak, deyarli chiziqli-lansetsimon, ingichka yoki keng yumaloq-tuxumsimondan yumaloqsimongacha, uzunligi 0,8-1,5 sm, eni 0,6-0,8 sm, ko‘ndalang kesimida deyarli yumaloq yoki qiyshiq ovalsimon. Meva po‘sti oson ajraladi (pishib yetilganda), och qaymoqsimon, sariq-qaymoqsimon, pushti, qizg‘ishsimon, to‘q-qizil yoki to‘q-binafsha rangda, ichki meva (danak) deyarli hamma vaqt qiyshiq asosli, bir tomonidan odatda to‘mtoq ponasimon. Urug‘ mag‘zi yashilsimon, yesa

boʻladigan, yogʻli. Mart – aprel oylari gullab, sentyabr – noyabr oylari mevasi pishib yetiladi. Havo harorati 30<sup>0</sup>C boʻlganda yaxshi mevalaydi.

**Oʻsish joyi va tarqalishi:** Pista tabiiy ravishda Oʻrta Osiyoning togʻ qiyaliklarida (Qirgʻiziston, Tojikiston, Turkmaniston, Oʻzbekiston), Eronning shimoli-sharqida, Suriyada va Afgʻoniston shimolida oʻsadi. Iqlim sharoitida oʻxshash boʻlgan mamlakatlarda koʻplab yetishtirilmoqda. Pista togʻ oldi va quyi togʻ mintaqasining mayda zarrali, toshli va qoyali qiyaliklarida asosan (dengiz satxidan 700-800 dan 1500-1700 m balandikda), efemeroidli oʻtloqlar mintaqasida uchraydi. Baʼzan janubiy qiyaliklarning daraxt va buta oʻsimliklar jamoalarida uchratish mumkin.

**Xom ashyoni tayyorlash va uning sifati:** Pista mevalari iyul-sentyabr oylari davomida pishib yetilgandan soʻng yigʻib olinadi. Yangi yigʻib olingan pista mevalarining foydasini maksimal darajala



saqlash uchun plastmassa idishlarda yoki qoplanga joylashtirilib, ishlab chiqarishga yuboriladi. U yerda yangi terilgan pitalardan moy olinadi (uch oydan ortiq saqlanmaydi), qovuriladi va tuzlanadi. Qovurilgan va tuzlangan pitalarning saqlash muddati 2 yil.

Yangi terilgan pista besh oy vaqt davomida oʻzining xushboʻy hidi va taʼmini saqlab qoladi. Pista quruq va qorongʻu joyda saqlanadi. Buzgʻun (shishlar) xom ashyosi qoʻl bilan yigʻiladi, bunda shishlar barglardan terib olinib, ular barg qoldiqlaridan tozalanadi. Bir tup daraxtdan taxminan 50 kg buzgʻun xom ashyosini olish mumkin, shundan 25 kg ga yaqin quruq xom ashyo qoladi. U uch yildan koʻp boʻlmagan vaqtda namlik darajasi past, havo yaxshi aylanadigan xonada saqlanadi. Quruq xom ashyoni plastik idishlarda yoki mato qoplarida qadoqlash mumkin.

**Kimyoviy tarkibi:** Pistaning meva qobigʻiga umumiy ogʻirligining 48,6-52,7 % ni, magʻzi esa 47,3% dan 51,4% ni tashkil qiladi. Magʻzining kimyoviy tarkibi (%): suv – 7,4, azotli moddalar – 18,44 (shu jumladan oqsillar 17,43), yogʻlar 54,63, kletchatka – 4.61,

pektozonlar – 1,98, kul – 3,32. Bargida oshlovchi moddalar (20% gacha) mavjud bo‘lib, shiralar faoliyati natijasida vujudga kelgan shishlar tufayli ularning miqdori 30-45 % va hatto 50% gacha ko‘tariladi.

Pista poyasini kesish tufayli smola ajraladi, undan pinen saqllovchi efir moyi olinadi. Barglarda tahminan 0,01% efir moyi mavjud. Pistaning yog‘li moyi qurimaydigan yuqori sifatli moylar toifasiga kiradi. Uning tarkibida olein glitseridlari (54-62.8%), linolen (17%) va to‘yinmagan kislotalar (20%) mavjud. Barg buzg‘unlari tarkibida 30-50 % tanin mavjud bo‘lib, ular texnik va tibbiyot tanini ishlab chiqarishda ishlatiladi.

**Tibbiyotda qo‘llanilishi:** Xandon pista birinchi navbatda yuqori sifatli qurimaydigan yog‘ga boy oziq-ovqat mahsuloti sifatida baholanadi. To‘yinmagan kislotalarning yuqori miqdori borligi sababli xandon pista tanani mustahkamlash, kasalliklardan so‘ng tiklanishda qimmatli mahsulot sanaladi. Pista mevalari me‘yorida iste‘mol qilinsa, yurak, jigar, miya ishiga foydali ta‘sir ko‘rsatadi va qondagi qand miqdorini tartibga soladi. Tarkibi ozuqaviy moddalarga boy bo‘lgan pista kayfiyatni yaxshilab, charchoqni ketkizadi va stressni kamaytiradi.

**Xalq tabobatida qo‘llanilishi:** Qadimdan jigar va oshqozon kasalliklarida og‘riqni olishda pistaning xususiyatlari ma‘lum bo‘lgan, bu o‘simlikning mevalari xalq tabobatida keng qo‘llaniladi. Pista yong‘oqlaridan anemiya, qusishni to‘xtatuvchi, yo‘talga va silga qarshi davo vositasi sifatida foydalaniladi. Ushbu yong‘oqlar yurak faoliyatini yaxshilaydi. Pista erkaklar uchun tavsiya etiladi. Ularning yuqori kaloriyaligi va tarkibidagi ko‘p miqdorda yog‘ kislotalari sperma ishlab chiqarishga yordam beradi. Qadimda buzg‘undan xalq tabobatida biriktiruvchi vosita sifatida foydalanilgan.

## Zupturum – *Plantago major* L.

(Подорожник большой)




**O‘simlik tavsifi:** Zupturum Plantaginaceae oilasiga mansub ko‘p yillik o‘t o‘simlik. Ildiz bo‘g‘zidan to‘pbarglar chiqqan, markazidan bargsiz gulpoyalar o‘sib chiqadi, yuqori qismida bitta boshqoq joylashadi. Ildizpoyasi kalta, yo‘g‘on, vertikal holda joylashgan, har tomondan ingichka, popuk, simsimon (ipsimon) ildizlar bilan o‘ralgan. Barglari bandli, keng tuxumsimon yoki keng ellipsimon, butun, silliq yoki biroz tuklangan, uzunligi taxminan 12 sm, 3-9 ta cho‘zinchoq yoysimon tomirlardan tashkil topgan. Boshqodagi gullari

mayda, ko‘rimsiz, qo‘ng‘irrang gultojibargga ega, bittadan pardasimon gulyonbarg qo‘ltig‘ida joylashadi. Mevasi – tuxumsimon, ko‘ndalangiga ochiladigan ikki uyali, ko‘p urug‘li ko‘sak, urug‘lari qirrali, har bir uyada 4-8 ta urug‘lari bor. Janubda may-iyundan to avgust-sentyabrgacha gullaydi.

**O‘shish joyi va tarqalishi:** Zupturum eng keng tarqalgan o‘simliklardan biridir. U ko‘pincha yo‘l bo‘ylarida, yo‘llarda, hovlilarda, ko‘chalarda, bog‘larda, yaylovlarda o‘sadi. U turli mexanik tarkibli namlikdagi tuproqlarda yashaydi. Janubiy qurg‘oqchil mintaqalarda u daryo qayirlari va nam o‘tloqlarga moslashgan. Shuningdek, quruq o‘tloqlarda, ekinlarda, tomorqalarda o‘sadi. Tog‘larda u dengiz sathidan 2000-2500 m balandlikgacha ko‘tariladi.

Ba‘zan yo‘llar bo‘ylab kengligi bir necha metrni tashkil etadigan zich o‘shish maydonlarini hosil





qiladi va yuzlab metrlarga choʻziladi. Namlik ortiqcha boʻlganda zupturum barglari biroz koʻtarilgan holatda boʻladi va namlik kam boʻlganda esa barglar yer bagʻirlar oʻsadi, chunki bunda namlik saqlanadi.

**Xom ashyoni yigʻish va uning sifati:** Tibbiyotda oʻsimlikning barglari va yangi oʻtlaridan foydalaniladi. Oʻsimlik plantaglyusid preparatlari va zupturum sharbatini ishlab chiqarish uchun xom ashyo sifatida ishlatiladi, barglari dorixonalarga qadoqlangan holda yetkazib beriladi. Xom ashyo gullash bosqichida may-avgust oylarida barglarning sargʻayishi yoki qisman qizarishidan oldin yigʻib olinadi. Namli issiq yoz boʻlgan yillarda xom ashyoni bitta joydan bir necha marta hosilini yigʻish mumkin. Pichanzorlarda avgust-sentyabr oylarida ikkilamchi xom ashyoni yigʻish mumkin.

Yigʻim paytida barglar pichoq yoki oʻroq bilan kesiladi, bandlarining kichik qoldiqlari boʻlishi mumkin, zich oʻsadigan maydonlarda oʻsimliklar oʻraladi va kesilgan massadan zupturum barglari ajratilib olinadi. Yigʻim toʻgʻri tashkil etilsa, bitta maydonlardan bir necha yil davomida foydalanish mumkin, chunki oʻsimliklar odatda 3-4 yilgacha yashaydi. Zararkunandalar va kasalliklar, ayniqsa, unli shudring bilan zararlangan barglar yigʻib olinmaydi. Butun toʻpgullar kesib olinmaydi, bu zich oʻsadigan maydonlarni nobud boʻlishiga olib keladi. Barglarni yomgʻirdan keyin quruq boʻlganda yigʻish tavsiya etiladi. Xom ashyoni yigʻishda baʼzi bir yaxshi rivojlangan namunalarni qoldirish kerak. XI DF talablarga qoʻra, yirik zupturumning quritilgan xom ashyosi yashil yoki qoʻngʻirrang-yashil, uzunligi 24 sm gacha va eni 11 sm gacha, butun va chetlari biroz tishsimon, silliq, 3-9 tomirli barglardan iborat. Bandning uzilgan joyida ipga oʻxshash tomirlarning uzun qoldiqlari koʻrinadi. Hidi kuchsiz, oʻziga xosligi yoʻq. Taʼmi achchiqdir. Namlik 14% dan oshmasligi kerak. Xom ashyolarda sargʻaygan, qoraygan, qoʻngʻirrang barglar 5% dan; gul poyalari 1% dan; ezilgan qismlar (teshigining diametri 1 mm boʻlgan elakdan oʻtgan) 5% dan; zupturumning boshqa qismlari 1% dan; organik va mineral aralashmalarning har biri 1% dan oshmasligi kerak. Kul tarkibi 20% dan, shu jumladan, 10% xlorid kislotada erimaydigan kul 6% dan oshmasligi kerak. Ekstraktiv moddalar kamida 30% boʻlishi kerak. Yangi zupturum oʻtlari (butun yer usti qismi, yaʼni toʻpbarglar bilan gulpoyalari) kamida 70% namlikka ega. Ushbu yigʻib olingan xom ashyo 24 soatdan kechiktirmay qayta ishlanishi lozim.

**Kimyoviy tarkibi:** Zupturum xom ashyosi tarkibida ksaton aukubin glikozidi mavjud bo‘lib, u gidroliz natijasida glyukoza va aukubigeninga bo‘linadi; alkaloidlar, ozgina taninlar, shilimshiq moddalar, vitaminlar (K vitamini, A provitamini), biroz askorbin kislotasi, uron kislotalarining izlari mavjud. Urug‘larda steroid saponinlari, 44% gacha shilimshiqlar, 22% gacha yog‘li moy, 0,16-0,17% planteoz uglevodlari, 22% oqsil va 16% aminokislotalar mavjud. Yangi barglarda flavonoidlar, ko‘p miqdordagi mannit uglevodi, limon kislotasi mavjud.

**Tibbiyotda qo‘llanilishi:** Zupturum barglarining damlamasi balg‘am ko‘chiruvchi ta’sirga ega va bronxit, ko‘k yo‘tal, bronxial astma va silda yordamchi vosita sifatida ishlatiladi. YAngi zupturum barglaridan olingan sharbat me‘da shirasining normal va past kislotaliligida surunkali gastrit, oshqozon yarasi va o‘n ikki barmoqli ichak yarasi uchun samarali hisoblanadi. O‘simlikda fitonsidlar mavjudligi preparatning mikroblarga qarshi ta’sirini ta’minlaydi. Suv damlamasi va o‘simlik barglaridan yangi sharbati yaralarni tez tozalab, bitishiga yordam beradi. Ushbu dorilar ko‘karishlar, chuqur kesilgan joylar va yaralar, surunkali yaralar, teshiklar, yiringli yaralar, chipqonlar uchun ho‘llanma va chayish shaklida qo‘llaniladi. Bundan tashqari, yiringli yaralar va furunkulyozda kompress sifatida yaxshi yuvilgan yangi barglari ishlatiladi. Tarkibida mavjud bo‘lgan K vitamini qon ivishini kuchaytiradi, bu esa kuchli qon ketishining oldini oladi. O‘simlik yallig‘lanishga qarshi xususiyatlarga ega, shuning uchun u turli xil yallig‘lanishlarda juda samarali.

Birinchi dan, zupturum asosidagi dorilar yordamida ba’zi teri kasalliklarini davolash mumkin (dermatit, psoriaz), ikkinchi dan, og‘iz bo‘shlig‘i (stomatit, gingivit) va yuqori nafas yo‘llari (tonzillit, gaymorit) kasalliklarida holatni yaxshilaydi va davolash jarayonini tezlashtiradi. Zupturum siydik-tanosil va ajratuvchi tizimlarning ayrim kasalliklari, masalan, nefrit, enurez va boshqalarni davolashda ishlatiladi. O‘simlikni balg‘am ko‘chiruvchi ta’siri bo‘lganligi uchun bronxit va boshqalar kabi kasalliklarda ishlatiladi. Tarkibidagi moddalari ba’zi patogen mikroorganizmlarga, masalan, stafilokokklar, ko‘k yiringli tayoqcha va boshqalarga zararli ta’sir ko‘rsatadi. Ko‘zning shox pardasi shikastlanganda va zararlanganda ham qo‘llash mumkin. O‘simlikning foydali xususiyatlari tufayli ayollarning jinsiy a’zolari kasalliklarini davolashda ham ijobiy hisoblanadi. Zupturum yordamida adneksit, miometrit, parametrit, endometrit kabi kasalliklarni davolash

mumkin. Agar hayzlar juda ogʻriqli boʻlganda ham zupturum yordam beradi. Oʻsimlik anovulyasiyada ham ishlatiladi (ovulyasiya boʻlmaganda). Zupturum barglari quvvat beruvchi va mustahkamlovchi vosita sifatida ishlatilishi mumkin.

Charchoq va kuchsizlikdan, shuningdek, qattiq charchashlar va stress taʼsiridan xalos boʻlish mumkin. Gipertenziyada bunday tabiiy vositadan ham foydalanish mumkin, chunki bu qon bosimini normallashtirishga yordam beradi. Zupturum koʻpincha yengil tinchlantiruvchi vosita sifatida ishlatiladi. Baʼzilar ogʻriq roʻy berganda chakka va peshonaga barglarni qoʻyishadi. Bu haqiqatan ham yordam beradi, chunki oʻsimlik samarali tabiiy ogʻriq qoldiruvchi vositadir. Sharbati ovqat hazm qilish tizimiga foydali. Birinchidan, bu shilliq pardalarning tez tiklanishiga yordam beradi. Ikkinchidan, bunday vosita ovqat hazm qilish shirasini ishlab chiqarishni stimullaydi, shuning uchun ovqat hazm qilish jarayoni osonlashadi.

Oʻsimlik xolesterin miqdorini normallashtirishga yordam beradi va aterosklerozning oldini olish uchun juda samarali vosita sifatida ishlatilishi mumkin. Oʻsimlikning bunday dorivor foydali xususiyatlari otit kasalligini davolash uchun samarali hisoblanadi. Zupturum kosmetik maqsadlarda ishlatilishi mumkin, chunki u yalligʻlanishni ketkazib, terining rangini tiniqlashtiradi, shuningdek, sochlarni mustahkamlaydi va juda yaxshi tozalaydi. Muntazam va toʻgʻri foydalanilganda immunitetni mustahkamlash mumkin. Fitonsidlar bu foydali xususiyatlari organizmga viruslar bilan kurashishda yordam beradigan moddalardir, shuning uchun oʻsimlik oʻtkir respirator infeksiyalar va oʻtkir respirator virusli infeksiyalarning oldini olish va davolash uchun ishlatilishi mumkin. Zupturum buyrak uchun foydalidir, chunki u buyrak faoliyatini yaxshilaydi va ortiqcha suyuqlikni chiqaradi, shishlardan xalos qiladi. Plantaglyusid ogʻriq qoldiruvchi va yalligʻlanishga qarshi vosita boʻlib, u normal va past kislotali gipatsidli gastrit, meʼda va oʻn ikki barmoqli ichak yarasida (zoʻriqish paytida va qayt qilishni oldini olish uchun) ishlatiladi.

**Zupturum bargining kaynatmasi:** 10 g (2 osh qoshiq) xom ashyo sirli idishga solinib, 200 ml (1 stakan) issiq suv quyiladi, qopqoq yopiladi va qaynab turgan suv hammomida 30 daqiqa qizdiriladi. Keyin u xona haroratida 10 daqiqa davomida sovitiladi, suzgichdan oʻtkaziladi, qolgan massa siqib olinadi. Qaynatmaga qaynatilgan suv dastlabki hajm 200 ml gacha qoʻshiladi. Kuniga 3-4 marta ovqatdan 10-15 daqiqa oldin 1/2 -1/3 stakandan ichiladi. Zupturum siropi yoʻtalishda

yordam beradi, uni tayyorlash unchalik qiyin emas. Barglardan olingan yangi sharbatga teng nisbatda asal bilan qo'shiladi. Aralashma ikki soatga qoldiriladi va besh-olti kun davomida kuniga uch-to'rt marta bir osh qoshiqdan ichiladi. O'simlik nastoykasidan stomatit, tonzillit, otit va boshqa kasalliklarni davolash uchun foydalanish mumkin. Uni tayyorlash uchun taxminan 100 gramm quritilgan o'ti, shuningdek, bir stakan aroq kerak bo'ladi. Xom ashyoga aroq quyiladi, idish yopilib, qorong'i va salqin joyga ikki haftaga qo'yiladi. Tayyor nastoyka suzgichdan o'tkaziladi. Otit kasallikda paxta piliklari suyuqlikda namlanib, quloqqa qo'yiladi (chuqur emas!) Yarim soatga qoldiriladi. Stomatit yoki tonzillitda nastoyka suv bilan suyultiriladi (1 qism nastoykaga 10 qism suv olinadi) va tomoq yoki og'iz chayiladi. Damlamasi yo'tal uchun foydalidir. Ikki osh qoshiq quruq o'ti bir stakan qaynoq suv bilan aralashtirilib, uni suv hammomiga yoki yarim soat davomida 70-90 darajaga qadar qizdirilgan pechga qo'yiladi, so'ngra usti yopiladi va bir soatga qoldiriladi. Bir choy qoshig'idan kuniga uch-to'rt marta ichiladi. Qaynatmani tayyorlash uchun bir osh qoshiq quruq xom ashyoni bir stakan suv bilan aralashtirib, 15 daqiqa davomida qaynatib olinadi, so'ngra iste'mol qilinadi. Zupturum barglari ko'plab o'simlik choylarning bir qismidir.

**Kosmetologiyada qo'llanilishi:** o'simlik kosmetik maqsadlarda ham muvaffaqiyatli qo'llanilmoqda. Qaynatmalar yoki damlamalardan husnbuzar va boshqa muammolarda surtma yoki kompress sifatida ishlatiladi. Agar sharbati muzlatilib, keyin muz kubiklari yuzga surtilsa, teri tiniqlashadi va shishlar qaytadi. Bundan tashqari, sochlarni qaynatma bilan yuvish mumkin.

O'simlikning foydali xususiyatlari juda ko'p va o'ziga xos bo'lsa-da, qo'llanib bo'lmaydigan holatlari ham mavjud: Oshqozon shirasining yuqori kislotaliligidir. Bu holda o'simlik vaziyatni yanada kuchaytirishi mumkin. O'n ikki barmoqli ichak yoki oshqozon yarasining o'tkir bosqichida qo'llab bo'lmaydi. Tomirlarning varikozi, tromboflebit va boshqalar bilan bog'liq tromblarning hosil bo'lishini yuqori xavfida qo'llash mumkin emas. Individual ko'tara olmaslik. Zupturumni ehtiyotkorlik bilan ishlatish kerak, chunki allergik reaksiya paydo bo'lishi mumkin.

**Qushtili** – *Polygonum aviculare* L.  
(Горец птичий)




**O‘simlik tavsifi:** Qushtili – Polygonaceae oilasiga mansub bir yillik o‘simlik. Ildizi o‘q ildizli, biroz shoxlangan. Poyalari uzunligi 10-60 sm, yoyilib o‘sgan yoki ko‘tarilgan, ko‘pincha asosidan shoxlangan. Barglari ellipssimon shakldan chiziqli-lansetsimongacha, to‘mtoqlashgan yoki kalta uchli, asosida qisqa bandgacha toraygan, uzunligi 1-4 sm va eni 0,5 sm. Gullari 2-5 gacha barglar qo‘ltig‘ida joylashgan. Gulqo‘rg‘oni chuqur bo‘lingan, besh a‘zoli, pastki qismi yashil, yuqori qismi oq yoki pushti rangli. Meva uchburchakli, qora,

ba’zida kashtan rangli yong‘oqchadir. Maydan kech kuzgacha gullaydi va mevalaydi. Tibbiyotda o‘simlik o‘ti damlamalar va qaynatmalar tayyorlash uchun ishlatiladi.

**O‘shish joyi. Tarqalishi:** O‘zbekiston hududida qushtili hamma joyda uchraydi. Qushtili yo‘llar, so‘qmoqlar, zovurlar, qumli va shag‘alli tepaliklarda, daryolar qirg‘oqlari bo‘yida va o‘tloq yerlarda, ko‘p mol boqilgan yaylovlarda o‘sadi, ekinlar, tomorqalar, o‘rmonning yosh ko‘chatzorlarida begona o‘tlar sifatida uchraydi. Qurg‘oqchilikka chidamli, sho‘rtob yerlarga chidamli, tuproqning qattiq zichligiga chidamli.

Takroriy o‘rishdan keyin yaxshi o‘sadi. Chorva mollari tomonidan kuchli bosilgan yerlarda va ularning yeyilishidan keyin ham o‘sa oladi. Boshqa o‘simliklardan raqobat bo‘lmagan taqdirda, u urug‘lari bilan yaxshi tiklanadi va kuchli



zichlashgan tuproqlarda sof o'sish maydonlarini hosil qiladi.

**Xom ashyoni yig'ish va uning sifati:** Xom ashyoni yig'ish deyarli yoz davomida quruq ob-havo sharoitida gullash paytida amalga oshiriladi. 30 sm uzunlikdagi bargli novdalar pichoq yoki o'roq bilan kesilib, o'simliklarning ildizlari va qo'ng'irrang qismlari olib tashlanadi. Hosilni bir joyda yig'ish, har yili o'tkazish mumkin. Samarali tiklanishi uchun urug'lik uchun yaxshi rivojlangan o'simliklarning taxminan 25% ni qoldirish kerak. O'simlik o'ti ochiq havoda chordoq yoki xavo yaxshi aylanadigan ayvonlarda yupqa qatlamga yoyilib, vaqti-vaqti bilan aralashtirib yoki quritgichlarda 50-60<sup>0</sup>C haroratda quritiladi. Poyalar bukilganda oson sinsa, quritish to'xtatiladi. Quruq xom ashyoning hosildorligi 22-24% ni tashkil qiladi. Quruq o'tlar 15-20 kg qoplarga qadoqlanadi. Quruq, yaxshi havo aylanadigan xonalarda, tokcha va stellajlarda saqlanadi. XI DF ma'lumotlariga ko'ra, o'simlik xom ashyosini – 30 sm uzunlikdagi barglari va barg qo'ltig'ida bir nechta joylashgan och pushti gullardan iborat poyalar tashkil etadi. Hidi kuchsiz, ta'mi biroz bog'lovchi. Namlik 13% dan, o'z rangini yo'qotgan o't qismlari – 3% dan, ildizlar 2% dan, va teshikning diametri 2 mm bo'lgan elakdan o'tadigan zarralar 3% dan oshmasligi kerak. Xom ashyoning yaroqlilik muddati – 3 yil.

**Kimyoviy tarkibi:** Qushtili o'tlarida taninlar – 3%, flavonoidlar – 1,48-1,97% (avikulyarin, kvarsetin, izoramnetin, miritsetin, kempferol, lyuteolin), kremniy kislotasi – taxminan 1%, C vitamini, achchiqlik, smola, mum, efir moylari va alkaloidlarning izlari mavjud.

**Tibbiyotda qo'llanilishi:** Ushbu o'simlikning o'tidan tayyorlangan galen preparatlari siydik miqdorini ko'paytiradi, siydik bilan ortiqcha natriy va xlor ionlarini ajralishiga yordam beradi. Qushtili o'ti siydik toshlarining paydo bo'lishi oldini oladi, bu uning tarkibida erigan kremniy kislotasi birikmalarining bo'lishi bilan bog'liq. Ushbu o'simlik asosiy tarkibiy qism bo'lgan galen preparatlari va yig'malari siydik yo'llarining surunkali kasalliklari, buyrak tugunchalarning filtrlash funksiyasini pasayganda va siydikda katta miqdordagi mineral tuzlar, ayniqsa oksalat kislotasi tuzlari paydo bo'lganda ishlatiladi. Yordamchi vosita sifatida ular siydik tosh kasalligining dastlabki bosqichlarida, siydik toshlari olib tashlangan operatsiyadan keyingi davrda, siydik kislotasi diatezi, terining husnbuzar, furunkul va ba'zi dermatitlar kasalliklarida buyuriladi. Oshlovchi moddalar borligi sababli qushtili o'tini gastroenterit, kelib chiqishi turlicha bo'lgan

diareya, qon tomir devorlarining o'tkazuvchanligini oshganda va oshqozon-ichak trakti shilliq qavatining shikastlangan tomirlaridan qon ketgan holatlarda samarali hisoblanadi. O'simlik funksional jigar yetishmovchiligi va moddalar almashinuvining toksik mahsulotlari tanada ushlanib qolishi bilan bog'liq kasalliklar uchun ishlatiladi. Qushtili o'ti damlamalari va qaynatmalari bachadon atoniyasi tufayli bachadondan qon ketgan, shuningdek, ichak va gemorroydan qon ketgan holatlarda ishlatiladi. Qushtili o'tining damlamasi. 10 g (1-2 osh qoshiq) xom ashyo sirlangan idishga solinadi, ustiga 200 ml (1 stakan) issiq qaynatilgan suv quyiladi, qopqoq bilan yopiladi va 15 daqiqa davomida qaynoq suvda (suv hammomida) isitiladi. Keyin xona haroratida 45 daqiqa davomida sovutiladi, suzgichdan o'tkaziladi va qolgan xom ashyo olib tashlanadi. Olingan damlama qaynatilgan suv bilan birlamchi hajm 200 ml gacha yetkaziladi. Damlama salqin joyda 2 kungacha saqlanadi. Ovqatdan oldin kuniga 2-3 marta 1/2-1/3 stakandan ichiladi.

**Tog'jumrut – *Rhamnus cathartica* L.**  
(Жостер слабительный)

**O'simlik tavsifi:** Tog'jumruti – bu Rhamnaceae oilasiga mansub buta yoki kichik daraxt, odatda, tikan bilan tugaydi, balandligi 3 m gacha, kamdan-kam hollarda esa 8 m ga etishi mumkin. Barglari uzunligi 2-5 sm, deyarli qarama-qarshi yoki qarama-qarshi, silliq, tuxumsimon yoki



ko'pincha ellipssimon, uchi kalta o'tkirlashgan, asosida ponasimon yoki yumaloq, mayda kunguralitishsimon, 3 juft yon tomirlariga ega, bandchalari uzunligi 1-1,5 sm gacha. Gulbandchalari uzunligi 1 sm gacha. Kosachabarglari uzunligi taxminan 5 mm. Tojibarglari cho'zinchoq, kosabarglarga qaraganda qisqaroq. Danakning eni 5 mm, qora rang. Urug'lari tor teshikka ega. May-iyun oylarida gullaydi. Mevalar iyul-avgust oylarida pishadi va uzoq vaqt to'kilmaydi.


**O'sish joyiva tarqalishi:** Tog'jumrut tog' qiyaliklarida, archa va yong'oq o'rmonlarida, tog' daryolari bo'ylarida o'sadi. Toshkent, Farg'ona va Samarqand viloyatlarida uchraydi.

**Xom ashyoni yig'ish va uning sifati:** Tog'jumrut mevalari

zaharli hisoblanadi, ular faqat dorivor dozalarda iste'mol qilinadi. Meva to'liq pishganda xom ashyosi yig'iladi. Keyin ular ingichka qatlam qilib yoyib yoki maxsus quritgichlarda quritiladi. Xalq tabobatida quritilgan tog'jumrut mevasidan damlamalar shaklida ich yumshatuvchi sifatida ishlatiladi. Tekshiruv natijalariga ko'ra, har bir bemor uchun 20 donadan boshlab, so'ngra ko'payib boradigan individual dozani tanlash kerakligi aniqlangan. Bundan tashqari, tog'jumrut rezavorlari nafaqat ich suruvchi, balki ichakni boshqaruvchi vosita hisoblanadi, shuning uchun ularni ich suruvchi va mustahkamlovchi yig'malar tarkibiga qo'shiladi.

**Kimyoviy tarkibi:** Rezavorlar tarkibida antraxinonlar (emodin, ramnokartartin va boshqalar), flavonoidlar, pektin moddalar, shilimshiq, shakar, kamed, barglarida ko'p miqdorda C vitaminlari va boshqalar bor, ularning ildizida ko'plab taninlar va boshqa foydali moddalar mavjud.

**Tibbiyotda qo'llanilishi:** Davolash uchun tog'jumrutning pishgan mevalari ishlatiladi, shunda ham cheklangan miqdorda, yashil mevalarni yeyish yoki boshqa maqsadlarda ishlatish mumkin emas, chunki ular juda zaharli. Tog'jumrut, umuman olganda, agar dozadan oshmasa, tanaga yengil ich suruvchi ta'sir ko'rsatadi. Tog'jumrut tonusini oshiradi va ichakning motor funksiyasini kuchaytiradi, lekin sekin harakat qiladi, terapevtik ta'siri qabul qilinganidan 10-14 soat o'tgach paydo bo'ladi. Tog'jumrut mevalari po'stlog'idan kuchsizroq ta'sirga ega. Bundan tashqari, tog'jumrut mevalarining qaynatmasi va damlamasi antibakterial va siydik haydovchi xususiyatlarga ega. Meva tarkibidagi suv ekstrakti herpes virusini rivojlanishiga to'sqinlik qiladi. Xalq tabobatida tog'jumruti yuqoridagi holatlardan tashqari, hattoki gastrit, ich ketuvchi kolit, gelmintik invaziya, podagra, revmatizm, ho'l





yoʻtal, anemiya, sariqlik, assitli jigar sirrozi, oʻsmalar, shish, oshqozon yarasi, yurak yetishmovchiligi, yurak istisqosi kasalliklarda va qusish vositasi sifatida ham qoʻllaniladi. Togʻjumrut preparatlari anʻanaviy tibbiyotda surunkali ich qotish, ichak atoniyasi, spastik kolit, bavosil va anusdagi yoriqlar uchun ham qoʻllaniladi. Togʻjumrut mevalaridan revmatizm uchun surtish uchun spirtli nastoykasi tayyorlanadi (mevalar 40% spirt yoki aroq ustida turib olinadi). Togʻjumrut mevalarini och qoringa yangi terilganda 10-15 donadan isteʼmol qilish mumkin. Togʻjumrutning yangi mevalari quritilgan mevalarga qaraganda tanaga samarali taʼsir qiladi. Davolash paytida togʻjumrut mevalaridan yangi sharbati ichiladi, kattalar – 1 osh qoshiq, bolalar –1 choy qoshiqdan bitta ichishda foydalanish mumkin. Ammo hammaga ham togʻjumrut bir xil taʼsir koʻrsatmaydi, ularning baʼzilari 1 osh qoshiq konservalangan yoki yangi togʻjumrut sharbatidan qattiq ichi surishi mumkin. Shu sababli ushbu oʻsimlik sharbatini davolanishda ishlatishdan oldin kichik dozalarda ichish tavsiya etiladi. Tashqi tomondan, ogʻizni chayish, togʻjumrutning mevalari va novdalaridan tayyorlangan damlamadan teri kasalliklari (ekzema va boshqalarni), yiringli yaralar, furunkullarni yuvish uchun foydalaniladi. Quruq togʻjumrut mevalari kukun qilib maydalanadi va sirkada damlanganlari solingan qichima uchun ishlatiladi.

**Togʻjumrut damlamasi:** 1 osh qoshiq mevaga 1 stakan qaynoq suv solinadi, yopiladi va 2 soatga damlanadi. Kechasiga ich suruvchi sifatida 1/2 stakandan ichiladi.

**Togʻjumrut qaynatmasi:** 20 g quruq mevalarni 20 daqiqa davomida 0,5 l suvda qaynatiladi, bir chetga qoʻyiladi va yana 8-10 soat damlanadi, soʻngra suzgichdan oʻtkaziladi. Yuqoridagi kasalliklarda kuniga 3-4 marta 1 osh qoshiqdan ichiladi. Ertalab 1/2 stakandan (och qoringa) va kechasi 1/2 stakandan ichish mumkin.

**Togʻjumrutni ishlatish mumkin boʻlmagan holatlar:** Bachadondan qon ketishi, homilador va emizikli ayollar uchun togʻjumrutdan tayyorlangan dorilar ishlatilmaydi. Bundan tashqari, togʻjumrutni uzoq vaqt ishlatish mumkin emas. Togʻjumrutning mevasidan tayyorlangan choyni atigi bir necha kun ichish tavsiya etiladi. Togʻjumrutdan foydalanganda meʼyorga eʼtibor berish lozim, chunki aks holda koʻngil aynishi, qusish, bosh ogʻrigʻi va h.q. bilan kechadigan zaharlanish holati vujudga keladi.

**Kakra - *Leuzea repens* (L.) D.J.N.Hind**

Горчак ползучий




**O‘simlik tavsifi:** Asteraceae oilasiga mansub ko‘p yillik o‘simlik, balandligi 20-60 sm. Poyasi tik turuvchi, yuluqli yoki to‘rsimon tuklangan, o‘troq bezli tukchali, deyarli asosidan ser shoxlangan, novdalari uzunlashgan, ingichka, zichbargli, yuqorida yolg‘iz savatchalari bor. Barglar terisimon, yon tomondan kulrang-yashil rangga ega, pastki tomoni qalinroq, tarqoq to‘rsimon, o‘troq bezli tukchalar bilan tuklangan, ikkala uchiga cho‘zilgan, lansetsimon yoki deyarli chiziqli-

lansetsimon, yuqorigi tomoni qisqa o‘tkirlashgan, chetgi qismida kalta yo‘g‘on so‘rg‘ichlariga ega; pastki barglar oralari ochiq tishsimon, kamdan-kam hollarda patsimon qirqilgan, yuqorilari kichikroq, chetlari butun, kamroq 1-2 tishchali bo‘ladi. Savatchalar tuxumsimon, eni 6-8 mm, uzunligi 15-17 sm, chiqib turuvchi gullari bor. O‘ramabarglari ko‘p sonli, terisimon, yashilsimon rangli, yarim dumaloq shaklida, yuqorisi qisqa o‘tkirlashgan, yupqa pardasimon, tiniq o‘simtasi bor, tashqi tomondagilari tuxumsimon, o‘simtasiga o‘tgan joyda ikki tomonlama to‘rsimon, o‘simtasi kalta qattiq tuklar bilan tuklangan, ayniqsa qirrasi bo‘ylab, o‘rta o‘ramabarglar sekin-asta cho‘zinchoq shaklgacha uzunlashadi, yuqoridagi kabi kalta qattiq tukli o‘simtasi bor, ichki o‘ramabarglar tor lansetsimon, zich tuklangan, lansetsimon, o‘tkirlashgan o‘simtalari mavjud. Gullari pushti rangga ega. Gulo‘rinning dag‘al tuklari oq, silliq. Pistacha teskari tuxumsimon, ochrang, ingichka, bilinmas chiqib turgan bo‘ylama tomirlari bor, popuklarning dag‘al tuklari oson to‘kiluvchi. Popuklarning dag‘al tuklari ko‘p sonli, oq, qisqa patsimon. Iyun-iyul oylarida gullaydi, iyul-avgust oylarida mevalaydi.

**O'sish joyi va tarqalishi:**

U dashtlarda, sho'rtob o'tloqlarda, sho'rxoq yerlarda, qumli-tosh joylarda, daryolarning toshli qirg'oqlarida, ko'llarda, toshli, gilli qiyaliklarda, qatlamlarda, ekinzorlarda, yo'llar bo'ylarida, tog'



mintaqasining quyi qismidan yuqorisigacha o'sadi. Begona o't. Butun respublikada tarqalgan.

**Xom ashyoni yig'ish va uning sifati:** Dorivor maqsadlarda gullash davrida (poyalari, barglari, gullari) o't qismini va mevalari – iyul-avgust oylarida yig'iladi. Salqin qorong'i joyda quritiladi.

**Kimyoviy tarkibi:** O'simlik kam o'rganilgan, tarkibida alkaloidlar, smola va efir moylari mavjud. Ildizlari tarkibida murakkab uglevod inulin mavjud bo'lib, uning miqdori bahorgacha kamayadi. Poyalanish bosqichi va g'unchalash boshlanishigacha uning miqdori boshlang'ich darajaga ko'tariladi. Inulinning eng katta miqdori yer usti massasining qurib qolish bosqichida to'planadi, ya'ni boshlang'ich darajaga nisbatan deyarli ikki baravar ko'p bo'ladi.

**Tibbiyotda qo'llash:** Kakraning suvli ekstraktidan xalq tabobatida bezgak, epilepsiya va qichima kasalliklarida ishlatiladi. Gijja tushiruvchi (antigelmint) vosita sifatida mevalarining qaynatmasi ichiladi.

**Kakraning dori shakllari, qo'llanish usuli va preparatlarini dozalari:** Kakra o'tining damlamasi: 1 stakan qaynoq suvga 1 choy qoshiq quruq maydalangan o't solinadi. O'rab qo'yib 1 soat davomida damlanadi, suzgichdan o'tkaziladi. Bezgak va epilepsiyani davolashda 1-2 oshqoshiqdan kuniga 3 marta ovqatdan 15 daqiqa oldin ichiladi.

**Kakra o'tining qaynatmasi:** 1 choy qoshiq quruq maydalangan o'tning ustiga 1 stakan qaynoq suv quyib, yopiq idishda 30 daqiqa davomida qaynoq suv hammomida damlanadi, xona haroratida 10 daqiqa davomida sovutiladi, suzgichdan o'tkaziladi. Tashqi tomonga yuvinish, dokani ho'llab qo'yish, kompress shaklida qo'llaniladi. Kakra qaynatma: 1 stakan qaynoq suv bilan 1 choy qoshiq mevalari

damlanadi, sekin olovda 10-15 daqiqa davomida qaynatiladi, 10 daqiqaga damlab, suzgichdan o'tkaziladi. 1 osh qoshiqdan ovqatdan 30 daqiqa oldin kuniga 4-5 marta ichiladi.

**Qo'llanishi mumkin bo'lmagan holatlar:** Kakra zaharli o'simlik bo'lganligi uchun ichga qabul qilish juda ehtiyotkorlikni talab qiladi. Kakra preparatlari bilan zaharlanish ularni haddan tashqari katta miqdorda qabul qilganda ro'y beradi, bunda ko'ngil aynishi, oshqozon og'rig'i, bosh og'rig'i kuzatiladi. Bunday holda, oshqozonni faol uglerodning suvli suspenziyasi yoki kaliy permanganatning (kaliy permanganat) 0,1% eritmasi bilan yuvish kerak; ichga sho'rli ich suruvchi, yuqori tozalovchi klizmalar tavsiya etiladi. Kakra o'simliklar ko'plab hayvonlar, ayniqsa, otlar uchun zaharli, ammo qo'ylar va echkilar tomonidan yaxshi iste'mol qilinadi. Kakrani g'unchalash paytida hayvonlar eganligi oqibatida zaharlanish holatlari ko'p uchraydi.


**Rovoch** – *Rheum maximowiczii* Losinsk.  
(Ревень Максимовича)



**O'simlik tavsifi:** Rovoch Polygonaceae oilasiga mansub ko'p yillik o'simlik. Ildizpoyasi qalin, poyasi asosida zangli-qo'ng'irrang barg qinlari bilan zich qoplangan. Poyasi bargsiz, kuchli, balandligi 40-100 sm va yo'g'onligi 8-20 mm, birmuncha zichroq mayda bezchalar bilan qoplangan, kamroq deyarli silliq, pastki qismida yassilangan, qizg'ish, yuqori yarmida to'pgullari qismida ko'p shoxlangan, katta piramidasimon to'pgulni hosil qilgan 45<sup>0</sup> burchak

ostida chiqqan novdalarga ega.

Barcha barglari ildizboʻgʻzili, yirik, qisqa, yassilangan, odatda bezchali bandlarga ega, plastinkadan 2-3 baravar qisqaroq; barg plastinkasi uzunligi 18-50 sm va eni 20-60 sm, yumaloq-buyraksimon, chetlari biroz toʻlqinsimon, asosi buyraksimon, ostki



qismida uchta asosiy tomirlari boʻrtib chiqqan, ikki tomonidan yoki faqat chekkasi boʻylab va ostki qismidagi tomirlar boʻylab mayda bezchalar bilan zich qoplangan. Gullari pastki uchdan bir qismida yoki yarmida tutam boʻlib uzun gulbandda joylashgan. Gulqoʻrgʻon bargchalari deyarli bir xil, uzunligi 3 mm va eni 1 mm, yashil rangga ega.

Mevalari yirik, keng ovalsimon, uzunligi 15-20 mm va eni 10-15 mm, yongʻoqchasi tuxumsimon, burishgan, binafsha jigarrangda; qanotlari yongʻoqchasining eniga teng yoki biroz torroq, binafsha-qizil rangda, asosi va uchi qismida yuraksimon, oʻyikli, tomiri chetidan 0,5-1 mm uzoqlikda oʻtadi. May-iyul oylarida gullaydi va mevalaydi.

**Oʻsish joyi va tarqalishi:** Toshkent, Samarqand, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarining oʻrta togʻ mintaqasida oʻtli yoki shagʻalli qiyaliklarda uchraydi.



**Xom ashyoni yigʻish va uning sifati:** Dorivor maqsadlarda ularning ildizlari, ildizpoyalari, barg bandlari, poyalari va oʻsimlik sharbati yigʻiladi.

**Kimyoviy tarkibi:** Ildizlarda uglevodlar, fenollar, fenolkarbon kislotalar, katexinlar, katexin polimerlari, katexingallat, gallokatexin va uning galli efiri, taninlar, kumarinlar, leykotsianidinlar, antraxinonlar mavjud. Rovochoy poyasida C, A, E, B<sub>1</sub>, B<sub>2</sub>, B<sub>6</sub>, B<sub>12</sub> vitaminlari mavjud. Barg bandida organik kislotalar (olma, shovul kislotalari), shakar, kletchatka,

gemotsellyuloza, pektinlar topilgan. Poyasida mikroelementlar saqlanadi: natriy, kaliy, magniy, temir, yod. Mevalarida taninlar uchraydi.

**Tibbiyotda qo'llanilishi:** An'anaviy tibbiyotda rovochni yosh barg bandlari va poyasini yoki ulardan tayyorlangan yangi sharbati yoki kompoti va kiseli mustahkamlovchi, kam qonlikka qarshi, isitma tushiruvchi va qon bosimini tushiruvchi vosita sifatida ishlatish tavsiya etiladi. Shuningdek, past kislotali gastrit, gepatit, xolangit, o't pufagi yo'llarining diskineziyasi, sil kasalligi, bavoasil, surunkali ich qotishi, anemiya, gipertoniya, poliartrit, bezgakli holatlarda undan foydalanish tavsiya etiladi. Bunda ishtaha va umumiy holat yaxshilanadi, og'riq kamayadi, qon bosimi pasayadi, qonda eritrotsitlar va gemoglobinlar soni ko'payadi va najas normallashadi.

Rovochni yosh barg bandlari va poyalarini quyoshda quritib, quruq joyda saqlash kerak. Quyidagi retsept bo'yicha quritilgan poyalardan kaynatma tayyorlanadi: 2 osh qoshiq quritilgan rovoch poyasiga (20-30 g) 1-1,5 stakan (200-250) qaynatilgan suv bilan quyiladi va past olovda 30 daqiqa davomida qaynatiladi. Gipertenziya, burun va ichki qon ketishlarda hamda kamqonlikda rovoch damlamasi tavsiya etiladi.

Zamonaviy tibbiyot rovoch tarkibidagi organik kislotalar va vitaminlar (birinchi navbatda C vitamini) borligi tufayli uni atrofik va past kislotali gastrit bilan og'rigan bemorlar uchun foydali deb hisoblaydi. Oshqozonning sekretor funksiyasini oshiradi, ishtahani yaxshilaydi, oshqozon shilliq qavati kapillyarlarining qarshiligini oshiradi. Rovocho, shuningdek, jigarning antitoksik funksiyasini yaxshilaydi va gipertoniyaning engil formalari bo'lgan bemorlar uchun foydalidir.

Tarkibida kletchatka va pektin miqdori yuqori bo'lganligi sababli rovocho oshqozonning hazm qilish funksiyasini yaxshilaydi, shuning uchun uni ich qotishi bo'lgan qariyalarga tavsiya etiladi. Bezgakli isitmada rovocho poya va barg bandlarining sharbati ichilsa, haroratni pasaytirishga yordam beradi. U toksinlarni zararsizlantirganligi sababli yuqumli shamollashning zaharli ta'sirini pasayishiga olib keladi. Kaliy miqdori yuqori bo'lganligi sababli yurak xastaligi bilan og'rigan bemorlar uchun foydalidir. Bu uning siydik haydovchi ta'siri bilan bog'liq. Yovvoyi va madaniylashtirilgan rovocho sabzavot ekini sifatida keng ekiladi. Ishlatishdan oldin yosh barg bandlari yoki poyasi ustki

qismidan tozalanadi, alohida bo‘laklarga bo‘linadi va ta‘mga ko‘ra tuzlanadi.

Yosh va suvli novdalari achchiq-nordon ta‘mga ega, yetuk va suvli poyalari biroz nordon-shirin ta‘mga ega. Rovochning yosh tozalangan novdalaridan murabbo, kompotlar, salatlar, kisel, sharbatlar, sabzavotli sho‘rva, marmelad, shakarli mevalar va boshqa mahsulotlar tayyorlanadi.

**Ogohlantirish:** Rovochni past kislotali gastrit yoki oshqozon va o‘n ikki barmoqli ichak yarasi bilan og‘rigan bemorlarga och qoringa berish kerak. Ushbu bemorlarda uni qabul qilgandan 10-15 minut o‘tgach qattiq oshqozon og‘rig‘i kuzatiladi. Rovochoy poyalarida ko‘p miqdordagi shovul kislotasi mavjud bo‘lib, u organizmda kalsiy tuzlari bilan kimyoviy reaksiyalarga kirishadi va erimaydigan tuzlar – oksalatlarni hosil qiladi.

Ichakda oksalatlar hosil bo‘lganda ichakdagi kalsiy tuzlarining so‘rilish jarayoni buziladi, bir vaqtning o‘zida shovul kislotasi qonga so‘rilgandan keyin kalsiy bilan oson bog‘lanadi va shu bilan qondagi oksalatlarning konsentratsiyasini oshiradi. Bu juft qalqonsimon bezlarining gipofunksiyasi bilan og‘rigan bemorlar, shuningdek, bolalar va homilador ayollar uchun juda xavfli bo‘lib, kalsiy etishmovchiligi natijasida mushaklarning tomir tortishib qisqarishi, qon ivishining buzilishi va odatdagi suyak sinishlari (rovochni uzoq qabul qilganda) kelib chiqishi mumkin.

Qonda oksalat miqdorining oshishi buyrakda toshlarning paydo bo‘lishiga olib keladi. Rovochoy ildizining preparatlarini homiladorlik va ichakdagi o‘tkir yallig‘lanishda ichish man etiladi. **Retsept.** 1/2-1 stakan qaynatilgan suvda 2 osh qoshiq quritilgan rovochoy poyasi 30 daqiqa davomida qaynatiladi. Gipertenziya, burun va ichki qon ketish hamda kamqonlikda qabul qilinadi.


**Oltin tomir - *Rhodiola heterodontha* (Hook. f. et Thomson) Boriss.**  
(Родиола разнозубчатая (золотой корень))



**O‘simlik tavsifi:** Oltin tomir – Crassulaceae oilasiga mansub ko‘p yillik o‘simlik. Ildizi kuchli, vertikal, biroz yon ildizlari bor. Ildizpoyasi shoxlangan, to‘mtiq uchburchakli qipikli barglar bilan qoplangan, uzunligi 7-8 mm, eni 8 mm. Poyasi (15)-30-40 sm balandlikda, tik turuvchi,

soni 1-3 ta. Barglari oralari ochiq joylashgan, uchburchak-tuxumsimon, kengaygan asosi yuraksimon, ba’zida yuqori qismi cho‘zilgan, poyani o‘rovchi, o‘troq, yirik tishsimon, ko‘kintir rangda. To‘pguli zich, kallasimon qalqonchasimon, barglar bilan o‘ralmagan. Gullari kalta gulbandlarda, mayda, uzunligi 3-4 mm (changchilarsiz), ikki uyli, 4 a’zodan iborat. Kosachabarglari qizg‘ish, tumtoqlashgan, chiziqli. Gultojibarglari chiziqli, tumtoqlashgan, qizg‘ish, kosachabargdan bir yarim baravar uzunroq. Changchilar gultojibarglardan ikki baravar yoki undan ko‘proq uzunlikda, iplari qizg‘ish yoki sarg‘ish-yashil, uzunligi 5 mm ga yaqin, changdonlari qizg‘ish, qisqa changchilar kosachabarglarga qarama-qarshi joylashgan. Urug‘chisi lansetsimon, kalta yo‘g‘on ustunchalarga ega. Urug‘chi osti qipidlari cho‘zinchoq yoki deyarli kvadrat shaklida, o‘yilgan, och qizil yoki to‘q sariq rangga ega, bargak uzunligining yarmiga teng. Bargaklar gultojibarglarga teng, to‘g‘ri, chiziqli-cho‘zinchoq, kalta uchi qayrilgan. Urug‘lari qo‘ng‘irrang, ellipssimon, uzunligi 1-5 mm. May-iyun oylarida gullaydi.

**O‘sish joyi va tarqalishi:** Bu asosan yuqori tog‘ o‘simligidir. Alp va subalp mintaqalarida o‘sadi. Daryo qirg‘oqlari bo‘ylab u archa mintaqasining yuqori qismigacha boradi.





Tarqalishining balandlik chegaralari dengiz sathidan 900-2800 m balandlikda, eng zich o'sish maydonlari 1700-2000 m balandliklarda joylashgan. Toshkent, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida 4000 m gacha balandlikda toshli qiyaliklarda va qoyalarda o'sadi. Umumiy tarqalishi. Markaziy Osiyo (Pomir-Oloy), Himoloy, Markaziy Mo'g'uliston, Tibet, Qashqar, Afg'oniston. Dorivor xom ashyo sifatida o'simlikning ildizpoyasi ishlatiladi.

**Xom ashyoni yig'ish va uning sifati:** Ma'lum bir hududdan xom ashyoni yig'ish davriyligi kamida 20 yil bo'lishi kerak. Yig'imning optimal davri – avgust oyi, urug'chi tuplari mevalash fazasida urug'lari to'kilgan vaqtda amalga oshiriladi. Yig'im paytida ildizpoyalarning bir qismi o'sish joylarida qoldirilishi kerak. Yig'ilgan xom ashyo (ildizi va ildizpoyasi) oqar suvda yuviladi, eski po'stidan, chirigan qismlardan tozalanadi va soyada quritiladi. Keyin ildizlar bo'laklarga bo'linadi va 50-60<sup>0</sup>C haroratda quritgichlarda quritiladi. Shu tarzda quritilgan xom ashyo 30 kg qoplarga solinadi va quruq, havo yaxshi aylanadigan xonada saqlanadi. Oltin tomirning xom ashyosi uzunligi 9 sm va eni 2-5,1 sm, qattiq, burishgan, ko'pincha yuzasi yaltiroq eski poyalarning qismlari bo'lgan, kesilgan ildizpoyalarning bo'laklaridan iborat. Ildizpoyadan uzunligi 2,5-4 sm va eni 0,5-1,2 sm bo'lgan qo'shimcha ildizlar chiqadi. Xom ashyo ustki tomondan oltin tusli, kesilgan joylarda pushti yoki och jiggar rangga ega. Hidi o'ziga xos bo'lib, atirgul hidini biroz eslatadi.

**Kimyoviy tarkibi:** Yer osti organlarida olma, vino organik kislotalari mavjud. Triterpenoidlar: ursol, fenolkarbon, gall, kofe, ferula kislotalari. Kumarinlar: umbelliferon, eskuletin, taninlar 6,31%, flavonoidlar: kempferol, kversetin, astragalin, izokversetin, kversemeritrin va antraxinonlar. Yer usti qismida kumarinlar, 1,46% taninlar va flavonidlar mavjud.

**Tibbiyotda qo'llanilishi:** Oltin tomir ildizidan suyuq ekstrakti toliqqanda stimullovchi vosita sifatida ishlatiladi; asteniyaga moyil insonlarga tavsiya etiladi (ayniqsa, yuqori aqliy mehnat talab qilinadigan ishlarda); somatik va yuqumli kasalliklardan so'ng astenik holatli bemorlar uchun; asab tizimining funksional kasalliklarida – nevrozlarning turli shakllari, vegetativ-qon tomir distoniyasi, gipotenziviyada qo'llaniladi.

Oltin tomir ekstraktidan yuqori asabiy qo'zg'aluvchanlikning aniq asoratlari kuchayganda, bezgak holatlarida, gipertonik inqirozda

qo'llash mumkin emas. Ekstraktdan foydalanganda nojo'ya ta'sirlar kam holatlarda uchraydi.

**Totum** – *Rhus coriaria* L.  
(Сумах дубильный)



**O'simlik tavsifi:**

Totum– Anacardiaceae oilasiga kiruvchi buta yoki uncha katta bo'lmagan kam shoxlangan daraxt. Bo'yi 1 m dan 3 m gacha. Daraxt va katta butalar po'stlog'i jigarrangsimon, siyrak tuklangan. Bir yillik poyalarning po'stlog'i qo'ng'irrang, dag'al tukli,

ko'p yillik tanalari va novdalari to'q qo'ng'irrang bo'ladi. Barglari ketma-ket, toq patsimon, 4-8 juft mayda qarama-qarshi bargchalardan iborat, dag'al tukli, ustki qismi to'q yashil, ostki qismi deyarli kulrang, uzunligi 15-20 sm, eni 1,5-3 sm, cho'zinchoq tuxumsimon, keng ponasimon asosi va yuqori qismi o'tkirlashgan, yon qirralari yirik burishgan-arrasimon. Gullari bir jinsli, mayda, yashil-oq, ko'zga tashlanmaydigan, katta konussimon yuqorigi va kichikroq mayda qo'ltiqdan chiqqan changchi va urug'chi ro'vak to'pgullaridan iborat. Changchi ro'vablari oralari kengaygan, uzunligi 25 sm, urug'chi to'pgullari zichroq, uzunligi 15 sm. Kosachabarglari yumaloq tuxumsimon, yashil, tojibarglari tuxumsimom cho'zilgan, oqish rangda. Mevasi mayda sharsimon yoki buyraksimon, bir urug'li qizil danak. Iyun-iyul oylarida gullaydi, ba'zan kuzda ikkilamchi gullashi kuzatiladi. Birinchi mevalar iyulda, sentyabr-oktyabr oylarida to'liq pishadi. Totum barglari dorivor xom ashyo hisooblanadi. Ulardan tanalbin preparati tarkibiga kiruvchi tibbiyot tanini olinadi.


**O'sish joyi va tarqalishi:** Totum o'simligi quyi va o'rta tog' mintaqalarining dengiz sathidan 1000 m gacha balandligida va Pomir Oloyda tizmasining 1800 m gacha balandligida o'sadi. Odatda ular zich o'sish maydonlarini hosil qilmaydi. O'simlik janubiy ekspozitsiyaning quruq qiyaliklarida o'sishi uning qurg'oqchilikka chidamliligini ko'rsatadi. Yorug'sevar, shuning uchun faqatgina ochiq joylarda

uchraydi; oʻrmonlarning pastki qismida hatto siyrak va yorugʻ boʻlsa ham kamdan-kam uchraydi. Bu oʻsimlik issiqsevar, ammo  $-20^{\circ}\text{C}$  gacha sovuq haroratga chidaydi.

Yosh oʻsimliklar, xususan, pitomniklardagi koʻchatlar sovuqqa chidamsiz. Tuproqning

shoʻrlanishiga chidamli. Yaxshi rivojlangan ildiz sistemasiga ega. Ildizlarning bir qismi mexanik «mustahkamlovchi» vazifasini bajaradi, bu oʻsimlikni tik qiyaliklarda ushlab turadi. Yuza qismidagi gorizontol ravishda tarqalgan ildizlari koʻp sonli ildiz bachkilarini beradi va vegetativ koʻpayish funksiyasini taʼminlaydi. Yaxshi rivojlangan ildiz tizimi yerning chuqur qatlamlaridan suv va mineral ozuqalarni olish imkonini beradi, totum unumdor tuproqlarda ham, kam unumdor tuproqlarda ham, shuningdek, ochiq qoyalarda va shagʻalli yerlarda oʻsadi. U ohaktoshli togʻlarda yaxshi oʻsadi.

**Xom ashyoni tayyorlash va uning sifati:** Totum barglarini yigʻishda ularning shoxlarini sindirib tashlamaslik kerak, faqat zarar koʻrmagan murakkab barglar yigʻiladi, yaʼni 3-10 ta alohida yaproqlardan tashkil topgan barglar butadan butunlay uzib olinadi. Barglar quyoshda, quritgichlarda yoki ayvonlar ostida quritiladi. Xom ashyoni qorayishi va mahsulotbop koʻrinishini yoʻqotmasligi uchun namlanishdan saqlash kerak. Xom ashyo namlanganda uning qiymatini belgilaydigan tanin moddasini kamayishiga olib keladi. Yigʻim paytida baʼzida yosh bargli novdalar butunlay kesiladi. Qurigandan soʻng novdalar toza joylarda maydalanib, poyalaridan tozalanadi (berezent ustida yaxshiroq). Tanin asosan barglar parenximasida boʻlganligi sababli xom ashyo sifati shamollatib va poya hamda barg bandlaridan ham tozalanib yaxshilanadi. Totum barglarida tanin miqdori vegetatsiya davrida deyarli oʻzgarmaganligi uchun barglarni bahor, kuz va yozda yigʻib olish tavsiya etiladi. Ammo oʻsimliklarda yetarli miqdordagi faol moddaning toʻplanishini taʼminlash uchun xom ashyoni yigʻishni gʻunchalash davridan oldin boshlash maʼqul emas. Xom ashyoni zich oʻsish maydonlaridan 2 yilda 1 marta yigʻib olish kerak. Totum asosan



quruq yerlarni, toshli qiyaliklar, shag‘alli joylarni ko‘kalamzorlashtirish uchun o‘stiriladi. O‘simlik ildiz bachkilari va urug‘idan ko‘payadi. Ko‘p meva beradi, yetuk butalarda 70 tan 150 gacha urug‘chi to‘pgullari hosil bo‘lib, har biri 200-300 ta ba‘zan 500 tagacha meva hosil qiladi. Tayyor xom ashyo quritilgan yaxlit yoki alohida bargchalarga bo‘lingan barglardan iborat. Quritilgan barglarning rangi yuqori qismida to‘q yashil, pastida kulrang, ta‘mi og‘izni burushtiruvchi bo‘ladi. Xom ashyo tarkibida namlik miqdori 12% dan, umumiy kul miqdori 6,5 % dan, 10% xlorid kislotada erimaydigan kul miqdori 1,2% dan, tanin miqdori 10% dan, teshiklari diametri 2,8 mm elakdan o‘tadigan zarralar 5% dan, normal rangini yo‘qotgan barglar 2% dan ko‘p bo‘lmasligi kerak.

### **Itburun - *Rosa canina* L.**

(Шиповник собачий)



#### **O‘simlik tavsifi:** Itburun o‘simligi

– Rosaceae oilasiga kiruvchi buta o‘simligi, bo‘yi 1,5-3 m gacha yetadi, novdalari qayrilgan, kamroq tekis yashil yoki qizil-qo‘ng‘ir po‘stloq bilan qoplangan. Tikanlari mustahkam, o‘roqsimon qayrilgan, asosiy poyasida kam yoki tarqoq holda, ba‘zan deyarli to‘g‘ri, gulpoyalarda ko‘p joylashgan. Barglar uzunligi 7-9 sm, yashil va ko‘kimtir, silliq, bargni asosiy bandida ba‘zida siyrak kalta tukli. Gullari odatda och-pushti, oq yoki yorqin-pushti. Pishgan mevalari yirik, uzunligi 15-26 mm, keng


ovalsimon, ba‘zan sharsimon, ba‘zan cho‘zinchoq ovalsimon, silliq, yorqin yoki och qizil rangda. Mevaning ichki devorlari ko‘p sonli qattiq tuklar bilan qoplangan, ularning orasida ko‘plab qattiq, toshli mevalar – yong‘oqchalar mavjud. May – iyul oylarida gullab, avgust- oktyabr oylarida pishadi. Itburun mevalari tibbiyotda qo‘llaniladi.

**O‘sish joyi va tarqalishi:** Toshkent, Farg‘ona, Samarqand, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida quyi va o‘rta tog‘ mintaqasining daryo va irmoqlarining qirg‘oqlarida, bog‘larda, yong‘oqzor va archazor o‘rmonlarida uchraydi.

## **Xom ashyoni yig'ish va uning sifati:**

Itburun mevalari yig'ish odatda avgust oyining oxiridan boshlanadi va sovuq boshlanguncha davom etadi.

Xom ashyo tayyorlovchi tashkilotlar tomonidan xom ashyo yig'ishni aniq muddatlari belgilanadi. Itburun mevalari



quritkichlarda yoki yirik pechkalarda 80-90<sup>0</sup>C haroratda quritiladi. Bundan tashqari, ularni havo yaxshi aylanadigan chordoqlarda yupqa qatlamlar qilib yoyib, tez-tez aylantirib ham quritiladi. Itburun mevalari va boshqa past vitaminli turlarining asosiy iste'molchisi farmatsevtika sanoatidir. Yig'ilgan past vitaminli itburun mevalarining xom-ashyosi butun, kosachabarg va meva bandlaridan tozalangan bo'lishi lozim: sharsimon, tuxumsimon va cho'zinchoq; mevalarining uzunligi 0,8-2,5 sm, diametri 0,7-2,8 sm bo'ladi. Raqamli qo'rsatkichlar: namlik 15% dan, umumiy kul 4% dan, itburunning boshqa qismlari (novdalar, poya va ularning bo'lakchalari) 2% dan; qoraygan, kuygan, zararkunandalar bilan shikastlangan mevalar 3% dan; maydalangan meva qismlari, shu jumladan, diametri 3 mm bo'lgan teshikli elakdan o'tadigan yong'oqchalar 3%, pishmagan mevalar (yashildan sariq ranggacha) 5% dan, organik aralashmalar (mevalar yoki boshqa zararli bo'lmagan o'simliklarning qismlari) 0,5% dan; mineral (tuproq, qum, toshlar) aralashmalar 0,5% dan; organik kislotalar kamida 3% dan oshmasligi lozim. Umuman zaharli o'simliklar va ularning qismlari, mog'or va chirigan narsalar, shuningdek, o'tirib qolgan va shamollaganda ham ketmaydigan hidi bo'lmasligi kerak. II-III darajada zararkunandalar bilan zararlangan xom ashyo iste'mol qilishga yaramaydi.

**Kimyoviy tarkibi:** Turli hududlardan yig'ilgan itburun mevalarida biologik faol moddalarning tarkibi bir xil emas. Uning etli mevalari (ho'l massaga nisbatan %): namlik 47,63; eriydigan moddalar 24,57; erimaydigan moddalar 27,8; erkin kislotalar 1,31; taninlar va bo'yoqlar 0,57; pektin 2,74; pentozanlar 2,18; urug'larning tarkibida 9,27% yog'li moy mavjud.

**Tibbiyotda qo'llanilishi:** Itburun mevalaridan asosan xolasas ishlab chiqarishda foydaniladi (mevaning quyultirilgan suvli ekstrakti

bilan shakar siropi). Xoladas dorisi jigar kasalliklari – xoletsistit va gepatit buyuriladi. Mevalaridan karotolin ham olinadi (meva etining moyli ekstrakti), uni trofik yaralar, ekzema, eritrodermit va boshqa kasalliklarni davolashda ishlatiladi. Itburun mevasining moyi soʻrgʻichlar yorilganda, yotoq yaralari, dermatozlar, boldirning trofik yaralarida tashqi tomonga surtiladi, shuningdek, yarali kolitda klizma qilib qoʻllaniladi.

**Naʼmatak** – *Rosa webbiana* Wall. ex Royle  
ШИПОВНИК Уэбба




**Oʻsimlik tavsifi:** Naʼmatak bu Rosaceae oilasiga kiruvchi, boʻyi 2-3 m boʻlgan, bir qancha yoʻgʻon, tik tiruvchi poyalari va tarvaqaylagan novdalariga ega kuchli rivojlangan buta. Qari novdalar poʻstlogʻi kulrang qoʻngʻir yoki jigarrang, baʼzi joylarda archilgan kulrang pardali; yosh novdalari yashilroq yoki yashil-jigarrang. Asosiy novdalarida tikanlari koʻp, deyarli bir xil, baquvvat, yirik, uzunligi 10-13 mm,

uchi toʻmtoqlashgan, yon tomonga chiqib turgan, biroz ichgichka uchburchaksimon, asosiga qarab yostiqsimon kengayib boradi. Yosh novdalarning tikanlari yuqorida aytilganidek, ammo kichikroq oʻlchamli, uzunligi 4-9 mm. Yosh novdalarda barglar oralari ochiq joylashgan.

Bargchalari 5-9 ta, zich, biroz terisimon, ustki qismi xira yashil, ostki tomoni kulrang, tuxumsimon, choʻzinchoq-tuxumsimon yoki deyarli yumaloq, ikki tomonlama uzunligi 10-30 mm, eni 8-20 mm, aksariyat pastki qismida ingichka tuklangan yoki silliq, chetlari arrasimon-tishchali, har ikki tomonida 9-15 ta oddiy oʻtkir tishchalari mavjud. Barg bandi maʼlum darajada zich tuklangan, baʼzan silliq. Yon barglari keng qanotsimon, uzunligi 1 sm, quloqchaga oʻxshab chiqib turgan, tashqi tomondan tuklangan, cheti bezli tukchalar bilan qoplangan.

Gullari dag'al gul bandida 1-(2-3) joylashgan bo'lib, qalinligi 1-1,5 mm va uzunligi 10-25-(30) mm. Gulyon barglari terisimon, tuxumsimon yoki cho'zinchoq tuxumsimon, ikki yon tomoni silliq, tashqi tomondan kamroq mayda bezli tukchalir bor, uzunligi 10-15 mm, uzoq vaqt saqlanib turadi. Kosachabarglari uzunligi 10-25-(30) mm, uchburchaksimon, uzun uchli, yuqorigi qismi ozroq qoshiqsimon, ikki tomondan, ayniqsa ichki qismi tuklangan, mevasi etilganda to'kilmaydi, yuqoriga chiqib turgan. Gultojibarglari oq yoki pushti rangda (5)-8-9 sm. Gipantiy to'q qizil, etli, cho'zinchoq-tuxumsimon, butilkasimon, uzunligi taxminan 2-3 sm, bezli dag'al tuklar bilan qoplangan yoki tuksiz, silliq yoki mayin tukli. Iyun-avgust oyida gullab, mevalari iyul-sentyabrda mevalari pishib yetiladi.



**O'sish joyi va tarqalishi:** Toshkent, Farg'ona, Samarqand, Qashqadaryo va Surxandaryo viloyatlarida tog' qiyaliklarining o'rta va yuqori mintaqalarida uchraydi.

**Kimyoviy tarkibi:** Na'matakning ko'pgina turlarini mevalari C, B, P vitaminlariga boy bo'lganligi uchun ularni tibbiyotda qo'llash o'xshash bo'ladi.

**Tibbiyotda qo'llanilishi:** Xalq tabobatida na'matak mevalarining qaynatma va damlamasi biriktiruvchi vosita sifatida qonli ich ketishi, qaltiroqli isitma va ichak infeksiyalarida, milk kasalliklarida og'iz chayish uchun qo'llaniladi. Ildizining qaynatma va damlamasi oshqozon va jigar kasalliklarida qo'llaniladi. Bundan tashqari, u

organizmda vitamin yetishmasligi, kam quvvatlik, anemiya bilan bogʻliq kasalliklarni oldini olish va davolashda qoʻllaniladi. Pishib yetilgan mevalar tarkibida C, B<sub>2</sub>, P, E, K<sub>1</sub> vitaminlari, karotin, organik kislatalar, shakar, pektin va boshqa moddalar, gullarida esa efir moylari mavjud.

Naʼmatak dengiz satxidan 900 dan 1800 metr gacha balandliklarda keng tarqalgan. *Rosa canina* (itburun) asosan Pskom daryosining quyi oqimida va uning asosiy irmoqlari Kumushkonsoy, Zarkentsoyda, *Rosa fedtschenkoana* Oygaining daryosi boʻyida archazorlarda, shagʻalli-toshli qoyalarda, shuningdek, Suqoqsoyda uchraydi. Naʼmatak (itburun) mevalarining mumkin boʻlgan yillik yigʻish miqdori 24 tonna va Fedchenko naʼmatagi uchun 109,50 tonnani tashkil etadi.

Vitaminlarga boy naʼmatak mevalarini avgust-sentyabr oylarida yigʻiladi. Mevalari toʻq sariq-qizil yoki qizil rangda boʻladi. Mevalarini yigʻishni sovuq tushmasdan amalga oshiriladi, chunki muzlab erigan mevadagi C vitamini kamayib ketadi, bundan tashqari muzlab erigan mevalar yaroqsiz hisoblanadi.

**Xom ashyoni yigʻish va uning sifati:** Naʼmatak mevalari savatlarda yoki chelaklarda yigʻiladi. Idishlarda yangi terilgan mevalar 2-3 kundan ortiq saqlansa, vitamin tarkibini buzilishi, ularni mogʻorlanishiga olib keladi. Shuning uchun yigʻib olingan mevalar quritish uchun 2-3 sm qalinlikda toʻshama, metal setkalar ustiga va boshqa issiq shamol aylanadigan joylarga yoyib qoʻyiladi. Xom ashyoni tez-tez aralashtirib turish kerak. Biroq bunday quritish uzoq vaqt davom etishi oqibatida mevalar tarkibidagi C vitamini nisbatan kamayadi. Shu sababli mevalarni turli xildagi quritgichlarda (konveerli, kamera va boshqa kaloriferali isitish) mevalarni 80-90<sup>0</sup>C da quritish foydali natija beradi. Bunday haroratda mevalar tez qurib, C vitaminini oʻzida saqlaydi. Yuqori vitaminli quruq naʼmatak mevalari XI DF ga binoan quyidagi talablarga javob berishi kerak: naʼmatak soxta mevalari shoxlangan, etli, pishganda suvli guloʻrnidan iborat boʻlib, uning ichida koʻp sonli meva-yongʻoqchalar boʻladi.

Har xil shakldagi quritilgan mevalar: sharsimon, tuxumsimon yoki kuchli choʻzilgan ovalsimon, urchiqsimon boʻlib, uzunligi 0,7 dan 3 sm gacha, diametri 0,6 dan 1,7 sm gacha. Mevasini rangi toʻq sariq-qizildan yoki qoʻngʻirsimon-qizil ranggacha. Kam sonli mevalarda kosachabarglar saqlanadi, yuqoriga qaragan, baʼzan yumuq boʻladi. Kosachabarglardan tozalanganda mevada kichik teshiklar qoladi.



Quritilgan mevalarning devorlari qattiq, mo'rt, tashqi yuzasi biroz burishgan. Mevaning ichki yuzasida uzun qattiq tuklar ko'p joylashgan; kalta tuklar yong'oqchani o'tkirlashgan uchida joylashgan. Raqamli ko'ratkichlar: askorbin kislotasi 1% kam bo'lmashligi, namligi 14%, umumiy kul miqdori 3%, na'matak qismlari (poya, novda, kosachabarg, mevabandlari bor mevalar) 1%, qoraygan, kuygan, zararkunandalar bilan shikastlangan mevalar 1%, maydalangan meva qismlari, shu jumladan, diametri 3 mm bo'lgan teshikli elakdan o'tadigan yong'oqchalar 3%, organik aralashmalar 0,5%, mineral aralashmalar 0,5 % dan ko'p bo'lmashligi kerak.

Na'matakning past vitaminli turlarini yig'ish va quritish. O'simlik mevalari qizarib pishishni boshlagandan to sovuq tushgunicha qadar yig'iladi. Ularni yig'ish davri mayda teriladigan na'mataniqiga qaraganda uzoq bo'lganligi uchun quruq issiq ob-havo kunlari past vitaminli na'matak mevalarini ko'proq havoda quritish mumkin. Na'matak mevalarini to'liq qizarmaguncha yig'ilmaydi, chunki pishmagan mevalarda organik kislotalar va karotinoidlar miqdori kam bo'ladi.

### Ro'yan – *Rubia tinctorum* L.

(Марена красильная)




#### O'simlik tavsifi:

Rubiaceae oilasiga mansub ko'p yillik o't o'simlik, balandligi 2 m gacha. Asosiy ildizi kuchli rivojlangan. Undan qalin o'rmalab o'suvchi ildizpoyalar tarqaladi. Ildizlar va ildizpoyalar qizg'ish jigarrang qatlam bo'lib ko'chadigan po'stloq bilan qoplangan. Poyasi ingichka, chirmashib o'suvchi, kuchli shoxlangan, to'rt qirrali, tikanli dag'alsimon. Barglari och yashil rangli, teskari tuxumsimon, zich, ostki qismi dag'al tikanli, qarama-qarshi, uzunligi 9 sm gacha, eni 3 sm gacha, 4-6 dan halqalarda to'plangan. Gullari mayda, sarg'ish-yashil, diametri 1,5 sm gacha, poyalar va novdalar uchlarida kam gulli yarim soyabonlarda to'plangan. Mevasi uzunligi 5 mm gacha bo'lgan suvli qora danak, uning sharbati deyarli o'chmaydigan to'q qizil dog'larni qoldiradi. Urug'lari va vegetativ ravishda ko'payadi. Iyun oyida gullaydi, mevalari iyul-avgust oylarida yetiladi.

### **O'sish joyi va tarqalishi:**

U ariqlar bo'yida, dalalarda, bog'larda o'sadi va tog'larning o'rtamintaqalarida toshli to'kilmalarda uchraydi. O'zbekiston hududida u Toshkent, Samarqand, Farg'ona, Andijon va Surxondaryo viloyatlarida o'sadi. Umumiy tarqalishi. Markaziy Osiyo, MDHning Yevropa qismi, Kichik Osiyo, Eron, Afg'oniston.



**Xom ashyoni yig'ish va uning sifati:** Tibbiy maqsadlarda ro'yan ildizi va ildizpoyalaridan foydalaniladi. Xom ashyo erta bahorda, martdan aprel oyining birinchi yarmigacha yoki vegetatsiya oxirida – avgust oyining boshidan to sovuqgacha yig'ib olinadi. Ular belkurak bilan qazib olinadi, tuproqdan tozalanadi, o'simlikning er usti qismi kesib tashlanadi. Keyin yuvilmagan ildizlar va ildizpoyalar quritish uchun qo'yiladi. Soyada ayvon ostida yoki quritgichda 45°C da quritiladi. Xom ashyoning yaroqlilik muddati 2 yil. Tabiiy zis o'sish maydonlarining kamayib ketmasligi uchun ulardan har 3 yilda bir marta xom ashyo yig'ish tavsiya etiladi. Bog'larda va uzumzorlarda ro'yandan hosilni yig'ish har yili qator oralari birinchi marta shudgorlanganda (fevral – aprel oyining boshlarida, shuningdek, noyabrda) amalga oshirilishi kerak.

**Kimyoviy tarkibi:** O'simlikning ildizpoyalari tarkibida limon, olma va vino kabi organik kislotalar mavjud. Triterpenoidlar, C vitamini, antraxinonlar 2,68%: alizarin, rubiadin, purpurin, lutsidin, psevdopurpurin, iridoidlar: asperulozid va boshqalar. Yer usti qismida uglevodlar va ular bilan bog'liq birikmalar: pektin, iridoidlar: asperulozid 0,16%, dezatsetilasperulozid, shuningdek, kumarinlar, flavonoidlar: rutin, giperozid.

**Tibbiyotda qo'llanilishi:** O'simlikning dorivor xususiyatlari ham qadim zamonlardan beri ma'lum bo'lgan. Ibn Sino quymuch nervi, falaj, to'qima sezgirligini yo'qotganda suvga asalni eritib, uning ildizidan ichimlik tayyorlashni tavsiya qilgan. Meva, shuningdek, taloqning kattalashishi uchun sirka va asal bilan ichimlik tayyorlash uchun ham ishlatilgan. «Bu jigar va taloqni tozalaydi va ulardagi

to'siqlarni ochadi», deb yozgan Ibn Sino. Ekstrakt ko'rinishidagi ro'yan ildizi, shuningdek, o'simlikning kukuni va boshqa preparatlari asosan kalsiy va magniy fosfatlari va oksalatlarini o'z ichiga olgan buyrak va siydik pufagidagi toshlarni yumshatadi va tushiradi. Ro'yanning galen shakllari ham og'riq qoldiruvchi va siydik haydovchi ta'sirga ega. Bundan tashqari, o'simlik preparatlari tonusni pasaytiradi, buyrak jomi va siydik chiqarish yo'llari mushaklarining peristaltik qisqarishini kuchaytiradi, shu bilan toshlarning surilishiga va ularning buyraklar va siydik yo'llaridan chiqarilishiga yordam beradi. Ildizlar, ildizpoyalar. Ilmiy tibbiyotda quruq ekstrakt og'riq qoldiruvchi, siydik haydovchi vosita bo'lib, tarkibida kalsiy va magniyaning fosfatlari va oksalatlarini o'z ichiga olgan siydik toshlarini yumshatishga, siydik tosh kasallik holatida spazmlarni va mayda toshlarning chiqishini kamaytiradi; «Sistenal» kompleks preparatning bir qismidir. Gomeopatiyada kukun, nastoykasi – amenoreya, taloq kasalliklari bilan kechadigan kamqonlikda qo'llaniladi. Tibet tibbiyotida (murakkab retseptlar tarkibida) – angina va difteriya uchun; hind – amenoreya va anuriya bilan; koreys (ko'pkomponentli qaynatma tarkibida) – yurak klapan yetishmovchiligida ishlatiladi. Xalq tabobatida kukun, damlama, qaynatma, ekstrakt – buyrak, siydik yo'llari, jigar, taloq, nafas olish tizimi kasalliklari, ichak sili, suyak sili, raxit, osteomielit, kam qonli amenoreya, assit, dizenteriya, skrofulyoz, podagra, ishias; tashqi tomondan – yaralar, dermatomikoz, teri dog'larida foydalaniladi. Qaynatma tashqi tomondan – teri saratonida ishlatiladi. Turkmanistonda – xotira buzilishida qo'llaniladi. Poyalar. Turkmanistonda malham (tuxum sarig'i va achchiqtosh bilan aralashtiriladi) tashqi tomondan – ko'karishlar, chiqiqlar, sinishlarda ishlatiladi.

**Dori shakllari, qabul qilish usuli va dozalari:** Quruq ro'yan ekstrakti (*Extractum Rubiae tinctoriaesiccum*) 0,25 g tabletkalarda mavjud. Kuniga 3 marta 2-3 tabletkadan ichiladi. Tabletkalar oldin 1/2 stakan iliq suvda eritiladi. Davolash kursi 20-30 kun. Agar kerak bo'lsa, davolanish kursi 4-6 haftadan so'ng takrorlanadi. Ro'yan ekstrakti glomerulonefrit, buyrak yetishmovchiligi va oshqozon yarasida mumkin emas. Sistenal – 0,01 g ro'yann nastoykasi, magniy salitsilat 0,15 g, efir moylari 6,15 g, etil spirti 0,8 g, 10 g gacha zaytun moyi damlamasini o'z ichiga olgan murakkab preparat. 3-4 tomchi shakarga tomizilib, ovqatdan 30 daqiqa oldin; sanchiqlarda bir marta 20 tomchidan ichiladi. Sanchiqlar tez-tez qaytalanib turuvchi bemorlarga kuniga 3 marta 10 tomchidan buyuriladi. Preparatni qabul qilish bilan bog'liq me'da

qaynashi ro‘y bersa ovqat bilan yoki ovqatdan keyin ichiladi. 10 ml shisha idishlarda chiqariladi. Sistenal glomerulonefrit, buyrak yetishmovchiligi va oshqozon yarasida mumkin emas. Ro‘yan ildizi va ildizpoyalarning damlamasi (bolgarcha retsepti): 1 choy qoshiq maydalangan xom ashyoga 200 ml sovuq suv quyiladi, 8 soat davomida damlanadi, so‘ng ekstrakt suzgichdan o‘tkaziladi va xom ashyoga yana 200 ml qaynoq suv quyiladi va 15 daqiqadan so‘ng yana suzgichdan o‘tkaziladi. Ikkala damlama aralashiriladi va kun davomida bir necha dozada ichiladi. Ro‘yan ildizi va ildizpoyalarning kukuni: kuniga 3 mahal 1 g dan ozroq suv bilan ichiladi.

**Qo‘llash mumkin bo‘lmagan holatlar va yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan nojo‘ya ta’sirlar:** o‘simlik preparatlarining haddan tashqari dozasi og‘riq va surunkali yallig‘lanish kasalliklarini kuchayishiga olib kelishi mumkin.

**Boshqa sohalarda qo‘llash:** O‘tgan davrlarda ham qadimgi yunon, rimlik, misrlik va fors hunarmandlari ro‘yan ildizini juda qadrlashgan. Undan turg‘un qizil bo‘yoq olingan. Qadimgi davrlarda ro‘yan jo‘n, ipak va paxta matolarini bo‘yash uchun ishlatilgan yagona o‘simlik bo‘lgan. Ro‘yan ildizi zamonaviy davrda yaxshi ma‘lum bo‘lgan. Unga ayniqsa to‘qimachilikda qiziqish bildirishgan. Veterinariya tibbiyotida ekstrakti, quruq ekstrakti – siydik tosh kasallikda ishlatiladi. Ro‘yan qadimgi zamonlardan beri jun va terini bo‘yash uchun ishlatilgan. Hozirgi vaqtda u gilamchilikda ishlatiladi. Undan olingan bo‘yoqlarning rangi pushti rangdan binafsha ranggacha. Qoramol uchun ozuqa (pichan ichida); ko‘p miqdorda iste‘mol qilinganda sigir suti qizarib ketadi. Asal beruvchi o‘simlik. Bo‘yoq ishlab chiqarish uchun G‘arbiy Yevropaning ko‘plab mamlakatlarida va Osiyodagi ba‘zi mamlakatlarda yetishtiriladi.

**Qishloq xo‘jaligi texnologiyasini yetishtirish elementlari:** Ro‘yan maysalari bahorda tez sovuq urishi mumkin, shuning uchun ekish vaqtini yosh o‘simliklar sovuq ostida qolmasligi uchun tanlanishi kerak. Qor kam yog‘adigan qishda, hatto  $-15^{\circ}\text{C}$  gacha bo‘lgan haroratda ham muzlashishi mumkin, shuning uchun u himoyalangan hududlarga joylashtiriladi va qishda qorni ushlab turish amalga oshiriladi. Madaniylashtirilganda u chuqur haydaladigan qatlamli yengil va o‘rta g‘ovak tuproqlarda yaxshi o‘sadi. Ro‘yan uchun maydon 30 sm chuqurlikda haydaladi, 1 m<sup>2</sup> uchun 2-3 kg go‘ng yoki kompost, 4-5 g azot, 6 g fosfor va kaliy kiritiladi. Urug‘lar tuproq harorati  $6-8^{\circ}\text{C}$  bo‘lganda ekiladi. Qatorlar orasi 45-60 sm. Urug‘lar 6-7 sm chuqurlikka

ekiladi. Ular 8-10<sup>0</sup>C haroratda unib chiqadi. 1000 dona urug'ning massasi 30-31 g ni tashkil qiladi. Ildizpoyalar bilan ko'paytirilganda chuqurliklar kamida 8-10 sm chuqurliklarda egatlar olinadi. Ildizpoyalar 6-8 sm uzunlikda bir-biridan 10-15 sm masofada ekilib, darrov ko'miladi va tuproq yuzasi tekislanadi. Vegetatsiya davrida 1-2 marta o'toq qilinadi. Kuzda ekinlar chopiq qilinadi. 2-yilda erta bahorda, qurigan o'simlik qismlari olib tashlanadi va tuproqqa 1m<sup>2</sup> uchun azot-fosforli o'g'itlar 3 g miqdorida beriladi. Ro'yandan sotish uchun mahsulotlar o'simlik hayotining 2-3-yillarida olinadi. Ildizlar va ildizpoyalar kuzning oxirida (ularning qayta o'sishi tugaganidan keyin) yoki bahorning boshida (ularning o'sishi boshlanishidan oldin) yig'ib olinadi. Bunday holda, butun o'simlikni emas, balki uning bir qismini yig'ish mumkin, bu esa ildizpoyalarning uchdan bir qismini qoldiradi. Bu kelgusi 1-2 yil ichida o'sha joydan yana bir marta xom ashyo yig'ish imkonini beradi. Umuman olganda, 2-3 yil ichida 1 m<sup>2</sup> egatlardan 0,3-0,4 kg quruq xom ashyosi olish mumkin. Ro'yan o'simligi lalmi yerlarda yetishtirilishi mumkin, ammo sug'orilganda uning hosildorligi 2-3 s/ga ko'payadi.

**Cherkez – *Xylosalsola richteri* (Moq.) Akhani & Roalson**  
(Солянка Рихтера)




**O'simlikni tavsifi:**

Cherkez o'simligi –  
Amaranthaceae oilasiga  
mansub baland bo'yi buta yoki  
daraxt. Po'stlog'i ochiq  
kulrang va yoyilgan novdalari  
qaymoqsimon rangda. Barglari  
silindrsimon, ketma-ket,  
uzunligi 40-80 mm, deyarli  
ipsimon, uchi qisqa  
o'tkirlashgan, poyaga

tutashgan joyi kengaygan. Gullari oddiy besh bargli gulqo'rg'onidan iborat, to'g'ri, asosan yuqoridagi barglarning burchaklarida joylashgan, tuxumsimon gulyonbarglardan biroz uzunroq, gulqo'rg'on barglari mevada yirik qanotli, dastlab pushti rangda, keyin rangsiz bo'ladi. Mevasi bir urug'li, yumaloq o'troq, qanotchali yong'oqcha. Maydan oktyabrgacha gullab, iyul-avgust oylarida mevalaydi.

### **O'sish joyi va tarqalishi:**

Cherkez o'simligi Buxoro viloyati va Qoraqalpog'istonning cho'l qumlarida o'sadi, shuningdek, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlari hududida ham uchraydi. Alohida tuplari ko'pincha saksovul bilan hamda uchraydi. Tez o'sishi tufayli



juda uzun ildizlari va yumshoq qumlarda mukammal moslashuvchanligi tufayli o'simlikdan ixota sifatida qum ko'chkilariga qarshi qo'llaniladi.

**Kimyoviy tarkibi va qo'llanilishi:** O'simlik birinchi marta

P.S.Massagetov tomonidan terilgan va tibbiyot uchun muhim bo'lgan alkaloidlarni o'z ichiga olganligi uchun tavsiya etilgan. 1934 yilda akademik Orexov va Proskurnina cherkez o'simligidan salsolidin va salsolin alkaloidlarini ajratib olishgan. O'simlikning yashil qismlarida ularning miqdori taxminan 0,3% ni tashkil etadi. Izoxinolin xossalari tuzilishi jihatidan ba'zi kaktuslarning alkaloidlariga o'xshash. Salsolidin va



salsolin preparatlari bir qator klinikalarda gipertonziyani davolashda sinovdan o'tgan va juda samarali ekanligi isbotlangan. Salsolini bitta dozasini (0,03 og'iz orqali yoki 0,01 g teri orqali) qabul qilish bilan qon bosimi simob ustunini 10-25 mm ga pasaygan. Qon bosimi pasayishi bilan 20-30 minut vaqt davomida bir vaqtni o'zida bemorlarni bosh og'rig'i, bosh aylanishi, ko'krak qafasining qisishi, burundan qon ketish va boshqa bezovta qilayotgan belgilari yo'qoladi. Salsolin asab holatini yaxshilash, uyquni yuzaga keltiradi va ish qobiliyatini oshiradi.

**Xom ashyoni tayyorlash va uning sifati:** O'simlikni yig'ish uchun eng qulay vaqt gullashning oxiri va mevalash davri sentyabr, oktyabr, noyabr oylarida yig'ish lozim. Gullar yoki mevalarni yig'ishda poya va novdalarini sindirmasdan yig'ish kerak. Bu esa o'simlikni zaxirasini saqlab qolish va toza xom ashyo olish imkonini beradi.

Yig'ilgan xom ashyoni darhol quritish kerak. Hududning iqlim sharoitidan kelib chiqib, xom ashyo yig'ib olingan maydonda ochiq joyga yoyilib (ammo yomg'irli ob-havo sharoitida emas), to'shamalar ustida (zambil, sochiqlar) yoki toza qumlar ustida quritish mumkin. Qum ustida quritish juda tez kechadi va xom ashyo alkaloidlari to'liq saqlangan holda quriydi. Quritilgandan so'ng o'simlik silkitib olinadi, qum zarralaridan tozalab tashlanadi. Shuni yodda tutish kerakki, cherkez o'simligi o'sadigan joylarda ko'pincha boshha turlari uchraydi. Ulardan eng yaqini (*Salsola paletzkiana*) bu qora cherkez deb ataladi. O'simliklar tashqi tomondan bir-biriga juda o'xshash bo'lib, ularni quyidagi belgilaridan ajratish mumkun. Cherkezni (*Salsolarichteri*) barglari dag'al, *Salsola paletzkiana* ni barglari silliq, bu esa barglar lablarga tekkizilganda aniq bilinadi. Cherkezni yangi terilgan meva va barglari oq qog'oz yoki mato ustida ezilganida qo'ng'ir dog' qoldiradi, *Salsola paletzkiana* esa tezda qorayib ketadi. Ikkala turning guli va mevasi ikkita gulyonbargga ega: cherkezning gulyonbarglari shoxsimon o'simtasiga ega emas, qora cherkezni esa ular shoxsimon o'simtali. Cherkezning mevasi yuqori qismida tumtoq chetli qisqa kallaksimon grafin shaklida gul qoldig'iga ega. Mevaning xuddi shu qismi qora cherkezda 5 ta uchli bo'lakchalardan iborat. Cherkezning mevasi ostki qismida (novda yoki bargga birikkan joyi) ikkita do'ngchasi bor; qora cherkez mevalari ham shu do'ngchalar mavjud, ammo yirik shoxlarga (1 sm uzunlikda) ega. Cherkezning yosh novdalari, barglari va gullari bezli tukchalar bilan zich qoplangan, lekin qora cherkezda deyarli bo'lmaydi yoki o'simlikning barcha organlari silliq. Xom ashyo sifatiga qo'yiladigan asosiy talablar. Tayyor yaxshi qurigan xom ashyosi och pushti rangda, elpig'ichsimon joylashgan yupqa pardalar bilan o'ralgan, bir urug'li mevalardan iborat. Meva hidsiz, ta'mi achchiq-sho'r bo'lishi kerak. Xom ashyoning umumiy massasida ular yakka holda va ingichka novdalarda o'troq holda bo'lishi mumkin. Xom ashyoning namligi 10% dan oshmasligi kerak.

**Tibbiyotda qo'llanilishi:** O'shbu o'simlikdan tayyorlangan preparatlar gipotenziv, tinchlantiruvchi, tomir kengaytiruvchi va og'riq qoldiruvchi xususiyatlarga ega. Salsolin va salsolidin gipertoniyada, bosh og'rig'i va bosh miya tomirlarining spazmini davolash uchun ishlatiladi. Salsolin tinchlantiruvchi ta'sirga ega. Salsolidin ham shu ta'sirga ega, ammo salsolinga qaraganda 3 marta kuchsizroq. Yaqindan beri gipertoniyani davolashda salsolin va salsolidin moddalarini 70% li spirtga 1/5 nisbatda nastoykasidan qon bosimining oshishi, bosh

ogʻrigʻi, bosh aylanishi, asab tufayli vujudga kelgan yurak sohasidagi ogʻriqlarni davolashda ishlatilmoqda.

**Qoʻllash mumkin boʻlmagan holatlar:** Qon aylanishining buzilishi, buyrak va jigar kasalliklarida. Xalq retseptlari. Tinchlantiruvchi xususiyatlari tufayli cherkez koʻplab kasalliklarni davolash uchun xalq retseptlarida qoʻllaniladi. Qaynatmasining retsepti. 20 gramm xom ashyoni 200 ml suvda solib, 5 daqiqa qaynatiladi. 1 osh qoshiqdan kuniga 3 mahal ichiladi. Nastoykasining retsepti. 1 osh qoshiq maydalangan meva 100 ml aroq bilan aralashtirilib, 10 kun davomida saqlanadi. Kuniga 3 mahal 60 tomchidan ichiladi. Shifokor nazorati ostida olib borish kerak.

**Mavrak** – *Salvia sclarea* L.  
(Шалфей мускатный)



**Oʻsimlik tavsifi:** Mavrak oʻsimligi – Lamiaceae oilasiga mansub ikki yillik yoki koʻp yillik oʻt oʻsimlik, boʻyi 100 sm gacha. Poyasi uncha koʻp boʻlmagan, 4 qirrali, odatda, qizgʻish-binafsha, yuqori qismi bezli tukchalar bilan qoplangan. Barglari qarama-qarshi joylashgan, bandli, burishgan, tuxumsimon yoki yurak-tuxumsimon, chetlari tishchali, uzunligi 7-20 sm. Gulyonbarg pardali yorqin-binafsha yoki ochpushti, yumaloq-tuxumsimon, ingichka uchli, ichiga botgan. Gullari uzunligi 20-25 mm, yolgʻon halqalarda 2-6 tadan joylashgan,

toʻpgullari roʻvakdan iborat, uzunligi 40 sm gacha. Barcha toʻpgullari koʻp sonli bezli tukchalar hisobiga yopishqoq. Kosachabarglari qoʻngʻiroqsimon, tojibarglari ikki labli kosachabargdan 2-3 marta uzunroq, pushtirang, ochbinafsha yoki oq rangda boʻladi. Changchilari 2 ta. Tugunchasi yuqorigi, 4 ta boʻlakka boʻlingan. Mevasi senobiy, qoʻngʻirsimon-jigarrang. Iyun-iyul oylarida gullab, avgust-sentyabr oylari mevalaydi. Tibbiyotda yer usti qismi gullagan vaqtida foydalaniladi (oʻti).



### **O'sish joyi va tarqalishi:**

Toshkent, Andijon,  
Farg'ona, Jizzax,  
Samarqand, Qashqadaryo  
va Surxondaryo  
viloyatlarining pastki va  
o'rta tog' mintaqalarida  
uchraydi.


### **Kimyoviy tarkibi:**

Yangi terilgan to'pgullari  
tarkibida 0,24-1,1% efir  
moyi, murakkab  
monoterpenoid linalilatsetat (45-70%), l-linalool (10-15%) va  
boshqalar, mirsen, seskviterpenoid sedrenlar, nerolidol va boshqalar  
mavjud. Undan tashqari efir moyi tarkibini diterpenoid sklareol tashkil  
etadi.

**Xom ashyolarni yig'ish va uning sifati:** Dorivor mavrakka  
bo'lgan talablar bilan bir xil.

**Mavrakni tibbiyotda qo'llanilishi:** Mavrakning gullagan  
vaqtida efir moyiga boy yer usti qismini tibbiyotda vanna va dokani  
ho'llab qo'yish sifatida poliartrit, osteomielit, shakli buziluvchi  
artrozda, trofik yaralarida qo'llaniladi. Efir moyi olingandan so'ng  
qolgan xom ashyo massasini terapevtik revmatik vannalar uchun  
ishlatiladi. Mavrak antibakterial xususiyatiga ega. Ildizini tarkibidagi  
kumarinlar o'simtalarga qarshi ta'sirga ega. Klinik tekshiruvlar  
natijasiga ko'ra, psoriazni davolashda 5–20% ekstraktini saqlovchi  
mavrak malhami samarali natija bergan. Bundan tashqari, mavrakdan  
«Salmus» (mavrakning konsentrati) preparati olinib, periferik asab  
sistemi kasalliklarida (polinevrit, radikulit, lyumbago), nevrasteniya,  
astenik sindromda, bo'g'im kasalliklarida balneologik vosita sifatida  
qo'llaniladi (poliartrit, nofaol revmatik artrit formalarida va b.).

**Xalq tabobatida qo'llanilishi:** Mavrak xalq tabobatidasiydik  
toshi kasalligida, revmatizm, taxikardiya kasalliklarida foydalaniladi,  
yer utsi qismining qaynatmasi sut bilan yutalga qarshi, shuningdek,  
xushbo'y va ovqat hazm qilishini yaxshilovchi vosita sifatida  
qo'llaniladi. Teri kasalliklarida yog'i yoki malhami tashqi tomondan  
massaj qilib ishlatiladi. Husnbuzar, yiringli kasalliklar, qazg'oq, soch  
to'kilishida, yuz va bosh yog'larini yo'qotishda qo'llaniladi.



**Gulning damlamasi:** 1 stakan qaynagan suvga 1 osh qoshiq guli solinib, sovuguncha damlanadi, 1/3 stakandan ichiladi. Ammo ko‘pincha u boshqa o‘simliklar bilan birga – manjetka, verbena, rozmarin va b. barglaridan tayyorlangan yig‘malarda ishlatiladi. Damlamani tashqi tomondan qo‘llash uchun ko‘proq konsentrlangan eritmasini (1 stakan qaynagan suvga 2 osh qoshiq) ishlatish mumkin. Tayyorlangan damlama yara-chaqalarga va yog‘li sochlarda bosh terisiga surtib ishlatiladi. Mavrak tamaki ishlab chiqarishda qimmatli tamakini xushbo‘y qilishda, oziq ovqat sanoatida pishloq va choylarga xushbo‘y hid berishda ishlatiladi. Mavrakning efir moylaridan qandolatchilikda ham qo‘llaniladi.

**Qo‘llash mumkin bo‘lmagan holatlar:** Onkologik kasalliklarda, mastopatiyada mumkin emas. Homiladorlik vaqtida va spirtli ichimliklar bilan bir vaqtda tavsiya etilmaydi, bunda ularning ta‘sirini kuchayadi. Bundan tashqari mavrak efir moyi bo‘shashtiruvchi ta‘sirga ega, u konsentratsiyasini pasayishiga olib kelganligi uchun avtomashina haydashda ruxsat berilmaydi.

**Parfyumeriya va oziq ovqat sanoatida ishlatilishi:** Parfyumeriya sohasida yangi terib olingan to‘pgullaridan olingan efir moylari sklareol bilan birgalikda hidni mustahkamlovchi sifatida ishlatiladi; dorilar ishlab chiqarishda aromatizator sifatida foydalaniladi. Moyi yallig‘lanishga qarshi, antimikotik, antifungol, antibakterial va i siydik haydovchi ta‘sirga ega. Efir moyi va sklareol oziq-ovqat sanoatida meva essensiyalarni ishlab chiqarishda foydalaniladi; kosmetik mahulotlar, odekolon va atirlar ishlab chiqarganda fiksator o‘rnini (ambra, muskus) bosuvchi vosita sifatida qo‘llaniladi. Mavrak aromaterapiyada omalashib bormoqda. Uning efir moyining virusli orto-, paramiksoviruslarga, shu o‘rinda A va B grippga qarshi ta‘siri bo‘yicha ham ma‘lumotlar bor. Ingalyasiya tarzida ishlatish eng samarali hisoblanadi. Moyini yostiqa, kaft nurining bo‘g‘imiga suriladi yoki xushbo‘ychiroq sifatida foydalaniladi. Bu tinchlantiruvchi, og‘riq qoldiruvchi ta‘sir ko‘rsatadi. Mavsumiy tushkunlikda surunkali charchashda, asabiylashishda, stressda, xavotir va qo‘rquvda kayfiyatni ko‘tarish uchun yaxshi foyda beradi. Antioksidant, gipotenziv va o‘t haydovchi ta‘siri ham qayd etilgan. Mavrak hidi ayollarda gormonal buzilishlar bilan bog‘liq migren va bosh og‘rig‘ini yaxshilaydi. Mavrak moyi, aynan, bergamot, kardamon, ladannik, greypfrut, jasmin, kashnich, lavanda, pushti geran, sandal, archa va ladan moylari bilan yaxshi natija beradi.

**Qushqo'nmas – *Silybum marianum* (L.) Gaertn.**  
(Расторопша пятнистая)



**O'simlik tavsifi:**

Qushqo'nmas Asteraceae oilasiga kiruvchi bir yoki ikki yillik o'simlik. Balandligi 30-60 sm ga etadi. Poyasi baquvvat, tik turuvchi, kam shoxlangan, chiziq-chizikli, silliq yoki ikkinchi yili hosil bo'ladigan biroz o'rgimchaksimon tuklangan. To'pbargining ildizbo'g'zi

barglari yirik (uzunligi 80 sm gacha va eni 30 sm gacha) cho'zichoq-

ovalsimon, kuchli burishgan; poya barglari ketma-ket joylashgan, terisimon, oq ko'ndalang chizikli yaltiroq, chetlari va ostki tomondan tomirlari bo'ylab sarg'ish tikanlari bor. Gullari yorqin pushti-binafsha rang yoki qizil rang bo'lib, yirik yakka sharsimon savatchalarda to'plangan. O'rama barglari




tikanli. Savatchadagi barcha gullari naysimon shaklda, ikki jinsli. Mevasi oq dog'li, popukli pistacha, usti burishgan, uzunligi 5 mm. May avgust oylari gullaydi. Mevalari sentyabr-oktyabr oylarida pishadi.

**O'sish joyi va tarqalishi:** G'arbiy va Markaziy Yevropada, Rossiya va Ukrainaning janubiy viloyatlarida, G'arbiy Sibirda, shuningdek, Amerika va Osiyoda tarqalgan. O'zbekistonda Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida uchraydi.

## Xom ashyoni yig'ish va uning sifati:

Dorivor maqsadlarda pishgan quritilgan mevalari, shuningdek, urug'lari va ildizlari yig'ib olinadi. Urug'lari avgust-sentyabr oylarida, savatchalarining o'rama barglari quriganda yig'ib olinadi. Yig'im ishlari erta tongda, gullari gullashidan oldin boshlanadi, quritiladi va xom ashyoni havo yaxshi aylandigan xonalarda 1 yil davomida saqlanadi. Ildizlari kuzda qazib olinadi, yuviladi, quyoshda yoki 40-50<sup>0</sup>C haroratda quritiladi.



**Kimyoviy tarkibi:** Asosiy faol moddasi tabiatda kamdan-kam uchraydigan biologik faol modda – silimarindir (2,7%). Silimarini bu uchta izomer – silibin, silidianin va silixristin aralashmasidan tashkil topgan. Bundan tashqari, qushqo'nmas mevalari tarkibida 30% dan ortiq yog'lar va 0,1% gacha efir moylari, biogen aminlari (tiramin, gistamin), qatronlar, makroelementlar (kaliy – 9,2 mg/g, kalsiy – 16,6 mg/g, magniy – 4,2 mg/g, temir – 0,08 mg/g), mikroelementlar (bor – 22,4 mkg/g, yod – 0,09 mkg/g, marganets – 0,1 mkg/g, mis – 1,16 mkg/g, selen – 22,9 mkg/g, xrom – 0,15 mkg/g, rux – 0,71 mkg/g va boshqalar), B, A, D, E, F, K guruh vitaminlari va boshqalar bor.

**Tibbiyotda qo'llanilishi.** Qushqo'nmasdan tayyorlangan preparatlar jigarni zararsizlantirish funksiyasini kuchaytiradi, jigar to'qimalarining tiklanishiga yordam beradi, safro sekretsiyasini oshiradi, yog'larning hazm bo'lishini yaxshilaydi, siydik haydovchi, yallig'lanishga qarshi, jarohatni bitiruvchi, yaraga qarshi, kapillyarlarni mustahkamlovchi va antioksidant xususiyatlarga ega. Qushqo'nmas urug'ining moyi jarohatni bitiruvchi, kuyishga qarshi, gepatoprotektiv xususiyatlarga ega va biologik faolligi jihatidan chakanda moyidan kam emas. Qushqo'nmasning urug'lari o'tkir va surunkali gepatit, jigarning sirrozi va toksik-metabolik shikastlanishlari (alkogol, dori vositalari, kimyoviy, oziq-ovqat), homilador ayollarning toksikozi, xoletsistit, o't pufagining yallig'lanishi va o't toshi kasalliklarini davolashda ishlatiladi. U taloq, qalqonsimon bez, qon, tuz yig'ilganda, venalarning varikoz kengayishi, qonda shakar yuqori miqdorida (qandli diabet),

ateroskleroz, shishishlar, istisqo, semirish, radikulit, bo'g'imlarda og'riq, bavosil, allergik kasalliklarda ishlatiladi. O'simlik urug'ini (urug' po'stini) iste'mol qilish oshqozon-ichak traktining sekretor va harakatlantiruvchi funksiyalarini kuchaytiradi, yog'lar va yog'da eriydigan vitaminlarni to'liq o'zlashtirilishiga yordam beradi, ich qotishni yo'qotadi, oshqozon va yo'g'on ichak shilliq qavatining yallig'lanish jarayonlarini davolaydi. Qushqo'nmasning urug'lari kimyoviy va nur terapiyasida profilaktika vositasi sifatida qo'llaniladi, shuningdek, ortiqcha ichish natijasida vujudga kelgan intoksikatsiyani yo'qotish uchun ishlatiladi. Ildizlarning damlamasi diareya, radikulit va tomir tortishishlarda siydik haydovchi vosita sifatida qabul qilinadi. Qushqo'nmasning barg sharbati ich qotishi, yo'g'on ichak va oshqozon shilliq qavatining yallig'lanishi, bo'g'imlar og'rig'ida ichiladi. Urug'larning qaynatmasi va nastoykasi venalarning varikoz kengayishida ichiladi. Tashqi tomondan urug'lar qaynatmasi va kukuni, shuningdek, qushqo'nmasning yangi barglaridan tayyorlangan bo'tqasi ochiq sinishlar, yaralar, kuyishlar, yiringli jarayonlar, toshmalarni davolashda ishlatiladi. Qushqo'nmas yog'i pes, psoriaz, kallik, husnbuzar, ekzema, giperkeratoz, neyrodermatitni davolashda ishlatiladi. Qushqo'nmas ildizining qaynatmasi chayish shaklida tish og'rig'i, stomatit, gingivit, faringit uchun ishlatiladi. Eksperimental va klinik tadqiqotlar natijasida surunkali xoletsistopatiyalar va gepatitdan keyingi sindromda qushqo'nmas mevalarining tinkturalari va boshqa preparatlarini samarali terapevtik ta'siri tasdiqlangan. Qushqo'nmasning mevalaridan «Silibor» va «Silimar» tabletka shaklida preparatlari tayyorlanadi, bitta qadoqda 20 donadan 0,04 g. Qushqo'nmasdan analog preparatlari ishlab chiqariladi: Bolgariyada (Karsil), Rossiyada (Silibinin) va Germaniyada (Legalon).

**Qo'llash usullari:** Urug'lari quritilib, maydalanadi (kofemolkada). Kukuni kuniga uch marta ovqatdan yarim soat oldin 1 choy qoshig'dan ichiladi (qoshiqni to'ldirmasdan). Kukunni chaynab, keyin uni suv bilan ichish tavsiya etiladi. Davolash kursi 1 oy. 10 kunlik tanaffusdan so'ng kursni takrorlash mumkin. Zarur holatlarda preparatni bir marta 2-3 oy davomida ichish mumkin. Jigarni tiklash va tozalash uchun profilaktik vosita sifatida, ayniqsa, spirtli ichimliklarni haddan tashqari ko'p iste'mol qilganda bir yoki ikki martalik kursi tavsiya etiladi. 30 gramm maydalangan urug'lar past olovda yarim litr suvda, miqdori ikki baravar kamayguncha qaynatiladi, 10 daqiqaga tindiriladi, ikki yoki uch qavat dokadan o'tkaziladi. Har soatda bir osh qoshiqdan

yoki ovqatdan bir soat keyin kuniga 3 mahal 1 osh qoshiqdan ichiladi. Davolash kursi 1-2 oy. 50 gramm ezilgan qushqoʻnmasning urugʻlari va 500 ml aroq olinadi. Vaqti-vaqti bilan silkitib, 2 hafta saqlanadi. Kuniga 4-5 marta ovqatdan yarim soat oldin 50-100 ml suvga 20-25 tomchi solib ichiladi. Ildizlarning qaynatmasi quyidagicha tayyorlanadi: 1 stakan qaynoq suvga 1 osh qoshiq xom ashyo olinadi. Xom ashyoni yopiq sirlangan idishda suv hammomida 30 daqiqa davomida qaynatiladi, ikki yoki qavat dokadan oʻtkaziladi, siqib olingandan soʻng dastlabki hajmigacha qaynatilgan suv qoʻshiladi. Ovqatdan oldin kuniga 3 marta 1 osh qoshiqdan ichiladi. Bir choy qoshiq qushqoʻnmasning urugʻlari (yoki oʻti) 250 ml qaynoq suvga solinadi, 10-20 daqiqaga damlab qoʻyiladi va soʻng suzgichdan oʻtkaziladi. Ertalab och qoringa ovqatdan yarim soat oldin, tushlikda ovqatdan yarim soat va kechqurun yotishdan oldin issiq holda choy piyolada ichiladi. Choyi quruq kukunga qaraganda yoqimli boʻladi. Uni asal bilan ichilsa yanada yoqimli (va foydaliroq) boʻladi. Barglardan sharbat siqib olinadi. 1 litr sharbatga 50 ml miqdorda 70% li etil spirti solinadi. Sovutilgan holda saqlanadi. Ertalab 1 osh qoshiqdan och qoringa ichiladi. Ichga jigar kasalliklari, oshqozon-ichak trakti, aterosklerozda bir oy davomida ovqatdan yarim soat oldin kuniga 2 marta 1 choy qoshiqdan ichiladi. 0,5 litr har qanday oʻsimlik moyiga 5 choy qoshiq qushqoʻnmasning urugʻi qoʻshiladi va bu aralashmani suvli hammomda 10 daqiqa davomida qaynatib olinadi, shunda qushqoʻnmas urugʻining moyi eritma ichiga oʻtadi. Aralashmani elakdan oʻtkazib, sovutkichda saqlanadi. Yaralar, kuyishlar, yiringli jarayonlar, teri kasalliklari uchun tashqi tomondan foydalaniladi. Qushqoʻnmas bargidan tikanlar kesib tashlanadi, ular boʻtqa shaklida eziladi, yaralar, tiralgan va kesilgan joylarda qoʻllaniladi va doka bilan oʻrab qoʻyiladi. Zarur holatlarda bogʻlamni 2-3 kunda almashtirish kerak.

**Qoʻllash mumkin boʻlmagan holatlar:** nojoʻya taʼsirlari aniqlanmagan. Ammo qushqoʻnmas preparatlarini shifokor bilan maslahalashib qabul qilish kerak. Homiladorlik paytida preparatlarini qabul qilish tavsiya etilmaydi. Davolash paytida achchiq va yogʻli ovqatlardan hamda spirtli ichimliklardan voz kechish kerak.

**Tog‘qudusi** – *Betonica betoniciflora* (Rupr. ex O.Fedtsch. & B.Fedtsch.) Sennikov  
(Буквица олиственная)




**O‘simlik tavsifi:**

Tog‘qudusi – bu Lamiaceae oilasiga mansub 75-100 sm balandlikdagi ko‘p yillik o‘simlik. Ildizlari ingichka, poyalar to‘rt qirrali, ostki qismida uzun tukchalar bilan qoplangan, ustki qismida tukchalari tarqoq joylashgan. Barglari cho‘zinchoq-tuxumsimon, asosida

qiyalangan, yumaloq-tishsimon, uzunligi 13-15 sm va eni 4-5 sm, yuqoridagi barglari maydaroq, cheti bo‘ylab arrasimon, lansetsimon, eng yuqoridagi barglar butun, o‘troq, pastki barglari qisqa bandlarda, to‘mtoq uchli, tarqoq tuklangan, ostki qismida esa bog‘lamlar ustida uzun tukli. Gullari o‘troq, ular halqada 10-12 ta bo‘lib joylashgan, uchki qismida boshoqsimon shaklidagi to‘pgulni hosil qiladi. Halqalar bir-biriga yaqinlashgan, ba’zida faqat bitta yoki ikkita pastkilaridan turtib chiqib turadi. Gulyonbarglari lansetsimon, uzunligi 6-10 (17) mm, o‘tkirlashgan, kosachadan qisqaroq yoki unga deyarli teng, tuklangan, ba’zan qizg‘ish rangli. Kosachabarg yopishgan, kalta tukli, uzunligi 10-13 mm, 10 ta bog‘lamli va ingichka-uchburchaksimon, dag‘al tukli uchli tishchali, naychadan 2 marta qisqaroq. Gultojibarglari uzunligi 15-20 mm, to‘q qizil yoki pushti-binafsha, tashqi tomondan tarqoq tuklangan yoki mayin tukli, uning naychasi kosachabargdan ancha chiqib turadi, bukilgan joy ikki labli, yuqori lablari biroz ichiga botgan, pastki qismidagiga teng, pastkilar – uch bo‘lakli, o‘rta bo‘laklari keng tuxumsimon, yon bo‘laklar teskari tuxumsimon, o‘rtadagilardan biroz qisqaroq. Mevasi uch qirrali yong‘oqcha bo‘ylamasida egatchalari bor. Tog‘qudusi yer usti organlarining o‘ziga xos xususiyatlari quyidagilar: epidermaning hujayra devorlarining egri-bugriligi, ba’zan shodasimon yo‘g‘onlashgan, og‘izchalar ikki, kam hollarda uch yoki to‘rtta yon og‘izchali hujayralar bilan bo‘lganligi, tuklari uch xil tipda (oddiy, halqali va boshchali), efir moyi bezlari 4, 6, 8, 10, ba’zan 12 ta ajratuvchi hujayradan iborat, kosachabarglarda sklerenxima tolalarining katta guruhi mavjud. Iyun-avgust oylarida gullaydi, avgust-sentyabr

oylarida mevalaydi. Tibbiyotda gullash davrida to‘plangan o‘simlikning yer usti qismi (o‘t o‘simlik) ishlatiladi.

**O‘sish joyi va tarqalishi:** Tog‘qudusi O‘rta Osiyoning tog‘li-o‘rmonli mintaqalarida (Tiyon-Shon, Pomir-Oloy) keng tarqalgan. Tog‘qudusi daraxt-buta mintaqasi, shuningdek, baland o‘tli maysazorlar va tog‘ oldi dasht odatiy yashash joylari hisoblanadi. Daraxtlar va archa o‘rmonlari orasida o‘sadi, ba’zi joylarda katta maydonlarda tog‘lar paydo bo‘ladi, bu yerda 1 gektardan 500-600 kg o‘simlik o‘tlarini yig‘ish mumkin.



**Xom ashyoni yig‘ish va uning sifati:** O‘simlikning yuqorida joylashgan qismi (o‘t) gullash davrida yig‘ib olinadi. Xom ashyo odatdagidek yig‘ib olinadi va quritiladi.

Xom ashyo tarkibiy qismlarining nisbati quyidagicha: poyalar – 45%, barglar – 32%, to‘pgul – 23%. Xom ashyo yig‘ish har yili o‘sha maydonlarda o‘tkaziladi, chunki yig‘im-terimdan keyin tog‘qudusining er usti qismlari yaxshi tiklanadi. Biroq zaxiralarni saqlab qolish uchun ba’zi o‘simliklarni (taxminan har 10 ta o‘simlik) urug‘idan ko‘payishi uchun yig‘ish oylarida qoldirish kerak.

**Kimyoviy tarkibi:** Gullash davrida yoig‘ilgan o‘simlikda efir moyi aniqlangan. Tog‘qudusi barglari tarkibida 54 mg askorbin kislotasi va urug‘larida 42% yog‘ mavjud. Staxidrin, betonitsin va tirozin ham aniqlangan.

**Tibbiyotda qo‘llanilishi:** 70<sup>0</sup>C spirtida tayyorlangan tog‘qudusi 10% nastoykasi vena ichiga yuborilganda, shuningdek, og‘iz orqali qabul qilinganda, tajriba davomida bachadon mushaklari tonusining uzayishi va bir vaqtning o‘zida qisqarishni ko‘payishiga olib keladi. Klinik sinovlari natijasida, tog‘qudusidan tayyorlangan preparatlar tug‘ruqdan keyingi davrda bachadonni qisqarishini kuchaytiradi. Shuningdek, bachadonning ikkilamchi subinvolyusiyasi uchun ham samarali hisoblanadi.



Tog‘qudusi dorilari ta’sirida qon bosimi deyarli o‘zgarmaydi. O‘tkazilgan tajribalar asosida, tog‘qudusining 1:1 nisbatdagi 40% spirtli suyuq ekstrakti 10% damlamaga qaraganda iqtisodiy va biologik jihatdan samaraliroq dozalash shakli sifatida tavsiya etilgan. Ekstrakt klinik sinovlardan o‘tib, tibbiy amaliyotda bachadon preparatlari sifatida foydalanish uchun tasdiqlangan. Tug‘ilgandan va abortdan keyin bachadon subinvolyasiyasi, bachadonning tug‘ruqdan keyingi subinvolyusiyasini oldini olish maqsadida, shuningdek, etiologiyasi turlicha ginekologik qon ketishlarida kuniga 3-4 marta 5-7 kun ichiladi. Bundan tashqari, u nevrozlarni davolashda 10-12 kun davomida ichiladi. Veterinariya amaliyotida o‘simlik o‘tining damlamasi balg‘am ko‘chiruvchi sifatida nafas yo‘llarining yallig‘lanish kasalliklarida (bronxit va boshqalar), kardiotonik vosita sifatida jigar kasalliklari, meteorizm, siydik haydovchi va ich suruvchi sifatida ishlatiladi. Uzoq bitmaydigan yiringli yaralarda tashqi tomondan dokani ho‘llash shaklida davolashda tavsiya etiladi.

Damlama tayyorla uchun 200 ml suvga uchun 2-3 osh qoshiq ezilgan xom ashyodan solinadi. Ushbu damlamaning buzoqlarga balg‘am ko‘chiruvchi sifatida taxminiy dozasi: kuniga 3-4 marta 1-2 choy qoshiq, o‘simlik o‘t kukuni 0,5-1 g dan kuniga bir necha marta ishlatiladi.

**Dastarbosh** – *Lepidolopsis pseudoachillea* (C.Winkl.) Poljakov  
(Пижда ложнотысячелистниковая)



**O‘simlik tavsifi:**

Dastarbosh bu Asteraceae oilasiga mansub ko‘p yillik o‘t o‘simlik. Poyasi bir nechta, tik turuvchi, kuchli, qirrali, oddiy va faqat yuqori qismida qalqonchasimon shoxlangan, zich bargli, kam tuklangan, balandligi 50-100 sm. Barglari uzun ipsimon tuklar bilan birmuncha siyrak tuklangan, cho‘zinchoq-tuxumsimon, ikki karra patsimon, cho‘zinchoq ellipssimon, arrasimon tishchali bo‘lamlari

bor, ostki va oʻrta poyadagilari uzun bandli, poyaning yuqori qismida oʻtroq, kichrayadi va unchalik murakkab boʻlinmagan. Savatchalari zich qalqonchasimon toʻpgulda joylashgan. Oʻrama barglari tuxumsimon yoki deyarli sharsimon. Oʻrama barglari deyarli silliq, sargʻish, orqa va yuqori qismida yashil rangga ega, tashqi tomondagi oʻrama barglari yuqori qismida, shuningdek, ichki tomondagilarining chetlari ham yupqa pardasimon boʻladi. Chetki gullarining uzunligi ichki gullarga teng, deyarli naychasimon, 3-4 tishchali, bir tomonidan chuqur kesilgan boʻkilgan joyi boʻlib, tilsimon gullarga oʻxshaydi, urugʻchi gullari rivojlanmagan changchilarga ega, ichki gullari sariq rangli. Pistachalar asosiga qarab biroz toraygan, sal egilgan, orqa tomondan silliq, ichki qismida 4-5 ta qirrali. Toj shaklidagi juda kalta pardasimon kesilgan popukka ega. Iyun-avgust oylarida gullaydi; mevalari iyul-sentyabr oylarida yetiladi. Tibbiyotda oʻsimlik toʻpgullari ishlatiladi.


**Oʻsish joyi va tarqalishi:** Dastarbosh deyarli Oʻzbekistonning togʻoldi va togʻli qismlarida keng tarqalgan. Irmoqlar, daryolar boʻyida, soyali joylarda, oʻrta togʻ mintaqasining daraxtlar ostida uchraydi.

**Xom ashyoni yigʻish va uning sifati:** Dastarbosh toʻpgullari gullash paytida yigʻib olinadi, uning savatlari gulbandlar bilan kesib olinadi. Yigʻilgan

xom ashyo ayvon ostida yoki quritgichlarda 40°C dan yuqori boʻlmagan haroratda quritiladi. Quruq xom ashyoning chiqim massasi 22-23% ni tashkil qiladi. Xom ashyoning namligi 13% dan oshmasligi kerak.

**Kimyoviy tarkibi:** Oʻsimlik tarkibida efir moylari, 5-metil-3- (1-metilvinil) -1,4-geksadien; 2,3-dimetil-1,4-pentadien;  $\alpha$ -pinen, 1,8-sineol, evkaliptol, seksviterpenoidlar: tanatsin, taxillin, tanapsin, tanaxin, tanadin, tavulin, dezatillaurenobiolid, digidrodezatillaurenobiolid; steroidlar:  $\beta$ -sitosterin, flavonoidlar: kversetin, kversitrin mavjud.

**Tibbiyotda qoʻllanilishi:** Dastarbosh toʻpgullari damlamasi yumaloq chuvalchablarga va ayrim ichak kasalliklariga qarshi ishlatiladi. Oʻsimlikning oʻt haydovchi va fitonsid xususiyatlari aniqlangan, shu



tufayli u lyamblioz, xoletsistit va gepatitni davolashda ijobiy natijalar beradi. Dastarboshning er usti qismi ham insektitsid xususiyatga ega. Dastarbosh zaharli bo‘lib, uni hayvonlar ko‘p miqdorda iste‘mol qilsa, ularni zaharlanishiga olib keladi. Pichan tarkibidagi dastarboshning biroz aralashmasi ham sutga achchiq ta‘m beradi.

**Момоqаумоq** – *Taraxacum officinale* Wigg.  
(Одуванчик лекарственный)




**O‘simlik tavsifi:**

Momaqaymoq Asteraceae oilasiga mansub, balandligi 10-30 sm bo‘lgan ko‘p yillik o‘t o‘simlik. Ildiz tizimi o‘q ildizli. Asosiy ildiz nisbatan yo‘g‘on, odatda tik turuvchi, kam shoxlangan; ildiz bo‘g‘zi tukli, kamroq silliq. Barcha barglari to‘pbargda to‘plangan, uzunligi 10-25 sm, eni 1,5-5 sm. Gulpoyalari bir nechta.

Ular bargsiz, silliq, ichi bo‘sh. Barcha gullar tilsimon, ikki jinsli, sariq rangga ega. Ildizlari, poyalari va barglarida, odatda, oq sutli shirasi bo‘ladi. Mevalari och qo‘ng‘irrang yoki qo‘ng‘irrang pistachalar, ularning kengaygan qismi 3-4 mm uzunlikda, yuqori yarmida oddiy dag‘al tuklardan iborat popuklarga ega o‘tkir bo‘rtmachalar bilan qoplangan. Mart-iyun oylarida gullaydi; pistachalari gullash boshlanganidan taxminan bir oy o‘tgach pishadi. Yoz davomida ko‘pincha takroriy gullashi va mevalashi kuzatiladi. Tibbiyotda dorivor momaqaymoq ildizi ishlatiladi.

**O‘sinh joyi va tarqalishi:** Momaqaymoq – ko‘plab apomiktik shakllarga ega bo‘lgan juda polimorf tur. Ba‘zi mualliflar ularni mustaqil turlar deb hisoblashadi. Biroq ularning barchasi xom ashyo tayyorlashda farq qilmaydi va tibbiyotda odatdagi turi bilan bir qatorda qo‘llaniladi. Dorivor momaqaymoq respublikaning baland tog‘li va cho‘l hududlaridan tashqari deyarli barcha hududida o‘sadi. Odatda o‘simlik qoplami buzilgan jamoalarda, kuchsiz chimli tuproqlarda, ayniqsa, turar-joy yaqinida, boshoqli dalalarda, tashlab qo‘yilgan erlarda uchraydi. Bunday sharoitda u ko‘pincha katta o‘lchamdagi zich o‘sadigan maydonlarni hosil qiladi. Shudgorlanishi va mol boqilishi

sababli buzilgan oʻtloqlarda momaqaymoq unchalik koʻp uchramaydi va asosan daryo qayirlarida oʻsadi. Shuningdek, u koʻpincha yoʻl boʻylarida, yoʻl boʻyidagi ariqlar boʻylab, eroziyaga uchragan qiyaliklarda, kamroq hollarda oʻrmonzorlarda, butazorlarda, daraxtlar kesilgan joylarda va oʻrmon soʻqmogʻida uchraydi.



**Xom ashyoni yigʻish va uning sifati:** Momaqaymoq ildizlari kuzning oxirida barglari quriy boshlaganda yigʻib olinadi. Oʻsimlik belkuraklar bilan qazib olinadi, tuproqdan tozalanadi, barglarning qoldiqlari, ildiz uchi, ildiz boʻyni va ingichka yon ildizlari pichoq bilan kesib tashlanadi. Shundan soʻng ildizlar sovuq suvda yuviladi va ulardan sutli shirasi ajralib chiqquncha havoda bir necha kun quritiladi. Keyin ular poʻstlogʻidan tozalanadi, yupqa qatlam qilib qogʻozga yoki matoga havo yaxshi aylanadigan chordoqlarda yoki ayvon ostida yoyiladi. Momaqaymoq ildizlarini pechlarda yoki yaxshi shamollatiladigan quritgichlarda 60-70<sup>0</sup>C haroratda quritilishi mumkin. Quruq xom ashyoning hosildorligi 33-35% ni tashkil qiladi. Momaqaymoq deyarli hamma joyda koʻp boʻlishiga qaramay, uni yigʻish va quritishning mashaqqatliliigi tufayli bu oʻsimlikni yetishtirish ishlarini ishlab chiqish kerak. Yaxshi oʻgʻitlangan va chuqur yumshatilgan tuproqda etishtirilganda uning ildizi yovvoyi oʻsimliklarga qaraganda ancha katta hajmga yetadi. Ildizlaridan ikkinchi yilda foydalanilish lozim, ular kuzda qazib olinadi.

**Kimyoviy tarkibi:** Momaqaymoq ildizlaridan triterpen birikmalari, P-sitosterin, sigmasterin, inulin (24% gacha), xolin, nikotin kislota, nikotinamid, qatronlar, mum, kauchuk (3% gacha) va tarkibida oleanol, palmitin, linolein, melissa va serotonin kislotalarining glitseridlari boʻlgan yogʻli moy ajratilgan. Momaqaymoq ildizlari, ayniqsa, kuzda juda koʻp inulinni oʻz tarkibida saqlaydi.

**Tibbiyotda qoʻllanilishi:** Momaqaymoq ildizlaridan yoki yangi ildizlardan olingan galen preparatlari ishtahani ochish va ovqat hazm qilishni yaxshilash uchun, shu jumladan, oshqozon va ichakning

sekretor va motor faoliyatini yaxshilash, safro va ovqat hazm qilish bezlari sekretsiasini ko'paytirish uchun ishlatiladi. Bundan tashqari, momaqaymoq ildizlaridan tayyorlangan preparatlar mustaqil ravishda ham, gepatobiliar tizimi patologiyasi va surunkali ich qotishi natijasida kelib chiqqan xoletsistit, gepatoxoletsistit, anatsid gastritida boshqa o't xaydovchi vositalar bilan aralashmalarda qo'llaniladi. Momaqaymoq ildizi ishtahani uyg'otuvchi, oshqozon va siydik haydovchi yig'malari tarkibiga kiritilgan. Momaqaymoqning quyuq ekstraktidan tabletkalar tayyorlashda ishlatiladi.

**Momaqaymoq ildizining damlamasi:** 10 g (1 osh qoshiq) quruq ildizlar sirlangan idishga solinib, 200 ml (1 stakan) issiq qaynatilgan suv quyiladi, qopqog'i yopiladi va qaynab turgan suvda (suv hammomida) 15 daqiqa davomida tez-tez aralashtirib qizdiriladi. Keyin u 45 daqiqa davomida sovitiladi, suzgichdan o'tkaziladi va qolgan massa siqib olinadi. Olingan damlama qaynatilgan suv bilan suyultirilib, dastlabki 200 ml hajmiga keltiriladi. Sovuq joyda 2 kungacha saqlanadi. Achchiq va o't haydovchi vosita sifatida ovqatdan 15 daqiqa oldin iliq holda 1/3 stakandan kuniga 3-4 marta ichiladi.

**Afsonak** – *Thermopsis alterniflora* Regel et Schmalh.  
(Термопсис очередноцветковый)



**O'simlik tavsifi:**

Afsonak o'simligi – Fabaceae oilasiga kiruvchi ildizlari simsimon shoxlangan, uzunligi 2.5-3.5 m gacha ildizlardan, yangi novdalar hosil qiluvchi ko'p boshli ildizpoyalardan va ularning tizimidan iborat ko'p yillik o'simlik. Poyasi ko'p sonli, bo'yi 30-100 sm, tik turuvchi, shoxlangan, chiziq-chiziqli, siyrak, biroz chigallashgan tuklar bilan qoplangan. Barglari ketma-ket, uch bo'lakli, 4-7 sm uzunlikdagi yirik lansetsimon yon barglardan iborat. To'pguli – uchki qismida joylashgan shingil, uzunligi 35 sm, 5 tadan 25 tagacha gullarga ega. Gullari sariq rangda, yirik. Mevasi kalta siqilgan tuklar bilan qoplangan uzunchoq ellipssimon dukkak. Aprel va may oylarida gullaydi. Mevalari avgust oyining boshida yetiladi va shu oyning

oxiriga kelib mevalari to'kiladi. O'simlikning yer usti qismi dorivor sanalib, undan sititon preparati olinadi.


**O'sish joyi. Tarqalishi:** Afsonak o'simligi G'arbiy Tiyonshonning endem o'simligidir. U Qorjantog' tizimining janubiy va shimoliy yon bag'irlarida, Ugom, Ko'ksuv, Pskom, g'arbiy Chotqol tizmalarining janubi-g'arbiy tizmalarida va Ohangaron daryosining chap qirg'og'ida

(Qurama tizmasida) o'sadi. Afsonak tog'oldi mintaqalarida (dengiz sathidan 800-900 m balandlikda),

tog'larning o'rta va quyi qismida (dengiz sathidan 1000-2200 m balandlikda)

keng tarqalgan va ba'zan tog'larning yuqori

qismida (dengiz sathidan 3600 m gacha ) ham uchraydi. U turli ekspozitsiyali qiyaliklarda o'sadi.



**Xom ashyoni yig'ish va uning sifati:** O'simlik xom ashyosi aprel-may oylarida, g'unchalash va gullash davrining boshlanish vaqtida amalga oshiriladi. Xom ashyo qo'l bilan yig'ib olinadi. Bunda o'simlikni yer usti qismi yer yuzasidan 3-5 sm balandlikda qayta tiklanuvchi kurtaklarga zarar etkazmasdan o'roq yordamida kesib olinadi. Afsonakning zaharli xususiyatlarini inobatga olgan holda ehtiyot choralarini ko'rish zarur: ish vaqtida chekish, ichish mumkin emas, ovqatdan oldin qo'lni yaxshilab yuvish zarur, quruq xom ashyoni maydalashda nafas olish organlariga chang kirmasligi uchun doka niqoblar yordamida himoyalani kerak. Xom ashyoni faqatgina bir yil tanaffusdan so'ng o'sha maydonlardan takroriy yig'ib olish mumkin. Yangi yig'ilgan o'tlarni iloji boricha tezroq tayyorlangan toza joylarga yupqa qatlam qilib yoyiladi. O'simlik o'z massasining yarmidan ko'prog'ini yo'qotganidan keyin poyalarini sindirib ko'rilganda uning shirasi oqib chiqmasa, ular somon maydalagich yoki silos maydalagich bilan 2-6 sm uzunlikdagi bo'laklarga bo'linadi va yana yupqa qatlamda maydonlarga yoki brezent ustiga yoyiladi hamda quritiladi. Bunda yangi yig'ilgan xom ashyoni maydalaganda shirasi bilan ta'sir etuvchi moddaning (sitizin) oqib ketishini oldi olinadi. Yig'ish va quritish

vaqtida xom ashyoni atmosfera yog‘ingarchiligi tufayli namlanib qolishiga yo‘l qo‘ymaslik kerak, chunki bu uning sifatini keskin pasayishiga olib keladi. Havoda quritilgan xom ashyo og‘irligi 20 yoki 40 kg gacha bo‘lgan matoli qoplarga qadoqlanadi. Quruq va yaxshi shamol aylanadigan xonalarda saqlanadi, yaroqlilik muddati 2 yil. Talablarga muvofiq, xom ashyo to‘liq quritilgan yoki maydalangan o‘tdan iborat. Xom ashyoning hidi kuchsiz, o‘ziga xosdir. Xom ashyo tarkibida kamida 1% sitizin, namlik 12% dan, umumiy kul miqdori 9% dan, qo‘ng‘irrang barglari bor poyalari va ajratilmagan ildizlari 3% dan, organik moddalar 2% dan, mineral aralashmalar 1% dan ko‘p bo‘lmasligi kerak.

**Kimyoviy tarkibi:** Afsonakning yer usti qismidan alkaloidlar ajratilgan; ya‘ni sitizin, paxikarpin, p-metilsitizin, termopsin, alteramin, dimetamin, anagirin, argentin, argentaminlar mavjud. Urug‘larida sitizin, paxikarpin, termopsin alkaloidlari bor. Sitizin o‘simlik o‘tidan ajratib olingandan keyin paxikarpinni olish usuli ishlab chiqarishda tadbiiq etilmoqda. Afsonakning yer usti qismidan flavonoidlar ham olingan.

**Tibbiyotda qo‘llanilishi:** Sititon jarrohlik operatsiyalari vaqtida, shikastlanishlar, yuqumli kasalliklar, shok, turli intoksikatsiyalar, chaqaloqlar asfiksiya holatlarida nafas olishi to‘xtaganda nafas olish markazini reflektor qo‘zg‘atuvchi kuchli vosita sifatida, shuningdek, yurak faoliyatini kuchaytiruvchi vosita sifatida ishlatiladi.

**Kakliko‘t** – *Thymus seravschanicus* Klokov  
(Чабрец зеравшанский)




**O‘simlik tavsifi:** Kakliko‘t – Lamiaceae oilasiga kiruvchi ko‘p yillik, yog‘ochlanadigan shoxlangan kaudeksli yarim butacha. Poyasi ingichka, yog‘ochlashgan, ildiz oluvchi, ular yotib o‘svuvchi mevasiz novdalari bo‘lishi bilan ifodalanadi. Gulpoyalari tik turuvchi yoki asosidan ko‘tariluvchi, uzunligi 2-15 sm, to‘pgullari ostida uzun yoki yarim siqilgan tuklar bilan qoplangan. Barglari qarama-qarshi, qisqa barg bandli, ellipssimon yoki cho‘zilgan-

ellipssimon, chetki qismida asiosidan oʻrtasigacha uzun kipriksimon, silliq, kam bilinuvchi nuqtali bezchalari va pastki tomonida ingichka tutamlari bor. Oʻrta poya barglari 5-10 mm, eni 1,5-3,5 mm; toʻpgullar ostidagi apikal barglar rombik-ellipssimon. Toʻpgullari kallakcha, ichxamli. Gullari kalta gulbandli, ingichka qoʻngʻiroqsimon ikki labli, odatda pastda boʻyalgan tukli, uzunligi 4 mm kosachabargli. Mevalari avgust oyi pishadi.

**Oʻsish joyi va tarqalishi:** Toshkent, Fargʻona va Samarqand viloyatlarini oʻrta va yuqori togʻ mintaqasining toshli, kam hollarda mayda zarrali tuproqlarida uchraydi.

**Xomashyolarni yigʻish va tayyorlash:**

Xom ashyo sifatida kiyikoʻtni gullagan vaqtida yigʻib olingan gul va barglari hisoblanadi. Xom ashyo yigʻish oʻsimlikning gullash davriga toʻgʻri kelib (mintaqaga qarab may-iyul oylarida), qaychi yoki oʻroq yordamida yogʻochlangan asoslaridan yuqori qismi bargli poyalari kesib olinadi. Oʻsimlikning ildizi bilan yulib olish mumkin emas, chunki bu oʻsimlikni yoʻqolib ketishiga olib keladi. Xom-ashyosi ochiq havoda, soya joyda, havo yaxshi aylanadigan xonalarda, chordoqlarda yoki ayvonlar ostida, yupqa yoyilib (5-7 sm qalinlikda) vaqti vaqti bilan aralashtirilib quritiladi. Yaxshi ob-havo sharoitida 3-5 kun ichida quriydi. Aralashtirish paytida oʻsimlikni barg va gullari osonlik bilan toʻkilsa, quritish jarayoni toʻxtatiladi. Soʻng xom-ashyo yigʻib olinib maydalaniladi, poyalarning qattiq va yirik qismlari gʻalvirlar hamda veyalka (shamol purkagich) mashinalarida ajratiladi. Quruq xom ashyoning hosildorligi yangi toʻplangan xom ashyoni 32-34% ini tashkil kiladi. Quritkichda 35-40<sup>0</sup>C haroratda quritilishi kerak. Xom ashyo talabiga koʻra, kiyikoʻtning xom ashyosi ingichka novdalar (uzunligi 15mm gacha), barglar va gullarining aralashmasidan iborat. Kasachabargi uzunligi 4 mm gacha, tojibargi uzunligi 5-8 mm gacha boʻladi. Barglari yashil, kasachabargi qoʻngʻir qizil, gultojibargi koʻk-binafsharang. Taʼmi achchiq-xushboʻy, biroz kuydiruvchi. Hidi xushboʻy. Raqamli koʻrsatkichlari: 30% li spirt bilan ajratib olingan





ekstrakt moddalar kamida 18% dan, namlik 13% dan, umumiy kul 12% dan, 10% xlorid kislatasi eritmasida erimaydigan kul 5% dan, qalinligi 0,5 mm poya qismlari 10% dan, organik moddalar (boshqa zaharli bo‘lmagan o‘simliklar miqdori) 1% dan oshmasligi, mineral aralashmalar (tuproq, qum, toshchalar), zaharli o‘simliklar va ularni qoldiqlari, kemiruvchi va qushlarning axlati (tezagi), mog‘or va chirigan o‘simlik qoldiqlari, shamollatganda ketmaydigan o‘tirib qolgan badbo‘y hidi bo‘lmasligi kerak. Tayyor xom ashyo 40-50 kg gacha bo‘lgan toylarda yoki 15-20 kg qoplarda qadoqlanadi, quruq havo yaxshi aylanadigan tokchalarda saqlanadi. Xom ashyoning yaroqlilik mudati 2 yil. Kakliko‘tning o‘tidan balg‘am ko‘chiruvchi ta’sirga ega «pertussin» dori vositasini ishlab chiqarishda foydaniladi.

### **Temirtikan – *Tribulus terrestris* L.**

(Якорцы стелющиеся)




#### **O‘simlik tavsifi:**

Temirtikan Zygophyllaceae oilasiga mansub bir yillik o‘simlik. Poyasining uchki qismi yuqoriga ko‘tariladi, bo‘yi 10-60 sm shoxlangan, qo‘shaloq mayin tukchalar bilan qoplangan, uzunroq tukchalari tarvaqaylagan. Barg uzunligi 3-6 sm, bandi qisqa; bargchalari uzunligi 10

mm, cho‘zinchoq, uchlari o‘tkir, yopishgan tukli, yashildan oq-kulranggacha. Yon barglari deyarli yupqa pardasimon, oson to‘kiluvchi, lansetsimon, uzunligi 3-7 mm. Gullari 1-2 ta, gul bandda joylashgan. Kosachabarglarining uzunligi 5 mm, lansetsimon, gullashdan so‘ng to‘kiladi. Gultojibarglari sariq, cho‘zinchoq, uzunligi 5-7 mm. Mevalari yassilashgan yumaloq; diametri 10-15 mm, tikanlari gorizontal ayriluvchi, uzunligi 10 sm gacha, yong‘oqchalarining orqa tomonini mustahkamlovchi qismlari har-xil: o‘tkir bo‘rtliqli yoki qisqa tikanli, ba‘zan o‘rtasida tojsimon ko‘rinishda bo‘ladi; siyrak yoki zich tuklangan, ba‘zan mevalari kulrang. May-avgust oylarida gullab, meva beradi.

**O'sish joy va tarqalishi:** U bo'sh yotgan yerlarda, daryo vodiylarida, asosan, dasht va cho'l zonalarida, ko'pincha qumli tuproqlarda, begona o't sifatida poliz ekinlari orasida, yo'l bo'yi va temir yo'l bo'ylarida o'sadi. Temirtikan madaniy holda yaxshi o'sadi. Vohalarning o't bosgan yerlari, lalmi yerlarda, yo'l bo'ylarida, chala cho'l mintaqasining daryo va soylarining qiyaliklari va qirg'oqlarida, kamroq hollarda yarim dashtlarda uchraydi. Ko'pincha yo'l yoqalarida va temir yo'l ko'tarmalarida o'sadi. Toshkent, Namangan, Andijon, Farg'ona, Samarqand, Buxoro, Qashqadaryo va Surxandaryo viloyatlari hamda Qoraqalpog'iston Respublikasida keng tarqalgan.



**Areali:** O'rta Osiyo, Rossiyaning Yevropa qisminin janubida, Kavkaz, janubiy Yevropa, shimoliy va janubiy Afrika, Osiyoning janubiy qismlari, Avstraliya.

**Xom ashyoni yig'ish:** O'simlik yoz mavsumida yig'ib olinadi. O'simlikni yer usti qismi ketmon bilan chopib olinib, ildiz qismi yerda qoldiriladi.

**Quritish:** Yupqa mato yoki qog'oz ustida yoyiladi. Quyoshda yoki quritgichda quritiladi.

**Kimyoviy tarkibi:** Temirtikon tarkibida steroid glikozidlari (trillin, diossin, gratsillin, protodiossin, kikubasaponin), flavonoidlar, alkaloidlar va taninlar mavjud. O'simlikdan «Tribusponin» preparati tayyorlanadi.

**Saqlash:** Xom ashyoning yaroqlilik muddati 5 yil.

**Farmakalogik xususiyatlari:** Temirtikandan olingan suyuq va suv ekstraktlari o't suyuqligi ajralishini ko'paytirib, oshqozon shirasining sekretsiyasini stimullaydi. Steroid glikozidlarning (saponinlar) yig'indisidan tashkil topgan tribusponinning farmakologik tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, preparat hayvonlarda xolestrin ateriosklerozini rivojlanishini va kechishini sekinlashtiradi, qonda xolesterin miqdorini 24,9 % gacha pasaytiradi va letsitin/xolesterin

nisbatini 1 dan 1,4% gacha oshiradi. Uzoq vaqt davomida tribusponin qabul qilgan tovushqonlarda aorta devorining lipid infiltratsiya darajasi nazoratga qaraganda ancha past bo'ladi. Steroid glikozidlarning antisklerotik ta'siri ularning plazmaning lipidlari bilan o'zaro ta'siri asosida izohlanadi. Qonda xolesterin miqdorining pasayish mexanizmida tribusponin o't haydovchi va peristaltikasini stimullovchi ta'sir qiladi, bunda organizmdan xolestrinni chiqarishga yordam beradi. Temirtikon yurak-qon tomir tizimiga ta'sir qiladi: yurak qisqarishini sekinlashtiradi, miokardning qisqaruvchi qobiliyatini oshiradi, yurak diastolasini uzaytiradi, tomirlarda qon aylanishini yaxshilaydi, qon bosimini tushiradi, qon tomirlarini kengaytiradi. Tribusponin antikoulyant xususiyatiga ega bo'lib, qon ivish vaqtini sekinlashtiradi va protrombin indeksini pasaytiradi. Preparat o't suyuqligini ajralishini ko'paytiradi, ichak peristaltikasini tezlashtiradi, siydik haydovchi ta'sirga ega.

**Dorivor vositalar:** Tribusponin preparati.

**Qo'llanishi:** Tribusponin ateroskleroz, yurak ishemiyasi va gipertoniya da profilaktik va terapevtik maqsadlarda qo'llaniladi. Ko'proq shoxli arteriyalarining zararlanishi bilan bog'liq aterosklerozni davolashda bemorlarda xolesterin miqdori o'rtacha 25-30 % ga pasaygan, qonda umumiy lipidlar, b-lipoproteidlar miqdori sezilarli darajada pasaygan va qon tizimidagi qon ivishi va ivishiga qarshi ko'rsatkichlari normallasgan. Klinik jihatdan ijobiy samarasi kuzatilgan: ko'krak qafasidagi og'riqlar kamroq va qisqaroq bo'lgan, bemorlar nitroglitserin tabletkalarini kamroq iste'mol qilishgan va EKG ko'rsatkichlari yaxshilangan. Aterosklerozli bemorlarda tribusponin bilan davolashda yuqori miqdorda b-lipoproteidlar bo'lganda eng samarali natija bergan. «Tribusponin» preparati ta'sirida aterosklerozli bemorlarning gipertoniya kasalligida uyquni normallasuvi qayd etilgan, bosh og'rig'i, quloq shang'illashi kamaygan yoki qolgan, qon bosimi pasaygan. Aterosklerozli bemorlarning qandli diabet kasalligida tribusponin shakar miqdorini pasaytiruvchi preparatlar bilan kompleks ravishda lipid va uglevod almashunivida ijobiy ta'sir ko'rsatgan. Tribusponin preparatlari qo'l-oyoqlar tomirlarining emiriluvchi aterosklerozida ham qo'llaniladi.

**Оqqaldirmoq – *Tussilago farfara* L.**  
(Мать-и-мачеха обыкновенная)




**О‘simlik tavsifi:**

Оqqaldirmoq Asteraceae oilasiga mansub ko‘p yillik o‘t o‘simlik. Ildizpoyasi uzun, yer bag‘irlab o‘sovchi. Gulpoyalari 10-25 sm balandlikda, qipikli, yopishgan, tuxumsimon-lanset, ko‘pincha qizg‘ish barglar bilan qoplangan. Ildizbo‘g‘zi barglari

gullashdan keyin paydo bo‘ladi. Ular uzun bandli, yumaloq-yuraksimon, ko‘ndalang o‘lchamda diametri 10-25 sm, burchakli, tishlari notekis, terisimon, avval ikkala tomonidan mayin tuklar bilan qoplangan, keyin yuqorida silliq, pastdan oq mayin tukli. Savatchalar yakka, 2–2,5 sm ko‘ndalang o‘lchamda, gullashdan keyin osilib turadi. Gullari oltin sariq rangda. Pistachalari 3,5-4 mm uzunlikda, oq tuklar bilan qoplangan. Aprel-may oylarida oqqaldirmoq gullaydi, may-iyun oylarida mevalaydi. Barglari dorivor xom ashyo sifatida ishlatiladi.

**О‘sish joyi va tarqalishi:** Оqqaldirmoq O‘rta Osiyoning barcha mintaqalarida keng tarqalgan. U cho‘l va yarim cho‘l zonasida uchramaydi, lekin tog‘li hududlarda daryo bo‘ylarida keng tarqalgan. U qirg‘oq jarliklarida, to‘kimalarda, daryo va ariqlarda, nam jarliklarda, yosh allyuvial loy va qumli cho‘kindilar, temir yo‘llar bo‘ylab, tog‘ jinslarini ochiq qazib olish kotlovanlari, tog‘lar konlarida uchraydi. Loy jarliklarida va tog‘ soylari bo‘ylarida ba‘zan yoppasiga o‘sadigan maydonlarni hosil qiladi. Ko‘pincha boshqa o‘t o‘simliklar, ko‘pincha, doimiy qoplamda uchramaydigan siyrak jamoalarda begona o‘tlar va butalar bilan birga o‘sadi.



### **Xom ashyoni yig'ish va uning sifati.**

Oqqaldirmoq barglari yozning birinchi yarmida zich mayin tuk bilan qoplangan yosh davrida va zang bilan zararlanmagan vaqtda yig'ib olinishi kerak. Ularni barg band uzunligining taxminan yarimida kesiladi. Ayvonlar ostida quritiladi, 2-3 sm dan oshmaydigan qatlam qilib qog'ozga yoki matoga yoyiladi. Oqqaldirmoq barglari XI DF talablariga javob berishi kerak, ular juda yosh bo'lmashligi, ya'ni yuqori tomonida zich tuklar bo'lmashligi kerak. Yuqori tomoni yashil, pastki qismi oq-kulrang. Hidi yo'q. Ta'mi biroz achchiq, shilimshiq. Namlik miqdori 13% dan; umumiy kuli miqdori 20% dan, qo'ng'irrang barglar 5% dan, jigarrang zang dog'lari bilan kuchli kasallangan barglar 3% dan, teshiklari diametri 3 mm bo'lgan elakdan o'tuvchi maydalangan qismlar 2% dan; organik aralashmalar (boshqa zaharli bo'lmagan o'simliklarning qismlari) 2% dan, mineral aralashmasi 2% dan oshmasligi kerak. Kesilgan xom ashyoning sifati, shuningdek, XI DF ga mos kelishi kerak, uzunligi 1 dan 8 mm gacha bo'lgan har xil shakldagi qismlardan iborat bo'lishi kerak. Qoplarga joylashgan butun va kesilgan xom ashyoning massasi 20 kg dan oshmasligi kerak, toylarda – 50 kg.

**Kimyoviy tarkibi:** Oqqaldirmoq gul savatlarida faradiol, arnidiol, taraksantin, sigmasterin, sitosterin, n-geptakozan va taninlar topilgan. Barglarda achchiq glikozidlar (2,63% gacha), sitosterin, gall, olma va vino kislotalari, saponinlar, karotinoidlar (5,18%), askorbin kislotalari (5%), inulin va dekstrin mavjud.

**Tibbiyotda qo'llanilishi:** Oqqaldirmoq barglari balg'am ko'chiruvchi va yumshatuvchi vosita sifatida ishlatiladi. Damlamalar shaklida, shuningdek, bronxit, laringit va bronxoektaz kasalliklarida ko'krak qafasi va terlatuvchi choylari tarkibida qo'llaniladi. SHuningdek, o'pkaning abscess va gangrenasida ishlatiladi. Tashqi tomondan yumshatuvchi, dezinfeksiya va yallig'lanishga qarshi vosita sifatida ho'llanma shaklida qo'llaniladi.

**Qoraqovuq – *Ungernia sewerzowii* (Regel) B. Fedtsch.**  
(Унгерния Северцова)




**O‘simlikni tavsifi:**

Qoraqovuq – Amaryllidaceae oilasiga kiruvchi ko‘p yillik piyozboshli o‘simlik. O‘simlik piyoz cho‘zinchoq, uzunchoq-tuxumsimon, deyarli yirikroq, yo‘g‘onligi 5-10 sm kamdan-kam hollarda 12 sm gacha, ko‘p sonli, odatda to‘q qora pardali tashqi qipiq-larga ega, ular uzun bo‘yinni hosil qiladi. Bitta piyozboshning ho‘l vazni 40 dan 150 gr gacha. Piyozboshning tubi yaxshi rivojlangan (uzunligi va qalinligi 2-3 sm); undan sersuv mo‘rt sariq-pushti rangli qalinligi 0,3-0,4 sm va uzunligi 15-50 sm ildizlar chiqqan.

Barglari ikki qatorli, ko‘kimsir, deyarli teng, eni 1,5-2 sm va uzunligi 30-40 sm; gullari soyabonsimon to‘pgulda joylashgan, 3-15 ta gacha bo‘ladi, gulqo‘rg‘on barglari ingichka lansetsimon, g‘ishtsimon-qizil rangli. Mevasi uch bo‘lakli shishgan ko‘sak, diametri 2-3 sm, urug‘lari pishganda chatnaydigan meva. Iyul oxiri- avgust boshlarida gullaydi; mevalari sentyabr-oktyabr oylarida etiladi. Tibbiyotda o‘simlik barglari likorin preparati olish uchun ishlatiladi.

**O‘sinh joyi va tarqalishi:** Qoraqovuq endem o‘simlik bo‘lib, Toshkent viloyatining Parkent tumanida o‘sadi. Umumiy tarqalishi – G‘arbiy Tiyonshon. U tog‘ning quyi qismidan to o‘rta qismigacha bo‘lgan mintaqalarda dengiz sathidan 600 dan 2800 m balandliklarda suv havzalarida, toshlar orasida, toshli surilmalar va mayda zarrali shag‘alli



qiyaliklarda o'sadi. Tog' oldi etaklarida va tog'ning o'rta qismida u dasht o'simliklari bilan birgalikda; yuqorida daraxt va buta o'simliklari orasida, archalar ostida, butazorlar orasida, shuningdek, betaga va betaga-bug'doyli o'simlik jamoalarida uchraydi. Qoraqovuq odatda shag'alli va toshlarning yon bag'irlarida kichik guruh hosil qilib o'sadi. Ko'p yillik joylarda u deyarli zich o'sish maydonlarini tashkil qiladi.

**Xom ashyoni yig'ish va uning sifati:** Qoraqovuq barglarining uzunligi 30-35 sm gacha bo'lgan davrda tayyorlanadi. Aprel oyining o'rtalarida dengiz sathidan 600-1200 m balandlikda barglarini yig'ishni boshlash mumkun. Dengiz sathidan taxminan 1600-1800 m balandlikda joylashgan zich o'sish maydonlarda aprel oyining oxiridan keyingi vaqtda yig'ish mumkin, qoraqovuq tarqalishining yuqori chegarasida (1800-2700 m balandlikda) 10-12 may kunlari va barglari sarg'aya boshlashiga qadar xom ashyoni yig'ish kerak.

Yig'im vaqtida har bir o'sish maydonida o'simliklarning umumiy sonidan taxminan 5% ni urug'dan ko'payishi uchun qoldirish zarur. Bu vaqtda barglar o'roq yoki pichoqlar yordamida kesiladi, chunki gul bilan uzilsa, ko'pincha piyozboshlarning o'sish nuqtasi zararlanadi. Kesilgan barglar kichik uyumlarda to'planib, ularning qorayib ketishi va yopishib qolmasligi nazorat qilinadi. Yangi barglarni yig'ilgandan so'ng ularni somon maydalagich bilan yoki pichoq yordamida 2-3 sm uzunlikda kesish kerak.

Olingan xom ashyo ochiq joylarda yoki brezentga yupqa qatlam qilib yoyilib, xom ashyoni dimlanib qolmaslik uchun kuniga 2-3 marta xaskash yoki pashaxa yordamida ag'dariladi. Barglar tez quritilishi kerak, shunda ular yashil ranggi saqlanib qolinadi; agar quritish 4-5 kundan oshsa, ular sarg'ayadi va qorayib qoladi. Tayyor xom ashyoning namlik miqdori 11-12% dan oshmasligi kerak. Qoraqovuqning tabiiy zich o'sish maydonlarini saqlab qolish uchun ularning yig'ishni qat'iy ketma-ketligiga rioya qilish tavsiya etiladi. Bir maydondan xom ashyoni 3 yil ichida 1 martadan ko'p bo'lmagan holda yig'ib olish amalga oshiriladi.

**Xom ashyoning raqamli ko'rsatkichlari:** Likorin miqdori 0,1% dan kam bo'lmasligi; vazni quritish vaqtida 13% dan ko'p yo'qolmasligi; umumiy kul miqdori 12% dan; qo'ng'irlashgan va qoraygan barglari 20% dan ko'p bo'lmasligi kerak. Og'irligi 12-15 kg bo'lgan qoplarga qadoqlanadi. Xom ashyoning yaroqlilik muddati 2 yil.

**Kimyoviy tarkibi:** Qoraqovuq barglari va piyozboshlarida asosiy alkaloid likorindan tashqari boshqa alkaloidlar mavjud:

pankratin, galantamin, narvezin, gippeastrin, ungminorin, tatsettin, ungerin, unsevin.

**Tibbiyotda qo'llanilishi:** Likorin preparati kuchli qayt qilishga qarshi ta'sirga ega, u o'tkir va surunkali bronxit va bronxoektatitni davolashga ishlatiladi.

**Omonqora** – *Ungernia victoris* Vved. ex Artjush.  
(Унгерния Виктора)



**O'simlik tavsifi:** Omonqora – Amaryllidaceae oilasiga kiruvchi ko'p yillik piyozboshli o'simlik. O'simlik piyoz tuxumsimon, diametri 7-12 sm, to'q jigarrang yoki qora qo'ng'ir rangli, yupqa pardasimon qipiqalar bilan qoplangan, ular uzun bo'yinga (17 sm gacha) cho'zilgan. Piyozboshning tubi yaxshi rivojlangan, uzunligi va yo'g'onligi 2-3 sm, undan sersuv mo'rt sariq-pushti rangli qalinligi

0,3-0,4 sm va uzunligi 10-25 sm ildizlar chiqqan. Barglari ikki qatorli, sersuv, silliq, chiziqli, to'mtoq, uzunligi 20-40 sm, eni 1-4 sm; fevral oyining oxirida o'sishni boshlaydi. Aprel oyining o'rtalarida ular to'liq shakllanib, may oyining oxiri iyun oyining boshlarida quriydi. 2-2,5 oydan so'ng balandligi 12-30 sm gacha tumtoq gulpoya hosil bo'lib, deyarli bir tomonlama soyabonsimon to'pgul bilan tugaydi, ustki qismi g'unchalar ochilguncha g'ilof bilan qoplangan. To'pgullari 2-11 tagacha, deyarli to'g'ri, voronkasimon, sariq pushti yoki binafsha rangli gullardan iborat. Mevasi uch bo'lakli shishgan, uzunligi 3-4 sm ko'sakdan iborat. U iyul oxirida – avgust oyining boshida gullab, mevalari sentyabr oyida pishib yetiladi. Tibbiyotda o'simlikning barglaridan foydalaniladi.



## O'sish joyi va tarqalishi:


Omonqora Hisor tog' tizmasining tog' yon bag'irlarida, suv havzalarida, shag'alli joylarda va jarliklarda dengiz sathidan 800 dan 2700 m balandlikda o'sadi. Tog' oldi etaklarida va tog'larining o'rta qismida u dasht o'simliklari jamoasida uchraydi;

yuqorida archalar ostida daraxt va buta o'simliklari orasida, butazorlar orasida, shuningdek, betaga va betaga-bug'doyiqli o'simlik jamoalarida uchraydi.

Odatda kichik guruh hosil qilib o'sadi, shag'alli va toshli qiyaliklarda mayda zarrali tuproqlarda uchraydi. Ko'p yillik joylarda u deyarli zich o'sish maydonlarini tashkil qiladi. Biroq tashkilotlar tomonidan xom ashyosini yig'ish kuchayganligi sababli hozirgi vaqtda ushbu qizil kitobga kirgan o'simlikning soni halokatli holatga kelgan. Omonqora urug'lari yordamida va vegetativ yo'l bilan, ya'ni piyozboshlari orqali ko'payadi.

Odatda kichik o'sish maydonlarni hosil qiladi. Urug'laridan ko'payish asosiy tarqalish usulidir. Sentyabr oyi oxirida omonqora mevalari chatnab, urug'lar ona o'simlik yaqinida erlarga to'kiladi va tog' yon bag'irlari bo'ylab shamol yoki suv oqimlari bilan tarqaladi.

**Xom ashyoni yig'ish va uning sifati:** Omonqora barglarining uzunligi 30-35 sm gacha bo'lgan davrda tayyorlanadi. Dengiz sathidan 800-1200 m balandlikda barglarini yig'ishni aprel oyining o'rtalaridan boshlash mumkin. Dengiz sathidan taxminan 1500-1800 m balandlikda joylashgan o'sish maydonlarda barglarni yig'ish aprel oyining oxirida, o'simlik tarqalishining yuqori chegarasida (2200-2500 m balandlikda) 12-15 may kunlari boshlanadi va barglar sarg'ayish boshlanishidan oldin tugatilishi kerak. Bu vaqtda barglar o'roq yoki pichoqlar yordamida kesiladi, chunki gul bilan uzilsa, ko'pincha piyozboshlarning o'sish nuqtasi zararlanadi. Kesilgan barglar kichik uyumlarda to'planib, ularning qorayib ketishi va yopishib qolmasligi nazorat qilinadi. Yangi barglarni yig'ilgandan so'ng ularni somon maydalagich bilan yoki pichoq yordamida 2-3 sm uzunlikda kesish kerak. Olingan xomashyo ochiq joylarda yoki brezentga yupqa qatlam qilib yoyilib, xom ashyoni




dimlanib qolmaslik uchun kuniga 2-3 marta xaskash yoki panshaxa yordamida agʻdariladi. Barglar tez quritilishi kerak, shunda ular yashil ranggi saqlanib qolinadi; agar quritish 4-5 kundan oshsa, ular sargʻayadi va qorayib qoladi. Tayyor xomashyoning namlik miqdori 12% dan oshmasligi kerak; galantamin miqdori 0,03%dan kam boʻlmasligi kerak. Xom ashyo ogʻirligi 12-15 kg boʻlgan qoplarga qadoqlanadi. Xomashyoning yaroqlilik muddati 2 yil.

**Kimyoviy tarkibi:** Omonqoraning barglari va piyozlaridan asosiy alkaloid galantamindan tashqari boshqa alkaloidlar ham olinadi: likorin, gordenin, tatsettin, pankratin. Alkaloidlar va galantaminning yigʻindisi barglarning rivojlanishining dastlabki davrida maksimal darajaga yetadi va vegetatsiya oxirida kelib asta-sekin kamayadi. Aprel oyining 14-kunidan 25-kunigacha boʻlgan vaqtda barglarni yigʻish uchun tavsiya etiladi, ulardagi alkaloidlar miqdori 0,50 dan 0,52% gacha, galantamin miqdori 0,13 dan 0,15% gacha, bu xom ashyoning standart talablariga toʻliq mos keladi.

**Tibbiyotda qoʻllanilishi:** Galantamin poliomielit, polinevrit, radikulit, shuningdek, sezuvchi va harakatlanuvchi nervlarning travmatik shikastlanishida asorat taʼsirini yoʻqotuvchi vosita sifatida qoʻllaniladi. Galantamin ichak va siydik pufagi atoniyasini davolashda hamda oshqozon va ichak kasalliklarini funksional rentgen tashhisida ishlatiladi.

### **Gazandaoʻt – *Urtica dioica* L.**

(Крапива двудомная)




#### **Oʻsimlik tavsifi:**

Gazandaoʻt – bu Urticaceae oilasiga mansub koʻp yillik oʻsimlik, oʻrmalovchi shoxlangan ildizpoyaga ega. Poyasi tik turuvchi, toʻrt qirrali, shoxlanmagan, balandligi 60-170 sm, uzun kuydiruvchi va kalta oddiy tuklar bilan qoplangan. Barglari tuxumsimon-lanset,

chetlari boʻylab yirik tishsimon, uzunligi 8-17 sm va eni 2-8 sm, poyada ular qarama-qarshi joylashgan. Gullari bir jinsli, mayda, toʻrtga

bo‘lingan oddiy gulqo‘rg‘onga ega, barglar qo‘ltig‘idan chiqqan shoxlangan orasi uzuqli boshqolarga yig‘ilgan. Mevalari tuxumsimon yoki ellipssimon sarg‘ish-kulrang yong‘oqchalar. G‘azandao‘t erta bahorda o‘ sib chiqadi va qor erigandan keyin 15-20 kun ichida katta barglar hosil qiladi, bu vaqtda vitaminlar miqdori yuqori bo‘ladi. U juda tez o‘ sadi, gullashi iyun oyining boshlarida boshlanadi. Gazandao‘t meva bergandan keyin ham yashil barglarini saqlab qoladi. Iyundan sentyabrgacha gullaydi, iyuldan mevalaydi. Tibbiyotda o‘ simlik barglari ishlatiladi, undan suyuq ekstrakt, damlamalar va nastoykalar tayyorlanadi.

**O‘ sish joyi va tarqalishi:** Gazandao‘t butun O‘zbekiston bo‘ ylab keng tarqalgan. U soyali nam joylarda, daraxtlar kesilgan, yonib ketgan maydonlarda, jarliklar va qirg‘ oqdagi butazorlarda o‘ sadi. Asosiy zich o‘ sish maydonlari bo‘ sh yotgan joylarda, tashlandiq aholi punktlari yaqinida, turar joylar yonida, yo‘ llar bo‘ ylab shakllanadi. Gazandao‘ tning eng zich o‘ sish maydonlari chirindi va namlikka boy tuproqlarda hosil bo‘ ladi.



**Xom ashyoni yig‘ish va uning sifati:** Gazandao‘t barglarini yig‘ish deyarli hamma joyda amalga oshirilishi mumkin, faqatgina intensiv avtotransport qatnovi bo‘lgan yo‘llar yaqinidan xom ashyo yig‘ilmaydi. Xom ashyoni yig‘ish qo‘l bilan amalga oshiriladi, buning uchun charm yoki brezent qo‘lqoplar kiyiladi. Gazandao‘t barglarini poyalar va novdalardan uzib olib yig‘iladi. Gazandao‘t tibbiy maqsadlarda o‘stirilmaydi, lekin gazandao‘tdan parrandachilik fermalari va xlorofill oladigan korxonalari yonida o‘stirilmoqda. Gazandao‘t ildiz bachkili o‘ simlik bo‘lganligi uchun ildizpoyasi kesiklarga bo‘linib yetishtiriladi. Buning uchun o‘ simlik erta bahorda qazib olinadi, ildizpoyalar kesiklarga bo‘linadi. Har bir kesikda tiklanish kurtaklari va ildizlar tutami bo‘lishi kerak. Qatorlar qilib ekiladi, 1 m qatorda 5 ta ildiz bachkilari ekiladi. Qator oraliqlari 50 sm gacha bo‘lishi kerak. Gazandao‘t tez o‘ sadi. Tibbiy maqsadlar uchun gullash davridagi o‘ simlikning barglari ishlatiladi. Barglar darhol quritish uchun yoyilishi

kerak. Soyada, havo yaxshi aylanadigan xonalarda, javonlarda yoki quritgichlarda quritiladi. Barglar quritishdan oldin bir qatlam qilib yoyiladi. Tayyor xom ashyo rangini yo‘qotmagan yashil barglardan iborat va undagi namlik miqdori 14% dan oshmasligi lozim. Xom ashyo tarkibida poyalar, to‘pgullar qoldiqlari bo‘lmasligi kerak; qo‘ng‘irrang yoki qoraygan barglarni olib tashlash kerak. Gazandao‘t bargi qutilarda yoki idishlarda saqlanadi, u juda nozik va yumshoq idishlarda osongina parchalanadi. Quyoshda tez rangini yo‘qotadi. Ayni paytda, O‘zbekistonda 42 Uz-0167–2017 DF ma‘lumotlariga ko‘ra, gazandao‘tning butun yer ustki qismlaridan foydalanishga ruxsat berilgan.

**Kimyoviy tarkibi:** Gazandao‘t barglarida 269 mg% gacha C vitamini, karotin va boshqa karotinoidlar (50 mg% gacha), B va K guruh vitaminlari, chumoli, pantoten va boshqa organik kislotalar mavjud. Barglarda 5% gacha xlorofill, 2% dan ortiq taninlar, kamed, protoporfirin, koproporfirin, sitosterin, urtitsin glikozidi, temir, fitonsidlar, kversetin, kofe, kumarik, ferula kislotalari, atsetilxolin, gistamin va 5-gidroksitriptamin mavjud.

**Tibbiyotda qo‘llanilishi:** Gazandao‘t preparatlari qon to‘xtatuvchi vosita va bachadonning qisqarish faolligini kuchaytiruvchi va qon ivishini oshiruvchi vosita sifatida ishlatiladi. Ular klimakterik, bivosildan va boshqa qon ketishlar uchun juda samarali. Yiringli yaralarni va surunkali varikoz yaralarini davolash uchun barglari yoki quritilgan barglarining kukuni tashqi tomondan ishlatiladi. Gazandao‘t barglari anemiyani davolash uchun ishlatiladi. Suyuq ekstrakti, damlamasi va nastoykasidan foydalaniladi. Gazandao‘t – ryabina, na‘matak, brusnika, qoraqat mevalari va sabzi ildizi bilan bir qatorda vitaminli choyning tarkibiy qismi hisoblanadi. Gazandao‘t barglari ichak faoliyatini boshqaruvchi me‘da choyining tarkibiy qismi hisoblanadi, shuningdek, ich suruvchi choyning tarkibiga ham kiradi (tog‘jumrut po‘stlog‘idan 3 qism, qashqarbeda o‘tidan 1 qismi va gazandao‘t barglaridan 1 qism) kiradi. Bolgariya, Polsha, Germaniyada gazandao‘t preparatlari anemiya, ateroskleroz, mushak va bo‘g‘im revmatizmi, buyrak va siydik pufagining yallig‘lanishi, jigar kasalliklari, bivosil, teri kasalliklari, 1-darajali kuyish va soch to‘kilishida qo‘llaniladi.

**Sigirqyruq – *Verbascum songoricum* Schrenk.**  
(Коровяк джунгарский)



**O‘simlik tavsifi:**

Bu Scrophulariaceae oilasiga mansub ikki yillik o‘simlik, balandligi 40-150 sm. Gultojibarglari sariq. Barglari butun, ildizbo‘g‘zi barglari deyarli o‘troq yoki qisqa bandli, yoki cho‘zinchoqlansetsimon, asosida ponasimon toraygan, uzunligi 10-40 sm va eni 3-11 sm. Mevasi ko‘sak, tuxumsimon-ellipssimon, to‘mtiq, bezchali tuklangan. To‘pguli 20-40 sm uzunlikda, piramidal ro‘vak. Poyasi tik turuvchi, bargli, yuqorida shoxlangan, tuklangan. Kosachabarglari 3/4 yoki deyarli asosigacha lansetsimon va chiziqli-lansetsimon bo‘laklarga bo‘lingan, oq


tuklangan. May oyidan boshlab gullaydi. Iyul oyidan boshlab mevalaydi.

**O‘sinh joyi va tarqalishi:** Sigirqo‘yruq yo‘llar bo‘ylab, daryo qirg‘oqlari bo‘ylab, toshli erlarda, O‘rta Osiyo tog‘larining shag‘altoshli qiyaliklarida 2600 m balandlikgacha ko‘tariladi.

**Xom ashyoni yig‘ish va uning sifati:** Dorivor maqsadlarda gullashning boshlanishida yig‘ilgan gullar ishlatiladi, barglari – gullash paytida, ildizlari – kuzda bir yoshli o‘simliklardan yig‘iladi. Gullari iliq qorong‘i xonada quritiladi. Tayyor xom ashyo yashil kosachabarglarsiz changchili yorqin sariq rangli gultojibarglardan iborat. Hidi kuchsiz, ta‘mi shirin. Yig‘ilgan xom ashyoni quritish umumiy qabul qilingan usullar bo‘yicha amalga oshiriladi.

**Kimyoviy tarkibi:**

Gullarda shilimshiq, shakar,



glyukoza, saponinlar, efir moyi, kamed, bo'yovchi moddalar, kumarin, flavonoidlar mavjud. Alkaloidlar (anabazin va plantagonin), saponinlar, askorbin kislotasi topilgan.

**Tibbiyotda qo'llanilishi:** Siydik haydovchi, yumshatuvchi, tutqanoqlarga qarshi, terlatuvchi, og'riq qoldiruvchi, yallig'lanishga qarshi, qon to'xtatuvchi va biriktiruvchi ta'sirga ega.

**Retseptlar:** Sigirqo'yruq barglaridan tayyorlangan damlama sut bilan absess, oshqozon yarasi, yiringli yaralar, bavoasil va lishay uchun kompress shaklida qo'llaniladi. Urug'lardan tayyorlangan qaynatma qayt qilish vositasi sifatida ishlatiladi va ildizlarning qaynatmasi buyrak toshi va podagra kasalliklarida siydik haydovchi vosita sifatida och qoringa 125-225 ml dan ichiladi.

O'simlikdan damlama tayyorlash: 1) 2 choy qoshiq quruq sigirqo'yruq gullari ustiga 200 ml qaynoq suv solib, 1 soat davomida tindiriladi, suzgichdan o'tkaziladi. Yo'tal, ko'kyo'tal, yuqori nafas yo'llarining yallig'lanishi, xirillash, nafas qisilishi, yurak va ko'krak qafasidagi og'riqlar, asab tizimining buzilishi kasalliklarida, shuningdek, ich suruvchi, terlatuvchi, siydik haydovchi, qon to'xtatuvchi va og'riq qoldiruvchi vosita sifatida kuniga 4 marta 50 ml dan ichiladi. Bolalar uchun ikki baravarga me'yorni kamaytirish lozim; 2) 1 osh qoshiq sigirqo'yruq quruq gullari va barglari ustiga 200 ml qaynoq suv solinadi va iliq joyda 2 soat tindiriladi, suzgichdan o'tkaziladi. Yo'tal, nafas qisilishi, bronxit, yuqori nafas yo'llarining yallig'lanishi, jigar va taloq kasalliklarida kuniga 4 marta 50 ml dan ichiladi. Sigirqo'yruq o'simligining kukuni teridagi yoriqlar va bitmaydigan yaralar uchun tashqi tomondan qo'llaniladi.

**Qo'ytikan – *Xanthium strumarium* L.**  
(Дурнишник обыкновенный)



**O'simlik tavsifi:** Asteraceae oilaga mansub bir yillik o't o'simlik, balandligi 120 sm. Barglari yumaloq, asosida yuraksimon. Mevalarda o'ramabarglari cho'zinchoq-ellipssimon, sarg'ish-qo'ng'ir rangga ega bo'lib, to'g'ri, yuqorida ilmoqsimon silliq tikanlarga ega. O'simlik iyul-avgust oylarida gullaydi.

**O'sish joyi va tarqalishi:** U deyarli butun O'zbekiston hududida begona o't bosgan va bo'sh yotgan yerlarda o'sadi.

**Kimyoviy tarkibi:**

Qo'ytikan kimyoviy tarkibi yaxshi o'rganilmagan. Barglarning tarkibida nisbatan katta miqdordagi yod, alkaloid va askorbin kislotasi mavjud (taxminan 32 mg%). Urug'larda yog'li moy, smola, ksantostumarin glikozidi va yod mavjud.


**Xom ashyoni yig'ish**

**va uning sifati:** Dorivor maqsadlarda qo'ytikan o'tidan, ildizi va mevalaridan foydalaniladi. O'tining xomashyosi barglar o'sishni boshlagan joydan yig'iladi. Ildizlar kuzda qazib olinadi va mevalar pishib etish davrida yig'ib olinadi.

**Farmakologik xususiyatlari va tibbiyotda qo'llanilishi:**

O'simlik xalq tabobatida qalqonsimon bez kassalliklarini davolashda ishlatiladi. Preparat antiseptik, fungitsid, yallig'lanishga qarshi, kam darajada og'riq

qoldiruvchi, terlatuvchi va isitma tushuruvchi ta'sirga ega. Diareya, dizenteriya va siydik pufagining yallig'lanish jarayonlarida barglar, gullar va mevalaridan tayyorlangan (ba'zan ildizlar) damlamasi ichiladi. 1 osh qoshiq maydalangan qo'ytikan o'tini 1 stakan qaynoq suvda 10 daqiqa qaynatiladi. Kuniga 4-6 marta 1/4 stakan ichiladi. Qo'ytikan damlamasi kuydiruvchi ta'mga ega, shuning uchun uni ehtiyotkorlik



bilan ishlatish kerak. Qo‘ytikan bargini sharbati astma, tomoq spazmlarida va bivosilda kasalliklarida ishlatiladi. Skrofulyoz, teri saratoni, lishay, ekzema, husnbuzarlar, toshmalar, eshak emi va terining zamburug‘ kasalliklarida o‘simlikning damlamasi yoki yangi siqilgan sharbati tashqi vosita sifatida ishlatiladi. Xitoy xalq tabobati shamollash, qalqonsimon bez kasalliklarida, surunkali pielonefritni davolashda o‘simlik preparatlaridan foydalanadi. Qo‘ytikan yangi mevalari va urug‘lari maydalanadi va ekzema, qichish bilan kechadigan dermatoz, hasharotlar chaqishi, lishay va qichima kasalliklarida teriga surtiladi. O‘simlikning quritilgan mevalarini malhami terining zamburug‘ kasalliklarida ishlatiladi.

**An’anaviy tibbiyot retseptlari:** Qo‘ytikan tashqi tomondan, teri kasalliklari uchun: urug‘lari kukun qilib maydalanadi, vazelin bilan 1/1 nisbatda aralashtiriladi. Tananing zararlangan joylari kuniga 2-3 marta surtiladi. Hiqildoq saratoni va tomoq sil kasalligida urug‘larining bo‘g‘idan davolanish: 1/2 stakan urug‘ni bo‘sh qalay choynakka solinadi, jumragidan bo‘g‘ chiqishi bilan undan 3-5 daqiqa davomida nafas olinadi. Qo‘ytikan urug‘ining bo‘g‘idan nafas olib, 4 oy muddatgacha to‘liq shifo topguniga qadar davom ettiriladi. Diareya, dizenteriya, siydik pufagi kasalliklari, xavfli o‘smalar uchun: 1 osh qoshiq maydalangan urug‘ga 1 stakan qaynoq suv solinadi, 10 daqiqa davomida past haroratda pishiriladi, 1 soatga damlanadi, suzgichdan o‘tkaziladi. Kuniga 3 marta 1/3 stakan ichiladi. Oshqozon, o‘pka, teri saratoni uchun: 1 choy qoshiq maydalangan xom ashyoga 1 stakan qaynoq suv solinadi, yopiq idishda 30 daqiqa davomida iliq joyda turadi, suzgichdan o‘tkaziladi. Ovqatdan so‘ng kuniga 1 stakandan iliq holda 3 marta ichiladi. Chipqon, qichima dermatozlar, ekzema, qo‘tirda malham: 2 osh qoshiq o‘ti va mevalari ustiga eritilgan hayvon yog‘idan 1 stakan solinadi, doimiy aralashtirib, doimiy aralashtirib 10 daqiqa davomida past qaynatiladi, 2 soat davomida damlanib, suzgichdan o‘tkaziladi. Zararlangan joylarga kuniga 2-3 marta moy suriladi. Malham muzlatgichda saqlanadi. Ekzema, lishay, zamburug‘dan zararlanishi, dermatozlar uchun ho‘llanmalar: 3-4 osh qoshiq o‘t ustiga 0,5 litr qaynoq suv quyib, 15 daqiqa davomida qaynatiladi, 30 daqiqa davomida tindiriladi. Qaynatmada kichik doka namlanadi va 30-50 daqiqaga kuniga 1-3 marta jarohat yuzasiga qo‘llaniladi. Bod (revmatizm) kasalligida: 1 osh qoshiq o‘t ustiga 1 stakan qaynoq suv solinadi, 10 daqiqa davomida past olovda qaynatiladi yoki faqat 1 soat



davomida tindiriladi, suzgichdan o'tkaziladi. Kuniga 1 osh qoshiqdan 4-5 marta ichiladi.

**Qo'ytikan qabul qilish mumkin bo'lmagan holatlar:**

homiladorlik, individual ko'tara olmaslik, ich qotishi, oshqozon va o'n ikki barmoqli ichak yarasi. O'simlik zaharli hisoblanadi va ichga qabul qilganda ehtiyotlikni talab qiladi.

**Kiyiko't** – *Ziziphora pedicellata* Pazij et Vved.  
(Зизифора цветоножечная)



**O'simlik tavsifi:**


Kiyiko't Lamiaceae oilasiga mansub ko'p yillik o'simlik. Poyalari ko'p sonli, odatda biroz egri-bugri, ingichka, pastki qismida yog'ochlashgan, oddiy yoki tepasida tarvaqaylab shoxlangan, mayin tuklangan, ko'pincha siyoh rangda, balandligi 20-40 sm gacha, barglari (o'rta) lansetsimon yoki tor-

lansetsimon, o'tkir, asosida ponasimon, kalta bandli, butun, silliq yoki tarqoq juda mayin, gulyonbarglar (eng past) lansetsimon yoki cho'zinchoq, juda o'tkir, juda mayin tuklangan, gullardan uzun bo'lmagan. Gullari uzun (odatda yarim xalqalarning bandlari ko'rinib turadi), pastga qarab turgan, mayin tuklangan (3)-4-5 mm uzunlikdagi gulbandlarda, ko'p gulli kallak to'pgullari poya va novdalarning yuqori qismida joylashgan. Gulyonbarglari chiziqli, tik chiqqan mayin tukli, juda mayda. Kosachabarglari 5-6 mm uzunlikda, tik chiqqan mayin tukli. Gultojibarglari och siyoh rangli, naychasi uzunligi 7-8 mm, kosachabargdan sezilarli chiqib turadi, pastki labining eni 4-5 mm. Changdonlar gultojibargning yuqori labidan biroz chiqib turadi yoki chiqib turmaydi. Iyun-avgust oylarida gullaydi, iyul-sentyabr oylarida mevalaydi. Gullash paytida yig'ilgan o'simlikning yer usti massasi dorivor xom ashyo bo'lib xizmat qiladi.

**O'sish joyi va tarqalishi:** U tog'larning pastki va o'rta mintaqalarida toshli va shag'alli qiyaliklarda o'sadi va Toshkent viloyatida keng tarqalgan. Umumiy tarqalishi: O'rta Osiyo (G'arbiy Tiyon-Shon).

**Xomashyoni yig'ish va uning sifati:** Kiyiko't

odatda iyul boshida ommaviy gullash paytida yig'iladi. Xomashyo bu vaqtdan kechroq yig'ilganda, tarkibidagi efir moyi miqdori kamayadi, natijada xomashyoning sifati pasayadi. Kiyiko'tining xom ashyosini yig'ishda zich o'sish maydonlarining normal hayotiychanligini ta'minlash uchun mavjud generativ novdalarning  $\frac{2}{3}$  qismini kesib olish mumkin va o'sha zich o'sish maydonlari 3 yil davomida dam olgandan so'ng, qayta terishni amalga oshirish mumkin. Yig'ilgan o'tlari havo yaxshi aylanadigan chordoqlarda yoki ayvon ostida quritilib, qalinligi 5-7 sm bo'lgan qog'ozga yoki matoga yoyilib, vaqti-vaqti bilan aylantiriladi. Butun o'tlar sof og'irligi 5-15 kg bo'lgan, maydalangani esa – 10-30 kg og'irlikdagi qoplarga solinadi. Qadoqlashdan oldin xomashyoga qo'shimcha ishlov beriladi: ular maydalanadi va dag'al poyalardan elaklar yordamida tozalanadi. Quruq, havo yaxshi aylanadigan joylarda saqlanadi. Yaroqlilik muddati 2 yilgacha. FS 42 Uz-0334-2007 talablariga ko'ra, xom ashyoning namligi 12% dan oshmasligi kerak va undagi efir moyi absolyut quruq massasiga nisbatan 0,3% dan kam bo'lmasligi kerak. Xomashyo qisman maydalangan bargli va to'pguli poyaning yuqori qismlaridan iborat. Raqamli ko'rsatkichlar: namlik 12% dan, umumiy kul miqdori 7,9% dan, o'simlikning poya qismlari (asosiy poyasi va yon novdalari) 2% dan, teshiklari diametri 1 mm bo'lgan elakdan o'tuvchi maydalangan zarralar 33,7% dan oshmasligi kerak; organik aralashmalar (boshqa zaharli bo'lmagan o'simliklarning qismlari) 1% dan, mineral aralashmalar (tuproq, qum, toshchalar) 1% dan oshmasligi kerak. Mog'orlagan va chirigan o'simliklar, zaharli o'simliklar va ularning qismlari, shuningdek, begona doimiy hid bo'lmasligi kerak.



**Kimyoviy tarkibi:** Yer usti qismida 1,3% gacha efir moyi, organik kislotalar, C, E vitaminlari, A provitaminlari, flavonoidlar, antotsianlar, mineral tuzlar, mikroelementlar va boshqalar mavjud.

**Tibbiyotda qo'llanilishi:** Kiyiko'tining o'ti ishtahani ochish, ovqat hazm qilishni yaxshilash, gipertoniya va siydik tosh kasalliklarini davolash uchun yaxshi vositadir. Shu maqsadda u choy va qaynatma shaklida iste'mol qilinadi.

**Unabi – *Ziziphus jujuba* Mill.**  
(Зизифус настоящий)



**O'simlik tavsifi:**


Rhamnaceae oilasiga mansub balandligi 10 metrgacha bo'lgan daraxt. Yosh novdalari tuklar bilan qoplangan, qari novdalari silliq. Barglari bandli, cho'zinchoq-tuxumsimon, yuqorida biroz cho'zilgan, yonlari teng bo'lmagan, uch tomirli, chetlari kugurali-tishsimon, ustki qismida

silliq, ostki tomirlarda tuklangan, silliq; bndlari tuklangan, uzunligi 3-10 mm.

Gullari diametrida 3-4 mm. Gulbandlari 3-4 mm uzunlikda. Gulyonbargchalar pardasimon, mayda. Kosachabarglari tuxumsimon, uchki qismi o'tkirlashgan, uzunligi 2 mm. Gultojibarglari kosachabarglardan kaltaroq, asosida toraygan. Danak meva, sharsimon yoki cho'zinchoq, qizg'ish-to'q sariq rangli. Iyul-sentyabr oylarida gullaydi va mevalaydi.

**O'sish joyi va tarqalishi:** Tog'larning o'rta mintaqalarida quruq qiyaliklarda uchraydi. Toshkent va Surxondaryo viloyatlarida uchraydi. Mevali daraxt sifatida u bog'larda va tomorqalarda yetishtiriladi.

**Xom ashyoni yig'ish va uning sifati:** Barglari va mevalari tibbiy maqsadlarda ishlatiladi. Xom ashyoni yig'ish paytida



barglar yozning birinchi yarmida, mevalari pishishiga qarab yig'ib olinadi. Xom ashyoni havo aylanadigan ayvonlar ostida yoki maxsus moslashtirilgan quritgichlarda 40-50°C dan yuqori bo'lmagan haroratda quritiladi. Tayyor xom ashyoni ikki yilgacha saqlash mumkin.

**Kimyoviy tarkibi:** Mevalari askorbin kislota, oqsillar, shakar, kislotalar, sterollar, kumarinlar, flavonoidlar (kempferol, miritsetin), triterpenlar va triterpen glikozidlariga (oleanolik kislota, ursolik kislota, betulin, betulin kislotasi, unabi saponinlari: 1, 2, 3, yuyubozid B) izoxinolin alkaloidlari (stefarin, azimiloban) boy. Urug'lari tarkibida quyidagilar mavjud: yuyubozid A, yuyubozid B, aglikon yuyubozid-yuyubogenin spinozid; shakar (glyukoza, arabinoza, ramnoza, ksiloza va boshqalar). Barglarida hisni sezdirmaydigan modda bor, u chaynash paytida shirin va achchiq ta'mni idrok qilishni vaqtincha falaj qiladi va natijada shirin ta'mni sezish qobiliyati bir muncha vaqt yo'qoladi. Po'stlog'ida taninlar, rutin, saponinlar uchraydi.

**Farmakologik xususiyatlari:** Unabining foydali xususiyatlari avvalambor boy tarkibi bilan ifodalanadi. Unabi inson tanasiga keng ta'sir doirasiga ega. Avvalo, u asab tizimiga tinchlantiruvchi ta'sir ko'rsatadi, shu bilan birga uyqu chaqirmaydi. Shuningdek, bu mevalar ajoyib siydik haydovchi, o't haydovchi vosita hisoblanadi. Ayniqsa, keksa odamlar unabini ishlatsa foydali. Bu ularga keksa yoshda paydo bo'ladigan ko'plab sog'liq muammolaridan xalos bo'lishga yordam beradi. Bunga quyidagilar kiradi:

1. Yomon xolesterol miqdorini unabi oddiygina chiqarib tashlaydi. Shuningdek, qon tomirlari tozalanadi.
2. Organizmda to'plangan toksinlarni to'liq chiqib ketishiga unabi yordam beradi.
3. Kapillyarlarning zaifligi – keksa yoshdagi odamlarning yana bir muammosi. Unabining muntazam iste'mol qilinganda bu haqda butunlay unutishga yordam beradi. Unabidan qo'llanilganda tarkibidagi tabiiy antibakterial moddalar tufayli oshqozon va ichakning ko'plab kasalliklarini davolashga yordam beradi. Unabidan foydalanilganad gipertenziya kasalligini va uning har qanday murakkabligida ham to'liq davolash mumkin. Gipertenziya haqida unutish uchun bir oy davomida har kuni 20-30 ta mevasini yeyish kerak.

**Tibbiyotda qo'llanilishi:** Unabi mevalaridan damlama odam organizmini tonusini yaxshilaydigan va har qanday og'riqning lokalizatsiyasini yengishga yordam berishi maqsadida tayyorlanadi. Shuningdek, bunday damlama og'iz va tomoq yallig'lanish

kasalliklarini davolash uchun chayish vositasi sifatida ishlatiladi. Ular sistit kasalligida nafaqat spazm va sanchiqlardan xalos bo'lish, balki infeksiyani yo'q qilish uchun ham ichiladi. Damlama ovqatdan yarim soat oldin kamida ikki hafta davomida ichiladi. Unabi choyini uyqusizlik kasalliklarida va hamma uchun uyquga yotishdan oldin ichish foydali hisoblanadi. Tinchlantiruvchi choy faqat yangi mevalardan tayyorlanishi kerak. 10-15 donasi hovonchada eziladi va bir litr suv bilan quyiladi. Keyin choy 15 daqiqa davomida qaynatiladi va agar kerak bo'lsa, shakar qo'shiladi. Unabi – bu joy tanlanmaydigan o'simlik. Ekilgandan ko'p o'tmay meva bera boshlaydi. Ushbu daraxt qurg'oqchilikka chidamli, shuning uchun u kam yog'ingarchilik ro'y beradigan joylarda o'stiriladi. Unabi kuchli sovuqlarga chidamli ( $-25^{\circ}\text{C}$  harorat).

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Акопов И.Э. Важнейшие отечественные лекарственные растения и их применение. – Ташкент: Медицина, 1990. – 446 с.
2. Алимбаева П.К., Гончарова А.В. Дикорастущие лекарственные растения Киргизии. – Фрунзе: Илим, 1971. – 98 с.
3. Атлас ареалов и ресурсов лекарственных растений. – М.: ГУГК, 1983. – 340 с.
4. Биологические особенности и распространение перспективных лекарственных растений //Под редакцией Т.А.Адылова. – Ташкент: Фан, 1981. –158 с.
5. Биологически активные вещества растительного происхождения. Б.Н.Головкин, Р.Н.Руденская, И.А.Трофимова, А.И.Шретер – в 3 томах. М.: Изд-во Наука, 2001. – 764 с.
6. Ботанико-фармакогностический словарь // Под ред. Блиновой К.Ф. – М.: Высшая школа, 1990. – 272 с.
7. Гаммерман А.Ф., Кадаев Г.Н., Янценко-Хмелевич А.А. Лекарственные растения (растения-целители). – М.: Высшая школа, 1984. – 400 с.
8. Государственный реестр лекарственных средств. Официальное издание: в 2 т.- М.: Медицинский совет, 2009. – Т.2, ч.1 – 568 с.; ч.2 – 560 с.
9. Лавренов В.К., Лавренова Г.В. Энциклопедия лекарственных растений народной медицины. Санкт-Петербург: Нева, 2003. – 83 с.
10. Лесиовская Е.Е., Пастушенков Л.В. Фармакотерапия с основами фитотерапии. Учебное пособие. – М.: ГЭОТАР-МЕД, 2003. – 592 с.
11. Палов М. Энциклопедия лекарственных растений». Под ред. канд. биол. наук И.А.Губанова. – М.: Мир, 1998. – 467 с.
12. Растительные лекарственные средства Абу Али ибн Сино (Авиценны). Справочник // Под редакцией Ш.Б.Иргашева. – Ташкент: Абу Али ибн Сино, 2003. – 457 с.
13. Хайдаров Х.К., Тошпулатов Й.Ш., Жалов Х.Х., Мукимов И.У. Усимликлар систематикаси (Юксак усимликлар) //Дарслик. СамДУ. 2019. – 280 б.
14. Хожиматов К.Х., Хожиматов О.К., Собиров У.А. Сборник правил пользования объектами лекарственных, пищевых и технических растений. Ташкент: «Янги аср авлоди», 2009. – 171 с.

## DORIVOR O‘SIMLIKLAR NOMLARI

№	O‘zbek	Рус	Lotin
1	Bo‘ymodaron	Тысячелистник обыкновенный	<i>Achillea millefolium</i> L.
2	Igir	Аир обыкновенный	<i>Acorus calamus</i> L.
3	Kapalak qo‘nmas	Живучка туркестанская	<i>Ajuga turkestanica</i> (Regel) Briq.
4	Etmak, bex	Колочелистник качимовидный	<i>Allochrysa</i> <i>gypsophiloides</i> Regel
5	Gulxayri	Алтей армянский	<i>Althaea armeniaca</i> Ten.
6	Bodom	Миндаль обыкновенный	<i>Prunus</i> <i>amygdalus</i> Batsch
7	Itsigek	Ежовник безлистный	<i>Anabasis aphylla</i> L.
8	Qariqiz	Лопух войлочный	<i>Arctium tomentosum</i> Mill.
9	Ermon	Полынь горькая	<i>Artemisia absinthium</i> L.
10	Qora zirk	Барбарис цельнокрайний	<i>Berberis integerrima</i> Bunge
11	Oq qayin	Берёза повислая	<i>Betula pendula</i> Roth
12	Ittikanak	Черёда трехраздельная	<i>Bidens tripartita</i> L.
13	Kovul	Каперсы колючие	<i>Capparis spinosa</i> L.
14	Jag‘-jag‘	Пастушья сумка обыкновенная	<i>Capsella bursa-</i> <i>pastoris</i> (L.) Medik.
15	Bo‘tako‘z	Василёк синий	<i>Centaurea cyanus</i> L.
16	Sachratqi	Цикорий обыкновенный	<i>Cichorium intybus</i> L.
17	Poncho‘p	Цистанхе солончаковая	<i>Cistanche salsa</i> (C.A.Mey) Beck
18	Dug‘buy	Кодонопсис ломоносовидный	<i>Codonopsis</i> <i>clematidea</i> (Schrenk) C.B. Clarke.

19	<b>Qizil do'lana</b>	Боярышник туркестанский	<i>Crataegus turkestanica</i> Rojark.
20	<b>Oqquray</b>	Псоралея костянковая	<i>Cullen drupaceum</i> (Bunge) C.H.Stirt.
21	<b>Solab</b>	Ятрышник теневогой	<i>Dactylorhiza</i> <i>incarnata</i> subsp. <i>Cilicica</i> (Klinge) H.Sund.
22	<b>Bangidevona</b>	Дурман обыкновенный	<i>Datura stramonium</i> L.
23	<b>Isfarak</b>	Живокость полубородатая	<i>Delphinium</i> <i>semibarbatum</i> Bien. ex Boiss.
24	<b>Jiyda</b>	Лох узколистный	<i>Elaeagnus</i> <i>angustifolia</i> L.
25	<b>Zira</b>	Элвендия персидская	<i>Elwendia persica</i> (Boiss.) Pimenov & Kljuykov
26	<b>Zog'oza</b>	Эфедрa хвощевая	<i>Ephedra equisetina</i> Bunge
27	<b>Qirqbo'g'im</b>	Хвощ полевой	<i>Equisetum arvense</i> L.
28	<b>Sassiq kovrak</b>	Ферула вонючая	<i>Ferula foetida</i> (Bunge) Regel.
29	<b>Chair</b>	Ферула таджиков	<i>Ferula tadshikorum</i> Pimenov
30	<b>Shashir</b>	Ферула тонкорассеченная	<i>Ferula tenuisecta</i> Korovin
31	<b>Anjir - (injir)</b>	Смоковница обыкновенная	<i>Ficus carica</i> L.
32	<b>Isiriq</b>	Гармала обыкновенная	<i>Peganum harmala</i> L.
33	<b>G'azako't</b>	Горечавка Оливье	<i>Gentiana olivieri</i> Griseb.
34	<b>Shirinmiya</b>	Солодка голая (лакричный корень)	<i>Glycyrrhiza glabra</i> L.
35	<b>O'lmaso't</b>	Бессмертник самаркандский	<i>Helichrysum</i> <i>maracandicum</i> Popov



			ex Kirp.
36	<b>Chakanda</b>	Облепиха крушиновидная	<i>Hippophae rhamnoides</i> L.
37	<b>Dalachoy</b>	Зверобой пронзённый	<i>Hypericum perforatum</i> L.
38	<b>Qizilpoycha</b>	Зверобой шероховатый	<i>Hypericum scabrum</i> L.
39	<b>Andiz</b>	Девясил высокий	<i>Inula helenium</i> L.
40	<b>Qora andiz</b>	Девясил крупнолистный	<i>Inula grandis</i> Schrenk
41	<b>Yong'oq</b>	Орех грецкий	<i>Juglans regia</i> L.
42	<b>Qizilarcha</b>	Можжевельник зеравшанский	<i>Juniperus seravschanica</i> Kom.
43	<b>Bozulbang</b>	Зайцегуб опьяняющий	<i>Lagochilus inebrians</i> Bunge
44	<b>Arslonquloq</b>	Пустырник туркестанский	<i>Leonurus turkestanicus</i> V. I.Krecz. & Kuprian.
45	<b>Alqoro'ti</b>	Медиазия крупнолистная	<i>Mediasia macrophylla</i> (Regel et Schmalh.) Pimenov
46	<b>Yalpiz</b>	Мята длиннолистная	<i>Mentha longifolia</i> (L.) L.
47	<b>Tog'rayxon</b>	Душица мелкоцветная	<i>Origanum vulgare</i> subsp. <i>Gracile</i> (K.Koch) Ietsw.
48	<b>Suv qalampir</b>	Горец перечный	<i>Persicaria hydropiper</i> (L.) Delarbre
49	<b>Pista</b>	Фисташка настоящая	<i>Pistacia vera</i> L.
50	<b>Zupturum</b>	Подорожник большой	<i>Plantago major</i> L.
51	<b>Qushtili</b>	Горец птичий	<i>Polygonum aviculare</i> L.
52	<b>Tog'jumrut</b>	Жостер слабительный	<i>Rhamnus cathartica</i> L.

53	<b>Kakra</b>	Горчак ползучий	<i>Leuzea repens</i> (L.) D.J.N.Hind
54	<b>Rovoch</b>	Ревень Максимовича	<i>Rheum maximowiczii</i> Losinsk.
55	<b>Oltin tomir</b>	Родиола разнозубчатая (золотой корень)	<i>Rhodiola</i> <i>hetrodontha</i> (Hook. f. et Thomson) Boriss.
56	<b>Totum</b>	Сумах дубильный	<i>Rhus coriaria</i> L.
57	<b>Itburun</b>	Шиповник собачий	<i>Rosa canina</i> L.
58	<b>Na'matak</b>	Шиповник Уэбба	<i>Rosa webbiana</i> Wall. ex Royle
59	<b>Ro'yan</b>	Марена красильная	<i>Rubia tinctorum</i> L.
60	<b>Cherkez</b>	Солянка Рихтера	<i>Xylosalsola richteri</i> (Moq.) Akhani & Roalson
61	<b>Mavrak</b>	Шалфей мускатный	<i>Salvia sclarea</i> L.
62	<b>Qushqo'nmas</b>	Расторопша пятнистая	<i>Silybum marianum</i> (L.) Gaertn.
63	<b>Tog'qudusi</b>	Буквица олиственная	<i>Betonica</i> <i>betoniciflora</i> (Rupr. ex O.Fedtsch. & B.Fedtsch.) Sennikov
64	<b>Dastarbosh</b>	Пижма ложнотысячелист- никовая	<i>Lepidolopsis</i> <i>pseudoachillea</i> (C.Winkl.) Poljakov
65	<b>Momaqaymoq</b>	Одуванчик лекарственный	<i>Taraxacum officinale</i> Wigg.
66	<b>Afsonak</b>	Термопсис очередноцветковый	<i>Thermopsis</i> <i>alterniflora</i> Regel et Schmalh.
67	<b>Kakliko't</b>	Чабрец зеравшанский	<i>Thymus</i> <i>seravschanicus</i>

			Klokov
68	<b>Temirtikan</b>	Якорцы стелющиеся	<i>Tribulus terrestris</i> L.
69	<b>Oqqaldirmoq</b>	Мать-и-мачеха обыкновенная	<i>Tussilago farfara</i> L.
70	<b>Qoraqovuq</b>	Унгерния Северцова	<i>Ungernia sewertzowii</i> (Regel) B. Fedtsch.
71	<b>Omonqora</b>	Унгерния Виктора	<i>Ungernia victoris</i> Vved. ex Artjush.
72	<b>Gazandao't</b>	Крапива двудомная	<i>Urtica dioica</i> L.
73	<b>Sigirqo'yruq</b>	Коровяк джунгарский	<i>Verbascum songaricum</i> Schrenk.
74	<b>Qo'ytikan</b>	Дурнишник обыкновенный	<i>Xanthium strumarium</i> L.
75	<b>Kiyiko't</b>	Зизифора цветоножечная	<i>Ziziphora pedicellata</i> Pazij et Vved.
76	<b>Unabi (Chilonjiyda)</b>	Зизифус настоящий	<i>Ziziphus jujuba</i> Mill.

## MUNDARIJA

<b>Muqaddima</b> .....	4
<b>Bo‘ymodaron</b> - Тысячелистник обыкновенный - <i>Achillea millefolium</i> L.....	8
<b>Igir</b> - Аир обыкновенный - <i>Acorus calamus</i> L.....	10
<b>Kapalak qo‘nmas</b> - Живучка туркестанская - <i>Ajuga turkestanica</i> (Regel) Briq.....	13
<b>Etmak, bex</b> - - Колночелистник качимовидный - <i>Allochrusa gypsophiloides</i> (Regel) Schischk.....	15
<b>Gulxayri</b> - Алтей армянский - <i>Althaea armeniaca</i> Ten.....	19
<b>Bodom</b> - Миндаль обыкновенный - <i>Amygdalus communis</i> L.....	23
<b>Itsigek</b> - Ежовник безлистный - <i>Anabasis aphylla</i> L.....	26
<b>Qariqiz</b> - Лопух войлочный - <i>Arctium tomentosum</i> Mill.....	29
<b>Ermon</b> - Полынь горькая - <i>Artemisia absinthium</i> L.....	33
<b>Qora zirk</b> - Барбарис цельнокрайний - <i>Berberis integerrima</i> Bunge.....	36
<b>Oq qayin</b> - Берёза повислая - <i>Betula pendula</i> Roth.....	38
<b>Ittikanak</b> - Череда трехраздельная - <i>Bidens tripartita</i> L.....	43
<b>Kovul</b> - Каперсы колючие - <i>Capparis spinosa</i> L.....	46
<b>Jag‘-jag‘</b> - Пастушья сумка обыкновенная - <i>Capsella bursa-pastoris</i> (L.) Medik.....	48
<b>Bo‘tako‘z</b> - Василёк синий - <i>Centaurea cyanus</i> L.....	50
<b>Sachratqi</b> - Цикорий обыкновенный - <i>Cichorium intybus</i> L.....	53
<b>Poncho‘p</b> - Цистанхе солончаковая - <i>Cistanche salsa</i> (C.A.Mey) Beck.....	57
<b>Dug‘buy</b> - Кодонопсис ломоносовидный - <i>Codonopsis clematidea</i> (Schrenk) C.B. Clarke.....	61
<b>Qizil do‘lana</b> - Боярышник туркестанский - <i>Crataegus turkestanica</i> Rojark.....	63
<b>Oqquray</b> - Псоралея костянковая - <i>Cullen drupaceum</i> (Bunge) C.H.Stirt.....	64
<b>Solab</b> - Ятрышник теневой - <i>Dactylorhiza umbrosa</i> (Kar. & Kir.) Nevski.....	66
<b>Bangidevona</b> - Дурман обыкновенный - <i>Datura stramonium</i> L.....	69
<b>Isfarak</b> - Живокость полубородатая - <i>Delphinium semibarbatum</i> Bien. ex Boiss.....	71
<b>Jiyda</b> - Лох узколистый - <i>Elaeagnus angustifolia</i> L.....	73
<b>Zira</b> - Элвендия персидская - <i>Elwendia persica</i> (Boiss.) Pimenov &	

Kljuykov.....	76
<b>Zog'oz</b> - Эфедра хвощевая - <i>Ephedra equisetina</i> Bunge.....	79
<b>Qirqbo'g'im</b> - Хвощ полевой - <i>Equisetum arvense</i> L.....	82
<b>Sassi</b> kovrak - Ферула вонючая - <i>Ferula foetida</i> (Bunge) Regel..	84
<b>Chair</b> - Ферула таджиков - <i>Ferula tadshikorum</i> Pimenov.....	86
<b>Shashir</b> - Ферула тонкорассеченная - <i>Ferula tenuisecta</i> Korovin..	90
<b>Anjir</b> - (инжир) Смоковница обыкновенная - <i>Ficus carica</i> L.....	93
<b>Isiriq</b> - Гармала обыкновенная - <i>Peganum harmala</i> L.....	96
<b>G'azako't</b> - Горечавка Оливье - <i>Gentiana olivieri</i> Griseb.....	101
<b>Shirinmiya</b> - Солодка голая (лакричный корень) - <i>Glycyrrhiza glabra</i> L.....	103
<b>O'lmaso't</b> - Бессмертник самаркандский - <i>Helichrysum maracandicum</i> Попов ex Kirp.....	106
<b>Chakanda</b> - Облепиха крушиновидная - <i>Hippophae rhamnoides</i> L.....	109
<b>Dalachoy</b> - Зверобой пронзённый - <i>Hypericum perforatum</i> L.....	110
<b>Qizilpoycha</b> - Зверобой шероховатый - <i>Hypericum scabrum</i> L....	114
<b>Andiz</b> - Девясил высокий - <i>Inula helenium</i> L.....	116
<b>Qora andiz</b> - Девясил крупнолистный - <i>Inula macrophylla</i> Kar. & Kir.....	118
<b>Yong'oq</b> - Орех грецкий - <i>Juglans regia</i> L.....	120
<b>Qizilarcha</b> - Можжевельник зеравшанский - <i>Juniperus polycarpos</i> var. <i>seravschanica</i> (Kom.) Kitam.....	124
<b>Bozulbang</b> - Зайцегуб опьяняющий - <i>Lagochilus inebrians</i> Bunge.....	127
<b>Arslonquloq</b> - Пустырник туркестанский - <i>Leonurus turkestanicus</i> V. I.Krecz. & Kurpian.....	130
<b>Alqoro'ti</b> – Медиазия крупнолистная - <i>Mediasia macrophylla</i> (Regel et Schmalh.) Pimenov.....	132
<b>Yalpiz</b> - Мята длиннолистная - <i>Mentha longifolia</i> (L.) Huds. var. <i>asiatica</i> (Boriss.) Rech.f.....	134
<b>Tog'rayxon</b> - Душица мелкоцветная - <i>Origanum tytthanum</i> Gontsch.....	135
<b>Suv qalampir</b> - Горец перечный - <i>Persicaria hydropiper</i> (L.) Delarbre.....	137
<b>Pista</b> - Фисташка настоящая - <i>Pistacia vera</i> L.....	140
<b>Zupturum</b> - Подорожник большой - <i>Plantago major</i> L.....	143
<b>Qushtili</b> - Горец птичий - <i>Polygonum aviculare</i> L.....	148
<b>Tog'jumrut</b> - Жостер слабительный - <i>Rhamnus cathartica</i> L.....	150

<b>Kakra</b> - Горчак ползучий - <i>Rhaponticum repens</i> (L.) Hidalgo.....	154
<b>Rovoch</b> - Ревень Максимовича - <i>Rheum maximowiczii</i> Losinsk...	156
<b>Oltin tomir</b> - Родиола разнозубчатая (золотой корень) - <i>Rhodiola hetrodontha</i> (Hook. f. et Thomson) Boriss.....	160
<b>Totum</b> - Сумах дубильный - <i>Rhus coriaria</i> L.....	162
<b>Itburun</b> - Шиповник собачий - <i>Rosa canina</i> L.....	164
<b>Na'matak</b> - Шиповник Федченко - <i>Rosa fedtschenkoana</i> Regel...	166
<b>Ro'yan</b> - Марена красильная - <i>Rubia tinctorum</i> L.....	169
<b>Cherkez</b> - Солянка Рихтера - <i>Salsola richteri</i> (Моq.) Kar. ex Litv.....	173
<b>Mavrak</b> - Шалфей мускатный - <i>Salvia sclarea</i> L.....	176
<b>Qushqo'nmas</b> - Расторопша пятнистая - <i>Silybum marianum</i> (L.) Gaertn.....	179
<b>Tog'qudusi</b> - Буквица олиственная - <i>Stachys betoniciflora</i> Rupr.	183
<b>Dastarbosh</b> - Пижма ложнотысячелистниковая - <i>Tanacetum pseudachillea</i> C. Winkl.....	186
<b>Момаqaymoq</b> - Одуванчик лекарственный - <i>Taraxacum officinale</i> . Wigg.....	187
<b>Afsonak</b> - Термопис очередноцветковый - <i>Thermopsis alterniflora</i> Regel et Schmalh.....	190
<b>Kakliko't</b> - Чабрец зеравшанский - <i>Thymus seravschanicus</i> Klokov.....	192
<b>Temirtikan</b> - Якорцы стелющиеся - <i>Tribulus terrestris</i> L.....	194
<b>Oqqaldirmoq</b> - Мать-и-мачеха обыкновенная - <i>Tussilago farfara</i> L.....	197
<b>Qoraqovuq</b> - Унгерния Северцова - <i>Ungernia sewertzowii</i> (Regel) V. Fedtsch.....	199
<b>Omonqora</b> - Унгерния Виктора - <i>Ungernia victoris</i> Vved. ex Artjush.....	200
<b>Gazandao't</b> - Крапива двудомная - <i>Urtica dioica</i> L.....	202
<b>Sigirqo'yruq</b> - Коровяк джунгарский - <i>Verbascum songaricum</i> Schrenk.....	205
<b>Qo'ytikan</b> - Дурнишник обыкновенный - <i>Xanthium strumarium</i> L.....	207
<b>Kiyiko't</b> - Зизифора цветоножечная - <i>Ziziphora pedicellata</i> Pazij et Vved.....	219
<b>Unabi (Chilonjiyda)</b> -Зизифус настоящий- <i>Ziziphus jujuba</i> Mill...	211
<b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR</b> .....	214
<b>DORIVOR O'SIMLIKLAR NOMLARI</b> .....	215

**O.K. Xojimatov, X.Q. Haydarov, D.T. Xamraeva,  
D.A. Imomova, A.N.Xujanov**

**O‘ZBEKISTON DORIVOR O‘SIMLIKLAR ATLASI**  
*o‘quv qo‘llanma*

Muharrir  
Musahhih  
Texnik muharrir

O.Sharapova  
N. Isroilov  
O.Shukurov

**ISBN 978-9943-7267-8-9**

2021-yil 19 noyabrda tahririy-nashriyot bo‘limiga qabul qilindi.  
2021-yil 25 noyabrda original-maketdan bosishga ruxsat etildi.  
Qog‘oz bichimi 60x84.1/16. “Times New Roman” garniturası.  
Offset qog‘ozı. Shartlı bosma tabog‘ı – 14,0.  
Adadı 50 nusxa. Buyurtma № 553

---

SamDU tahririy-nashriyot bo‘limida chop etildi.  
140104, Samarqand sh., Universitet xiyoboni, 15.



